



**O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
XABARLARI**

**ВЕСТНИК
Государственного института
искусств и культуры Узбекистана**

**BULLETIN
of the Uzbekistan State
Institute of Arts and Culture**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarлари

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

BOSH MUHARRIR –

SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich –
Tarix fanlari nomzodi, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI –

YAKUBOV Baxtiyor Choriyevich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI

ISMOILOV Abdurahim Isroilovich –
O'zbekiston san'at arbobi, professor

MAVRULOV Abduxalil Abdulkayevich –
Tarix fanlari doktori, professor

TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor

QODIROVA Sarvinov Muhsinovna –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor

ALIMASOV Viktor Aleksandrovich –
Falsafa fanlari doktori, dotsent

TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna –
Falsafa fanlari doktori, professor

ABDULLAYEVA Munavvara –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

MAXMUDOVA Xamida Axyulovna –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

RIZAYEV Amanulla Zufarovich –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

XALIKULOVA Go'zal Erkinovna –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

RASHIDOV Temur Maxmudovich –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich –
O'zbekiston xalq hofizi, professor

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISMOILOV Hamdam –
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MAXMUDOV Mirali Xaydarovich –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISOQOV Ziyodulla Safaraliyevich –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

NASIMOV Hilol To'liqinovich –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent

XUDOYEV G'ani Muhammadovich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

JAMOATCHILIK KENGASHI

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

XASANOV Otabek Abdurashidovich –
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori,
siyosiy fanlari doktori (DSc)

Sirojiddin SAYYID –
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O'zbekiston xalq shoiri

RIZAYEV Shuhratilla Tursunovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Kinematografiya agentligi direktori,
filologiya fanlari nomzodi, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

ABDULLAYEV Rustam Abdullayevich –
O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi

SAGDIYEV Yodgor Xabibovich –
O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

MUSTAFAYEVA Nodira Abdullayevna –
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi boshlig'i

MAMATMUSAYEV Toxir Shaydulovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha bosh inspektori,
arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

KASIMOV Nodir Ulug'ovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy tarbiyaviy ishlar
boshqarmasi boshlig'i

AKILOVA Kamola Boltaboyevna –
O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi direktori, O'ZBA
akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

ISMOILOVA Jannat Xamidovna –
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori,
tarix fanlari doktori, professor

TESHABOYEVA Umida Alimdjanovna –
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining
2017-yil 29-noyabrda 245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun
muallif mas'uldir*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan

Вестник Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Научно-теоретический, практико-методический,
духовно-просветительский журнал

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

САЙФУЛЛАЕВ Нодирбек Бахтиёрвич –
кандидат исторических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

ЯКУБОВ Бахтиёр Чориевич –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ИСМОИЛОВ Абдурахим Исроилович –
заслуженный деятель искусств Узбекистана, профессор

МАВРУЛОВ Абдухалил Абдулхаевич –
доктор исторических наук, профессор

ТУЛЯХОДЖАЕВА Мухаббат Туробовна –
доктор искусствоведческих наук, профессор

КАДЫРОВА Сарвиноз Мухсиновна –
доктор искусствоведческих наук, профессор

АЛИМАСОВ Виктор Александрович –
доктор философских наук, доцент

ТУЙЧИЕВА Сайёра Суяровна –
доктор философских наук, профессор

АБДУЛЛАЕВА Мунаввара –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор

МАХМУДОВА Хамида Ахюловна –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор

РИЗАЕВ Аманулла Зуфарович –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

ХАЛИКУЛОВА Гузал Эркиновна –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

РАШИДОВ Темур Махмудович –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

САФАРОВ Оролмирзо Абдуманнонович –
народный хофиз Узбекистана, профессор

КОШЕЛЕВА Антонина Фёдоровна –
кандидат педагогических наук, доцент

ИСМОИЛОВ Хамдам –
кандидат филологических наук, доцент

МАХМУДОВ Мирали Хайдарович –
кандидат педагогических наук, доцент

ИСОКОВ Зиёдулла Сафаралиевич –
кандидат исторических наук, доцент

НАСИМОВ Хилол Тулкинович –
заслуженный работник культуры Узбекистана, доцент

ХУДОЕВ Гани Мухаммадович –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам,
доцент

ОБЩЕСТВЕННАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

НАЗАРБЕКОВ Озодбек Ахмадович –
министр культуры Республики Узбекистан,
народный артист Узбекистана

ХАСАНОВ Отабек Абдурашидович –
директор республиканского центра культуры и
просвещения, доктор политических наук (DSc)

Сирождидин САЙИД –
председатель Союза писателей Узбекистана,
народный поэт Узбекистана

РИЗАЕВ Шухратилла Турсунович –
директор агентства кинематографии при
Министерстве культуры Республики Узбекистан,
кандидат филологических наук, профессор,
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана

АБДУЛЛАЕВ Рустам Абдуллаевич –
председатель Союза композиторов Узбекистана,
заслуженный деятель искусства Республики Узбекистан

САГДИЕВ Ёдгор Хабибович –
директор Узбекского Национального академического
драматического театра,
народный артист Республики Узбекистан

МУСТАФАЕВА Нодира Абдуллаевна –
заведующий отделом общественно гуманитарных наук
Академии наук Республики Узбекистан

МАМАТМУСАЕВ Тохир Шайдулович –
главный инспектор по общественно-гуманитарным
наукам высшей аттестационной комиссии при
Министерстве Высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан,
доктор архитектурных наук (DSc), профессор

КАСИМОВ Нодир Улугович –
начальник Управления молодёжной политики и духовно
воспитательных дел министерства Высшего образова-
ния, науки и инноваций Республики Узбекистан

АКИЛОВА Камола Болтабоевна –
директор галереи изобразительного искусства
Узбекистана, академик ХАУз,
доктор искусствоведческих наук (DSc), профессор,
заслуженный работник культуры Узбекистана

ИСМОИЛОВА Жаннат Хамидова –
директор государственного музея истории Узбекистана,
доктор исторических наук, профессор

ТЕШАБОВЕВА Умида Алимджановна –
директор Национальной библиотеки Узбекистана имени
Алишера Навои Агентства информации и публичных
коммуникаций при Администрации Президента
Республики Узбекистан,
Доктор философии (PhD) по истории

Журнал введён в список научных изданий, рекомендуемых к публикации основных научных
результатов диссертаций по наукам Искусствоведения решением № 245/6 от
29 ноября 2017 года Советом Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан

Автор ответственен за верность сведений,
приводимых в статье

Введен в список №0862 от 14 декабря 2015 года
Агентством печати и информации Узбекистана

Bulletin of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

A scientific-theoretical, practical-methodological,
and spiritual-educational journal

EDITOR-IN-CHIEF

SAYFULLAEV Nodirbek Bakhtiyorovich –
Candidate of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

YAKUBOV Bakhtiyor Chorievich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies,
Associate Professor

EDITORIAL BOARD

ISMOILOV Abdurahim Isroilovich –
Honored Art Worker of Uzbekistan, Professor

MAVRULOV Abdukhalil Abdukhaevich –
Doctor of Historical Sciences, Professor

TULYAKHODJAEVA Muhabbat Turobovna –
Doctor of Art Studies, Professor

KODIROVA Sarvinoz Muhsinovna –
Doctor of Art Studies, Professor

ALIMASOV Viktor Aleksandrovich –
Doctor of Philosophical Sciences, Associate Professor

TUYCHIYEVA Sayyora Suyarkulovna –
Doctor of Philosophical Sciences, Professor

ABDULLAEVA Munavvara –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

MAKHMUDOVA Khamida Akyulovna –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

RIZAEV Amanulla Zufarovich –
Candidate of Art Studies, Professor

KHALIKULOVA Guzal Erkinovna –
Candidate of Art Studies, Professor

RASHIDOV Temur Makhmudovich –
Candidate of Art Studies, Professor

SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich –
People's Singer of Uzbekistan, Professor

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISMOILOV Hamdam –
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

MAKHMUDOV Mirali Khaydarovich –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISOKOV Ziyodulla Safaralievich –
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

NASIMOV Hilol Tulkinovich –
Honored Cultural Worker of Uzbekistan, Associate Professor

KHUDOEV Ghani Muhammadovich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies,
Associate Professor

PUBLIC COUNCIL

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

KHASANOV Otabek Abdurashidovich –
Director of the Republican Center for Spirituality and
Enlightenment, Doctor of Political Sciences (DSc)

Sirojiddin SAYYID –
Chairman of the Writers' Union of Uzbekistan, People's
Poet of Uzbekistan

RIZAEV Shuhratilla Tursunovich –
Director of the Cinematography Agency under the
Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Philological Sciences, Professor, Honored
Youth Mentor of Uzbekistan

ABDULLAEV Rustam Abdullaevich –
Chairman of the Composers' Union of Uzbekistan,
Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan

SAGDIEV Yodgor Khabibovich –
Director of the Uzbek National Academic Drama Theater,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

MUSTAFAEVA Nodira Abdullaevna –
Head of the Department of Social and Humanitarian
Sciences of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

MAMATMUSAEV Tokhir Shaydulovich –
Chief Inspector for Social and Humanitarian Sciences
of the Higher Attestation Commission under the Ministry
of Higher Education, Science and Innovation of the
Republic of Uzbekistan, Doctor of Architectural Sciences
(DSc), Professor

KASIMOV Nodir Ulughovich –
Head of the Department of Youth Policy and Spiritual and
Educational Affairs of the Ministry of Higher Education,
Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

AKILOVA Kamola Boltaboevna –
Director of the Uzbekistan Fine Arts Gallery, Academician
of the Uzbekistan Academy of Arts, Doctor of Art Studies
(DSc), Professor, Honored Cultural Worker of Uzbekistan

ISMOILOVA Jannat Khamidovna –
Director of the State Museum of History of Uzbekistan,
Doctor of Historical Sciences, Professor

TESHABOEVA Umida Alimdjanovna –
Director of the Alisher Navoi National Library of
Uzbekistan under the Agency of Information and
Mass Communications under the Administration of the
President of the Republic of Uzbekistan,
Doktor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

The journal is included in the list of scientific publications
recommended for publishing the main scientific results of
dissertations in the field of Art Studies by Decision No. 245/6 of
November 29, 2017, of the Presidium of the Higher Attestation
Commission of the Republic of Uzbekistan

*The author is responsible for the accuracy of the
information provided in the article*

Registered by the Uzbekistan Press and Information Agency
on December 14, 2015, with registration number 0862

MUNDARIJA

I. TEATR VA KINO

1. S.QODIROVA – O‘z tarixiga ega sahna asari.....	6
2. B.YAKUBOV – Zamonaviy o‘zbek tarixiy filmlarida xalqlar do‘stligi mavzusi.....	10
3. O.ОСТАНИНА – Актуальность и востребованность искусства пантомимы в современном театре кукол.....	14
4. F.FAYZIYEVA. Televizion aktyorning obraz yaratishidagi izlanishlar.....	18
5. O.KOPADZE – The Soft power impact of Turkish television series on Uzbek society.....	21

II. MUSIQA SAN’ATI

1. M.ERMATOV – Farg‘ona-Toshkent mumtoz musiqiy janrlari: “Katta ashula” janri kesimida.....	24
2. U.ABDULLAEVA, A.РАЗАТДИНОВА – Анализ музыкального произведения «Куттим келмедин» композитора У.Абдуллаевой.....	28
3. G‘.XUDOYEV – Buxoro musiqa madaniyatida mavrigi san’ati.....	32
4. N.TURG‘UNOVA – Benazir san’atshunos olimalar.....	40
5. A.YUSUPOV – Yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg‘usini targ‘ib qilishda baxshichilik san’atining o‘rni va ahamiyati.....	44

III. SAN’AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. Я.ПАШАЕВА – О Марселе Марсо, его бакинских гастрольях и искусстве пантомими.....	48
2. I.ABDURAHMONOV – Mirali Mahmudovning ranglar olami.....	51
3. E.КАРИ-ЯКУБОВА – Сценический костюм в творчестве Мукаррам Тургунбаевой.....	57
4. M.KARIMOVA – Yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirishda folklor san’atining o‘rni.....	61
5. B.ABDURAHIMOV – Sharq va G‘arb olimlarining milliy identiklik borasidagi qarashlari.....	65

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. M.AXMETJANOVA – San’at ta’limi: talabalarda rejissyorlik mahoratini shakllantirish masalalari.....	68
2. O.DAVLATOV – Avlodlar almashinuvi va ularga zamonaviy yondashuv masalalari.....	73
3. S.MAHMUDOVA, S.TASHALIYEVA – “Usuli jadid” va “Usuli qadim” o‘rtasidagi kurash va uning milliy metodikaga ta’siri.....	77
4. D.TUYG‘UNOV – Aktyor badiiy nutqini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammolari.....	81
5. A.ABDUMANNATOVA – Madaniy tadbirlar orqali talabalarining tolerantligini rivojlantirish metodikasi.....	85

V. MADANIYATSHUNOSLIK

1. Q.NISHONBOYEVA – Madaniyatshunoslik fanini o‘qitishda madaniyat etikasi va xalq pedagogikasining o‘rni.....	90
2. N.ABDUNAZAROVA – Globallashuv jarayonlarining yoshlar madaniyatiga ta’siri.....	95
3. D.QURBONOVA – Gender madaniyatini shakllantirishda xalqaro tajribalarning ijobiy jihatlari.....	99
4. D.XAMIDOV, A.UMAROV – Milliy madaniyat va o‘zaro ijtimoiy aloqalar: madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari.....	103
5. P.XOLMAXMATOV. O‘zbek muhojirligining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari.....	108

VI. KUTUBXONASHUNOSLIK

1. O‘.NOSIROV. Innovatsion muhit – axborot-kutubxona muassasalarida yangiliklarni yaratish asosi sifatida.....	111
2. S.DAVLATOV. Kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish.....	116
3. T.БАЙТУРАЕВ – Современное состояние библиографирования изданий по развитию культуры и искусства Узбекистана.....	120
4. M.XAKIMOVA – Raqobat va hamkorlik: internet va kutubxonalar.....	124
5. F.UMARALIYEVA – Raqamli ta’lim muhitining o‘quv-uslubiy ta’minotini tashkil etishda obuna bo‘lish uchun ma’lumotlar bazalarini tanlash mezonlari.....	128

Sarvinoz QODIROVA,

O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
professori, san'atshunoslik fanlari doktori

O'Z TARIXIGA EGA SAHNA ASARI

Annotatsiya. Ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yaratilgan "Toshkentga sayohat" asarida ilm-ma'rifatning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, o'qimishli insonning ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ustunligi alohida ta'kidlanadi. O'zbek teatri tarixida mazkur asarning sahnaviy talqini rejissyor O. Salimov nomi bilan bog'liq. U spektaklni an'anaviy yo'sindan farqli ravishda, yangicha rejissyorlik yechimi bilan namoyon etdi. Shu sababli, "Toshkentga sayohat"ning sahna ko'rinishi nafaqat tomoshabinlar orasida katta qiziqish uyg'otdi, balki adabiy-badiiy va san'atshunoslik muhitida ham ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bu spektakl zamonaviy rejissyorlik izlanishlarining xalq tomosha san'ati unsurlari bilan omuxtalashganligini yorqin ifoda etgan namuna sifatida teatr tarixida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Kalit so'zlar: teatr, an'ana, novatorlik, improvizatsiya, shartlilik, aktyor, maydon tomoshasi, masxaraboz.

Аннотация. Произведение «Путешествие в Ташкент», созданное на основе идей просвещения, подчёркивает значение науки и образования в развитии общества, а также духовное и социальное превосходство образованного человека. В истории узбекского театра сценическая интерпретация этого произведения неразрывно связана с именем режиссёра О. Салимова. Его постановка отличалась отходом от традиционных канонов и воплощением новых режиссёрских решений. Именно поэтому сценическая версия «Путешествия в Ташкент» вызвала не только большой интерес у зрителей, но и активные дискуссии в литературно-художественной и театроведческой среде. Этот спектакль занял особое место в истории национального театра как яркий пример современных режиссёрских поисков, синтезированных с элементами народного зрелищного искусства.

Ключевые слова: театр, традиция, новаторство, импровизация, условность, актер, площадное представление, масхарабоз.

Abstract. The play *Journey to Tashkent*, created in the spirit of Enlightenment ideals, emphasizes the importance of science and education in the development of society and highlights the spiritual and social superiority of an educated individual. In the history of Uzbek theater, the stage adaptation of this work is closely associated with director O. Salimov. His production broke away from traditional conventions and introduced innovative directorial solutions. As a result, the stage version of *Journey to Tashkent* not only sparked great interest among audiences but also provoked active discussions in literary, artistic, and theater studies circles. This performance has earned a distinctive place in the history of national theater as a vivid example of contemporary directorial exploration fused with elements of folk spectacle.

Keywords: theater, tradition, innovation, improvisation, convention, actor, area performance, buffoon.

Rejissyor O.Salimov o'zining "Temir xotin" spektakli muvaffaqiyati bilan qanoatlanib qolmadi, tomosha yo'nalishida izlanishda davom etdi. B.Yo'ldoshevning "Maysaraning ishi" komediyasi talqinidan ilhomlanib, Farg'ona teatrida Hamzaning "Toshkentga sayohat" (1991) komediyasini sahnalashtirar ekan, O.Salimov an'anaviy teatr uslubi va vositalarini keng ishga solib, chinakam zamonaviy tomosha yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Eng avvalo "Toshkentga sayohat" ikki pardali kulkisining muallifi haqida bir og'iz so'z. Tadqiqotchilar shu kunga qadar bu komediyaning muallifi kim, qachon va qayerda yozilgani haqida yakdil fikrga ega emas. Adabiyotshunos olim L.Qayumov o'zining "Inqilobiy drama" kitobida shunday yozadi: *"Shoir 1917-yil boshlarida Toshkentda qochoq bo'lib yurganda, mehmonxonalarga ko'p ishi tushgan bo'lsa kerakki, uning hayotini yaxshi biladi. Shu davrda yozgan komediyalaridan birining voqeasi mehmonxonada bo'lib o'tadi"* [1,71-b]. Bundan asar 1917-yilda yozilgan, degan xulosa kelib chiqadi. Rejissyor M.Muhamedov esa mana bunday degan edi: *"Hamza "Qozonga sayohat" pyesasini mualliflik tarjima qilib, uning nomini "Toshkentga sayohat" deb atadi va pyesani o'zbek turmush tarziga yaqinlashtirgan holda qayta ishladi. Kiyim-kechaklar, maishiy jihozlar, ishtirok etuvchi qahramonlarning ismlari Hamza tomonidan o'zbekchalashtirildi. "Toshkentga sayohat" nomi bilan Hamza mustaqil pyesa yozmagan. Bu tarjimani Hamza tomonidan yozilgan pyesa deb xato qiladilar"* [2].

S.Ahmedov Hamzaning to'la asarlar to'plami chiqishi munosabati bilan yozilgan "Asri taraqqiy darg'asi" nomli maqolasida ("San'at", 1990-yil, 1-son) mazkur asar haqida mana bunday fikrni bildiradi: *"To'plamga kirgan yana bir asar "Toshkentga sayohat" deb ataladi. Ushbu asarning nomi "Qozonga sayohat" bo'lib, u rus dramaturgi I.Kazakovning qalamiga mansubligi teatr tarixi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga ayondir"* [3,2-b]. S.Ahmedov bu fikrga San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida saqlanayotgan (inv. nomeri T/p/, M-92, №104) "Toshkentga sayohat" komediyasi nusxasiga tayangan holda aytgan ko'rinadi.

Darhaqiqat, M.Muhamedov arxividan topilgan ushbu komediya matni uchta daftarga (34 betga) ko'chirilgan bo'lib, daftarning yuqori qismiga I.Kazakov deb yozilgan. Biroq ichki qismida "Toshkentga sayohat" (2 pardalik kulki) tatarchadan o'zbekchalashtiruvchi O'g'iz. "Taraqqiy darnagi" to'dasining repertuaridan



O'zbek davlat truppasiga o'tgan. 1921-da. Ko'chirildi 1961-yil dekabrda" degan yozuvlar bor. Bizning nazarimizda, "Toshkentga sayohat" komediyasi I.Kazakovniki emas, balki nomi aniqlanmagan tatar muallifining komediyasidir. I.Kazakov esa bizningcha, bu asarni ko'chirgan odamlardan biri bo'lsakerak. Zero, asar 1961-yilda qayta ko'chirilgan, degan yozuv mavjud. Aynan mana shu qayta ko'chirish I.Kazakovga tegishli deb o'ylaymiz. Yaqinda San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti tomonidan tayyorlangan va rejissyor Olimjon Salimovga bag'ishlangan kitobda Naim Karimovning bu asar haqidagi fikrlariga ko'zim tushdi. Unda muallif "Sayyor" tatar teatr guruhi tomonidan bu asar "Qozonga sayohat" nomi bilan o'ynalganini va asarni I.Kazakov tarjima qilganini ta'kidlaydi. Biroq shu bilan birga tatar teatr tarixiga oid manbalarda bu asar haqida ma'lumotlar uchramasligi ham aytib o'tilgan. Muallif balki bu asar ozarbayjon tilidan tarjima qilingan bo'lishi mumkin, degan taxminni ham aytadi. *"... biz shu paytga qadar Hamzaniki deb kelgan komediya o'zbek dramaturgi ijodiga mutlaqo aloqasiz bo'lmaganidek, "Toshkentga sayohat" deb ham atalmaydi. Bu nomni, - deb yozadi N.Karimov, - Sharqshunoslik institutining Hamza jamg'armasini tavsif etgan ilmiy xodimlar shartli ravishda qo'yganlar, xolos. "Toshkentga sayohat"ning birinchi siri xuddi shundadir"* [4,224-b].

Xullas, "Toshkentga sayohat" komediyasi Hamzaning original asari emas, balki tatarchadan erkin mualliflashtirib qilingan tarjimadir. Nazarimizda, Hamza o'zi tashkil etgan teatrning repertuarini boyitish, uni yangi asarlar bilan ta'minlash maqsadida mazkur asarga murojaat qilgan. Biroq mahalliy aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, uni o'zbekchalashtirishga, ya'ni

o'zbek turmush tarziga moslashtirishga majbur bo'lgan. Komediyaning Hamza qalamiga mansub deb aytilishiga uning tili, personajlar nutqining qochirimlarga boyligi, qay tarzda qahramonlar qiyofasini yaratish mahorati ham sabab bo'lgan bo'lsa kerak. Zero, Hamza pyesani o'zlashtirgan holda erkin tarjima qilgani sababli, o'zidan so'z va iboralar, o'zbeklarga xos qochirimlar, so'z o'yinlarini qo'shgan tabiiy hol. Hamzaning juda ko'p asarlari kabi mazkur komediya ham suflyor qo'lidami yoki ko'chirilmay qolgan bo'lishi, ehtimoldan holi emas. Yillar o'tgach, Hamza merosini o'rganuvchi olimlar tomonidan topilgan ushbu komediya Hamzaga tegishli deb aytilgan bo'lishi mumkin. Ikki asar nusxasini solishtirganda shu narsa ayon bo'ladiki, bu bir muallifning asari. Faqat O'g'iz tarjima qilgan nusxa to'la holda saqlangan. Asar yakunida boy iltimoschilardan bezor bo'lib, Toshkentga ham qo'l siltab mehmonxonadan qochib chiqib ketadi. Ibrohim esa g'alaba nashidasini suradi.

Vaqlar, ijtimoiy tuzumlar o'zgarib asar Olimjon Salimov qo'lga kelib tushdi. Rejissyor "Toshkentga sayohat" spektaklining janrini "masxarabozlar tomoshasi" deb belgiladi. Albatta, sahnaga qo'yishda Hamza tarjima qilgan komediya variantidan foydalangan ko'rinadi. Asar qahramoni Asomboy qishloqdan Toshkentga kelib, mehmonxonaga tushadi. Mehmonxonaga kelishining o'zi bir sarguzasht bo'ladi. Lekin mehmonxonada u Ibrohim ismli shaharlik yigit bilan xona talashib qoladi. Sababi, aynan mana shu xonaning derazasi Ibrohimning ma'shuqasi Fotimaning derazasi bilan qarama-qarshi ekan. Yigitcha derazaga qarab qiz bilan uchrashuv tayinlarkan. Asomboy esa buni beliga tepdi. Boy bu haqda eshitishni ham istamaydi va yuqoridagi bo'sh xonaga chiqadigan ahmoq yo'qligini ta'kidlaydi. Yoshroq ekansan, o'zing chiqib turaverda, deb Ibrohimga uqtiradi. Lekin Ibrohim bo'sh keladigan yigitlardan emas. Payt poylab, boyning ta'zirini beradi. Boy bu xonada bir daqiqa ham orom ololmaydi, tashrif buyurganlar uning miyasini qotiradi. Sababi, Ibrohim boyning nomidan gazetaga e'lon berib, turli takliflar bilan mehmonxonaning 18-xonasiga murojaat etishlarini so'ragan. Birin-ketin pudratchi, sayohatchi, musiqachi, sovchi xotin, it oluvchi, oshpaz, dallol kirib kelishadi. Odamlarning tashrifidan charchagan boy qochadi.

Ushbu spektakl rejissyor avval yaratgan "Temir xotin" komediyasidan tubdan farq qiladi. Sababi, "Temir xotin"dagi voqealar real hayotdan olib yozilgan. Spektakl esa realistik uslubda sahnalashtirilgan va ijro etilgan edi. Bu spektaklda



esa tomoshaviylik, ijroda improvizatsiya, shartlilik, erkin o'yin hukmron. Tomoshabin ko'z o'ngida boyning ayanchli holati namoyon bo'ladi. Bu holat rejissyor tomonidan topilgan komik sahnalarda, aktyorlar ijrosida, kiyim-kechakda, dekoratsiyalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek tomoshabini o'rganib qolgan odatiy teatr unsurlari bu spektaklda yo'q. Bu asar ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib, unda ilm ziyo ekanligi, o'qimishli odam o'qimagan odamdan har jihatdan ustun ekanligi g'oyasi yotadi. Boy bo'lishiga qaramay, Asomboy omi bo'lganligi tufayli, shahar ucharlari qo'lida ahmoq bo'lib qoladi. Bu g'oya mustaqillik yillarida zamonaviy jarangladi.

Dekoratsiyadan tortib ijrochilarning tashqi ko'rinishigacha tomoshabinni kuldirishga xizmat qiladi. Masxarabozlar spektaklda katta o'rinni egallaydi. Ular har xil qiyofalarda sahnaga chiqib tomosha ko'rsatishadi. Sahnada bir daqiqa bo'sh turmaydi.

Spektaklda asosiy qahramonlardan biri Asomboy obrazini Farg'ona teatri sahnasida M.Yusupov gavdalantirgan. Aktyor "Temir xotin" spektaklida Qo'chqor obrazi tajribasiga suyangan holda yana bir antiqa sahnaviy obraz yaratdi. Ammo Asomboy – bu sodda, ko'nglida kiri yo'q Qo'chqor emas, balki yoshi o'tinqiragan, o'ziga yarasha takabbur va quv, biroq shaharlik shum yigitlarning uydirmalariga laqqa ishonadigan hovliqma va sodda qishloqi boydir. Qo'chqordan farqli o'laroq, Asomboy qiyofasida bo'rttirma kuchli. Ilk bor aktyorni sahnada ko'rganingizda, uning sun'iy qorni, do'mbillab beo'xshov yurishi, yugurishlari, u yoq-bu yoqqa o'girilish uchun butun tanasini ishga solishi an'anaviy teatrdagi aktyor qiyofasini esga soladi. Zero, rejissyor ijroda, umuman spektaklning ruhiyatida asr boshidagi muhit hukmron bo'lishiga harakat qilgan. Aktyorlar sahnada umumlashma tiplarni

jonlantirar ekan, mubolag'a, badihago'ylik va shartlilikdan keng foydalanadilar.

Sahna mehmonxonaning bir xonasini eslatuvchi tartibda jihozlangan. To'rda parda bilan to'silgan o'rin, o'rtada stol, stul, o'sha davr muhitini beruvchi guldonlar, idishlar. Aktyorlar kino kadrlari yohud qo'g'irchoqlar kabi chiroqlar yorug'ida tez-tez, pildirab harakat qilishadi, gohida joylarida qotib qolishadi. Xuddi mana shu uslubni rejissyor keyinchalik "Uchar tabib" spektaklini (J.B.Molyer asari asosida) qo'yish jarayonida yana bir bor ishlatgan. Bu go'yo voqealar o'tmishda bo'lib o'tayotgani, bugungi tomoshabin ularni qayta ko'rish imkoniyatiga ega bo'lganligiga ishora.

An'anaviy teatr, so'ngra XX asr boshlarida yevropa uslubidagi professional teatr tetapoya qilayotgan paytda ayol aktrisalar bo'lmaganligi sababli qiz-juvonlar qiyofalarida o'smir bolalar chiqqan. "Toshkentga sayohat" spektaklida ham ana shu an'ana saqlab qolingani, ya'ni ayol, chiroyli juvon obrazini sahnada yosh aktyor ijro etadi.

Spektaklning boshidan oxirigacha boyni kalaka qilishadi, turli holatlarga solishadi. Mana, boy yosh, yal-yal yonib turgan juvon oldida. Quvonchi ichiga sig'may ketayapti. To'nlarni yechib, yengil bo'lishga harakat qiladi. Endi uni quchaman degan paytda, mehmonxona xizmatchisi kelib qolib ishning beliga tepadi. Boy – M.Yusupov pardalarga o'ralib, chuvalashib qoladi.

Bu spektaklga turlicha munosabat bildirildi. Spektaklning kulgili, kuy-qo'shiq, musiqaga

boy, tomoshaviy ekanligini ta'kidlagan holda, teatr nima demoqchi bo'lganligini anglash qiyin ekanligi haqida gapirildi. Teatrshunos H.Ikromov shunday yozadi: *"Xo'sh, teatr nima demoqchi? Nazarimda, tomoshaviylik mo'l. Ammo tomoshabinga aytmoqchi bo'lgan fikr mavhum. Uni aniqroq ifodalash kerak. Bo'lmasa, sahnadagi barcha voqealar, qiziq tomoshalar, ichakuzdi kulgilar o'z qiymatini yo'qotadi. Asar aybsiz odamni ko'pchilik o'rtasida kalaka qilishga aylanib qoladi"* [5,18-19-b]. Spektaklni bemaqsad deb bo'lmaydi. Spektakl ijodkorlari Asomboy kabi omi, puli bor, savodi yo'q odamlarning o'qimishli odamlar bilan uchrashganda holi voy bo'lishini ko'rsatishga uringanlar. Asomboyni omiligi uchun ko'pchilikning oldida sharmanda qilganlar. Zero, bu boshqalarga o'rnak bo'lsin, degan maqsad ko'zda tutilgan. Ammo hamma gap shundaki, masxarabozlik, tomosha, o'yin-kulgi maqsadni bosib ketgan. Biroq spektakl Farg'onaning o'zida, Toshkentda tomoshabinlar tomonidan juda yaxshi qabul qilindi. O.Salimov 1993-yili Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida mazkur asarning musiqali variantini sahnalashtirdi. Musiqani N.Xalilov bastalagan. Biroq bu spektakl Farg'ona teatri tomoshasining nusxasi bo'ldi, xolos.

Muhimi shuki, bu spektakl misolida mustaqillik shamolidan nafas olgan o'zbek teatri yana o'z milliy ildizlariga qaytgan holda, xalq maydon tomosha unsurlari bo'lmish shartlilik, bo'rttirma, badihago'ylik ufurib turgan sahna asari yaratishga muvassar bo'lganining guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov L. Inqilobiy drama. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1970, 71 b.
2. Материалы по истории узбекского театра. Т.4. Беседа с М.Мухамедовым. Беседа проведена А.Сандель (03.09.56 г.).
3. Ahmedov S. Asri taraqqiy darg'asi // San'at, 1990, 1-son, 2 b.
4. Karimov N. "Toshkentga sayohat"ning siri. Qarang: Rejissyor Olimjon Salimov. – Toshkent: San'at, 2023, 224 b.
5. Ikromov H. Sahna izlanmoqda // Nafosat. 1992, 9-10-son, 18-19 b.

Baxtiyor YAKUBOV,
O'zDSMI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ZAMONAVIY O'ZBEK TARIXIY FILMLARIDA XALQLAR DO'STLIGI MAVZUSI

Annotatsiya. Maqolada "Tirik tarix" loyihasidan o'rin olgan "Mahtumquli Firog'iy" filmi badiiy-g'oyaviy jihatdan tahlil etiladi. Tahlil asnosida kinokartinning estetik xususiyatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy-madaniy jihatlariga ahamiyat qaratilib, zamonaviy o'zbek kinosidagi tarixiy filmlarning umumiy yo'nalishlariga to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: Tarixiy film, tarixiy-biografik janr, o'zbek kinosi, xalqlar do'stligi, tarixiy shaxs, haqiqatparvar, umuminsoniy g'oya.

Аннотация. В статье анализируется фильм «Махтумкули Фирогий», входящий в проект «Живая история», с художественной и идеологической точки зрения. В ходе анализа уделяется внимание эстетическим особенностям фильма, а также его социокультурным аспектам, рассматриваются общие тенденции исторического кино в современном узбекском кинематографе.

Ключевые слова: Исторический фильм, историко-биографический жанр, узбекское кино, дружба народов, историческая личность, поиск истины, общечеловеческая идея.

Abstract. The article analyzes the film "Makhtumkuli Firogiy", which is part of the "Living History" project, from an artistic and ideological perspective. During the analysis, attention is paid to the aesthetic characteristics of the film, as well as its socio-cultural aspects, and the general trends of historical films in modern Uzbek cinema are discussed.

Keywords: Historical film, historical-biographical genre, Uzbek cinema, friendship of peoples, historical figure, truth-seeking, universal idea.

O'rta Osiyo xalqlari qadimdan mushtarak madaniyat va qadriyatlarga ega bo'lib kelgan. Ularning tarixi, dini, tili va qadriyatlarining ildizlari uyg'undir. Xususan, o'zbek va turkman xalqlari ham turkiy millatning ikki bo'g'ini hisoblanadi. Xalqlarning bunday qavm-qarindoshlik yaqinliklari ikki mamlakat – O'zbekiston hamda Turkmanistonning bugungi kundagi do'stona aloqalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatlarning o'zaro hamkorliklari barcha sohalar qatori san'at va madaniyat sohalarida ham jadal sur'atlarda olib borilmoqdaki, o'zaro hamkorlikda yaratilgan san'at asarlari xalqlar o'rtasidagi rishtalarni yanada mustahkamlashga ulkan hissa qo'shmoqda. 2024-yilda suratga olingan rejissyor Muzaffarxon Erkinovning "Mahtumquli Fig'oniy" filmi ham mana shunday katta loyihalardan biri hisoblanadi. Kinokartinning nomidan uning turkman elining nodir farzandi – mutasavvuf, donishmand,



haqiqiy vatanparvar, haqparvar shoir Mahtumquli haqida ekanini anglash mumkin. Film tarixiy-biografik janrda bo'lib, unda tarixiy qahramonning ijtimoiy, ijodiy faoliyati shaxsiy hayotidagi voqeahodisalarga bog'liq ravishda tasvirlanadi. Bir



qarashda ma'lum va mashhur bu inson haqida san'at asari yaratish osondek tuyuladi. Aslida esa, "insondan ko'ra, biror voqea haqida hikoya qilish osonroqdir" [1, 164-b]. Zero, tarixiy biror hodisaga istagancha badiiy to'qimani qo'shish, ijodkorlarning erkin idrok ila yondashuvi mumkin bo'ladi. Biroq konkret tarixiy shaxs haqida film ishlanar ekan, ayniqsa, u juda mashhur va ma'lum bo'lsa, ijodkorlar uning shaxsiyatini imkon qadar aslidagidek ko'rsatishga urinadilar. Albatta, bu borada barcha huquq va istak to'laligicha o'zlariniki bo'lmaydi. Balki tomoshabin va kinoga aloqador bo'lmagan soha vakillari san'at asaridan tarixiy aniqlikni talab qilishadi. Natijada, kino asarda badiiylik masalalaridan ko'ra, haqqoniylik masalalari birinchi o'ringa chiqib qoladi.

Aytish joizki, tomoshabin hamisha ham ijodkorning badiiy tafakkuri mahsulini qabul qilavermaydi. Kinomuxlis kinodagi qahramon siymosini o'zining tasavvuridagi va tarixiy manbalarda saqlanib qolgan faktlarga mos kelishini xohlaydi. Albatta, bu istakni qaysidir ma'noda oqlash mumkindir. Ya'ni, badiiy asarga har qanday tarixiy material olinmasligi, tarixiy filmga manba bo'lgan shaxs yoki hodisa, albatta, tarixda katta o'ringa ega ekanligi, ma'lum tarixiy-ijtimoiy masalalarga ta'sir ko'rsatganini inobatga olib tanlanganligi tomoshabinni o'ziga jalb qiladi va aynan tarixiy material uni qiziqitirib, o'shani mushohada qila boshlaydi. Taassufki, bugungi o'zbek kinosida tomoshabinning mana shu istagi asosida filmlarni ishlayotgan rejissyorlar ham mavjudki, ular o'z filmlarining illyustrativ shaklga ega bo'lib qolishlariga sabab bo'lmoqda.

Rejissyor Muzaffarxon Erkinov oldida og'ir masalalar turardi. Bir tarafdin, yuqorida ta'kidlanganidek, xalq va ziyolilar Mahtumquli shaxsiyatini yaxshi bilishadi. Boshqa tomondan, bu ulkan shaxsiyat haqida shu kunga qadar bir

necha filmlar suratga olingan bo'lib, ulardan eng mashhurlari Turkman kinoijodkorlari tomonidan 1968-yilda yaratilgan "Mahtumquli" (rejissyor Altı Karliyev) hamda 1984-yilda ishlangan "Baxtidan ayrilgan Firog'iy" (rejissyor Xojaquli Norliyev, 2 qism) kartinalari edi. Dastlabki filmida Sovet davrining mafkurasi to'laligicha ufurib turar, Mahtumqulining ijtimoiy faol shaxs ekani, bir qancha tarqoq turkman qavmlarini birlashtirish yo'lidagi zahmati, kambag'alparvar ekani, ijodida asosan boylar zulmiga qarshi she'rlar bitgani kabi motivlar olib chiqilgan. Ikkinchi film Sovet davrining oshkoralik g'oyalari aks etgan davrlarda suratga olinganligi hamda tabiiy ravishda rejissyorning avvalgi filmdan farqli badiiy asar yaratishga bo'lgan intilishi tufayli, poetik yondashuvlarni ilgari surganini ko'rish mumkin. Unda qahramonning ijodi, she'riyati va hayotini to'liq xronologik asnoda ko'rsatishga intilish kuchli. Buni oldindan hisobga olgan rejissyor katta hajmli badiiy materialni ikki qismli filmga sig'dirishga harakat qiladi. M.Erkinov esa o'zidan avval yaratilgan yuqoridagi va boshqa filmlarni tabiiyki, ko'rgan va o'rganib chiqqan. Ijodkor sifatida o'zidan avvalgilardan farqli fikr berishga intiladi.

Bundan tashqari, bu tarixiy shaxs haqidagi filmlarning barchasini Turkman ijodkorlarining o'zlari suratga olishgan bo'lib, ulardagi umumiy yondashuv turkman millati, madaniyati va davlat bo'lib shakllanishida Mahtumqulining tutgan o'rnini ochib berishdan iborat bo'lgan. Biroq M.Erkinovning oldida turgan vazifa ham ulardan farq qiladi. Yaratilajak film tabiiy ravishda ikki xalqning umumiy taraqqiyotida ushbu shaxsning tutgan o'rnini ochib berish, filmida bir millat va bir xalqqagina taalluqli fikrlarni emas, balki umuminsoniy g'oyalarni singdirish masalasi turardi. Tabiiyki, filmidagi bosh g'oya



xalqlar do'stligi g'oyasi bo'lib, har bir tarixiy film tarixiy material vositasida bugungi kun uchun muhim fikrni ifodalashi kerak bo'lgani kabi, ushbu g'oya ham bugungi kunda taraqqiyotga intilayotgan O'zbekistonning asosiy strategik yo'nalishlaridan hisoblanadi. Filmida ham mana shu g'oya o'qtomir bo'lib, butun voqealar tizimini shakllantirib beradi.

M.Erkinov oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra, mashhur shaxsning ikki qardosh millat uchun ahamiyatli bo'lgan jihatlarini film syujeti uchun manba sifatida tanlab oladi. Aytish kerakki, avvalgi filmlarda uchramaydigan syujet liniyalarini qurishga muvaffaq bo'ladi. Ya'ni Mahtumqulining Buxoro hamda Xivadagi tahsil yillarini olib chiqadi. Bu garchi bir tarafdin, O'zbekiston bilan aloqador jihatlarini qurishga yordam bergan bo'lsa, boshqa jihatdan, shoirning tasavvufiy ijodining manbalari aynan tahsil davrlari bilan bog'liq ekanini ifodalashda qo'l kelgan. Ssenariy mualliflari O're Dashgenov, Rahimberdi Annaguliyev, Rustam Jabborov, Muqaddas Usmonovalar imkon qadar Mahtumquli hayotini xronologik tarzda tasvirlashadi. Film uchun muhim voqealar batafsil ko'rsatilib, qolganlari musiqa fonida yoki informativ tarzda fabulani mantiqiy uzviyligini ta'minlash uchun berib o'tiladi.

Ijodkorlar filmida tarixiy qahramonning ma'rifat uchun, adolat uchun kurashini birinchi planga qo'yishadi. Uning Buxoroga ilk kelishidayoq, madrasa toliblaridan bo'lgan Xaydarbek – Sirojiddin Sattorov bilan ziddiyati hamda adab borasida Mahtumqulining unga nasihat qilishi film voqealarining o'zagi aynan mana shunday yo'nalishda bo'lishini aks ettirib beradi. Bu yerda kinoijodkorlar bugungi kun kishilari uchun ham muhim fikrni ifodalashadi. Zotan, bugun o'zbek jamiyatida ilmga bo'lgan, yuksalishga bo'lgan intilish yuqorilab borar ekan, bu ilm-zakatning ildizlari adab va ma'rifat bilan oziqlanishi kerak ekani anglashiladi. Darhaqiqat, chuqur

mushohada etilsa ham, yuksak ilm sohiblari axloqan kamolga yetmas ekanlar, ulardan har qanday jaholatni kutish mumkin. Zero, qalbida ezgulikka rag'bat bo'lmagan olimning ilmi uni johillikka olib boradi. Buni film ijodkorlari bir tolib bilangina cheklanib qolmasdan, Buxoro madrasasi mudarrislaridan bo'lmish Shomiy hazratlari (Boir Xolmirzayev)ning zakovati yuksak bo'lishiga qaramasdan, badaxloqligi tufayli, o'zi ham, unga ixlos qilgan toliblarning ham ayshu ishratdan bo'shamasligi, kibrga berilgani bilan ochiq-oydin ko'rsatib qo'ygan. Albatta, bosh qahramon bilan konfliktda bo'lgan filmidagi barcha personajlar to'qima bo'lib, mana shu qurilgan to'qnashuvlar filmning g'oyaviy yo'nalishini belgilab beradi. Aytish mumkinki, bu qarama-qarshiliklar nafaqat ikki mamlakatning muammosi, balki butun insoniyatning muammosi o'laroq muhim ahamiyat kasb etadi.

Filmida Mahtumqulining ilm va haqiqat yo'lidagi intilishlari, kurashi va zahmatlari ko'rsatiladi. Bulardan ko'zlangan muddao esa, o'z xalqini ma'rifatli qilish, tarqoq turkman elatini birlashtirishdan iborat edi. Bu borada bosh qahramon yolg'izlanib qolmaydi. Ikki sababga ko'ra, filmida unga maslakdosh Maqsud – Rasulxon Qodirxonov obrazi kiritiladi. Birinchidan, san'atning nazariy qoidalariga ko'ra, bosh qahramon dushmanlarga qarshi yolg'iz bo'lishi mumkin emasligi bo'lsa, ikkinchidan, filmning g'oyaviy yo'nalishi shuni taqazo etadiki, nafaqat turkman farzandi, shuningdek, o'zbek xalqining ham ko'plab vakillari taraqqiyot dushmanlariga qarshi kurashib kelgan. Bu bir jihatdan ikki xalq do'stligi ularning orzu-umidlari mushtarakligidan kelib chiqsa, boshqa tomondan kuchli g'oyaviy yo'nalishni – ezgu maqsadlar yo'lida xalqlar birlashishi lozim ekanini, butun dunyoda ezgulik qaror topishi uchun bir shaxs, bir xalqning o'zi kurashishi hech qanday natija bermasligini ifodalaydi, go'yo. Bu shuni ko'rsatadiki, "O'zbekiston badiiy kinosida falsafiy yondashuv kuchayib bormoqda" [2, 186-b].

Sahnalashtiruvchi rassom – Qahramon Matkarimov, bosh operator – Ravshan Mirzakamolov, bastakorlar – Muinzoda, Serdar Haydarovlarning ijodiy yondashuvlari filmning tarixiy muhiti, badiiy xususiyatlari hamda qahramonlar harakatlantiruvchi mezansahnalarning to'g'ri, tabiiy qurilishiga zamin yaratgan. Bastakorlar filmida tanlangan she'rlarning umumiy ruhiyati, ichki ohanglariga hamohang kuy bastalashgan bo'lib, u butun film davomida bir mung yanglig' aks etib turadi. Tomoshabinda mahzun qiyofali Mahtumqulining qalbidagi ohlaridek namoyon bo'ladi.



Filmda Buxoro va Xivada kechuvchi voqealar batafsil ko'rsatiladi. Ular orasidagi qahramonning vatanida sodir bo'ladigan holatlarga ham juda qisqa to'xtalinadi. Bu voqealar yuqorida ta'kidlangan ikki shahardagi voqealar o'rtasida bog'lovchidek tasavvur uyg'otadi. Bu qisqa voqealarda ham Mahtumqulining bir qizni sevgani, unga erisha olmagan va boshqa qiz bilan oila qurib, farzandli bo'lgani, farzandining yoshlik chog'ida nobud bo'lgani kabi voqealar musiqa fonida dinamik tarzda berib o'tiladi.

Tarixiy shaxsning shaxsiy hayotiga bunchalik qisqa va tezlikda to'xtalinishi ham avval ta'kidlangan fikrni isbotlaydi – ushbu filmda Mahtumqulining ikki xalq – o'zbek hamda turkman xalqlarining o'zaro taraqqiyoti va do'stligi yo'lidagi xizmatlari, o'rni va ahamiyatini ochib berishga intilgan ijodkorlar. Shu sabab, Buxoro va Xivadagi voqealarda mutafakkir faqatgina taraqqiyot dushmanlari bilan o'zaro shaxsiy adovatlashmaydi. Shuningdek, u o'z tafakkuri va ta'siri bilan ijtimoiy masalalarga ham aralashishiga to'g'ri keladi. Bu o'lkalardagi oddiy xalq uning she'rlari, ash'orlarini yoddan bilar, ko'cha-ko'ya ham dardiga malham o'laroq aytib yurishardi. Shoirning o'zini ko'pchilik ko'rmagan va tanimasa-da, u hali kelib ulgurmagan yerlarda uning ijodi qanot yozgan edi. Oddiy xalq tomonidan aytib yurilgan haqiqatparvar she'rlar shu darajada keng yoyilgan ediki, ayni mana shu sabab, Mahtumquli qayerga bormasin, kishilar tabiiy ravishda ikkiga bo'linib qolishardi.

She'rlari sabab, shoirga muhabbat qo'ygan uning tarafdorlari hamda ayni haqiqatparvar she'rlarni xushlamay, uni yoqtirmaydigan toifalar edi. Darhaqiqat, haqiqat noqulay bo'ladi. Garchi

shoir o'z ijodida aks ettirgan holatlarni ba'zi bir kimsalarga qarata aytgan bo'lsa-da, haqiqatga yo'g'rilgan bu fikrlar boshqa shu toifalarga ham tegib ketar va ular o'zlarining ichki johilliklari bilan o'zlari tanimagan Mahtumqulini yomon ko'rib yurishardi.

Bundan tashqari, Mahtumqulining o'zi ham kishilarga haqiqatni tik aytar, hech kim va hech narsadan sira qo'rqmasdi. Uning bunday mardonavorligining sababiga atrofda hayron bo'lishar, ko'pchilik buning siri va sababini bilisholmasdi. Film voqealaridan ochib beriladiki, buning asl sababi – Mahtumqulining qalbi faqat Alloh yodi bilan, Yaratganning muhabbati bilan band bo'lib, Tangridan boshqasidan qo'rqmasdi. U biron bandadan qo'rqishni xayoliga ham keltirmas, o'zini haq yo'lida tamoman safarbar etgan edi.

Tasavvufiy fikrlarga yo'g'rilgan, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni kuylovchi ushbu film tomoshabinga katta ma'naviy ozuqa berishi shubhasiz. Bugun butun dunyo kinosidan bahramand bo'layotgan zamonaviy tomoshabinni o'ziga to'laqonli jalb etishida ushbu kinokartinaga ba'zi xususiyatlar yetishmayotganini ham ta'kidlash o'rinli. Xususan, film voqealarining dinamikasi pastroq bo'lib, keskin, kutilmagan voqealar sodir bo'lmaydi. Ziddiyatli voqealarning ham dab-durustdan sodir bo'lishi va bunga qahramonlarning notabiiy munosabatlari filmni jonli, tabiiy hayot muhitidan ko'ra, illyustrativ xarakter kasb etishiga olib kelgan. Ayniqsa, film bosh qahramoni roli ijrosi Ahmed Amandurdiyevning voqealarning boshidan oxiriga qadar bir xilda o'zgarishsiz harakatlanishi, tabiiy insoniy tuyg'ular va quvonch-u iztiroblarsiz o'zini tutishi film ruhiyatining yanada quruq shaklga kelishiga sabab bo'lgan.

Yaxlit badiiy asar, tugallangan fikr aytishga bo'lgan intilish, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni kuylashga bo'lgan harakat filmda yuqori darajada aks ettirilgan. "Har bir namoyish etilajak film aniq ijtimoiy-madaniy vazifalar hamda o'z davri qiyofasini ifodalaydi" [2, 194-b]. Ushbu film ham o'zida bugun O'zbekistonning boshqa xalqlar bilan do'stona aloqasi va ilm-ma'rifatga intilishini o'zida mujassam etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Огнев К.К. Реалии истории художественной системе фильма (основные типологические модели на материале мирового кинопроцесса) // Диссертация на соискание ученой степени доктора искусствоведения. – Москва, 2003. – 353 с.
2. Каримова Н.Г. Становление и развитие игрового кинематографа Узбекистана // Диссертация на соискание ученой степени доктора искусствоведения. – Ташкент, 2019. – 225 с.

Ольга ОСТАНИНА,
доцент кафедры «Сценическое движение
и физическая культура» ГИИКУз

АКТУАЛЬНОСТЬ И ВОСТРЕБОВАННОСТЬ ИСКУССТВА ПАНТОМИМЫ В СОВРЕМЕННОМ ТЕАТРЕ КУКОЛ

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие искусства пантомимы от её истоков в Древней Греции до современного кукольного театра. Автор подчеркивает универсальность пантомимы как невербального способа выражения, который преодолевает языковые барьеры и апеллирует к воображению зрителя. Особое внимание уделяется сцене «Мышеловка» в постановке «Гамлета» в Национальном театре кукол Узбекистана, где пантомима становится инструментом раскрытия истины и внутреннего мира персонажей. Также анализируется роль пантомимы в современном театре как философского и визуального средства коммуникации, объединяющего различные жанры и художественные формы.

Ключевые слова: современный театр кукол, пантомима, социум, инновации.

Annotatsiya. Ushbu maqolada pantomima san'atining qadimgi Yunonistondan boshlab, hozirgi zamon qo'g'irchoq teatrigacha bo'lgan rivojlanish jarayoni yoritiladi. Muallif pantomimani til bilmasdan tushunish mumkin bo'lgan, tasavvurga tayanadigan universal ifoda vositasi sifatida ta'riflaydi. Xususan, O'zbekiston Milliy qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan "Gamlet" asaridagi "Sichqonqopqon" sahnasi misolida pantomimaning haqiqatni ochib berishdagi roli ko'rsatiladi. Maqolada pantomimaning zamonaviy teatrdan janrlararo va vizual muloqot vositasi sifatida tutgan o'rnini ham tahlil qilinadi.

Kalit sozlar: zamonaviy qo'g'irchoq teatri, pantomima, jamiyat, innovatsiya.

Abstract. This article explores the development of the art of pantomime from its origins in Ancient Greece to its contemporary use in puppet theatre. The author highlights the universality of pantomime as a non-verbal form of expression that transcends language barriers and appeals to the audience's imagination. Special attention is given to the "Mousetrap" scene from Hamlet performed at the National Puppet Theatre of Uzbekistan, where pantomime becomes a powerful tool for revealing truth and inner emotional states. The article also analyzes pantomime's role in modern theatre as a philosophical and visual mode of communication that merges various genres and artistic media.

Keywords: contemporary puppet theatre, pantomime, society, innovation.

Искусство пантомимы является наиболее древним видом театральных представлений, где мысли и чувства персонажей выражаются без слов, при помощи движений, жестов и мимики актеров. Этот «невербальный» театр переживает сегодня своеобразное возрождение на сцене современного театра.

Хотя и существует достаточно устойчивые стереотипы о пантомиме, вроде клоунов и актеров в гриме, современная пантомима превращается в сложное и многогранное искусство. Возвращаясь к истокам возникновения театра пантомимы следует вспомнить саму суть этого слова. С древ-

негреческого языка «пантомима» – подражание. Первые актеры мимы подражали чувствам и действиям главных героев, раскрывая зрителям глубину и подлинность переживаний через жесты и движения. Таков был первый хор, в котором не поют, а двигаются. Главные герои ходили на котурнах и в огромных масках, читая огромные тексты на гексаметре, таким образом, не имея возможности активно действовать на сцене. И вот тут-то и помогал «хор», состоящий из актеров мимов, раскрывая внутренние переживания персонажей и сложные идеи постановки без единого слова, только через свои физические действия. Уже тогда пантомима вырабатывала свой универсальный язык тела, преодолевая языковые барьеры и находя интерес в умах людей разных культур. Уже тогда, более трех тысяч лет назад, пантомима предлагала свой уникальный путь к человеческим сердцам – погружение в мир чистой выразительности тела, хотя и была очень долго вспомогательным элементом на сценических подмостках. С течением времени пантомима развивалась разными темпами и путями. Иногда уходила в тень, иногда становилась главным театральным действием. Как, например, в эпоху Возрождения в итальянской комедии масок - Dell'arte (первом профессиональном театре). Актеры играли в полумасках, причем каждый из них играл всегда одну и ту же роль на протяжении всей своей театральной жизни. Каждая «маска» имела свою неподражаемую пластику, характер. Сценическое действие сопровождалось всевозможными трюками («лацци»), веселыми танцами и пантомимами. Из спектаклей комедии Dell'arte стали выкристаллизовываться и персонажи театра кукол, такие как Пьеро, Арлекин и Буратино. Позднее, в 18 -19 веках, пантомима надолго устраивается в сценах миманса в оперных и балетных постановках, придавая им драматизм. И только в начале 20 века пантомима начинает свой абсолютно самостоятельный путь. Появляется «лирическая» пантомима, эстрадные номера, различные клоунады, и как оказалось, пантомима стала востребована и кинематографе. Можно утверждать, что все немые кинокартины – это образцы искусства пантомимы в его истинном смысле, вспомните работы таких великих артистов, как Чарли Чаплин, Бастер Китон, Гарольд Ллойд. В 1920 – 1940 х. годах начи-

нается самостоятельная сценическая жизнь пантомимы. Актеры Ж.Л. Барро, Э. Декру, М. Марсо разрабатывают основы нового, не иллюстративного действия, где в центре внимания оказывается тело актера. К этому новому виду пластического театра обращались многие великие режиссеры мира: В. Мейерхольд, А. Таиров, Е. Гротовский, Э. Барба, М. Чехов, Р. Славский и многие другие. Пантомима начинает действовать в различных жанрах: от комедии и фарса до высочайшей трагедии. В современном театре этот вид сценического искусства нашел свою «нишу». В спектаклях театра им. Е. Вахтангова («Евгений Онегин»), МХАТа им. А.П. Чехова («Конёк-Горбунок»), танцтеатра Пины Бауш Вупперталь («Мойщик окон», «Полнолуние»), театра М. Вайля «Ильхом» («Кломадеус», «Счастливые нищие»), в потрясающих представлениях цирка «Дю Солей» («Mystère», «Alegría»), в различных кукольных представлениях так, или иначе, активно использовались элементы пантомимы. «Кто мы, как не марионетки в пантомиме кукольного театра? О всемогущая Судьба, держай бережно наши веревочки! Будь милосердна к нам, пока мы пляшем на нашей маленькой сцене!» [1].

В эпоху визуальной культуры, когда зритель пресыщен информацией, пантомима предлагает уникальный опыт созерцания и интерпретации. Она апеллирует к универсальному языку тела, преодолевая языковые барьеры и находя отклик в сердцах людей разных культур. Современные кукольные театры активно экспериментируют с элементами пантомимы, стремясь расширить выразительные возможности куклы и создать новые формы сценического искусства. «Мим адресуется к зрителю, способному дополнять своей фантазией то, что ему не досказывается, способному мысленно развивать художественные намеки. Условность пантомимы строится на полном доверии к творческому воображению зрителя. В этой особенности, может быть, самая ценная черта искусства пантомимы» [2]. Использование пантомимы позволяет кукольному театру выйти за рамки традиционных представлений о кукле как о неодушевленном предмете и превратить ее в полноценного участника сценического действия, способного вызвать у зрителя искренние эмоции и переживания. В качестве примера можно привести спектакль Национального Театра Кукол

Узбекистана по одноименной пьесе Уильяма Шекспира «Гамлет» (режиссер-постановщик, Заслуженный артист Узбекистана Шамурат Юсупов). Всем известная сцена «Мышеловка» была решена с использованием элементов пантомимы. По сути эта сцена - пьеса внутри пьесы. Гамлет использует театр как способ выявить правду: «Поймаю совесть короля». Он верит, что искусство способно вывести скрытое наружу, вызвать невольную эмоциональную реакцию. Это подчеркивает силу театра и иллюзорной реальности в поиске истины. В театре кукол появляется новое пластическое решение. Поскольку сама кукла есть скульптура (форма), то использование маски и «живого плана» стало продолжением единого пластического языка спектакля. Прием «театра в театре» очень естественным образом соединяется с инструментариями театра кукол: кукла и маска. Художник – постановщик спектакля Виктор Апухтин в своем интервью для передачи «Арт – локация» на канале «Дунё» говорит: «Сцена «Мышеловки» является водоразделом. Она центральная. В этом театре (театре кукол) возможно все. Каким театром восхищался Шекспир? Античным! Я решил, что бродячие актеры должны быть в масках от античных актеров. Где все предельно ясно. Все эмоции выражены. Плохие это плохие, злые. Хорошие это хорошие, веселые. Традиция древнегреческого театра построена на делении на маски, играющие в сторону Аполлона, и маски, которые изображают силы, противоположные разуму и свету. Создав эти маски, режиссеру удалось пластически оживить этих актеров...»



Фрагмент сцены «Мышеловка».
Фото – Миржалол Ахунджанов

Все действие сцены «Мышеловка» происходит на помосте, выделяющемся от других мизансценических условий, актеры в масках окружают короля, подражая свите, повсюду преклонение и прославление монарха. «Ко-

роля делает свита!». Король хочет спать, жестом прогоняет всех прочь, засыпает, но тут появляется маска с бутылочкой яда в руке, озираясь по сторонам вливает в ухо короля страшное средство, хватает корону и надевает на себя, король в муках умирает, и маски кланяются новому тирану.



Фрагмент сцены «Мышеловка».
Фото – Миржалол Ахунджанов

Всё действие происходит без единого слова, но зрительское внимание ни на миг не ослабевает, наоборот, активные жесты и выразительные позы актеров вызывают напряжение, и только крик Клавдия выводит всех из оцепенения. Пантомима в «Мышеловке» – это своего рода метафора. Без слов, при помощи телесной выразительности, актёры показывают сцену отравления короля – аллюзию на преступление Клавдия. Эта безмолвная часть даёт зрителям, а особенно самому Гамлету, чистую форму действия, не затуманенную риторикой и словами. Сцена «Мышеловки» подчеркивает тему масок и притворства. Герои играют роли, скрывают свои мотивы, и только через притворство можно добраться до подлинной сущности. Все носят свои маски – все врут, «Весь мир театр, и все мы в нем актеры».

Шекспир как бы говорит нам: правда часто прячется за ложью. Клавдий реагирует на пантомиму и последующую пьесу бурно – он встает и покидает зал. Это знак, что правда действует на чувства и разум. Пантомима становится своего рода катарсисом – не для публики, а для персонажа. Клавдий не просто «узнал себя», он испытал чувство вины до того, как услышал какие-либо слова. В театре кукол существуют свои законы, прежде всего – кукловождения. Еще ничего не говоря, кукла действует сообразно своей конструкции, формы. Также, как и актер в маске.

Можно сказать, что маска является древнейшим атрибутом человечества и театра.



Фрагмент сцены «Мышеловка».
Фото – Миржало́л Ахунджанов

Прежде всего маска – это форма, скульптура, что свойственно театральной кукле. Там, где отсутствует живое лицо, мимика заменяется ритмом, пластикой, точностью жеста. Каждый жест в театре кукол, так же, как и в пантомиме становится символом. Это придаёт театру кукол почти ритуальное, философское измерение: всё упрощено, но одновременно – насыщено смыслом. Кукла в пантомиме – это почти философская фигура. Она не живая, но способна передать жизнь. Она молчит, но может сказать больше, чем актёр. Пантомима превращает куклу в поэтический знак. Театр кукол – это не просто метафора, это философский образ всей трагедии «Гамлет». Герои – куклы в чужой игре, мир – сцена, судьба – кукловод. И только осознав свою «кукольность», Гамлет начинает действовать по-настоящему.

В основе пантомимы лежит глубокое понимание человеческой психологии и физиологии. В современном театре кукол традиционные границы между жанрами стираются, все чаще используются элементы других видов искусства, мультимедийные технологии, видеопроекции, интерактивные инсталляции, 3D-графика, создавая эффект иммерсивного театра (театра присутствия). «... Возникли новые модели игры и творческие процессы: игра с куклами, эксперимент с музыкальными инструментами, составление маленького сочинения на печатной машине. Контекстом социализации стало свобод-

ное общение, а ее целью – узнавание другого человека. Таким образом, художественный подход спектакля не только побуждает к пониманию и принятию разницы между разными социальными группами» [3]. Современный театр кукол переживает эпоху бурных перемен и смелых экспериментов. Отходя от классических канонов, он активно ищет новые формы, языки и способы взаимодействия со зрителем. Это не просто развлечение, а платформа для обсуждения новых социальных, политических и философских вопросов. Благодаря своей универсально-



Мраморный рельеф с изображением драматурга (Менандра), держащего в руке комедийную маску.
I в. до н.э. – I в. н.э.

сти и способности к трансформации, пантомима продолжает оставаться актуальным и востребованным видом искусства, обогащая современный театр новыми формами выражения и привлекая зрителей, ищущих глубокие и эмоциональные переживания. «Интернациональный язык пантомимы приобретает в силу этого особое значение, он содействует взаимопониманию и сближению людей. Эта благородная цель делает искусство пантомимы особенно актуальным в наше время, так как оно дает возможность, пользуясь терминологией К. С. Станиславского, в буквальном смысле слова через жизнь человеческого тела познать жизнь человеческого духа» [4].

Использованная литература:

1. Коллинз У. Женщина в белом / У. Коллинз, пер. с англ. Т. Лещенко-Сухомлиной. – Москва: Качели, 2022.
2. Славский Р. Искусство пантомимы : учебник по основам пантомимы / Р. Славский. – Москва: Искусство, 1962. – С. 6.
3. Каранович Д. Что такое “иммерсивный театр” и почему ответа нет / Д. Каранович // Петербургский театральный журнал. – 2018. – № 3. – С. 93.
4. Румнев А. Пантомима и ее возможности / А. Румнев. – Москва: Знание, 1966. – С. 76.

Feruza FAYZIYEVA,
O'zDSMI "Kino, televideniye va radio rejissyorligi"
kafedrası dotsenti

TELEVISION AKTYORNING OBRAZ YARATISHIDAGI IZLANISHLAR

Annotatsiya. *Televideniye o'zining mahsulotlarini yarata boshlagach, television texnik vositalar imkoniyatini o'zlashtirgan kadrlarga ehtiyoj yuzaga keldi. Buning natijasida ijodkorlar televideniyega adaptatsiya ya'ni moslashtirish yo'lidan borishdi. Chiroq, mikrofon, qo'zg'almas telekameralar mizanssenani o'zgartirib yubordi. Katta sahna o'rnini studiya, tomoshabin o'rnini telekamera egalladi. Mazkur maqolada televideniyeda television aktyorning muhitga moslashishi va aktyorlik kashfiyotlari xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *televideniye, operator, rejissyor, montaj, kamera.*

Аннотация. *Когда телевидение начало создавать собственный контент, возникла потребность в кадрах, освоивших возможности телевизионной техники. В результате творческие работники пошли по пути адаптации, то есть приспособления к особенностям телевидения. Освещение, микрофоны и неподвижные телекамеры изменили мизансцену: большая сцена уступила место студии, а зрителей заменила телекамера. В данной статье рассматриваются вопросы адаптации телеактёра к новой среде и актёрские открытия в условиях телевидения.*

Ключевые слова: *телевидение, оператор, режиссёр, монтаж, камера.*

Abstract. *When television began to produce its own content, there arose a need for specialists who had mastered the capabilities of television technology. As a result, creative professionals pursued the path of adaptation – that is, adjusting to the specific demands of the television medium. Lighting, microphones, and stationary television cameras transformed the mise-en-scène: the large stage was replaced by the studio, and the audience was replaced by the television camera. The article explores the adaptation of television actors to this new environment and their artistic discoveries in the medium of television.*

Keywords: *television, cameraman, director, editing, camera.*

O'zbekiston badiiy televideniyesi turfa faoliyat turlarining oyoqqa qo'yilishi bilan to'laqonli qiyofasini yaratdi. Teleekran ijodkorlari e'tiborini adabiyot namunalariga qaratgan va ularni adaptatsiya qilish faoliyatidan teleinseniroykalar vujudga kelgan. Sababi, undagi rejissyorlarning aksariyati teatrdan kelganligi bois, uning tajribasi televideniyega olib kirishga harakat qilishdi. "Televideniye bugungi kunda o'zidan avval yuzaga kelgan san'at turlariga taqlid qilish barobarida, ularga xos unsurlarni o'zlashtirdi. Masalan, television spektakllarda teatr san'atiga xos elementlar mujassam bo'lgan" [1, c. 38]. Badiiy televideniye teledramaturgiyaga asoslanadi. Teledramaturgiya televideniye uchun ma'lum darajada o'zining tarixiy taraqqiyotiga ega. Television dramaturgiya adabiyot turi bo'lib, murakkab badiiy organizmdir. U badiiy yaxlit bo'lishi, yorqin obrazlar, voqealarning mantiqiy rivoji, izchil va dinamik intriga, ekspozitsiya, komponentlar uyg'unligiga ega bo'lishi talab qilinadi.

Qisqa va har xil sahnalar, siqiq dialoglar, ortiqcha gapdan ko'ra ko'p ma'lumot beruvchi ekspozitsiyalar teledramaturgiya mahsuli – ssenariyga sayqal beradi.

Television ssenarist birinchi galda drama qonuniyatlarini puxta egallashi, ekran talablarini chuqur tushunishi lozim. Ijodkor television ifoda vositalari, television "til" va uning badiiy imkoniyatlarini hisobga olmay turib televideniye uchun maxsus asar yozishi mumkin emas.

Proza shaklidagi asarlarni ekranlashtirish usulida ssenariy muallifi yoki rejissyor uchun asarni qayta ishlashdan ko'ra o'zining fantaziyasiga erk berishga, qiziqarli uslublardan foydalanishga, texnik vositalarni o'rinli qo'llashga imkon berishi mumkin. Asar ekranlashtirilganida undagi obraz va voqealar, xullas, badiiy asardagi barcha komponentlar birinchi planga chiqarilmasa, asarning g'oyasi ochib berilmasa, postanovkaning inqiroziga sabab bo'ladi. Masalaga ana shu tariqa yondoshilsa, maxsus televideniye uchun

yoʻzilgan ssenariy ekranlashtirishdan ham, qayta ishlashdan ham ustun turadi.

Telerejissyor amaliyotning oʻzida shakllandi. Bunda albatta televideniye oʻzining spetsifikasini talab qildi. N.Doʻstxoʻjayev, A.Muhamedov, A.Haydarov M.Yunusov, S.Anorqulov, G.Yoqubov, M.Muhamedov, M.Mirzaahmedov, M.Maxkamov, H.Qahramonov kabi rejissyorlar badiiy televideniyaning taraqqiyoti uchun katta xissa qoʻshganlar.

Adabiy asar asl holidan televizion shaklda talqin qilinganida oʻzgarishlarga uchraydi va mutlaqo yangi shaklga ega boʻlgan mustaqil asarga aylanish barobarida uning mazmunida ham oʻzgarishlar yuz berishi mumkin. Bu asarning teleekran uchun moʻljallangan talqini, yechimi hamda ijodkorlarni nimaga urgʻu berishiga bogʻliq. Yozuvchi ijodining mahsuli obyektiv voqea va hodisalarga subyektiv yondashuvi, uning dunyoqarashi, hayajoni va qator boshqa sabablar natijasida yuzaga keladi. Bunda rejissyor yoki muallif asarni oʻziga xos uslubda televideniye uchun moʻljallab qayta yozadi. Original telessenariydan farqli ravishda bu tur teleinsseniurovka yaratish shaklidir.

Oʻzbekiston televideniyesidagi rejissyorlar insseniurovka yaratish borasida oʻziga xos anʼanasiga ega. Bu anʼana mahsuli oʻlaroq, jahon va oʻzbek adabiyotining yirik roman va qissalari telespektakl, videofilm, teleserial shaklida ekranga kirib keldi. Ularni ekranga olib chiqishda kino va teatr singari ijodiy guruh shakllandi. Tasvirlanayotgan voqea va obrazlar xoh u tarixiy, xoh zamonaviy boʻlsin, rejissyor va rassom zimmasiga masʼuliyat yuklaydi. Buning uchun oʻsha davr muhitini, turmush tarzini, voqea kechayotgan joy, qahramonning yoshi va shunga oʻxshash jihatlarni eʼtiborga olgan holda, ish koʻrish samarali boʻladi va bular albatta asar gʻoyasi bilan bogʻlanishi talab etiladi.

Rassom vaqt va sharoitni oʻrgangan holda eskizlar ustida, libos va grim ustalari asarda tasvirlangan qahramonning obrazini yaratish borasida izlanarkan, sahna koʻrinishlariga mos tanlangan, qahramonlar ijrosi uchun yaratiladigan makon murakkabligiga qarab, rassomlar tomonidan chizilgan eskizlar asosidagi rekvizitlardan foydalanishga harakat qiladi. Postanovkachi operator voqealarni pavilyon hamda tabiiy sharoitda tasvirga olish uchun (lokatsiya) turli rakurs tanlashga harakat qiladi.

Televideniye oʻzining ifoda vositalari imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanish natijasida telespektakllar saviyasi yuqoriga koʻtarildi. Televideniye orqali namoyish etilgan dramatik asarlar kichik ekran muhitiga moslashdi. Televizion drama ssenariysi teatr pyesasiga yaqin boʻlsa-da, unga nisbatan soʻzning koʻpligi, yaʼni monolog, dialog, poliloglarda

soʻzga katta eʼtibor qaratilishi bilan farq qiladi. Zero, oʻziga xos element, yaʼni operator ishi orqali matn vizual boyitilishi imkoniyati keng.

Baʼzi bir dramatik postanovka rejissyorlari koʻp-rok teatr uchun yozilgan pyesalarga murojaat qiladi. Biroq, teatr uchun yozilgan barcha pyesalar ham oʻzining original shaklida televizion spektaklga toʻliq mos kelavermaydi. Agar bu pyesa maxsus televideniye uchun qayta ishlab tayyorlanmasa, uning badiiy individualligi yoʻqolishi maʼlum boʻlib qoladi.

Televizion spektakl oʻz kompozitsion qurilishini asosan teatr va kinodan oldi. Teatr spektaklidagi mizanssenalar televideniye muhitiga mos kelmadi. Bu murakkab jarayonlar tufayli, ijodkorlar televideniye ga adaptatsiya, yaʼni moslashtirish yoʻlidan borishdi. Chiroq, mikrofon, qoʻzgʻalmas telekameralar mizanssenani oʻzgartirib yubordi.

Katta sahna oʻrnini studiya, tomoshabin oʻrnini telekamera egalladi. Dastlab “jonli” ijroda efirga chiqib turgan telespektakllar videoga yozilishi tufayli, ancha qulayliklarga ega boʻldi.

Videoyozuv ayniqsa rejissyorlarning gʻoyalarini amalga oshirishda qoʻl keldi. *“Video endigina chiqqan paytda hali injenerlar tomonidan montaj vositalari oʻzlashtirilmagani, ijodkorlarning studiyadan nariga chiqish imkoniyatiga ega emasliklari sababli, badiiy bezak orqaligina yaratilgan muhit haqiqiy hayot manzaralaridan yiroq boʻlgani, qolaversa, teatr aktyorlarining kamera bilan ishlashda mahoratining yetishmaganini inkor eta olmaymiz”* [2, 36-b]. Bunga, albatta, yangi sanʼat turini oʻzlashtirish jarayonidagi tabiiy holat deb qarash oʻrinli.

Teledramaturgiya yuzaga keldi va yangi shakl, turlarning vujudga kelishiga asos solindi, hamda uning tasviriy ifodaviy vositalari imkoniyati kengayishi barobarida milliy va jahon dramaturgiyasi hisobiga boyib bordi. Teleteatr ijodkorlarning saʼy-harakati tufayli, H.Nazirning “Choʻl havosi”, P.Qodirovning “Uch ildiz”, Yevripidning “Medeya”, Molyerning “Zoʻraki tabib”, A.Kristining “Sirtmoq”, A.Vampilovning “Qoʻshiq bahona”, M.Bogucharovning “Tinib-tinchimas qariyalar”, M.Bayjiyevning “Baxs”, F.Dyurenmattning “Avariya” pyesalari va boshqa qator pyesalar ekran yuzini koʻrdi. Hatto, M.Boguchavning “Tinib-tinchimas qariyalar” televizion spektakli Riga shahrida boʻlib oʻtgan sobiq Butunittifoq televizion spektakllar festivalida ishtirok etib, faxrli diplom bilan taqdirlandi.

Televideniye da teatrdan farqli ravishda, ijro etilayotgan obraz turli plan va rakurslarda ifoda qilinib, teleasarning mazmun-mohiyati ochilishiga erishildi. Asar voqealariga xos muhitni asosan pavilyonning oʻzida tayyorlanishi, suratga olishda bir maydonchada koʻplab makon va zamonni

yaratish imkoniyati, tasviriy ifoda vositalari, yirik planning ustuvorligi televideniyeining kinodan farqli jihatlarini ko'rsatadi.

Televideniye ko'pqismlilik xarakteri bilan ham kino va teatrdan ajralib turadi. Televideniye o'zining shakllanish davridan teatr va kino unsurlarini o'zlashtirgan bo'lsa-da, ulardan farqli ravishda ifoda tili, uslubini topishga erishdi.

Televizion teatr o'zining ijodiy va amaliy taraqqiyoti davomida sahna uchun yozilgan pyesalarni televizion tilga muvofiqlashtirish, teleteatrga mos keladigan asarlarni sahnalashtirib, tajribasini orttirishga intildi. Teleteatr yutuqlarini asosan hajviy hangomalar, qissa, pyesa, roman tufayli qo'lga kiritdi.

Adabiy asarlarni insseniroyka qilishda tele-rejissyorlarning badiiy didi, tafakkuri, teleekran imkoniyatlarini chuqur tushunishi muhim omil bo'ldi. *"Malakali rejissyor ssenariyni adabiy jihatdan to'ldirmagan holda ham uni boyitishi, muallif so'z bilan ifodalagan majoziy obrazlarga chuqur ma'no berib tasvir, musiqa, montaj imkoniyatlari ila ularni ekranga olib chiqishi mumkin"* [3, 37-b]. Telerejissyor o'zining bu maqsadini amalga oshirishda aktyor va uning imkoniyatiga tayanadi. Televideniye taraqqiyoti mobaynida televizion spektakl, televizion film, teleserial singari turlarni ham olib kirish barobarida teatr va kino aktyorlari uchun ijod maydonini yaratdi.

Insonning qalbi yuzida aks zuhur bo'ladi deganlaridek, televizion aktyorning yirik plani V.Sappak ta'biri bilan aytganda xarakterlar rentgeni – ("Rentgen xarakterov" – V.Sappak iborasi) teleekranda to'laqonli ifoda etiladi. Aktyorning bor mahorati, obrazni his qilish darajasi, imkoniyatlari telekamera oldida bamisoli rentgenda aks etganidek o'zini yaqqol ko'rsatadi. Bu jihat ilk izlanish yillarida, dastlabki tajribalardan oq ma'lum bo'lib, o'tgan asrning 60-yillarning eng taniqli aktyorlarining barchasi ham televideniye faoliyatiga jalb etilmaganligi shu bilan izohlanadi.

Teleteatrlar aktyorlar uchun ham mahorat maktabi bo'ldi. Televizion tomosha paytida kamera aktyor va tomoshabin orasidagi masofani vizual tarzda qisqartiradi. Shu bois, tomoshabin aktyorning soxta ijrosini darrov ilg'aydi. Ba'zan aktyor rolini ijro etguncha, kameraning obyektividan chiqib ketolmasligi tufayli, telepavilyondagi sharoit unga murakkab tuyulishi kuchli yorug'likka ega proyektorlar uning jismoniy holatiga ta'sir etishi

mumkin. Bunda aktyorlar radio, teatr va kino tajribasiga suyangan holda kamera, chiroq va mikrofon bilan ishlash ekran ortida o'tirgan tomoshabinni his etish malakasini egalladilar.

Televideniye rejissyorlari, Yosh tomoshabinlar teatri aktyorlari – Karim Xonkeldiyev, Manzura Hamidova, Muhabbat Yo'ldosheva, Vohid Qodirov, Obid Tolipov, Lutfulla va Gulchehra Sa'dullayevlar, Xayrulla Sa'diyev Milliy (Avvalgi Xamza nomli) akademik drama teatridan Zamira Xidoyatova, Xamza Umarov, Zikir Muhammadjonov, Nabi Rahimov, Rixsi Ibrohimova, To'ychi Oripov, Yoqub Ahmedov, Tolib Karimovlarga ko'proq e'tibor qaratdi.

60-yillarda televideniyeining o'z aktyorlari paydo bo'lishi bir tomondan sharoit taqozosi tufayli ham yuz bergandi. Boisi, spektakllar odatda kechqurun taniqli san'atkorlar ijrosida ko'rsatilsa, ertasiga ular qayta efirga uzatilar, tabiiyki, teatr artistlarining bu tomoshalarga jalb qilishning imkoni bo'lmas edi. Buningdek holatlar televideniyeida rejissyor, rejissyor assistenti, ma'mur sifatida faoliyat olib borayotgan, teatr san'ati yo'nalishida tahsil ko'rgan bir guruh yoshlarni telespektakllarga jalb etishga olib keldi. Televizion akter ilk tajribalarda sinovdan o'tdi, badiiy jarayonlarning o'zida shakllandi. Bunda makon va zamon munosabatlari asosiy o'rinda turdi. Yirik plan ustuvor ahamiyat kasb etib, aktyor fizionomiyasiga katta talab qo'yildi. Mimika, yuz-ko'z ifodalari, imo-ishoralar, raftorlar, qiyofa badiiy obraz yaratishning muhim vositalari sifatida qaraldi.

Mizanssenalarning qurilishi televideniye imkoniyatlaridan kelib chiqib yaratildi. Telerejissyorlarning buningdek eksperimentlari tezda o'zini oqlab, telekamera qarshisida rol o'ynovchi, mikrofon, chiroqlar imkoniyatidan kelib chiqqan mizanssenalarda shakllangan Ergash Karimov, Roza Karimova, Xasan Yo'ldoshev, Abdurahmon Ahmedov, Sadir Ziyovuddinov, Tamara Mahkamova kabi aktyorlar yetishib chiqdi. Taassufki, mazkur an'analarga vorisiylik masalasi so'nggi yillarda nihoyatda sustlashib ketganligi kuzatiladi.

Televizion teatrning eng muhim xususiyatlari va ilmiy asoslarini aniqlash barobarida uni boshqa estetik komponentlar bilan aloqasini ham tadqiq qilish o'rinli. Televideniyeini nazariy jihatdan o'rganilishida uni kundan kunga badiiy ijod jarayonida taraqqiy etayotganini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саппак В. Телевидение и мы. – Москва: Искусство, 1982.
2. Raxmatullayeva I. Davr o'z qahramonlarini izlaganda // Teatr. 2003yil, № 3. – 36 b.
3. Akbarov X. Tele-kinodramaturgiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006. – 37 b.

Osman KOPADZE,
Master's student, Television and Film,
Istanbul Aydın University, Türkiye

THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY

Abstract. *This article explores how Turkish television series (dramas) serve as tools of soft power in Uzbekistan by shaping cultural perceptions and enhancing Türkiye's attractiveness. Soft power refers to influencing others through culture and communication rather than coercion. Turkish series have gained strong popularity in Uzbekistan, a country with deep historical ties to Türkiye. The research analyzes the correlation between the number of Turkish series broadcast in Uzbekistan and the rise in tourism and educational migration from Uzbekistan to Türkiye.*

Keywords: *Turkish television series, soft power, Uzbekistan, correlation analysis, cultural diplomacy, media influence.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turk teleseriallari (dramalari) O'zbekistonda madaniy tasavvurlarni shakllantirish va Turkiyaning jozibadorligini oshirish orqali yumshoq kuch vositasi bo'lib xizmat qilayotgani o'rganiladi. Yumshoq kuch deganda majburlash orqali emas, balki madaniyat va muhoqot orqali boshqalarga ta'sir o'tkazish tushuniladi. Turkiya bilan tarixiy aloqalari chuqur bo'lgan O'zbekistonda turk seriallari katta shuhrat qozondi. Tadqiqotda O'zbekistonda namoyish etilayotgan turk seriallari soni bilan O'zbekistondan Turkiyaga turizm va ta'lim migratsiyasining o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *turk teleseriallari, yumshoq kuch, O'zbekiston, korrelyatsion tahlil, madaniy diplomatiya, OAV ta'siri*

Аннотация. *В данной статье рассматривается, как турецкие сериалы (драмы) служат инструментами мягкой силы в Узбекистане, формируя культурные представления и повышая привлекательность Турции. Мягкая власть означает влияние на других через культуру и общение, а не принуждение. Турецкие сериалы пользуются большой популярностью в Узбекистане, стране, имеющей глубокие исторические связи с Турцией. В исследовании анализируется взаимосвязь между количеством транслируемых в Узбекистане турецких сериалов и ростом туристической и образовательной миграции из Узбекистана в Турцию.*

Ключевые слова: *турецкие телесериалы, мягкая сила, Узбекистан, корреляционный анализ, культурная дипломатия, влияние СМИ.*

Soft power is a concept that defines a country's capacity to influence other societies not through coercive means (such as military or economic pressure), but through cultural appeal and ideological attraction. Introduced by Joseph Nye, this concept has gained increasing prominence in modern diplomacy (Nye, 2004). In this context, media — particularly television dramas — have emerged as effective tools for disseminating soft power. Over the past two decades, Turkish television dramas have achieved remarkable success on a global scale, promoting Türkiye's cultural values and lifestyle to international audiences. These series are now widely watched across the Middle East, the Bal-

kans, Latin America, and Central Asia, serving as instruments of cultural diplomacy that shape positive international perceptions of Türkiye.

This study examines the influence of Turkish television series on the Uzbekistani public. Uzbekistan, a Central Asian country with deep-rooted historical, cultural, and linguistic ties to Türkiye provides a relevant context for exploring how Turkish dramas affect viewers. The research specifically addresses whether the popularity of Turkish television series in Uzbekistan has contributed to increased touristic and academic interest in Türkiye. Moreover, it evaluates the extent to which this influence can be measured using empirical data.

The main research questions are as follows: How does the widespread presence of Turkish television series in Uzbekistan affect interest in Türkiye? Can this effect be empirically demonstrated by increases in the number of tourists and students?

The concept of soft power was first introduced by Joseph Nye in the 1990s and comprehensively elaborated in his 2004 book *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. Nye defines soft power as follows: “The ability to get what you want through attraction rather than coercion or payments. It arises from the attractiveness of a country’s culture, political ideals, and policies” (Nye, 2004, p. 5). In this context, media and products of popular culture serve as key instruments for the dissemination of soft power.

Television dramas represent a tangible vehicle of soft power. Beyond their economic value as exports, they promote a nation’s cultural values and way of life on a global scale. Turkish television dramas, characterized by strong narratives, high production values, and universal themes, have gained a vast international following. Particularly in countries with historical and cultural ties to Türkiye — such as Uzbekistan — these series help cultivate a positive perception of Türkiye. For instance, Turkish dramas often depict themes such as family values, hospitality, and modern lifestyles, which resonate culturally with Uzbek audiences.

This study employs a mixed-methods approach, combining qualitative document analysis with correlation analysis. It compares the number of Turkish television series exported to Uzbekistan with the number of Uzbek tourists visiting Türkiye and the number of Uzbek students enrolled in Turkish educational institutions during the same years.

- Ministry of Culture and Tourism of the Republic of Turkey: Tourism statistics (2010 – 2023)
- Council of Higher Education (YÖK) and Türkiye Scholarships: Student enrollment data (2010 – 2023)
- Media distribution agencies (Global Agency, Inter Medya, TRT): Export data on Turkish series
- Platform-based research (e.g., Netflix): Viewer statistics for Turkish series in Uzbekistan.

Pearson’s correlation coefficient was employed to measure the strength and direction of relationships between the variables.

Annual data on drama exports, tourist arrivals, and student enrollments were compared and visualized.

Data were processed and analyzed using SPSS software.

The aim of this methodology is to empirically test the hypothesis that the export of Turkish television series contributes to increased touristic and academic engagement from Uzbekistan to Türkiye.

The findings obtained through document analysis and correlation techniques reveal the following:

A very strong positive correlation ($r = 0.94$) exists between the export of Turkish television series and the number of Uzbek tourists visiting Turkey between 2010 and 2023.

Yıl	Satılan Dizi Sayısı	Özbek Turist Sayısı	Özbek Öğrenci Sayısı
2010	4	22.000	1.500
2015	8	32.000	2.600
2018	12	47.000	3.800
2021	16	61.000	5.200
2023	20+	73.000	6.000+

A strong positive correlation ($r = 0.91$) exists between the export of Turkish television series and the number of Uzbek students enrolled in Turkish universities during the same period.

These findings demonstrate that the influence of Turkish television series in Uzbekistan is not limited to cultural consumption; it extends to tangible behavioral outcomes such as tourism and educational migration. For instance, between 2010 and 2023, the number of Turkish dramas sold to Uzbekistan corresponded with a 150% rise in Uzbek tourists and a 120% rise in Uzbek students choosing Türkiye.

Graphical analyses reveal a clear parallel among the three variables: television series exports, tourist arrivals, and student enrollments. This supports the hypothesis that Turkish dramas function as a strategic soft power tool capable of producing measurable socio-economic effects.

The findings indicate that Turkish television dramas function as an effective instrument of soft power in Uzbekistan. The historical and cultural bonds between Türkiye and Uzbekistan amplify this influence. While correlation does not imply causation, the temporal alignment between increased viewership of Turkish series and the rise in Uzbek tourists and students is noteworthy.

The growing accessibility of Turkish dramas via global platforms such as Netflix has fur-



ther enhanced this impact in the digital sphere. These platforms enable broader and faster dissemination of cultural content, reinforcing Turkey's presence in the Uzbek media landscape. Additionally, the recurring themes of family, hospitality, and balancing tradition with modernity resonate deeply with Uzbek cultural values. Rather than being perceived as foreign, Turkish narratives offer familiarity and emotional relevance to Uzbek viewers.

Thus, the combination of cultural proximity, strategic media export, and digital distribution has positioned Turkish dramas as a powerful vehicle of soft power. The measurable behavioral outcomes observed — namely, increases in tourism and educational migration — demonstrate the effectiveness of cultural products in shaping public opinion and personal decisions abroad.

This article has empirically demonstrated the soft power impact of Turkish television series on Uzbek society. The export of Turkish dramas has been statistically validated as a factor contributing to increased touristic and academic interest

in Türkiye. These findings confirm that Turkish dramas are not merely entertainment products but integral components of public diplomacy and cultural export strategies.

The case of Uzbekistan shows that the influence of Turkish dramas extends beyond high viewership ratings. They have served as catalysts for tangible outcomes such as travel motivations, interest in Turkish language and culture, and pursuit of educational opportunities in Türkiye. Therefore, cultural export should be considered not only as an economic activity but also as a strategic and diplomatic instrument.

For future research, it is recommended that similar analyses be conducted in other Central Asian countries, such as Kazakhstan and Turkmenistan, to evaluate the broader regional impact of Turkish cultural diplomacy. Further qualitative studies could also explore the psychological and sociological effects of Turkish dramas on Uzbek viewers, offering deeper insights into how media consumption translates into identity formation, value shifts, and social behavior.

References:

1. Dereli M., & Güngör T. (2023). Dijital diplomasi ve kültürel aktarım: Netflix Türkiye örneği. *Journal of Communication and Social Studies (DergiPark)*.
2. Fikirturu.com. (2022). Türk dizilerinin uluslararasılaşma serüveni – Latin Amerika örneği. Retrieved from <https://fikirturu.com>
3. Kayıp Rıhtım. (2023). Netflix & Kantar Public: Türk yapımları küresel etki analizi. Retrieved from <https://kayiprihtim.com>
4. Nye J. S. (2004). Soft power: The means to success in world politics. *PublicAffairs*.
5. Republic of Türkiye Ministry of Culture and Tourism. (2010–2023). Tourism statistics. Retrieved from <https://www.ktb.gov.tr>
6. Türkiye Bursları. (2010–2023). International student statistics. Retrieved from <https://www.turkiyeburslari.gov.tr>
7. Yükseköğretim Kurulu (YÖK). (2010–2023). Higher education data. Retrieved from <https://www.yok.gov.tr>

Mashrabjon ERMATOV,
O'zbekiston xalq hofizi,
O'zDSMI "Musiqali teatr san'ati" kafedrası professori

FARG'ONA – TOSHKENT MUMTOZ MUSIQIY JANRLARI. KATTA ASHULA JANRI KESIMIDA

Annotatsiya. Mazkur maqola Farg'ona – Toshkent mumtoz musiqiy janrlaridan biri Katta ashula san'atiga bag'ishlangan bo'lib, unda mazkur janrning kelib chiqishi, musiqiy shakli, ritmik uslubi hamda so'z va soz mutanosibliklari haqida fikr yuritiladi. Katta ashula san'ati doirasida hofizlik, g'azal va muhammas kabi she'riy shakllarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, patnis va samo kabi tushunchalarning mazmuniy ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: janr, katta ashula, hofiz, samo, ashula, patnis, g'azal, muhammas.

Аннотация. Данная статья посвящена искусству Катта ашула, являющемуся одним из классических музыкальных жанров Фергано – Ташкентской школы. В статье рассматриваются происхождение жанра, его музыкальная структура, ритмический стиль, а также взаимосвязь текста и мелодии. Особое внимание уделяется таким понятиям, как хафиз, газель, мухаммас, само и поднос, а также их роли в рамках исполнения Катта ашула.

Ключевые слова: жанр, Катта ашула, хафиз, само, песня, поднос, газель, мухаммас.

Abstract. This article examines Katta Ashula, one of the classical musical genres of the Fergana – Tashkent tradition. It discusses the genre's origins, musical form, rhythmic style, and the interplay between lyrics and melody. The paper also explores the significance of poetic forms such as ghazal and muhammas, as well as the conceptual role of terms like hafiz, samo, and patnis in the performance of Katta Ashula.

Keywords: genre, Katta ashula, hafiz, samo, song, patnis, ghazal, muhammas.

O'zbek mumtoz musiqasining eng bebaho janrlaridan biri katta ashuladir. Zero bu janrning kelib chiqishida, rivojlanishida aynan maqomlarining alohida o'rne bor. Bunday deyishimizga sabab, Farg'ona – Toshkent maqomlarining yaralishida, shakliy asosga ega bo'lishida katta ashula namuna sifatida xizmat qilgan. Buni barcha yoshi ulug' ustozlarimiz ko'p bora ta'kidlab o'tishgan.

Farg'ona – Toshkent maqomlari Farg'ona vodiysi va Toshkent musiqiy ohanglariga boy bo'lib, tuzilishiga ko'ra sodda, xalqchil ashulalarni eslatadi, ba'zi asarlarda doira usuli to'xtab, katta ashulasifat musiqiy bo'laklar ham uchraydi [3,46-b]. Ustozlarning aytishlaricha va mantiqan fikrlaganda eng sodda, jo'n musiqiy

soz, musiqa va umuman san'at asari qadimiy hisoblanadi. Qalban ijod etilgan asarning simmetriyasi, hisobi (metroritmikasi, usul birligi,) aniq bo'lmaydi. Farg'ona – Toshkent maqomlarining musiqiy matn tuzilishi aynan shu parametrlarga mos bo'lib, Markaziy Osiyodagi eng qadimiy maqomlardan biri ekanligidan darak beradi. Mazkur maqom adabiyotlarda Bayot Sheroziy, Chapandozi Bayot, Nasrulloi, Nog'ora Bayot, Yovvoyi Ushshoq, Chorgoh va hatto Navoiyning g'azallarida ham aynan Farg'ona-Toshkent maqomlari safiga kiruvchi maqomlar borasida so'z yuritiladi.

Farg'ona – Toshkent maqomlari ustoz maqomdonlar tomonidan ko'p o'rganilgan, o'tgan asrning o'rtalarida yashab ijod etgan

san'atkorlar asrab-avaylab, shu kungacha yetib kelishiga sababchi bo'lishgan. Asosan, akademik Yunus Rajabiy Farg'ona – Toshkent maqomlarini “Shashmaqom” nomli besh jildlik kitobiga Shashmaqom bilan bir qatorda kiritib ketgan [1]. Bundan maqsad – bu asarlarning nota matnlarini saqlab qolish edi. Sovet davrida ustozlarimiz maqomlarni yozish u yoqda tursin, nomini aytishdan tiyilar edilar. Chunki bu asarlar atoqli adabiyotshunos olim Abdurauf Fitratning buyurtmasi bilan, etnograf olim V.Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga olinib, “Шесть поэм” (Oltita asar) deb nomlangan [4]. Kommunizmga tomon olg'a borayotgan paytlarda maqomlar feodal musiqa sifatida qoralangan. Vaqtlar o'tib notadagi asarlar jonlantirilib, jo'rovoqlik va yakka xolda ijro etildi. Shunday bo'lsa-da, yurtimizdagi uch vohta (Xorazm va Farg'ona – Toshkent) maqomlarini hammasini negizi bitta Shashmaqom deb ko'rsatishga urinishgan, bundantashqari Farg'ona–Toshkent maqomlarini “Chormaqom” (to'rt maqom) [2,17-b], Xorazm maqomlarini Olti yarim maqom deb nomlashgan. Buning sababi, O'zbeklarning milliy merosi “Rus og'amiznikidan” ko'p bo'lmasligi, Ruslardan ko'ra qadimiyroq xalq ekanligimiz bilinib qolmasligi kerak edi. Maktablardagi “SSSR tarixi” kitobida yozilishicha, O'rta Osiyo xalqlari eramizdagi XI asrda endi davlatchilik tashkil qilgandi, degan afsonaga mos bo'lishimiz kerak edi. Feodal musiqa bo'lmish maqomlarimizning paydo bo'lish tarixi esa aynan davlatchilik shakllanishi bilan bog'liq.



Katta ashula esa, paydo bo'lishi jihatidan maqomlardan oldin vujudga kelib, ma'lum mezon va qonuniyatlarga asoslangan mustaqil hamda yetuk bir san'at turi sifatida Toshkent–Farg'ona musiqa ijrochiligi maktabining alohida yo'nalishi hisoblanadi. Bu nafis san'atni yaxshi biladigan, mukammal egallagan ustozlardan o'rganish,

targ'ib etish va shu yo'lda yangi namunalarni ijod etish eng muhim vazifalardan biridir.

Katta ashula san'ati ma'lum tarixiy jaryonlarni boshdan kechirgan, xalqning ijtimoiy, siyosiy hamda ma'naviy ehtiyojlari o'laroq, hayotida o'z izini qoldirib kelayotgan betakror aytimlar sirasiga mansub. *“Ma'lumki, katta ashulalar ikki xil bo'ladi: birinchisi maqom pardalari, ya'ni musiqiy til bilan aytganda maqom pardasida ijro etilgan va bastakorlar tomonidan yaratilgan katta ashulalardir. Aslida, katta ashula janri juda qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi hozirgi kunda mutaxassislar o'rtasida ko'plab baxs va munozaralarga sabab bo'lmoqda”* [3,25-b]. Ba'zi musiqashunoslar bu janrni *“diniy mazmundagi musiqalar bilan bog'liq”* desa, boshqalari esa *“katta ashulachilik she'rlarni baland ovozda, yuqori pardada kuylash orqali vujudga kelgan”*, deydi.

Mutaxassislar orasida ushbu san'atni qadimda musiqiy sozlarni sotib olishga qurbi yetmagan baland ovoqli xonandalarning san'ati, deguvchilar ham bor. Hozirgi kunga qadar katta ashula janrining qayerda va qachon kelib chiqqani haqida aniq dalillar topilgan emas. Mutaxassislar va xonandalarning turli manbalardagi katta ashula haqidagi fikrlari musiqashunos olim Rustam Abdullayevning *“Katta ashula janri va ijrochilari”* deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida keltirilgan. Qo'qonlik hofizlar esa katta ashula *“Samo”* ma'nosiga yaqin bo'lib, shunday musiqalardan kelib chiqqanini ta'kidlaydi.

Mashhur katta ashula ijrochilaridan Akbarali Boboyev, Mamadali Yusupov, Sobirjon Azizov, Saidali Hoshimovlar bu san'atni katta xonalarda hamda ochiq havoda musiqiy sozlarsiz ijro etilgani uchun katta ashula deyishgan. Maqsud Hamidov, Inomjon Isroilov, Odiljon Yusupov, Mamadaziz Umarov, Erkin Haydarov, Orifhoji Alimahsumov va boshqa xonandalar bu janrning ijrochiovozlari kuchli hamda katta bo'lish ilozimligi, har-bir eshituvchini mahliyo qilishi bilan ushbu nom berilgan degan fikrni bildirganlar. Muxsinjon Mirzaxojaev, Temurbek Baratovlarning nazarida esa katta ashula janrining she'rlari qadimda juda chuqur, purma'no, diniy bo'lganligi, avjlari ham juda yuqoriligi sababli, katta atamasi qo'shilgan [2, 23-b].

Katta ashula janriga nisbatan yana *“patnis ashula”*, *“patnisaki ashula”* nomlari ham qo'llaniladi. Bunday nomlanish aslida xonandalar likopcha yoki temirli patnislarni qo'llarida ushlab

aytganlari sababli yuzaga kelgan. O'zbek musiqasi tadqiqotchilari va katta ashula ijrochilari bu janrning barcha sifatlarini hisobga olgan holda ya'ni musiqiy yo'lining uzunligi, she'riy matnning ma'nodorligi va boshqa xislatlari uning nomlanishiga mos ekanligini ta'kidlaydilar.



“Yovvoyi Chorgoh”ning uch xonanda ijro etadi. Dastlab daromad va miyonxatida aniq usul likoblarda bildirilib, uchchala xonandalar birga ijroni boshlaydilar. “Yovvoyi Chorgoh”ning o'rta avj va dunasr qismlarida dastlab usulsiz, ya'ni tremola qismida ovozi nisbatan pastroq bo'lgan xonanda bir xatini ijro etadi, xat yakuniga yetmay turib, uning oxirgi harflaridan ovozi nisbatan yuqoriroq bo'lgan xonanda ikkinchi xatni ulab ketadi.

Xuddi shu ko'rinishda uchinchi xonanda ikkinchi xonandaning so'zlarini ulab, keyingi xatni ijro qiladi va to'rtinchi xatdan boshlab uchchala xonanda yana birgalikda davom ettiradilar. Asar ijrosi avjiga kelganda yana usulsiz qismi boshlanadi. Endi ovozi eng baland bo'lgan xonanda ijroni davom ettiradi. U yuqori pardalarni chiroyli qochirimlar bilan olib kelib, ovozi nisbatan pastroq bo'lgan xonandaga ijroni topshiradi. U ham o'z navbatida, birinchi xonandaning ovozini keyingi xatga ulaydi. Uchinchi xonanda ham shu tariqa davom ettiradi va yana birgalikdagi ijro usuli bilan furovard qismi yakunlanadi. “Yovvoyi Chorgoh – katta ashulasining nafaqat ladlari va pardalari maqomlardan olingan balki musiqiy yo'llari ham aynan maqomlardandir. Asarning maqomlardagi Chorgohlardan farqi faqatgina ijro uslubida namoyon bo'ladi” [1,64-b]. Chorgoh pardalari majmuasining musiqiy sozlarsiz ijro turi aynan shunday bo'lishi kerak. Cholg'u asboblari bilan esa rosmiyan maqom o'z pardarida ijro qilinadi.

Katta ashula janriga o'xshash, ya'ni cholg'u asboblarsiz ijro etiladigan janrlar mam-

lakatimizning boshqa vohalarida ham mavjud. Masalan, Xorazm dostonlaridagi rekitativ, ya'ni nutq bilan aytiluvchi qismlar; Buxoro mavrigi va buxorochoa janrlarining boshlanishidagi – doira usulisiz qismlari; shuningdek, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida mavjud bo'lgan aytim, ya'ni eslash, yod olish kabi kuylash janrlari ham mavjud. Ammo Farg'ona – Toshkent maktabining katta ashula janri bu borada nisbatan mukammal va o'ziga xosdir.

Yana bir ilmiy manbada yozilishicha, katta ashula ikki va undan ortiq xonandalarning musobaqasi orqali shakllangan. Ko'rik-tanlovning o'ziga xos shartlari bo'lgan:

- *birinchidan*, katta ashula ijrochilari boshlaydigan pardalarini va o'z ovoz ko'lamini aniq bilishlari lozim, aks holda avj qismiga yetolmay qiynalib qolishlari mumkin. Bu xonandalardan eshitish qobiliyatining o'tkirligini talab etadi;

- *ikkinchidan*, aniq doira usulisiz ashula aytish xonandalar uchun badihago'ylikda va ovoz go'zalligini namoyon qilishda yanada erkinlik yaratib beradi. Bu xonandalardan kutilmagan nola va qochirimlar orqali yurak dardini ko'rsatib bera olishni talab etadi;

- *uchinchidan*, agar xonandalar ashulaning so'zlarini esidan chiqarib qo'ysalar (bu aslida barcha xonandalarda uchraydigan holat), boshqa so'zlarni aytish va yamlash orqali sozlarini balandroq chalib, ovozlarini pastroq chiqaradilar. To'g'ri ma'noda, sozning orqasiga berkinadilar. Katta ashula ijrosida buning hech iloji yo'q. Demak, so'zlarni to'liq yodda saqlash ham ko'rik tanlovning muhim jihatlardan biri sanaladi.

Bundan tashqari, aruz vazni tuzilmasini, ya'ni ritorikasini yuqori ovozda ma'lum qonuniyatlar bilan to'la-to'kis ijro etish ham asosiy vazifalardan biri bo'lgan. Uning musiqiy pardalari o'zgarishi, maqomlar pardalariga moslanishi keyinchalik paydo bo'lgan omillardandir.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarida faqat ovoz orqali ijro etiladigan janrlar juda ko'p. Ayni paytda kam uchraydigan folklor janrlaridan biri qo'g'irchoqbozlik va dostonchilikdir, o'sha davrlarda doira bilan va umuman cholg'u sozlarsiz ijro etiladigan dostonlar ham mavjud bo'lgan. Shuningdek, mumtoz shoirlarning o'tkir g'azallarini o'qiydigan xonandalar hozirgacha saqlanib kelgan qo'shiq, lapar, yalla, aytishuv janrlari, uch voha maqomining aytim yo'li saqlanib qoldi va ijodiy izlanishlarga sabab bo'ldi.



Bastakorlar tomonidan yaratilgan katta ashulalarda she'rning ma'no-mohiyatiga mos ravishda pardalar va musiqiy yo'l tanlanadi. Ijrochilar esa ba'zan birgalikda yoki yakka holda ijro etishi mumkin. Katta ashulalarning ichida shundaylari borki, bu asarlarni ikki xo-

nanda ijro etmasa bo'lmaydi, chunki ularning so'zlari va musiqiy matni bir ijrochi uchun qiyinchilik tug'diradi. Masalan, Jo'raxon Sultonov ijrosidagi "Oh kim", "Ko'kardi Chaman", "Ey sanam", "Yodimga tushdi", Mamurjon Uzoqov ijrosidagi "Yolg'iz", "Dog'man", "Ko'p noz-u itob etma", "Yor istab" va shu kabi ashulalarda xonandalar birgalikda ijro etganlar. Orif Alimahsumov ijrosida "Ko'p erdi", "O'xsharsiz", "Ey dilbari janonim", Fattohxon Mamadaliyev ijrosida "Topmadim", "O'zbekistonim" kabi katta ashulalarni esa yakka holda ijro qilsa bo'ladi.

Katta ashulani o'rganishda ustozlar o'ziga xos atamalarni qo'llashadi: karnay qilish, taroq qilish, ovozni tikka qilish, munojat va yig'lash kabi atamalar faqat katta ashula janri ijrochilari orasida keng tarqalgan ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://enc.mail.ru/article/?1900129834>
2. Иброҳимов О. "Фергано – Ташкентские макоми". – Ташкент: Медиа ланд, 2006.
3. Y. Rajabiy "Shashmaqom" 6 jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
4. Rajabov I. "Maqomlar masalasiga doir". – Toshkent: San'at, 1954.
5. Abdullayev R. dissertatsiyasi "Katta ashula janri va ijrochilari". 1982.
6. Matyakubov Sh. "An'anaviy ijrochilik tarixi". – Toshkent: Musiqa, 2015.

Улбиби АБДУЛЛАЕВА,
профессор кафедры «Вокал» Нукусского филиала ГИИКУз
Айсулуу РАЗАТДИНОВА,
студентка 2 курса Нукусского филиала ГИИКУз

АНАЛИЗ МУЗЫКАЛЬНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КУТТИМ КЕЛМЕДИН» КОМПОЗИТОРА У.АБДУЛЛАЕВОЙ

Аннотация. В статье рассматриваются музыкально-структурные особенности ромansa “Куттим келмедин”, что позволит добавить еще один важный вклад в анализ произведения. Следует обратить внимание на то, как композитор У.Абдуллаева использует определенные музыкальные приемы для усиления эмоциональной атмосферы композиции. Структура песни, возможно, построена с использованием характерных для ромansa пауз, акцентов, смены тональностей, что способствует постепенному нарастанию драматизма и усилению чувства утраты. Таким образом, музыка становится не просто фоном для слов, а полноценным выразительным средством.

Ключевые слова: романс, композитор, текст, лирика, вокал, партия, аккомпанемент, автор, колорит, жанр.

Annotatsiya. Maqolada “Kuttim kelmedin” romansining musiqiy-tuzilish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu asar tahliliga yana bir muhim qatlam qo‘shish imkonini beradi. Kompozitor U.Abdullayeva kompozitsiyaning emotsional muhitini kuchaytirish uchun muayyan musiqiy usullardan foydalanishiga e‘tibor qaratish joiz. Qo‘shiqning tuzilishi romansga xos bo‘lgan pauzalar, urg‘ular, tonalliklarning o‘zgarishi bilan qurilgan bo‘lishi mumkin, bu esa dramatzmning asta-sekin o‘shishiga va yo‘qotish hissining kuchayishiga yordam beradi. Shunday qilib, musiqa so‘zlar uchun fon emas, balki to‘laqonli ifoda vositasiga aylanadi.

Kalit so‘zlar: romans, kompozitor, matn, lirika, vokal, partiya, akkomponement, avtor, kolorit, janr.

Abstract. The article examines the musical-structural features of the romance “Kuttym kelmedin”, which will add another important layer to the analysis of the work. It is worth noting that U.Abdullaeva uses certain musical techniques to enhance the emotional atmosphere of the composition. The song’s structure may have been built using pauses, accents, and tonal changes characteristic of romance, which contributes to the gradual increase of drama and the intensification of loss. Thus, music becomes not just a background for words but a full-fledged means of expression.

Keywords: romance, composer, text, lyricism, vocal, part, accompaniment, author, color, genre.

Романс занимает особое место в истории вокальной музыки, являясь одним из самых выразительных жанров камерного искусства. Его истоки уходят в европейскую музыкальную традицию, где “romance” обозначал бытовую песню на народном языке. Со временем жанр приобрёл особое значение и в национальных культурах, в том числе и в каракалпакской, где романс стал подлинным воплощением лирической задушевности.

Главная особенность ромansa заключается в том, что он объединяет поэтическое слово и музыкальную мелодику, создавая единое ху-

дожественное пространство. Через вокальное исполнение романс раскрывает тончайшие оттенки человеческих чувств – от радости и вдохновения до грусти и разочарования. В нём находят отражение философские размышления о жизни, природе, любви и духовных поисках человека.

Актуальность исследования данного жанра определяется его устойчивым влиянием на развитие вокальной музыки, а также сохранением интереса слушателей и исполнителей к романсу в современном культурном пространстве.

Жанр романса, возникший в европейской и русской музыкальной культуре, со временем получил развитие и в национальных школах Средней Азии, в том числе в Каракалпакстане. Приобретая новые художественные формы, он прочно вошёл в камерно-вокальное творчество каракалпакских композиторов, обогатив национальное искусство новыми выразительными средствами.

Особенностью каракалпакского романса является его тесная связь с народным песенным наследием. В основе мелодики часто лежат интонации традиционных каракалпакских песен – протяжных лирических жыров и обрядовых мелодий. Это придаёт романсам национальный колорит и делает их особенно близкими слушателю.

Тематика каракалпакских романсов во многом перекликается с мировыми образцами: это размышления о судьбе человека, красоте родной природы, чувствах любви и разлуки. Однако в них ярко проявляется и своеобразие национального характера: глубокая эмоциональность, певучесть мелодии, философское отношение к жизни.

В развитии жанра романса в Каракалпакстане заметную роль сыграли композиторы второй половины XX – начала XXI веков: Кенесбай Абдуллаев, Курбанбай Заретдинов, Улбиби Абдуллаева, Нажимаддин Мухаммеддинов и другие. Их вокальные произведения демонстрируют умелое соединение европейских форм камерного романса с традиционной каракалпакской мелодикой.

Таким образом, романс в каракалпакской музыке стал жанром, который не только отразил эмоциональную и духовную сферу человека, но и способствовал сохранению и художественному переосмыслению национальных песенных традиций.

Романс является более лирическим произведением, чем песня. В связи с тем, что романс обычно выражает любовное чувство, в нём всегда присутствует или подразумевается адресат, т.е. романс в каком-то смысле должен иметь диалог, хотя бы и внутренний [1, с-1]. Различные направления этого жанра (элегия, баллада и др.) предоставляли богатые возможности для создания характерных музыкально-поэтических тем и образов. Образцами служили шедевры каракалпакского романса: С.Палванова «Келип кет» (слова Ажинияза), М.Жиемуратова «Алтын кол» (слова Т.Кабулова), Г.Аманиязова «Сени суйген бахарим» (слова Т.Матмуратова),

У.Абдуллаевой «Куттим келмедин» (слова Г.Заримовой) и др. Романсы этих композиторов являются лирическими произведениями, выражающими внутреннее любовное чувство. Стихи этих романсов мелодичны, напевны, трогательны и нежны [2, с-47].

Начальный этап в развитии жанра романса у каракалпакских композиторов сыграл важную роль в формировании музыкальной культуры региона. В это время, несмотря на влияние традиционной народной музыки, начало развиваться новое направление, которое сочетало элементы западноевропейской музыкальной классики с уникальными мелодическими особенностями Каракалпакстана [2, с-54].

В Каракалпакстане в 60-е годы с помощью специалистов Узбекистана развивалось многоголосная музыка. В то время появляются мелодисты-композиторы как Ж.Шамуратов, Х.Турдыкулов, А.Хайратдинов, Р.Султанов, Г.Аманиязов, З.Лепесов, О.Алланазаров, Ш.Пахратдинов, К.Толегенов, К.Хилалов, Н.Каллибеков, профессиональные композиторы как Г.Демесинов, С.Палванов, М.Жиемуратов, Н.Мухамеддинов, А.Султанов, Д.Жанабаева и др., которые внесли большой вклад в развитии вокальной музыки. Ими было создано много песен на национальном колорите каракалпакской музыки [3, с-38].

Композиторы в конце 20 века заложили основы для дальнейшего развития романса, создав произведения, которые отражают как исторический контекст, так и глубокую эмоциональную палитру народа. Важным моментом этого этапа стало начало освоения каракалпакскими музыкантами западных музыкальных форм и техник, что, в свою очередь, позволило жанру романса адаптироваться и развиваться в рамках местной музыкальной традиции. Таким примером являются произведения каракалпакских композиторов С.Палванова на слова Ажинияза «Келип кет» [6, с-3].


А также романс У.Абдуллаевой на слова – Г.Заримовой «Куттим келмедин». Романс был написан композитором в 1987 году во время учёбы в консерватории. Автор текста является сверстником композитора Гулаш Заримова, в те времена тоже была студенткой Ташкентской Государственной Консерватории имени М.Ашрафи (дударистка). Первым исполнителем романса была заслуженная артистка Узбекистана, Каракалпакстана и Казахстана Роза Кутекеева.

Содержание текста – это лирическое стихотворение с любовной тематикой. Искренность, правда чувства, душевные переживания всё это – в стихотворении Г.Заримовой. Интенсивность духовных переживании и сила страданий достигают своего накала в последних двух строках куплета:

*Не ушын сен келмедин,
Менин куткенимди билмедин [6, с-61].*

В этом романсе все средства музыкальной выразительности: мелодия, гармонические краски и даже звучание аккомпанемента создают неповторимый художественный образ. Романс написан в простой трёхчастной форме в размере 6/8, характерном для каракалпакской музыки. За счёт медленного темпа (*Andante, cantabile*) размер 6/8 наполняется иным характером. Ритмический рисунок вокальной партии использует в большей части синкопирующий ритм, отсутствует вторая сильная доля такта, которая характерна для каракалпакского мелоса.

Музыка имеет лирический характер. Тема вокальной партии составляет плавные и мелодические движения с волнообразным строением. Она написана в небольшом диапазоне от фа 1-октавы до фа 2-октавы, движение мелодии очень удобно певцу. Фортепианный аккомпанемент романса пишется на фактуре арпеджио (фигурации арфы). Романс начинается с шести тактового фортепианного вступления, содержащего в себе своеобразный интонационный и тонально-гармонический аспект романса. Представляет собой и утверждает переменный лад As-dur и f-moll.



Первая часть написана в форме периода в тональности f-moll, состоящей из 3 предложений. По изложению музыкального языка первое предложение написано на первой строчке текста, второе предложение на второй строчке текста, а третье предложение на третьей и четвертой строчке текста. Каждая строка по 6 тактов. Остальные 2 строки (3,4) текста изложены в одно предложение. В вокальной партии первое и второе предложение тематически одинаковы (а, а1), третье предложение состоит из двух фраз которые тематически разные (в, с).

Схема I части:

1 строка	2 строка	3 строка 4 строка
а.	а ₁	б
6 т.	6 т.	6 т.

Во второй части по содержанию текста передается очень сильное переживание внутренних чувств и это выражается в музыке. Средняя часть в тональности с-moll приводит к усиленному напряжению романса. Здесь мы видим сочетание вокала и фортепиано в одно целое. Кульминация всего произведения достигается во второй строчке текста, используя самую высокую и длинную ноту фа второй октавы, затем фортепианная партия продолжает мелодическую линию и заканчивает эту мелодию. В речитативе мелодия идёт без сопровождения фортепиано, к спаду после кульминации, как бы образ успокаивает свое внутреннее переживание. Здесь тема мелодии взята из первой части - третье предложение (b1), но в другой тональности.



		Схема II части: (3 предложения)	
1 строка		2 строка	3 строка 4 строка
d 6 т.	e кульминация 4 т.		b ₁ речитатив 8 т.

Третья часть романса – это реприза первой части возвращается к основной тональности f-moll. По своей структуре имеет некоторое изменение в конце.

Схема III части:		
1 строка	2 строка	3 строка 4 строка
a 6 т.	a ₁ 6 т.	b 11 т.

Анализируя романс «Куттим келмедин» можно отметить, что в структуре формы есть намёк на форму рондальность. Во всех трёх куплетах 3, 4 строки стиха в мелодической линии встречается повторение темы (b), как бы напоминает о припеве вокальных произведений.

Также важным аспектом является мастерство Абдуллаевой в создании особой атмосферы, в которой каждый аккорд и каждая строчка подчеркивает эмоциональное напряжение и лирическую интенсивность. В романсе «Куттим келмедин» легко улавливается контраст между светлыми воспоминаниями любви и болезненной реальности расставания, что делает композицию столь глубоким и многозначным произведением [7].

Это произведение вошло в сборник У.Абдуллаевой, Т.Даулетмуратовой «Вокальные произведения каракалпакских композиторов» изданный в 1912 году, олицетворяя богатство и разнообразие каракалпакской музыкальной традиции. До сегодняшнего дня данное произведение широко используется в репертуаре вокалистов и неизменно занимает центральное место.

В заключении статьи следует отметить, что этот романс продолжает оставаться не только как выдающееся произведение музыкального искусства, но и выступает примером мощного средства выражения глубочайших человеческих переживаний.

Использованная литература:

1. <https://classic-musik.com/raznoe/44-zhanr-romansa>
2. Адамбаева Т. «Qaraqalpaq sovet muzikasınıń tariyxı». – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1985.
3. Надырова А. «Qaraqalpaq muzika tariyxı». – Ташкент: Сано-стандарт, 2018, 299 с.
4. Жабборов А. «Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари». – Ташкент: «Фан ва технология», 2014.
5. Пиязов Ж. «Ўzbek romansları». – Ташкент: 2021.
6. Абдуллаева У, Даулетмуратова Т. «Qaraqalpaq kompozitorlarınıń vokal shıǵarmaları». – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2012.
7. Со слов композитора профессора Улбиби Абдуллаевой.

G'anijon XUDOYEV,

O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi professori v.b,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro musiqa madaniyatida MAVRIGI SAN'ATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tub ildizlari XVII – XVIII asrlarga borib taqaluvchi mavrigi nomi ostida Buxoroda ijod etilgan "Buxoro mavrigilari"ning ham nazariy, ham amaliy jihatlarini ko'rib, Buxoro musiqa madaniyati kesimida ilmiy mushohada qilinadi. Shuningdek, yozma manbalarda "Mavrigi" turkumi tarkibiga kiritilmagan, biroq ijrochilikda qo'llanib kelinayotgan bir qator Buxoro xalq musiqa merosiga dahldor (bahri taval, mayda g'azal va h.k.) aytilmlarning aynan mavrigicha uslubda ijro etilishi bilan bog'liq amaliy jarayonlar san'atshunoslik kesimida tahlil qilinadi.

Kalit so'z: mavrigi, qo'shiq, turkum, payt, mavrigixon, bahri taval, mayda g'azal.

Аннотация. В данной статье рассматриваются как теоретические, так и практические аспекты «Бухарских мавригий», созданных в Бухаре под названием «мавриги», корни которых восходят к XVII-XVIII векам, в контексте древнебухарской музыкальной культуры. Также анализируются практические процессы, связанные с исполнением ряда произведений, относящихся к бухарскому народному музыкальному наследию (бахри тавил, майда газель и т. д.), которые не включены в категорию «мавриги» в письменных источниках, но по-прежнему используются в исполнении, в стиле «мавриги» в контексте истории искусства.

Ключевые слова: мавриги, песня, категория, период, мавригикхон, бахри тавил, майда газель.

Abstract. This article examines both theoretical and practical aspects of the "Bukhara Mavrigilari", created in Bukhara under the name "mavrig", the roots of which date back to the 17th-18th centuries, in the context of ancient Bukhara musical culture. It also analyzes the practical processes associated with the performance of a number of works related to the Bukhara folk musical heritage (bahri taval, mayda ghazal, etc.), which are not included in the category of "mavrigi" in written sources but are still used in performance, in the style of "mavrigi" in the context of art history.

Keywords: mavrigi, song, category, period, mavrigikhon, bahri taval, mayda ghazal.

Buxoro mavrigi aytilmlari tarixidan. Buxoro mahalliy aholisining "zullisonayn" (shir-u shakar) uslubiga asoslangan musiqa ijodiyoti xilma-xil janrlarda, oilaviy marosim to'ylari, xalq bayramlari va navro'z sayllaridan o'rin olgan qo'shiqlarda ufuirib, ularga betakrorlik bag'ishlab kelmoqda.

Ma'lumki, Buxoro shahri va viloyatining asosiy qismini o'zbek va tojik xalqlari tashkil etadi. Bu birodar ikki xalq ijodiy hamkorligi natijasida ko'plab musiqiy folklor janrlarida "zullisonayn", ya'ni "ikki tillik" (shir-u shakar) an'anasi qaror topganligini ko'rishimiz mumkin. "Chunonchi, ayrim xalq qo'shiqlari ayni vaqtning o'zida ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylangan. Odatda, qo'shiqning bandlari o'zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba'zan esa aksincha ham keladi.

Shuningdek, faqat bir tilda – yo o'zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo'shiqlari ham uchraydi [1,51-b]."

Qadim Buxoro saroy musiqasi haqida so'z borganda, "Mavrigi" nomi bilan yuritilayotgan musiqiy turkum namunalari ham diqqatni o'ziga tortadi. Olimlarning fikriga ko'ra, "mavrigi" so'zi Markaziy Osiyo xalqlari polietnik jihatlarining mushtarak hosilasi, turkiy va eroniy xalqlar madaniyatining sintezi bo'lib, buxorolik ijodkorlar ijrochiligida sayqal topgan mahalliy kaloritga ega, faqat doira jo'rnavozligida ijro etiladigan, kompozitsion jihatdan yaxlit ichki tizimga ega bir butun turkumdur [9,277-b]. Shunday ilmiy asoslangan ma'lumotlar ham borki, unda "Eronning mavrigi qabilasidan

bo'lgan mashshoqlar Buxoroga savdo-sotiq va turli yumushlar bilan kelishib, hordiq chiqarish ilinjida xirom aylab qo'shiq aytishadi. Ularning qo'shiqlariga shaydo bo'lgan ulus, so'rashadi: – qayerliksizlar?, – shunda ular: “Mavrigilikmiz”, deb javob berishadi. Shu-shu ular aytgan qo'shiqlar xalq orasida “mavrigi” nomi bilan yangray boshlaydi.

“Mavrigi” so'zi bevosita Turkmanistonning Mari shahri bilan bog'liq degan taxminlar ham yo'q emas. IX – X asrlarda Mari shahri Marv deb yuritilgan. Buxoroga eroniylar ilk bor tijorat hamda boshqa aloqalar maqsadida Marv orqali kelishgan. Mana shu yerdan kelib Buxoroda sokin o'rnashib olgan kishilar aytgan ohanglar, qo'shiqlar “Ohanghoyi Mavrigoho”, ya'ni, “Mavrigiliklar ohangi” deb yuritilgan. Ustozlarning aytishlaricha, bunga kamida 200 – 250 yillarcha bo'lib qolgan. Shu bilan ular aytgan qo'shiqlariga asta-sekinlik bilan Buxorocho ohanglar qo'shilib va ular kelgusida ustuvorlik qilib, “Buxorocho mavrigi” nomini ola boshlagan. Filolog olim Oxunjon Safarov bu masalani quyidagicha izohlaydi: “... “Mavrigi” nomi ro'y-rost ifodalab turganidek, tarix taqozosiga ko'ra ko'chirilib keltirilgan elatlarning qo'shig'i. “Mavrigi” aslida marvliklarning qo'shig'i bo'lib, tovush o'zgarishiga uchrab “Mavrigi” shaklini olgan (Hozir Turkmanistonga qarashli Mari shahri ilgari Marv deyilgan) [8,9-10-b]”. Buyuk musiqachi Borbad ham shu yerda yashagan, unga Borbadi Marviy yoki Marvaziy nisbasi ham shu boisdan berilgan. Shuning uchun ham Mavrigi san'atining kelib chiqish ildizi Borbad Marviy ijodiga borib taqalishi ehtimoldan holi emas.

O.Safarov, O.Atoev va F.To'rayevlarning yozishicha: “Qo'shiq va raqslarni turkum tarzida ijro etish Turon va Eron sarhadlarida yuzaga kelgan an'ana sifatida olis tarixga ega. Qadimgi ajdodlarimizning otashkada – ehromlarda “Avesto” gosa (qo'shiq)larini turkum-turkum holida kuylab, shu asnodan raqsga tushib, o'zlarining zardushtiy e'tiqodlarini toblaganlari tarixiy manbalardan ma'lum. Bu an'ana, xususan, eramizning IV – VII asrlarida yangi bir yuksalish kasb etgan. Bunda, ayniqsa, Turon va Eronda musiqa va qo'shiq ijrochiligidan benazir buyuk hofiz sifatida tanilgan Borbad (585, 589 – 623, 638)ning hissasi beqiyos bo'lgani manbalarda e'tirof qilingan” [9,32-33-b].

Borbad yaratgan kuy va qo'shiqlar ijrosi asosida shakllangan an'analardan bora-bora “Marvisray” (Marvisrang) yo'li sifatida e'tirof etila

boshlandi, davrlar o'tishi bilan bu ibora shaklan o'zgarib: “Mavriy”, “Mavrisaroy” (Mavricha ijro), “Mavrigiy”, “Mavriycha” qabilida iste'mol etila boshlandi. Bu jihatdan VI va VII asrlarda yuzaga kelgan “Daruki xursandik” (Dar odobi xursandiho – “xursand qiluvchi odoblar”) va “Farangi pahlavik” (“Pahlaviy lug'ati”) risolalarida qayd etilgan kuy va qo'shiqchilik uslubini ifodalovchi “murvaksray”, “murvaksrang” va “marvak” istilyohlariga oid ma'lumotlar alohida qimmatga ega.

Olimlarning fikrlariga tayanib, Borbadning sosoniylar saroyida kechgan musiqa faoliyati bilan bog'liq ayrim an'analardan Buxoro saroyiga ham ko'chganligini taxmin qilish mumkin. Har holda manbalarda Buxoro amiri Abdulahadxon (1885-1910) saroyida xizmat qilgan xushovoz hofiz Hasan Garoyli (vafoti 1900-y.) “Mavrigi”ni me'yoriga yetkazib ijro etgani haqida xabarlar keltiriladi [9,32-33-b]. Keyinchalik mavrigilar ko'chalarda, bozorlarda, xohlagan odam tomonidan, xohlagan pardadan ba'zan qichqirib, ba'zan yumshoq ovoz bilan aytila boshlangan.

Yuqoridagilardan shuni anglash mumkinki, mavrigi aytimlari yuzaga kelishida turli xalqlar (eron, o'zbek, turkman, tojik)ning musiqiy an'analari bir makonda tutashib “Buxoro mavrigisi” nomlanishi hamda bu holat mazkur namunalarning o'ziga xos sifatlarini belgilashda ustivor ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ladi.

“Mavrigi” turkumi tuzilishi va ijrochilik an'analari. “Mavrigi”ni ilmiy o'rganish ishida 2005-yili nashr yuzini ko'rgan “Buxorcha” va “Mavrigi taronalari” to'plami katta qiziqish uyg'otadi [9,277-b]. Ushbu to'plam mualliflari Oxunjon Safarov, Orif Atoev va Fayzulla To'rayevlar “Mavrigi” taronalarini ustozlar ijrosidan nafaqat yozib olishga, balki ma'lum darajada tasniflab berishga ham muvaffaq bo'lganlar. Unga ko'ra, “Mavrigi” turkumi uch paytgacha bo'linib, ularning har biriga shartli ravishda maxsus nomlar ham berilgan. Shunga ko'ra, birinchi payt “Shahd” deb nomlangan. Bu nom esa “Mavrigi” turkumining boshida kelgan (1-qism) hamda ijro etilishi erkin uslubda bo'lgan (ustoz va shogirdlar tomonidan cho'zib aytiladigan) “Shahd” nomidan olingan. Mazkur turkum yuqorida ko'rib chiqilgan “Mavrigi” namunasi tartibiga o'xshash ishlangan bo'lib, doira usulisiz kelgan sekin sur'atli qism bilan boshlanadi.

Shu o'rinda “Mavrigi” turkumi 1-bo'limining 1-qismida keluvchi “Shahd” nomli ashulaning daromadidan bir parcha keltiramiz:



Keyingi qismlar davomida dastlab 3/4 o'lchovli doira usullari ("Gardon", "Dilbari yagonayiman") kelib, so'ngra yengil (6/8) ufar usullari bilan almashinadi, "sekin-asta doiralar jazavaga minib, raqsga tushish qadar jo'shqinlik kasb etib boradi" [9,150-b].

"Mavrigi" turkumi quyidagi uch payt yoki uch bo'limda namoyon bo'ladi:

"Mavrigi" turkumining tuzilishi. Birinchi paytning nomlanishi yuqorida ta'kidlaganimizdek "Shahd" (Turkumning boshlanishi) nomi bilan yuritilib, ijro etilishi ko'zda tutilgan qismlar jami quyidagi 10 ta asarni o'z ichiga oladi.

Birinchi payt **"Shahd"**.

1. **"Shahd"**. Abdurahmon Jomiy g'azali.
2. **"Gardon"**. Buxoro xalq qo'shig'i.
3. **"Xumor dorad"** (*Xumori bor*). Furovard sifatida kuylanadi. Xalq to'rtligi.
4. **"Dilbari yagonayiman"** (*Manim yagona dilbarim*). Buxoro xalq qo'shig'i.
5. **"Man dar ajabu..."** (*Men ajabdamanu..*). Buxoro xalq qo'shig'i.
6. **"Soqi, man mastam..."** (*Soqiy, men mast erurman*). Buxoro xalq qo'shig'i.
7. **"Dar bog' anjil ast"** (*Bog'da anjir bor*). Buxoro xalq qo'shig'i.
8. **Shu qo'shiqning "Furovard"i** (*Tushurim*).
9. **"Yorakam dar xob, bedorash makun"** (*Yorginam uxlar, sen uyg'otmagil*). Buxoro xalq qo'shig'i.
10. **"Sarvi ravoni kistiy?"** (*Kimning sarvi raronisan?*). Buxoro xalq qo'shig'i.

Ikkinchi paytga berilgan "Chorzarb" nomi ham shu turkumning birinchi qismidagi maxsus atamadan kelib chiqadi. Musanniflar bu paytni ikki sho'baga, ya'ni qaysi tilda ijro etilishiga qarab tojikcha va o'zbekcha sho'balarga ajratib berganlar. Binobarin, tojikcha sho'bada butkul tojik tilida ijod qilingan she'rlar qo'llanilsa, ikkinchi payt o'zbekcha sho'basida esa o'zbek va tojik she'riyatidan keng foydalanilgan. Ikkinchi payt (bo'lim) tojikcha sho'baning ro'yxati quyidagicha keladi:

Ikkinchi payt **"Chorzarb"**.

1. **"Chorzarb"** (*tojik tilida*). Buxoro xalq qo'shig'i.

2. **"Gardon"** (*tojik tilida*). Mustaqil kuylanuvchi Buxoro xalq qo'shig'i.

3. **"Gula burdan ba haram"** (*Gulni haramga eltdilar*). Ahmad Jomiy (1049-1142) g'azali.

4. Yuqoridagi qo'shiqning **"Furovard"i** (*tojik tilida*).

5. **"Uf... dilam"** (*Oh dilim*). Buxoro xalq qo'shig'i.

6. **"Safedi man"** (*Oppog'im mening*). Buxoro xalq qo'shig'i.

7. **"Soqi - soqijon"** (*tojik tilida*). Buxoro xalq qo'shig'i.

8. Shu qo'shiqning **"Gardon"i** (*tojik tilida*).

9. **"G'am doram"** (*G'amxo'rim bor*). Buxoro xalq qo'shig'i.

10. **"Dardi dili man"** (*Dilim dardi*). Buxoro xalq qo'shig'i.

11. **"Hasanjon"** (*tojik tilida*). Buxoro xalq qo'shig'i.

12. **"Kam - kamak"** (*Oz-ozgina*). Buxoro xalq qo'shig'i.

13. **"Mehmon shudam"** (*Mehmon bo'ldim*). Buxoro xalq qo'shig'i.

14. **"Dar bog' budam..."** (*Bog'da edim..*). Buxoro xalq qo'shig'i.

O'zbekcha sho'bada esa asosan (1 va 6-qismlardan tashqari) o'zbek she'riyati namunalari kuylanadi:

1. **"Ey labad pur xanda-yu.."** (*Ey labing kulguga moyil...*) shir-u shakar (o'zbek-tojik tilida) uslubidagi Jomiy g'azali. Buxoro xalq qo'shig'i.

2. **Shishani zargarga berdim**. O'zbek xalq qo'shig'i.

3. **Gardon**. O'zbek xalq qo'shig'i.

4. **Ey sanami pariliqo**. Boborahim Mashrab g'azali. Buxoro xalq qo'shig'i.

5. **Olmaning bargidakkina**. O'zbek xalq qo'shig'i.

6. **"Қадду бастадба мурам"** (*Qaddu bastingga o'lay*). Yusuf qo'shig'i.

7. **Asiri ayladi dilbar**. O'zbek xalq qo'shig'i.

8. **Gardon**. Qo'shiq intihosi sifatida.

9. **Endi mani yor o'ldirsin**. O'zbek xalq qo'shig'i.

10. **Gardon** [9,35-36-b].

Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur o'zbekcha

sho'baning ilk qismi shir-u shakar tarzda, 6-qismi tojik tilida, qolgan barcha qismlari esa o'zbek tiliga mansub she'riy matnlar asosida kuylanadi. Quyida o'zbekcha sho'badagi 4-qismda keluvchi "Ey sanami pariliqo" asaridan bir parcha misol keltiramiz:

EY SANAMI PARILIQO

Mashrab g'azali



"Mavrigi"ning "avji" sifatida ko'rsatilgan **"Shikan-shikan"** (*tojik tilida*) nomi bilan atalgan **uchinchi payti** (bo'limi) quyidagi 10 qismdagi asarlarda namoyon bo'ladi:

1. **"Shikan-shikan"** (*tojik tilida*). Uch xalq ruboyisidan iborat. Buxoro xalq qo'shig'i.
2. **"Shirin labonad"** (*Shirin lablaring*). Buxoro xalq qo'shig'i.
3. **"Ey kaftari Shom"** (*Ey Shom kabutari*). 3 ta xalq ruboyisi.
4. **"Dilakam dilbarakam"** (*tojik tilida*). Tojik mumtoz shoiri Kamol Xo'jandiy g'azali. Buxoro xalq qo'shig'i.
5. **Noz-noz** (*tojik tilida*). Sa'diy Sheroziy g'azali. Buxoro xalq qo'shig'i.
6. **"Dilbar labi bom omad"** (*Dilbar kelur tom boshiga*). To'rtta xalq ruboyisidan tashkil topgan Buxoro xalq qo'shig'i.
7. **"Gardon"** (*tojik tilida*) yuqoridagi qo'shiqni xotimalovchi sifatida.
8. **"Maza dorad labi yor"** (*Yor labi mazali*). Buxoro xalq qo'shig'i. Jaloliddin Rumiy g'azali.
9. **"Guli surxi safed"** (*Qizil-u oppoq gulginam*). 3 ta xalq ruboyisi. Buxoro xalq qo'shig'i.
10. **"Chashmoni siyoh dori ..."** (*Qora ko'zlaringga..*). 3 ta xalq ruboyisidan hosil bo'lgan Buxoro xalq qo'shig'i [9,36-b].

Mavrigi turkumi to'rt doirachining to'rtta doirani chorqars usulida rez qilishi bilan nola-yu faryod solingan holda boshlangan bo'lsa, bo'limdan - bo'limga o'tgan sari tantanavorlik, jo'shqinlik ortib 6/8 takt o'ichoviga asoslangan doira usullari jo'rligiga qadar yuksalib, qo'shiq aytib raqsga tushiladi. Oxir-oqibat butun turkum shodlik tuyg'ulari tantanasi o'laroq o'z poyoniga yetadi.

Mavrigicha uslubda ijro etilgan aytimlar [12]. Mavrigixon ustoz san'atkorlar tomonidan

mavrigicha uslubda ijro etilgan qo'shiq va ashulalar ham mavjudki, ularni yuqorida berilgan "Mavrigi" turkumi tarkibida uchratmaymiz. Biroq ohang, kuy, usul tuzilmalaridagi yoki ayrim she'r matnlaridagi ba'zi bir o'xshashliklar borki, ularni yuqoridagi mavzularda kelgan aytimlarning she'riy matnlaridan kuzatish mumkin.

Mavrigicha uslubda ijro etilgan – "Mayda g'azal", "Bahri tavil", "Mavrigiya bahri tavilash" (*Mavrigining bahri tavili*) kabi maqom yoki ashula yo'llariga xos **"Kichik turkumli ashulalar"** bo'lsa, qo'shiq janriga xos: "Bale murg'ak" (*Alo murg'ak*), "Ushtur ba chaman" (*Tuya chamanda*), "Du par gazid" (*Ikki qanotli chaqdi*), "Qalandarat man" (*Qalandaring man*), "Aka mana donasho'rak" (*tojik tilida*), "Raftam ba Qorako'l" (*Qorako'lga borganimda*), "Biyo yak, biyo yak" (*Bir kelgin, bir kelgin*), "Jon burgam, azamat burgam"¹, "O'ng ko'zingiz qaysi" va boshqa bir qator hazil-mutoyiba qo'shiqlarni mavrigicha uslubida ijro etilganligini ko'rish mumkin.

Kichik turkumli ashulalar. Mayda g'azal. Maqom, Buxorcha, Mavrigi va xalq ohang-usullari omuxtaligida ishlangan hamda erkaklar va ayollar bazmlarida raqslar bilan ijro etiladigan **mayda g'azal** nomli kichik ashula turkumlari ham yuzaga kelgan. Mayda g'azal, odatda, raqssimon ufar yoki soqiynoma usullari asosida aytiladi. Bunda ko'pincha dastlabki she'riy misralar tojik tilida kelsa, keyingi misralari o'zbek tilida davom etadi.

Mayda g'azal ijrosida mavrigilarga o'xshab shahddan boshlanishi shart bo'lmay, balki ufar yoki soqiynoma usulida ham keladi. Bunday mayda g'azallar mavrigi, buxorcha va maqom ohanglarini xalq ohanglari bilan omuxta qilish asosida yaratilgan kichik xalq ashula turkumlaridan tarkib topadi. Mayda g'azal aksariyat hollarda olti yoki yetti daqiqa davom etgan. Lekin kekxa sozandalarning aytishicha,

¹ Bu sakkizta qo'shiq O.Safarov, O.Atoyev, F.To'rayevlarning "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari" nota nashridan olindi.

ayrim marosim va urf-odatlar vaziyatidan kelib chiqib ko'proq ham davom ettirilgan. Bunda turli tarixiy ijtimoiy shart-sharoitlarda shakllangan ijro rasmlari ta'siri sezilarli darajada bilinadi. Bunday mayda g'azallar "termalar" ham deb atalgan. Biz yuqorida keltirgan mayda g'azal ufar usulida bo'lib, erkaklar va ayollar to'y-marosimlarida ijro etilib raqsga tushilgan.

Fikrimizga dalil sifatida quyida mayda g'azalning daromadidan bir parcha misol keltiramiz:

MAYDA G'AZAL

Allegretto

Sh. G'ofurov ijro etgan,
G'. Xudoyev notaga olgan

Дил-ба-ри я-го - на-йи-ман о-фа-ти за-мо -
на-йи-ман. Ё-бу бар ба-хо - нет ин шаб Ё би-ё ба-хо - на-йи-ман.

An'anada mayda g'azallar mavrigilar tarkibiga alohida "qism" qilib ijro etilgan holatlar ham kuzatilgan. Buning natijasida mavrigilarning tojikcha va o'zbekcha variantlari paydo bo'la boshlagan. "Mavrigi ijrochiligida – Buxoro shahri atrofidagi tuman hofizlari ishtiroki natijasida o'zbekcha ijrolar yuzaga kelgan – degan taxminlar ham yo'q emas. Masalan; "Ho Layli, Layli", "Dilbari yagonayiman", "Endi mani yor o'ldirsin", "Dilakam-dilbarakam" kabi, yoki uchinchi paytdagi o'zbekcha sho'ba qo'shiqlari, shuningdek, tabiat haqida, qushlar haqidagi ("Bedana" kabi) o'zbekcha matndagi mayda g'azallar mavrigilar tarkibiga alohida "qism" holida kiritilib ijro etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, mavrigi va mayda g'azal termalari orasida ko'p yaqinliklar mavjud.

Bahri tavil. Kichik turkumli ashulalar sirasiga kiruvchi yana bir aytim Bahri tavil turkumi. Uning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "bahr" – "vazn" (to'lqin), "tavil" – "uzun" va "uzoq" ma'nolarini anglatadi.

Bahri tavilda o'ynoqi xalq qo'shiqlari ishlatilmay, mumtoz shoirlarning tub ma'no, jo'yali baytlaridan ko'p foydalanilgan (Bahri tavil she'riyatda asosan 20-25 hijodan iborat bo'lib, o'qishga qulay chiroyli tarzda, ma'lum bir ko'rinishi oq she'rga o'xshab

ketadi).

Bahri tavilning turkum xususiyati to'g'risida quyidagilarni keltirish mumkin. Mo'g'ulchai Segohning talqinidan boshlangan Bahri tavilda: Talqin, Ufari, Hay nozanin, Bo'y-bo'y, La'li labad, Shikan-shikan va shunga o'xshagan o'n ikki qism mavjud. Bahri tavilning boshqa bir namunasi – Dugoh maqomidagi Saraxbori Oromijondan boshlanib, unga Ufari Saraxbori Oromijon va yana o'nga yaqin Ufar usulidagi turli aytim qismlari ulanadi. Bahri tavilning bitta ohangda aytiladigan variantlari ham bo'lgan. Unda faqatgina g'azal o'zgarib turadi xolos. Mabodo bir kuyda ijro etib turilgan bahri tavilda g'azal misralari yetmay qolsa, unga boshqa shoirning shu vazndagi g'azali ham qo'shib aytilgan. Bahri tavilni asosan ikki kishi ijro etgan. Ijro jarayonida o'ziga xos musobaqa ham kuzatiladi. Ijro tartibiga ko'ra, bir-biridan o'tish, ya'ni birinchi ijrochi ashula hangini to'rt takt cho'zsa, ikkinchi ijrochi kamida olti takt cho'zish talab qilingan. Qaysiki, ijrochi ashula ohangini mo'ljallangan taktgacha yetkaza olmasa, shu ijrochi yutqizgan hisoblangan.

Biz keltirayotgan "Bahri tavil" – usul va ohang tuzilishi jihatidan aynan mavrigiga xos tarzda ijro etiladi. Quyida "Bahri tavil" ashulasinig daromad qismidan bir misol keltiramiz:

BAHRI TAVIL

Hofiz so'zi, Buxoro xalq ashulasi.

X.Xudoyev notaga olgan.

Allegretto

Гул ме ра-вам му-заф-фар до-ги
ди-лам ди-ло-ром гул-ме ра-вам гул-дас-там до-ги ди-лам ди-ло-ром



Shuningdek, Bahri tavilni ba'zan "Mavrigi" va "Buxorcha" (ayollar davrasida ijro etilgan turkumli asarlar) lar tarkibida ham uchratish mumkin. Bunda ularning she'rlari asosan yuqorida ta'kidlanganidek, mumtoz shoirlarning ijodidan olinib doira usullari *ufar* usulida kelgan.

Biz bu o'ziga xos kichik turkum tarzida ko'zga tashlanuvchi "Bahri tavil" ashulasini quyida keluvchi uning mantiqiy davomi bo'lgan "Mavrigiya bahri tavilash" (*Mavrigining bahri tavili*) aytimi borligi sabab mavrigicha uslubda ijro etilgan asarlar sirasiga kiritdik. Endi "Mavrigiya bahri tavilash" aytimining daromad qismidan bir namuna keltiramiz:

MAVRIGIYA BAHRI TAVILASH

(*Mavrigining bahri tavili*)

Bobo Abdullo ijro etgan mp3 yozuvidan,
G'anijon Xudoyev notaga olgan.



Yuqoridagi kuzatganimiz "Mavrigiya bahri tavilash" – "Mavrigining bahri tavili" ma'no va ohang mazmunidan shuni anglash mumkinki, "Bahri tavil"ning mavrigicha uslubda ijro etilishining o'ziga xos ko'rinishidir.

"Mavrigicha" uslubda ijro etilgan qo'shiqlar. "Mavrigi" ijrochiligining keng yoyilishi, ya'ni saroyda ijro etilishi bilan bir vaqtda, ko'chakuyda, bozor va boshqa joylarda ijro etilishi o'laroq, undagi ma'no va mazmunda ham biroz sodda va hazilomuz aytimlar ham ijro etilganligini ko'ramiz. Buni quyida keluvchi iqtiboslardan ham anglash mumkin.

"Mavrigi" tarkibida bir silsila hazil va lirik qo'shiqlar borki, ular alohida payt sifatida ijro etilmaydi, chunki qo'shiqlar maxsus payt ijrochiligiga muvofiqlashmagan, qolaversa, ular alohida payt shaklida qat'iy tartibga kirmagan, bazmning cho'zilishi taqozosi bilan ayrimlari yoki bir nechta ijro etilishi mumkin. Shu boisdan, ularni alohida payt sifatida ifodalash mumkin emas, ularni faqat qo'shimcha hazil va lirik

qo'shiqlar tarzida maxsus guruh sifatida e'tirof etish – "Mavrigi" turkumining xos tabiatini to'g'ri aks ettiradi [9,249-b].

Bu qo'shiqlarning ko'pchiligi hayvonlar, hasharotlar va parandalar ta'rifida, aksariyati takror zamirida qurilgan. Natijada ijrosida o'zgachalik yuzaga kelgan [9,249-b].

Mazkur qo'shiqlar sirasiga kiruvchi "Bale murg'ak" (*Alo murg'ak*), "Ushtur ba chaman" (*Tuya chamanda*), "Du par gazid" (*Ikki qanotli chaqdi*), "Qalandarat man" (*Qalandaring o'zim*), "Aka mana donasho'rak", "Raftam ba Qorako'l" (*Qorako'lga borganimda*), "Biyo yak, biyo yak" (*Bir kelgin, bir kelgin*), "Jon burgam, azamat burgam"², "O'ng ko'zingiz qaysi" kabi qo'shiqlarning ayrimlaridan kichik namunalar keltiramiz (*asarlarning to'liq nota ko'rinishi badiiy qismda berildi*).

Hozir keltirilayotgan tojik tilidagi "Bale murg'ak" (*Alo murg'ak*) qo'shig'i mavrigicha uslubda ijro etilgan bo'lib, aynan "Mavrigi" turkumida ham ijro etilgan vaqtlari bo'lgan. Biroq buxorolik ustoz san'atkor va olimlar tomonidan nashr ettirilgan "Buxorcha va Mavrigi taronalari" kitobida "Mavrigi" turkumi tarkibiga kiritilmay,

² Bu sakkizta qo'shiq O.Safarov, O.Atoyev, F.To'rayevlarning "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari" nota nashridan olindi.

balki, ilovadagi alohida “Hazil va lirik qo‘shiqlar” [9,236-249-b] bandida berilgan. Shu qo‘shiqdan bir namuna keltiramiz:

“BALE MURG‘AK” (A‘lo murg‘ak)

Allegro M.M. $\text{♩} = 120$ Суруди халқӣ (Xalq qo‘shig‘i)

Хо - ло мур - ғак, ба - ле, бе - чо - ра мур - ғак, ба - ле

Ба - ле мур - ға - кам, ба - ле, бе - чо - ра мур - ға - кам, ба - ле.

Endi keltirilayotgan misol o‘zbekcha aytinga bir namuna bo‘lib, “O‘ng ko‘zingiz qaysi?” deb nomlangan hazil-mutoyiba qo‘shiq hisoblanadi. Bu ham mavrigicha uslubda ijro etilgan qo‘shiqlar sirasiga kiradi.

O‘NG KO‘ZINGIZ QAYSI?

Allegretto $\text{♩} = 120$ Usta Bolta Navro‘zov ijrosidan
X.Xudoyev notaga olgan.

Dar yo - lar - ni yo - qa lab yo - qa lab soy ke - la - du - roy,

yor ke la - du - roy. Pa ran - ji - ga o' ra - lib o' ra - lib yor ke - la - du - ro

Yuqorida keluvchi bu qo‘shiqlar hozirgacha alohida mustaqil payt sifatida uyushmagan, aniqrog‘i, “Buxoro mavrigilari” turkumi tarkibida ichki bir qism shaklida qat‘iy tartibga kirmagan. Ularning aksariyati, bazmning cho‘zilishi yo xonandalar kayfiyati taqozosiga ko‘ra ijro etilishi mumkin bo‘lgan. Bunda ulardan qay birini oldin yo keyin ijro etish talabga yoki xonanda kayfiyatiga bog‘liq, namoyon bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Mavrigixonlik an‘analarida yangicha tamoyillarni ko‘ramizki, bular ijro shakllari turlicha kelishida, turkumlanish xususiyatlari har bir vaziyatga (sahna, musiqa festivali, to‘y marosimi va b.) mos kichik-katta yoxud turkumdan olingan alohida namuna, shuningdek, inson ovozidan tashqari yana musiqiy cholg‘ularda ham chalinishida ko‘zga tashlanadi.

Mavrigixonlikda xalq orasidan chiqqan iste‘dodlarning mumtoz an‘analarni ijodiy egallay bilishlari, shu asosda o‘ziga xos ashula va raqs turkumlarini yuzaga keltirish qobiliyatlari mujassam namoyon bo‘lishi hamda aynan shu kabi jarayonlarda mumtoz musiqiy an‘analarning xalqchil yo‘llari yuzaga kelishida yuksak ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001, 51 b.
2. Ашрафий М., Кон У. Народное музыкальное творчество // Музыкальнауа культура советского Узбекистана, очерки. – Ташкент: Фан, 1955.
3. Гафурбеков Т. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в Узбекской советской музыке. – Ташкент: Фан, 1987.
4. Джумаев А. К вопросу (проблеме) эволюции эстетических учений о макамате // Вопросы эстетики, истории и теории монодии. – Ташкент: Фан, 1987.
5. Ibrohimov O. O‘zbek xalq musiqa ijodi (Metodik tavsiyalar). O‘zR XTV Respublika o‘quv metodika markazi 1-qism. – Toshkent: 1994.
6. Назаров А. Книга песен Ал-Исфрахани в аспекте межрегиональных музыкально-транскультуративних процессов. Дис. канд. иск-й. – Ташкент: Биб-ка НИИ искусствознания, инв.1984, 812-с.

7. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006.
8. Safarov O. "Buxorcha" va "Mavrigi" turkumi // Guliston jurnali. – Toshkent, 1998. – № 3.
9. Safarov O., Atoyev O., To'rayev F. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. – Toshkent: Fan, 2005.
10. To'rayev F. Buxoro mug'anniylari. – Toshkent: Fan, 2008.
11. Forscha-o'zbekcha o'quv lug'ati. Universitet va pedagogika institutlarining talabalari uchun qo'llanma. Tuzuvchilar: A.Rustamov, Q.Karimov, Z.Umarov. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
12. Xudoyev G'.M. Buxoro mumtoz musiqa an'analari. Monografiya. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2024.
13. Ейхгорн А. Музыкальная фольклористика в Узбекистане. – Ташкент: изд. АН РУз., 1963.
14. Hamidov H. Buxoroda mavrigixonlik // Guliston jurnali. – Toshkent: 1996. – № 1. – B. 41-42.
15. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

Nasiba TURG'UNOVA,
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası dotsenti,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BENAZIR SAN'ATSHUNOS OLIMALAR

Annotatsiya. O'zbek xalqining ko'p asrlik musiqiy merosini yig'ish va uni o'rgangan holda avlodlarga yetkazish borasida XX asrda boshlangan keng ko'lamli folklor ekspeditsiyalarida ayol san'atshunoslarning ham ishtiroki muhim bo'lgan. Xususan, xalq og'zaki ijodiy merosini yozib olish maqsadida Farg'ona vodiysi, Buxoro va Xiva viloyatlariga folklor ekspeditsiyalari uyushtirildi. Ushbu musiqiy ekspeditsiyalarda o'zga milliat vakili Yelena Romanovskaya bilan bir qatorda o'zbek ayoli Hafiya Muhammedova ham jalb etildi. Keyinchalik esa ularning safiga Karima Olimboyeva ham kirib keldi. Mashaqqatli ekspeditsiyalar natijasida o'sha davrda bolalar orasida va ayollar davrasida keng tarqalgan turfa xalq og'zaki ijodi namunalari magnit tasmlarga yozib olindi va ular nota yozuviga tushirildi.

Kalit so'zlar: kuy, ohang, an'ana, raqs, usul, yalla, ashula, musiqali drama.

Аннотация. Участие женщин-искусствоведов имело важное значение в масштабных фольклорных экспедициях, начавшихся в XX веке с целью сбора, изучения и передачи будущим поколениям многовекового музыкального наследия узбекского народа. В частности, были организованы экспедиции в Ферганскую долину, Бухару и Хиву для записи устного творческого наследия. Наряду с Еленой Романовской в этих музыкальных экспедициях принимала активное участие узбекский искусствовед Хафия Мухаммедова. Позже к ним присоединилась и Карима Олимбаева. В результате кропотливой работы были записаны на магнитные ленты и переведены в нотную запись разнообразные образцы народного устного творчества, широко распространённого в то время среди детей и женщин.

Ключевые слова: мелодия, традиция, танец, метод, ялла, песня, музыкальная драма.

Abstract. The participation of female art historians played an important role in the large-scale folklore expeditions launched in the 20th century with the goal of collecting, studying, and preserving the centuries-old musical heritage of the Uzbek people for future generations. In particular, expeditions were organized to the Fergana Valley, Bukhara, and Khiva to document the oral creative traditions of the people. Alongside Elena Romanovskaya, the Uzbek art historian Khafiya Mukhammedova also took part in these musical expeditions. Later, Karima Olimbaeva joined the team as well. As a result of this meticulous fieldwork, various examples of folk oral art — widely practiced among women and children at the time — were recorded on magnetic tapes and transcribed into musical notation.

Keywords: melody, tradition, dance, method, yalla, song, musical drama.

XX asrning 30-yillaridan boshlab etnomusiqashunoslar tomonidan Farg'ona vodiysiga musiqiy-folklor ekspeditsiyalarini uyushtirish ishlari muntazam tus ola boshladi. Ma'lumki, V.A.Uspenskiy tomonidan yozib olingan minglab xalq ohanglari bo'lajak kompozitorlar uchun muhim zamin bo'ldi. Yan Pekkning ta'kidlashicha, "etnograf olimlargina emas, hatto atoqli kompozitorlarining ham ko'pginasi Uspenskiyning xalqdan yozib olgan musiqa asarlariga g'oyat zo'r qiziqish bilan qaradilar. O'rta Osiyoning badiiy obrazlarini mazmun qilib olgan juda ko'p yirik asarlar va bir qancha kamer vokalcholg'u asarlar vujudga keldi. O'rta Osiyo xalqlari

orasida tarqalgan juda ajoyib va rang-barang pardalardagi har xil kuylar va intonatsiyalar bu asarlarning musiqasiga asos bo'ldi" [7,4-b]. V.Uspenskiy xalq kuylarini yozib olish qatorida mumtoz ashulalar, Farg'ona-Toshkent musiqiy uslubiga xos katta ashula va maqomlarni, Buxoro Shashmaqomlarini ham kekxa avlod vakillaridan yozib olishga erishganligining guvohi bo'lamiz. Qolaversa, XX asr o'zbek musiqali dramalari, simfoniya va operalarini yaratishda uning qo'lga kiritgan musiqiy merosidan kompozitorlar samarali foydalanadilar.

Dastlab 1931-yilning yozida Farg'ona vodiysiga uyushtirilgan musiqiy-folklor ekspeditsiyalarida



Chapdan o'ngga: Y.Y. Romanovskaya, L.Sarimsaqova, H.Muhammedova

milliy musiqamiz jonkuyarlari – Viktor Uspenskiy, Yelena Romanovskaya, Ilyos Akbarov va Hafiya Muhammedovalar ishtirok etadilar. Bu safarda Y.Romanovskaya va H.Muhammedovalarga o'zbek ayollari orasida udum bo'lgan xalq aytimlarini yozib olish ishlari topshiriladi.

Yelena Romanovskaya Toshkentga kelgach, V.A.Uspenskiyning hamkasbi sifatida ish boshlab, bolalar folklori va ayollar ijodini o'rganishga kirishdi. Y.Romanovskaya o'zbek tilini bilmasligi bois Hafiya Muhammedovani sherik qilib beriladi. U ijrolarning kuy-ohangini nota yozuviga tushirsa, Hafiya opa esa she'riy matnni qog'ozga tushirar edi.

O'sha davrda har bir uyda dutor osig'liq turardi. Xonadon egalaridan xoh erkak, xoh ayol bo'lsin dutorda xalq kuylaridan namunalar ijro etish qobiliyatiga ega bo'lganlar. Xotin-qizlar jam bo'lib, o'zaro bazmi jamshid o'tkazgan chog'lari "o'z qo'shiqlariga jo'navozlik qilganlar" [3, c. 20]. Jumladan, "Azamat burgam", "Olmacha anor", "Olmani otdim", "Qichqir qoralar", "Blaguzuk", "Gulyor", "O'zgancha", "Omon yor", "Qora sochim", "Uchir uchir" kabi aytimlarni silindri grammofoonga ayollar tomonidan dutor chertib kuylashlarida yozib olinadi.

Ta'kidlash joizki, Qo'qon, Marg'ilon va Andijon ayollari bilan bo'lgan suhbatlar va jonli ijrolarda yozib olingan aytim (lapar, yalla, ashula) namunalari asosida ayollar ijodida yallachilik an'analar haqida ham muhim ma'lumotlar yozib olingan edi. Bu haqda Y.Romanovskaya o'zining "Maqolalar va ma'ruzalar. Musiqiy folklor yozuvlari" ("Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора") nomli kitobida zarur axborot berish bilan birga ayollar orasida mashhur

ayrim aytimlarning nota yozuvlarini ham keltirib o'tadi.

1931 va 1934-yillari Yelena Romanovskaya va Hafiya Muhammedova Andijon viloyatiga uyushtirgan musiqiy folklor ekspeditsiyalariga doir xotiralarida qayd etilishicha, Andijonlik ayollar ularni yaxshi kutib oladilar, ammo o'zlari bilgan yalla, lapar va ashulalarni ijro etib berishlarini so'raganlarida, "ovozlari yo'qligini" va "aytim so'zlarini yaxshi bilmasliklarini" [5, c. 63] bahona qilib, ijro etishdan bosh tortadilar. Faqatgina Lutfixonim Sarimsaqova ijrosida ayollar orasida mashhur bo'lgan yalla, lapar, ashula va qo'shiqlarni yozib olishga muvaffaq bo'ladilar [1, 26-27-bb.]

1939-yili Yelena Romanovskaya Farg'ona vodiysining Quva tumaniga qilgan dala tadqiqotlarida ayollar orasida keng tarqalgan "Olmani otdim" yallasini quyidagicha yozib oladi:

Allegretto ♩ = 100

Ol-ma-ni ot-dim ot-gan - ga, (ya) do - da,

Sim-ka-ra-vot-da yot-gan - ga, (ya),

Ach-chi g'in-giz kel-ma - sin, (a),

Siz - ni tash-lab ket-gan - ga, (yey) do'st,

OLMANI OTDIM

2012-yil Andijon viloyatiga qilgan musiqiy ekspeditsiyamizda Oltinko'l tumanida istiqomat qiluvchi kasbiy yallachi Davlatxon Aslonovadan yallaning yana bir turini yozib olgan edik:

Ol - ma-ni ot-dim ot-gan - ga, (yo)

do - da, Sal- qin joy-da yot-gan - ga,

Ach-chi-g'in-giz kel-ma - si-no,

Bir o-g'iz so'z ayt-gan - ga (yo),

OLMANI OTDIM

Ularining farqli tomonlari asosan she'r matnining band qismida va usulida seziladi. Namunaning birinchi varianti 2/4 hamda 2 varianti 4/4 o'lchovda ijro etilishi ularning usuli kuyning ritmik xususiyatiga ya'ni, ohang o'zgarishiga ta'sir etmaydi. Naqarot qismida esa har ikki ijroda ham bir xillikni saqlab qolinadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, yallaning cholg'u kuy varianti vodiyni erkak sozandalar orasida dutor cholg'usida juda ham mashhur bo'lgan.

Yelena Yevgenevna va Hafiya Muhammedovalar Andijonda Lutfixonim Sarimsaqovadan 24 ta, Mukarrama Azizovadan 5 ta, O'shlik o'qituvchi va kolxozchi ayollardan hamda marg'ilonlik ustoz san'atkorlar va hunarmandlardan o'nlab aytimlarni yozib olishadi [5, c. 90].

Yelenaning ushbu ekspeditsiyadan asosiy maqsadi qobiliyatlari o'tkir iste'dodli xonandalar, raqqosa o'zbek ayollarining san'atini kelgusi avlodga asl holida yetkazish hamda ularning san'ati bardavom bo'lishiga o'z hissasini qo'shish edi.

1958-yil esa, Yelena Romanovskaya va Ilyos Akbarovlar Matyoqub Xarratovdan tanbur maqomlarini silindri grammofoonga 108 ta rolikda yozib olishga muvaffaq bo'ladilar. Bu ekspeditsiyada ham avvalgisi kabi I.Akbarov maqomlarning g'azallarini qog'ozga tushirgan bo'lsa, Romanovskaya ohangini nota yozuviga o'tkazadi. Tabiiyki g'azallar fors-tojik tilida ijro etilar edi. Ularni tushunish o'zga millat egasiga oson bo'lmagan. 1937-yili Yelena Romanovskaya

va Ilyos Akbarov tomonidan Xorazmga qilingan ekspeditsiya jarayonida yozib olingan materiallar asosida 1939-yili Xorazm maqomiga oid "Xorazm mumtoz musiqasi" kitobi nashr etildi.

Ayollar ijodining yana bir yirik mutaxassisi, musiqashunos olim K.Olimboyeva-Ahmedova Qo'qon shahrida dunyoga kelgani (1926-yili) bois bo'lsa kerak ayollar san'atini juda yaxshi bilar edi. XX asr o'zbek musiqashunosligi rivojida olimaning o'rni kattadir.

Musiqashunoslik ilmida oqsayotgan ayrim masalalarni o'z vaqtida bartaraf etishda jonkuyarlik bilan xizmat qildi. Unga yuklangan ilmiy ishlarni qanchalik og'ir va mashaqqatli bo'lishiga qaramay sidqi dildan bajarishga intildi.

1946-yildan e'tiboran San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida olib borgan ijodiy faoliyati davomida Karima Olimboyeva bir qator yirik hajmda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan, "25 O'zbek xalq qo'shig'i", "O'zbek cholg'u musiqasi", "Uyg'ur xalq qo'shiqlari", "O'zbek xalq musiqasi", "O'zbekiston xalq sozandalari" 1-2 jildi, Komiljon Otaniyozov ijodiga bag'ishlangan "Uchirdim shunqor qushimni" kabi tadqiqot ishlari bugungi kun yosh olimlari uchun qimmatli manba bo'lib kelmoqda.

Karima Olimboyeva nafaqat o'zbek xalq musiqasi ijodini o'rgandi, balki, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalq merosini ham puxta o'zlashtirdi. Bugungi kunda katta e'tibor qaratilayotgan baxshi va dostonchilik san'atining tarixiy va nazariy jixatlarini yoritib berishga o'z vaqtida kirishgan edi. Xususan, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonini mashhur Bola baxshi ijrosida magnit tasmasiga yozib olishga erishdi va so'ngra nota yozuviga tushirdi. 1971-yilda "O'zbek musiqali dramasi" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli ximoya qildi [2, 269-b].

Uning 1951-yili amalga oshirgan Farg'ona vodiysi safari ham unumli bo'lib, shu asosda keyinchalik muallifning "O'zbek ayoli hayotida musiqasi" nomli mazmunli monografiyasi nashr etilganligi barchamizga ma'lum. Mazkur tadqiqotda Farg'ona ayollarining an'anaviy turmush tarzi hamda ular orasida mashhur qo'shiq, lapar, yor-yor, yalla namunalari haqida atroflicha ma'lumotlar keltiriladi. Ayollar hayotining katta qismi diniy marosimlar, urf-odatlarini o'tkazish bilan band bo'lganligi bois, ular xalq aytimlarini puxta bilishlari qayd etiladi [2, 16-18-bb]. Olima ayniqsa, ayollarning "ichkari"dagi madaniy hayoti va turli marosimlarda aytim-raqs ijrolari bilan faol ishtiroklarini qizqarli tarzda bayon etgan.



Chapdan: I. Akbarov, K.Olimboyeva-Ahmedova, T.S. Vizgo

Jumladan, ayollar davrasida ijro etilgan aytimlar hazil va sevgi mavzularida bo'lishini va asosan Farg'ona vodiysi ayollar davrasida "o'yin va raqs harakatlari jo'rligida aytilishini" ta'kidlaydi [4, 20-b]. Monografiyada xotin-qizlar davrasida amalga oshirilgan turli marosim va urf-odatlariga oid jarayonlar hamda musiqiy namunalar haqida to'liq ma'lumotni olamiz.

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, bugun biz benazir olimalarning o'z vaqtida amalga oshirgan izlanishlari natijasi o'laroq, nafaqat o'zbek xalq musiqa merosi haqida balki, o'tmishda ayollar san'atining qay holatda bo'lganligi borasida ham qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lib kelmoqdamiz.

Olimalarning zahmatli mehnatlari natijasida jamlangan o'zbek xalq musiqiy merosi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida saqlanmoqda. Hozirda Germaniyaning Volkswagen jamg'armasi hamkorligida silindrsimon valik va audio magnit tasmlarga yozib olingan nodir xalq aytimlari va kuy-ohanglarni raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kun san'atshunoslik masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan yosh izlanuvchilar uchun Yelena Romanovskaya, Hafiya Muhammedova va Karima Olimboyevalarning mashaqqatli mehnatlari ibrat bo'larlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarov H. Musiqa og'ushida o'tgan hayot. – Toshkent: Musiqa. 2009. – 233 b.
2. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2004. 469 b.
3. Ковбас М. Елена Романовская. – Ташкент: изд. литературы и искусства им. Г.Гуляма. 1982. – С. 141.
4. Olimboyeva. K. O'zbek ayoli hayotida musiqa. – Toshkent: Yozuvchi. 1996. – 166 b.
5. Романовская Е.Е. Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора. – Ташкент: ГИХЛ. 1957. – С. 283.
6. Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati. – Namangan.: 2016. – 364 b.
7. Yan Pekker. V.A. Uspenskiy. – Toshkent: O'zDav nashr. 1952. – 182 b.

YOSHLAR ORASIDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI TARG'IB QILISHDA BAXSHICHILIK SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda baxshichilik san'atining o'rne va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Baxshichilik san'ati orqali yoshlar qalbida vatanga sadoqat, milliy o'zlik, jasorat va fidoyilik tuyg'usini shakllantirish har doimgidan ham dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida milliy ong va vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarga singdirish, ularning ma'naviy immunitetini mustahkam shaxslar qilib tarbiyalashda baxshichilik san'atining ijod na'munalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Baxshilar – el-yurt dardi, orzu-umidi, tarixiy xotirasi va milliy g'ururini dostonlarda ifodalab kelgan, so'z bilan xalq qalbini uyg'ota olgan ijodkorlar sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, baxshichilik, doston, yoshlar tarbiyasi, milliy ong, xalq og'zaki ijod, qahramonlik ruhi, ma'naviy meros, milliy qadriyatlar, zamonaviy tarbiya vositasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение искусства бахшичи-лик в формировании чувства патриотизма у молодежи. Формирование в сердцах молодежи через искусство бахши преданности Родине, национальной идентичности, мужества и самоотверженности считается одной из самых актуальных задач. Особенно в эпоху глобализации и цифровых технологий большое значение приобретает использование произведений искусства бахшичилик для воспитания национального сознания и чувства патриотизма у молодежи, а также укрепления их духовного иммунитета личности. Подчеркивается, что бахши – это творцы, которые в своих дастанах выражали боль, мечты, историческую память и национальную гордость народа, пробуждая сердца людей силой слова.

Ключевые слова: патриотизм, бахшичилик, эпос, воспитание молодежи, национальное сознание, устное народное творчество, дух героизма, духовное наследие, национальные ценности, современное воспитательное средство.

Abstract. This article explores the role and significance of Bakhshi art in shaping patriotic sentiment among youth. Through the creative expression of Bakhshis, instilling values such as loyalty to the homeland, national identity, courage, and devotion in the hearts of young people is recognized as one of today's most pressing educational tasks. In the era of globalization and digital technologies, the use of Bakhshi epics and narratives becomes particularly important in cultivating national consciousness, fostering patriotism, and strengthening the spiritual resilience of the younger generation. The article emphasizes that Bakhshis are creators who, through their epics, have conveyed the people's sorrows, aspirations, historical memory, and national pride, awakening hearts through the power of the spoken word.

Keywords: patriotism, Bakhshi art, epic, youth education, national consciousness, folk art, spirit of heroism, spiritual heritage, national values, modern educational tool.

Vatanparvarlik tuyg'usi yurakda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Bu tuyg'u bolalikdan, ona allasidan, ota nasihatidan, oilaviy tarbiyadan, xalq ertaklaridan, maktab darsliklaridan va albatta, xalq og'zaki ijodidan ya'ni, baxshilar kuylagan dostonlardan asta-sekin yurakka tomchi-tomchi bo'lib tomib, ko'ngil tubida ildiz otadi.

Tarix sahifalariga nazar solsak, baxshilar o'z davrining yurak tovushini, xalqning ichki ovozi, dard-u armonini, orzu va umidini so'z bilan tarannum etgan insonlar bo'lgan. Ular xalq orasida shunchaki bir oddiy san'atkor yoki aytuvchi sifatida emas, balki ruhiy yetakchi, g'oyaviy yo'l boshchi bo'lishgan. Chunki baxshi aytgan dostonlar har doim adolat va haqiqatga yetaklagan, xalqni uyqudan uyg'otgan, jamiyatni kuchli ma'naviy suyanchiqqa ega bo'lishga da'vat qilgan. Ular kuylagan har bir satr zahirida – Vatan degan ulug' tushunchaning timsoli yotgan.

Xalqimizning g'oyatda boy va serqirra badiiy ijodiyoti an'analari rivojlantirib, asrlar osha sayqallanib kelgan buyuk dostonlarni jonli ijro orqali avloddan-avlodga yetkazishda epik xotirasi beqiyos bo'lgan badihago'y baxshilarning xizmatlari kattadir.

Baxshilarimiz yaratgan va ijro etgan doston va termalarda xalqimizga xos yuksak vatanparvarlik, samimiyat, oliyanoblik, insonparvarlik, ona yurtga ulkan muhabbat, sof muhabbat va sadoqat o'z ifodasini topgan. O'z so'zi va so'zi orqali ajdodlarimiz pandnomasini dostonlar vositasida yosh avlodni yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelayotgan baxshilarimiz repertuaridagi asarlarda Vatanga sadoqat, el-yurt birligi, mehnatsevarlik, ornomus, g'urur kabi g'oyalar tarannum etiladi. Zero, xalq dostonlari ajdodlarimiz ma'naviy qarashlari, o'ziga xos turmush tarzi, ijtimoiy hayoti, mardlik, vatanparvarlik, qahramonlik, erk va ozodlik bilan bog'liq ezgu g'oyalari bilan yuzaga kelgan.

Baxshilar o'zining epik bilimi, xotirasi, repertuarining tarkibi, ustoz-shogirdlik an'analari o'ziga xosligi, ijro usuli va badiiy mahoratiga ko'ra bir-biridan farqlanadilar. Shuning uchun ham, mamlakatimizning har bir hududida o'ziga xos epik an'analari majmui, ustoz-shogird an'analari, ijod uslubi va ijrochilik yo'llariga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Baxshilar ustozlaridan o'rgangan an'anaviy dostonlar va termalarni ijro etish bilangina chegaranib

qolmasdan, o'z boshlaridan kechirgan voqealar, tevarak-atrofdagi ro'y bergan hodisalar, xullas, hayotiy voqelikni she'rga solib, yangidan-yangi epik asarlar, ko'pincha, termalarni yaratganlar. An'anaviy termalar pand-nasihat, odob-axloq, mehr-muruvvat, farzand, yor, ot, soz va so'z, do'mbira, baxshi hayoti kabi mavzularni qamrab oladi. Zamonaviy termalarda bevosita hozirgi baxshilar yashagan davrdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalar to'g'risidagi asarlar ijro etiladi [1,135-b].

Ular tomonidan aytilgan dostonlarda mardlik va vafodorlik, halollik va sadoqat, Vatanga muhabbat va fidoyilik timsollari kuyga singdirilgan holda xalq qalbiga jo bo'lgan. Ayniqsa, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Kuntug'mish" kabi mashhur, yirik dostonlarda – xalqning ichki olami, ruhiy qarshiliklari, erkinlikka bo'lgan chanqoqligi va eng asosiysi – Vatanga bo'lgan sadoqatning ifodasidir. Ushbu dostonlarda tasvirlangan qahramonlar nafaqat dushman bilan kurashgan jasurlar, balki Vatan uchun yonib yashagan, elga fidoyilikni oliy qadriyat deb bilgan, ozodlik yo'lida jonini tikkan, muhabbatni sabr bilan sinagan, halollikni e'tiqod darajasiga olib chiqqan siymolardir. Ular baxshining ovozi orqali xalq yuragiga singgan, ongida ildiz otgan, ruhiyatida yashay boshlagan.

Bugungi kunda ham yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularni milliy g'urur, tarixiy xotira, ajdodlar jasorati bilan ruhlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bu yo'lda zamonaviy vositalar bilan bir qatorda, xalqning asrlar davomida sayqallangan bebaho ma'naviy boyligi baxshichilik san'ati muhim rol o'ynaydi. Chunki baxshi ovoqidagi har bir ohang, aytilgan har bir misra ko'ngilning eng nozik torlarini chertadi, quloq emas – yurakka aytiladi.

Zotan, baxshilar faqat doston aytmagan – ular xalq qalbini tarbiyalagan. Yovuzga qarshi qilich emas, so'z bilan kurashgan. Ulug' vatanparvarlik g'oyalarining elchilari bo'lgan. Ularning san'atida ko'ngilni junbushga keltiradigan bir sehr borki, u nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki ma'naviy uyg'onish, ruhiy o'sishga yo'l ochadi. Ayniqsa, bugungi globalashuv, axborot oqimi zamonida yoshlarimiz ongiga singayotgan yot g'oyalar, ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirish uchun baxshilik san'ati va merosi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Baxshichilik san'atini yoshlar orasida keng targ'ib qilish, uni zamonaviy ta'lim va tarbiya

tizimlariga uyg'unlashtirish, Vatan tuyg'usini qalblarga singdirishdagi imkoniyatlaridan foydalanish – bu nafaqat madaniy-ma'naviy, balki g'oyaviy-tarbiyaviy zaruratga aylandi.

Chunki millatni kuchli qiladigan kuch – bu nafaqat iqtisod, balki ma'naviyat, xalqni esa o'z tarixiga, o'z yurti va qadriyatlariga sadoqatli avlod saqlab qoladi. Aynan shunday avlodni tarbiyalashda baxshichilik san'ati asrlar davomida o'zini isbotlagan, bugun esa yangi shakl va ruhda yashashga tayyor turgan bebaho merosdir. Ammo, baxshichilik san'ati turiga bo'lgan e'tiborning kamaygani, ayniqsa yoshlar orasida uni anglash va qadrlash darajasining pasaygani kuzatilmoqda. Ushbu holatning yuzaga kelishiga bir necha asosiy sabablarni ko'rsatish mumkin [2,35-b].

Ta'lim tizimida yetarli o'rin ajratilmagani tufayli, baxshichilik san'ati umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida yetarli darajada o'rgatilmayapti.

O'quv dasturlarida ushbu san'at turi yuzaki yoritilgan, bu esa yoshlarning chuqur qiziqishini shakllantira olmayapti. Raqamli platformalarda yetarli targ'ibot yo'qligi – yoshlar asosan raqamli muhitda yashaydi. Baxshichilik san'atining ushbu muhitga mos tarzda taqdim etilmasligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaslik ushbu sohani yosh avlodga begonalashtiradi.

Ijodkorlar rag'batlantirish ham muammoning bir sababi edi. Ya'ni baxshi-shoirlarning moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmasligi, yosh baxshilar uchun kerakli muhit va imkoniyatlar yaratilmaganligi ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgandi.

Shu bois, hukumatimiz tomonidan so'nggi yillarda baxshichilik san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2018-yil 1-noyabrda Prezidentimiz tomonidan har ikki yilda bir marta "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi, bu san'atning nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda e'tirof etilishi uchun muhim qadam bo'ldi [3,2-b]. Bu esa, yoshlarda o'z milliy merosiga nisbatan faxr tuyg'usini uyg'otish, baxshichilik orqali o'zligini anglash, o'z ildizlariga yangicha nigoh bilan qarash imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, 2019-yil 14-mayda qabul qilingan "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror, soha uchun amaliy poydevor yaratdi. Bu qaror orqali yoshlarga baxshichilik san'atini o'rgatish,

iste'dodli avlodni kashf etish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'lida keng imkoniyatlar ochdi.

Bu jarayonlar haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Xalqaro maqom anjumani, baxshichilik va milliy hunarmandchilik festivallarini tashkil etganimiz va yuksak saviyada o'tkazganimiz Yangi O'zbekistonni dunyoga keng targ'ib etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylandi [4,65-b] - deya ta'kidlab o'tgan edi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, 2019-yil 23-sentyabrdagi "Respublika baxshichilik san'ati markazi va uning huzuridagi baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari baxshichilikni madaniy-milliy tiklanishning tayanch nuqtalaridan biriga aylantirishga xizmat qilmoqda. Zero, bu qarorlar faqatgina ma'muriy hujjat emas, balki millat ruhiyatini uyg'otish, yoshlar qalbida Vatanga muhabbatni jonlantirish, ularni ajdodlar izidan yurishga da'vat etuvchi ma'naviy kuchdir.

Baxshichilik san'atining yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'usini targ'ib qilishda quyidagi zamonaviy usullardan foydalanish kerak. Jumladan:

✓ Kuylanayotgan dostonlarning poetik-estetik ifodasi orqali qalbga ta'sir qilish. Yani, baxshilar dostonidagi so'zlar orqali yurakni chertadi. Ularning dostonlarida vatan sevgisi she'riy ohanglar bilan, kuy va soz bilan birga taqdim etiladi – bu esa emotsional, ichki sezgi orqali ongga chuqur kirib boradi.

✓ Dostonlardagi obrazlar orqali tarbiyaviy ma'noni ochib berish. Alpomish, Go'ro'g'li, Ravshan, Rustam, Shirin, Gulnor va boshqa qahramonlar orqali yoshlar mardlik, fidoyilik, sadoqat kabi sifatlarni angelaydi. Misol uchun, "Alpomish" dostonidagi bosh qahramon Alpomish obrazi nafaqat jangchi, balki adolatparvar, g'amxo'r, xalqni suygan rahnamo sifatida tasvirlanadi. Bu esa yoshlar uchun real o'rnak bo'lishi mumkin.

✓ Dostonlarni tarix va zamonaviylikni

uyg'unlashtirish. Zamonaviy baxshilar qadimiy dostonlarni yangi kontekstda, zamonaviy til va mavzular bilan boyitib, yosh avlodga yaqinlashtiradi. Ular internet, texnologiya, ekologiya, zamonaviy yigit-qizlarning muammolari bilan hamohang obrazlar yaratadi, ammo ushbu obrazlarda asosiy qadriyat – vatan tuyg'usi va vatanparlik bo'lishi.

✓ So'z orqali yosh ongida jasorat va fidoyilik ruhini uyg'otish. Baxshilar dostonda jasoratni ulug'laydi, lekin u jasoratda zo'ravonlik emas, Vatan uchun jon kuydirish bor. Bu fidoyilik – shon-shuhrat uchun emas, balki xalq va erkinlik uchun. Bu so'zlar yosh qalbdagi g'urur, matonat

va sabrni uyg'otadi.

Umuman olganda, bugun yosh avlod dostonlarda kuylangan qahramonlarni o'zining ichki qahramoniga aylantirsa, Alpomishning matonatini, Go'ro'g'lining adolatparvarligini, Rustamxonning sabrini o'zida tarbiyalasa – faqatgina baxshining iste'dodi emas, balki davlat siyosatining, milliy g'ururni tiklash yo'lida tashlangan harakatlarning yutug'idir. Va biz ishonch bilan ayta olamizki, bunday yondashuvlar natijasida milliy ong tiklanadi, yoshlar qalbida "Vatan" degan muqaddas tushuncha chuqur ildiz otadi, sadoqat va fidoyilik ruhi yangi avlod qalbini zabt etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev M., Amonqulov Q., Jo'rayeva M. O'zbek baxshilari I jild (Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari faoliyati haqida ma'lumotnoma). – Toshkent: Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi nashriyoti, 2015. – 135 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi PQ-3990-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4072873?ONDATE=03.03.2025>.
3. Xudoyberdiyev A. "An'anaviy baxshichilik va yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi" // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2016. – №2. – B 35-39.
4. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: O'qituvchi MChJ matbaa uyi, 2021. – 65 b.

Ягут ПАШАЕВА,Заслуженная артистка Азербайджанской Республики,
доцент Азербайджанского государственного университета
культуры и искусств

О МАРСЕЛЕ МАРСО, ЕГО БАКИНСКИХ ГАСРОЛЯХ И ИСКУССТВЕ ПАНТОМИМЫ

Аннотация. Статья представляет собой анализ творческого пути и культурного вклада выдающегося мастера пантомимы Марселя Марсо. Рассматриваются этапы формирования его сценического образа «Бип», участие в исторических событиях, включая деятельность в годы войны, и гастроли, в том числе в Баку. Особое внимание уделено методологии пантомимы, сочетанию традиционных и инновационных подходов, а также философской эстетике немомого театра как альтернативе балетной динамике. Исследование показывает, как оригинальное видение Марсо повлияло на развитие невербальной сценической выразительности и театральной эстетики XX века.

Ключевые слова: пантомима, Марсель Марсо, театральная эстетика, сценическая выразительность, инновации, культурное наследие.

Annotatsiya. Ushbu maqola pantomima san'atining yirik namoyandasi Marsel Marso ijodiy faoliyati va madaniy ta'sirini tahlil qiladi. Unda uning sahna obrazini shakllantirishi, urush davridagi faoliyati hamda Boku kabi shaharlardagi gastrol chiqishlari yoritiladi. Maqolada pantomima metodologiyasi, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg'unligi, shuningdek, jimjit teatr estetikasi baletga muqobil badiiy ifoda vositasi sifatida tahlil etiladi. Tadqiqot Marsoning original qarashlari orqali neverbal san'atga qo'shgan hissasini ochib beradi.

Kalit so'zlar: pantomima, Marsel Marso, teatr estetikasi, sahnaviy ifoda, innovatsiya, madaniy meros.

Abstract. This article explores the artistic legacy of renowned pantomime master Marcel Marceau, focusing on the development of his iconic character "Bip", his wartime activities, and international tours, including performances in Baku. It highlights the methodological foundations of mime, the fusion of traditional and innovative techniques, and the philosophical aesthetics of silent theatre as a counterpart to ballet. The study illustrates how Marceau's unique vision redefined non-verbal stage expression and influenced the theatrical aesthetics of the 20th century.

Keywords: pantomime, Marcel Marceau, theatrical aesthetics, stage expression, innovation, cultural heritage.

В далеком 1966 году в Баку приехал с гастрольями всемирно известный в то время мим Марсель Марсо. Слава об этом артисте тогда была так же велика, как в свое время у Чарли Чаплина. Его знаменитый на весь мир образ «Бипа» – грустного клоуна с белым лицом, одетого в полосатый свитер и старенький, потертый цилиндр – завоевал сердца зрителей, заставляя их сопереживать, сме-

яться и плакать над безмолвными горестями и радостями маленького человека с большим сердцем.

Родился будущий гений в семье выходца из Польши, уроженца Бендзина Шарля Манжеля (Калмана Мангеля), который работал мясником в кошерной лавке. Мать Марселя – Анна Верцберг – происходила из Яблонова (Восточная Галиция). Настоящее имя буду-

щей звезды пантомимы было Марсель Мангель, и выступать он стал еще ребенком, в девять лет. Во время войны сражался в рядах французского сопротивления, а с 1944-го поступил в школу драматического искусства при театре Сары Бернар в Париже, где учился у Эжена Декруа и Жан-Луи Барро. Уже в 1947 году Марсо создал собственную труппу «Содружество мимов», где и состоялись все его знаменитые спектакли – «Смерть перед зарей», «Отрочество. Зрелость. Старость. Смерть», «Париж смеется, Париж плачет», «Шинель», «Давид и Голиаф».

Свой сценический псевдоним «Марсель Марсо» остроумный артист, заимствовал у одного из наполеоновских генералов, а заодно к этому напыщенному имени придумывает свою главную маску – маску Бипа, смесь традиционного лунного Пьеро и маленького человека, наводя вас на мысли о творчестве Чарли Чаплина, о героях Шолом-Алейхема и фантазмагориях из гоголевской «Шинели». Как же возник образ Бипа, – вот что об этом рассказывал сам артист:

«Мне было 24 года, и, как все в этом возрасте, я был очень активным. После театра ночью ходил по улицам Парижа, думал о своем детстве, о людях, с которыми каждый день встречался, об уличных героях. Я хотел создать народный тип, в котором каждый человек мог бы увидеть себя. Одевшись в полосатую тельняшку, белые брюки, шляпу с пером – в зеркале увидел Бипа! Отсутствовала только белая маска. Я знал, что французские мимы по традиции гримируют лица белой краской. Греческие и римские мимы и итальянские комедианты покрывали свои лица мукой, и Пьеро последовали их примеру. Рот подчеркивается красной линией, черным – глаза и брови. Английские мимы, дебютировавшие в Голливуде в 1914 году и работавшие там до 1926 года, выступали в фильмах с белыми лицами. Так, Гарри Лангдон в костюме моды 1923 года играл с лунно-бледным лицом Пьеро. Белая краска применялась также в китайском и японском театрах. И вот, 22 марта 1947 года, в день моего рождения, Бип появился на сцене «Карманного



театра».

Пантомима существовала всегда: у греков и римлян, в средние века, в комедии масок XVI–XVIII веков, в XIX веке – в театре «Фюнамбюль», в мюзик-холлах Ганон-Ли, Литтль-Тиг в цирковых выступлениях Фрателлини и Грока и в пантомимном театре Марселя, где выступали Луи Руфф, братья Онофри и Северин. В Париже Жорж Ваг основал «Черный Пьеро». В чем же особенность пантомимы? В чем

разница между пантомимой и балетом, которые в основе имеют всю ту же пластику человеческого тела. Вот как объясняет эту разницу сам Марсель Марсо в одном из своих интервью:



«Танцор, в отличие от мима, лучше всего выражает себя, когда двигается, вращается, совершает прыжок и таким образом преодолевает силу тяжести. Движение дает ему благородство, а интенсивность соответствует его виртуозности. Когда танец лиричен, он приближается к искусству мима. Танец – это освобождение. Искусство мимов – это исследование, испытание. Вершины в искусстве танца достигаются, когда техника преодолевает человеческую ограниченность. Тогда происходит триумф мастерства. Когда танец обращается в драму, он становится менее интенсивным и быстрым. Когда мим ищет освобождения, он прибегает к танцу... Танец следует музыке, а искусство мима осуществляется в молчании».

После войны он вернулся в театральную школу Этьена Декру, это мим, у него Мар-

сель учился до оккупации. Декру обучал своих подопечных сценическому движению с маниакальным упорством. Его ученики должны были, например, овладеть 108 различными способами наклона головы и 250 жестами рук (!). Кроме того, он учил изображать собственные эмоции только с помощью жестов и передвигаться вслепую.

Марсо стал самым знаменитым учеником Декру – предтечи пантомимы как искусства, а его открытия во многом послужили уроком знаменитым театральным режиссерам Европы. О своём же творчестве великий мим отзывался так: «Я принес тишину в мир театра, где звуки и слова были королями». Его движения сравнивали с музыкой, благодаря его необыкновенно выразительным пластическим стакато и легато.

Даже будучи в преклонном возрасте, артист продолжал свою творческую карьеру. В 2002 году Марсо стал послом доброй воли ООН, занимаясь там проблемами старения. Тогда он говорил: *«Я уверен, можно быть молодым и иметь сердце старика. И, наоборот, в груди пожилого человека может биться совсем юное сердце. Многим на свете трудно, особенно пожилым. Но жизнь может быть прекрасной, даже если она тяжела. И кому как не миму, клоуну говорить об этом».*

Марсо поставил 15 тысяч мини-спектаклей, которые пользовались ошеломительным успехом во всем мире. Он стал первым европейским мимом, которого увидели в Советском Союзе в 1957 году. Тогда его выступления так потрясли публику, что спустя десять, и двадцать, и тридцать лет образ гибкого человечка Бипа в тельняшке и шляпе вдохновлял советских художников. Он действительно оказал на многих огромное влияние и даже был увековечен в песне Высоц-



кого: «Она была в Париже, ей сам Марсель Марсо там что-то говорил».

Выступал Марсель Марсо и Баку. Правда, об этом сегодня известно не многим. В 1966 году мэтр пантомимы приехал в наш город с концертом, который проходил в клубе имени Дзержинского (ныне дворец Шахрияра). Как вспоминают свидетели того концерта, при выходе на сцену артиста фотографы репортеры начали всю щелкать фотообъективами. И вдруг артист поворачивается и уходит со сцены.

Администратор клуба, налетев на журналистов, потребовал прекратить это безобразие, аргументируя это следующим образом: «Товарищ Марсель Марсо покинул сцену в знак протеста. Он не может работать под фотовспышки!» И тогда, журналисты, обратились к администратору со следующими словами: «передайте товарищу Марсо, что мы, как и он, делаем свою работу, и эти кадры должны быть уже в сегодняшней вечерней газете». Переговорив с артистом, администратор объявил, что после концерта товарищ Марсель Марсо будет специально позировать для фотографов, а пока мы можем посмотреть концерт. Тот концерт запомнился бакинцам надолго! Есть вещи, которые, увидев, сразу понимаешь – это эталон, высший класс. Даже если в этом вы совершенно не разбираетесь. Великое чувствуется сразу, оно ощущается во всем, и это касается разных сфер искусства. После концерта Марсель Марсо действительно провел фотосессию. Своеобразный мини концерт для фотографов. Он практически сыграл в несколько сокращенном варианте свою программу. Фотосессия после концерта длилась 15 минут. Еще одним примечательным фактом из той эпохи, стало то, что, когда фотографы фотографировали артиста после концерта, в гримёрке, за его спиной висел большой портрет Карла Маркса.

Использованная литература:

1. Ващилин Н. Искусство пантомимы Марселя Марсо / Николай Ник Ващилин. – © Proza.ru, 2022.
2. Искусство пантомимы Марселя Марсо / Пер. с нем. Н. Соловьевой // Советский цирк. – 1961. – Июль.
3. Тасбулатова Д. Искусство пантомимы // Советская эстрада и цирк. – 1985. – Апрель.

Ibrohim ABDURAHMONOV,

O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası dotsenti,
san'atshunoslik fanlari nomzodi

MIRALI MAHMUDOVNING RANGLAR OLAMI

Annotatsiya. Maqolada iqtidorli mo'yqalam sohibi, mahoratli rassom va pedagog – Mirali Mahmudovning hayot yo'li va bosib o'tgan ijodiy qirralari, individual plastik izlanishlarining asosiy xususiyatlari borasida atroflicha mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: rassomlik, badiiy g'oya, mahobatli rangtasvir, manzara, portret, eskiz, g'oya, kompozitsiya, individual plastika.

Аннотация. В статье представлен подробный анализ жизненного пути и творческой деятельности талантливого живописца, искусного художника и педагога Мирали Махмудова, а также раскрываются основные черты его индивидуальных пластических исканий.

Ключевые слова: живопись, художественная идея, монументальная живопись, пейзаж, портрет, этюд, идея, композиция, индивидуальная пластика.

Abstract. The article presents a detailed analysis of the life and creative aspects of the talented painter, skilled artist, and pedagogue Mirali Makhmudov, as well as the main features of his individual plastic style.

Keywords: painting, artistic idea, monumental painting, landscape, portrait, sketch, idea, composition, individual plasticity.

Yosh iste'dod sohibi Mirali Mahmudovning badiiy jarayonlarga kirib kelganiga endigina o'n yildan oshdi. O'tgan davr oralig'ida keng qamrovli ijodiy-estetik idealida ona yurtimizning go'zal tabiati, turfa insonlar qiyofasi, shonli tariximizning sirli sahifalari, badiiy merosimiz tilismlari mujassamlashgan durdona asarlar turkumini yarata oldi. Ko'hna turonning ulug' siymolari qiyofalarini turli rakurslarda badiiylashtirishda o'z yo'lini topib, individual dastxatiga ega bo'ldi. Rassomning faqatgina o'ziga hos ifoda uslubi, ustozlaridan o'zlashtirgan rangtasvir texnikasi, g'oyaga mos syujetlarni topa olish qobiliyati, izlanuvchanligi ijod atalmish muqaddas dargohda yangi cho'qqilar sari dadil qadam tashlashiga omil bo'lmoqda. Bir qator mahobatli asarlari vatanimizning yirik me'moriy binolari fayelari va zallarini bezab turibdi.

Rassomning tarjimai holi judayam oddiy. 1988-yil, 17-noyabrda Jizzax viloyatining so'lim Forish tog'lari etaklarida dunyoga kelgan. Uning ranglar olamiga oshno bo'lishiga tog'ning betakror tabiati, go'zal manzaralari, qalbi ezgulikka to'la sodda va samimiy insonlari sabab bo'lgan. Bolakayni ota-onalari 13 yoshida Jizzax viloyati

"Nafis" san'at maktabi ostonasiga olib borishadi. Ushbu dargohda san'at alifbosini o'zlashtirgach, 2004 – 2007-yillarda Respublika rassomlik kolleji "dastgohli rangtasvir" bo'limida tahsilni davom ettiradi. Oddiy havasdan boshlangan qadamlari keyinchalik uni professional rassom sifatida shakllanishiga turtki bo'ldi. O'z maqsadini ro'yobga chiqarish ishtiyoqi uni Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti ostonasiga boshlaydi. Mazkur nufuzli ta'lim dargohida mahobatli rangtasvir sirlarini har tomonlama jiddiy o'rganishga kirishadi. Ustozlari akademik Bahodir Jalolov, G'ofur Qodirov, Akmal Ikromjonov, professor Rustam Xudayberganov, Alisher Aliqulov kabi rangtasvir ustalari yonida bo'lib, ajoyib san'at asarlarining yaratilish jarayonida ularga ko'maklashadi, yildan-yilga ijodiy mahoratini oshirib, o'zi ham turli eskizlarga qo'l uradi.

Bo'lajak mo'yqalam ustasining ilk qadami muvaffaqiyatli chiqadi. 2011-yili bakalavr darajasini olish uchun yaratgan bitiruv malakaviy ishiga mifologik mavzu tanlanadi. Ustozi dotsent Baxtiyor Obidov rahbarligida himoyaga olib chiqilgan "Avesto haqiqati" nomli mahobatli



"Renesans". 2.70X5.50 sm. 2024 y.

kartinasi davlat atestatsiya komissiyasi tomonidan yuqori baholanadi. Institut rahbariyati va O'zbekiston xalqlari tarixi davlat muzeyi ma'muriyati bilan o'zaro kelishgan holda, mahobatli pannoni muzey fayasiga o'rnatishga qaror qilinadi. Chunki, asarning g'oyaviy-badiiy mohiyati har tomonlama mukammal yechim topgan edi. 7x2,5 metrli kattalikdagi mahobatli devoriy surat 2013-yilda yakunlanadi.

Kompozitsiya markazida otashparastlar payg'ambari Zardushtning tik turgan holdagi donishmandona qiyofasi tasvirlangan. U qo'lida sopol ko'zda ilohiy ichimlik haomani olib ketayotganday. Orqasida boshi uzra nur sochayotgan, olamga taft ulashayotgan quyosh go'yo borliqqa ilqlik baxsh etadi. Qolgan barcha obrazlar va qiyofalarda diniy-mifologik tasavvur va tarixiy haqiqat o'zaro uyg'unlashtirilgan. Ulug' payg'ambar chap tomonida to'rtta ot aravadagi ilohiy mabuda Anaxitani zamin uzra parvoz qildirmoqda. Uning oldida yelkasidan ikkita ilon o'sib chiquvchi maxluqsifat hukmdor Zahhokning ramziy qiyofasi joy olgan. Bu orqali rassom ezgulikning yovuzlik ustidan tantana qilishiga ishora qiladi. Rassom "Avesto"ning inqirozini yunon-makedonlari tomonidan muqaddas kitob varaqlarini olovga tashlanishi holatini tasvirlash orqali, shartli ifodalaydi.

Devoriy suratning o'ng tomonidagi obrazlar ham mazmunan boy. Qiz va otning hayotot parvozidagi dinamik holati, ulardan pastroqda tamomila yangicha yechimga ega bo'lgan mahobatli saroy ko'rinishining maketini


boshi uzra ko'tarib turgan yosh, kuchga to'lgan mahalliy me'mor tasvirida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari tufayli, olamning yangilanayotganligi, zaminning gullab-yashnayotganligiga, xalqning farovon hayotiga ishora qilinadi. Shu tariqa, otashparastlik e'tiqodining uzoq asrlar davomida ijod, yangilanish, yasharish, osoyishtalik ramziga aylanganligiga e'tibor qaratadi.

Pannoda asosan iliq ranglar qo'llanilgan. Rassom foydalangan har bir rang va tus ma'lum maqsadga qaratilgan. Sariq, oq, oxra, jigarranglarni o'rinli ishlatishi orqali qiyofalarning ichki kechinmalari yanayam boyitilgan.

Ijodkor asarlarining aksariyati qishloq manzaralari, turfa xil odamlar va taqdirar, tarixiy merosimiz tasviriga bag'ishlangan. Ammo, bu darajaga yetish oson emas. Ijod atalmish mashaqqatli jarayonning sinovlari ko'p. Kartinalar o'z-o'zidan paydo bo'lavermaydi. Aslida har qanday asarni yaratish nihoyatda murakkab. Asar g'oyasi va aksi matoga tushguniga qadar dastlab rassomning hayolida paydo bo'ladi. Ilk tasavvurlar oylar davomida shakllanib, yangicha ko'rinishlarga kirib, asta-sekin mukammallashib boraveradi. Hayoldagi obrazlar to'lib toshib, tashqariga talpina boshlagandagina, bu asar qog'ozda eskiz holatidagi qoralamasi chiziladi. Uning zamirida ustozlar o'giti, tinimsiz hayotiy kuzatuvlar, turli muzeylar, ko'rgazmalar va arxivlardagi manbalarni izlash, o'rganish yotadi. Bu jarayondagi qanchalab qog'ozlardagi son-sanoqsiz xomaki loyihalar eskiz uchun xizmat

qiladi. Asar mavzusini to'liq ochib beradigan holatlar, dinamika, drammatizm va so'nggi nuqtani topish judayam katta mashaqatni, sabrni talab etadi. Eskizning bitishi, asarning qariyb yarmi tayyor bo'lishi bilan barobar. Bundan keyingi ijodiy ishlar esa o'z-o'zidan davom etaveradi. Obrazga mos qiyofalarning ta'sirchan nuqtalari asta-sekin rangga ko'cha boshlaydi. Hayoliy tasavvur hayotiy haqiqatga yaqinlashadi. Shu tariqa uzoq kutilgan san'at asari dunyoga keladi.

Rassom asarlarining mavzusi va janrlari chegara bilmaydi. Kamina uning yaratgan manzara asarlari haqida to'xtalmoqchiman. Bu janrdagi asarlari alohida bir turkumni tashkil etib, ularda ranglarning mohiyatini chuqur his qilishi, falsafiy teran fikrlashi ko'zga tashlanadi. Uning bir qator asarlarida vatanimiz qishloqlari, hovlilari va ko'chalariga bo'lgan mehri aks etganligi bois, san'atshunoslar tomonidan ijobiy baholangan. Bu boradagi ijodining manbai Vatanimizning tog'li qishloqlari – Boysun, Oqtosh, Xo'jakent, Xumson, Chirchiq daryosi va boshqa manzillarning go'zal tabiat ko'rinishlaridir. Keng dalalar, vodiylardagi ariqlar zilol suvlarning shildirab oqishi va boshqa turfa rangdagi tuslanayotgan manzaralarini maroq bilan tasvirlaydi.




*“Kuzgi Xojikent”. Mato, moybo‘yoq.
150x150 sm. 2019 y.*

Rassomning manzara janridagi asarlari yilning turli fasllarida ishlangan. Tabiatning uyg'onishi – bahor, jazirama yoz, oltin kuz va zumrat qishning har bir manzarasidan falsafiy mohiyat izlaydi. O'zgaruvchan tabiatning e'tiborni tortadigan ko'rinishlarini muhrlashni yaxshi ko'radi. Ayniqsa, tog' manzaralari uning uchun ilhom manbaiga aylangan. “Erta bahor”, “Xo'jakent tog'lari”, “G'ilon” (2018), “Kuzgi Humson” (2018), “Ugam daryosi” (2019), “Peshin” (2019), “Kuzgi Xo'jakent” (2019), “Surxondaryo jozibasi” (2020)

va boshqa turkum asarlarida sof, toza bahoriy, nafis ranglarni matoga moybo'yoq bilan yengil tasvirlagan. Lirik, yam-yashil, moviy rangli tabiat ko'rinishlarini mahoratli ijodkor sifatida jonli tasvirlashga erishgan. Ijodkorning 2019-yilda ishlagan “Xo'jakent” asarida yengil surtmalarni tabiiy ko'rinishda qo'llay olgan. Bu manzara kompozitsiyasi tasvirlari yoz kunlarining ayni issiq va jazirama vaqtida yozilgan. Kompozitsiyada markazdan ichkarida fazoviy qisqarishlar orqali o'ziga xos uslubiy yechim hosil qilingan. Asarda tomoshabin go'yo o'zini beixtiyor yozgi ta'til vaqtlarida shunday go'zal va so'lim tabiatning go'shalarida tog'ning sof havosidan miriqib simirgan holda bahramand bo'layotganday his qiladi. Manzaralaridagi lirizm, mayinlik, yoqimlilik va hissiyotlarining shoirona kechinmalarga uyg'unlashtirilganligi uning o'ziga hos individual plastik izlanishlari samarasidir. “Oqtosh” (2016) kartinasining o'zi alohida bir olam. Tog'dagi ulkan harsang toshlar ortidagi yam yashil butalar uzra shovqinlanib oqayotgan soy suvlari bir zumda odamlarni o'ziga rom etadi. Tog' etagidagi shu kichkinagina bir lahzada go'zallik, maftunkor hayot kishini o'ziga rom etadi. Uni ko'rgan sayin mehrimiz ortadi.

M. Mahmudov yosh bo'lishiga qaramay turli janrlardagi asarlari bilan tomoshabinlarni hayrat ko'chasiga yetaklay oldi. Ayniqsa, 2015-yil impressionistik yo'nalishda ishlangan “Ugam daryosi” asarida kuzga yaqinlashib qolgan, yoz faslining issiq pallasidagi harorat, taft yaqqol seziladi. Asar kompozitsiyasining markazida daryoning tog'-u toshlardan oqib kelayotgan zilol suvning sokinligi, tiniq ko'rinishi ishonarli talqin qilingan. Suvning sayozligi tufayli uning har yerida katta-kichik xarsang toshlar, dov-daraxtlar chiqib turganday. Go'yo oqib kelayotgan daryo suvi toshlarga urilib, oq-ko'k tusli to'lqinlarning ketma-ketligini hosil qiladi. Daryo perspektiv tarzda qisqarib, burilib ichkariga kirib ketganday tomoshabinni o'zi bilan daryoning chuqurligi sari yetaklayotganday. Qirg'oqda biroz sarg'aya boshlagan terak, o'rik, tol, olma kabi daraxtlar bilan tabiiy ko'rinishi, manzaraga mos rang va tuslarni topa olishi uning keng ko'lamli badiiy tafakkurga egaligidan dalolat beradi.

Rassom tarixiy mavzuda ham barakali ijod qilib keladi. Bir qator uch o'lchamli mahobatli kartinalarida o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning sirli tarixini yorqin bo'yoqlarda ifodalashga harakat qilib keladi. O'z asarlarida tarixiy voqelikni imkon qadar haqqoniy, asosli manbalarga mos tasvirlash uning uchun allaqachon bosh badiiy mezoniga aylangan. 2021-yilda yaratilgan “Buyuk ipak yo'li” nomli



***Mirzo Ulug'bekga bag'ishlov".
Akrl. 28.5x28.5 sm. 2019 y.***

mahobatli pannosi sobiq madaniy meros va turizm vazirligi buyurtmasiga ko'ra ishlangan. Rassomning chuqur badiiy mulohazasi va tarixiy manbalardagi ma'lumotlarni misqollab o'rganishi natijasida yaratilgan kompozitsiyasida jahon me'morchiligining eng sara namunalaridan fon sifatida foydalangan. Antik davr Rim teatr san'atining yirik va nodir yodgorligi – Kolizey, Qohira saroylari ko'rinishi, Turk sultonlari barpo etgan muhtasham qasrlar, Eron Ahamoniy hukmdorlari tomonidan bunyod etilgan Persepol va Suza shahri qoldiqlari, Buyuk Xitoy devorining shartli tasvirlari, Registon ansamblining mahobatli manzarasi orqali buyuk ipak yo'lining insoniyat madaniy sivilizatsiyasiga qanchalik hissa qo'shganligiga ishora qilinadi. Realistik yo'nalishning akademik rangtasvir maktabiga hos mazkur asar kompozitsiyasi markaziy qismida asosiy o'ringa dunyodagi buyuk insonlar, faylasuflar, donishmandlar, ulamolar, olimlar, shoirlar, san'atkorlar, hunarmandlar, savdogarlar turlicha qiyofada o'z iqtidorini namoyish etayotganday. Ammo ular orasida yurtimizdan chiqqan buyuk bobokalonlarimiz Al Xorazmiy, Beruniy, Ahmad al Farg'oni, Kamoliddin Behzod, Alisher Navoiy siymolarini badiylashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Rassomning tarixiy mavzudagi asarlari judayam ko'p. Ular bevosita ulug' allomalarimiz xotirasiga bo'lgan cheksiz hurmat va faxr

tuyg'usining yorqin ifodasi sifatida dunyo yuzini ko'rdi. 2022-yilda Chirchiq shahar madaniyat va ma'rifat markazi binosining kirish fayasiga ishlangan "Mirzo Ulug'bekka bag'ishlov" nomli mahobatli pannosida rassomning ajdodlar ruhiga hurmati cheksizligi o'z ifodasini topgan. Kompozitsiyada Ulug'bek abservatoriyasidagi ilmiy tadqiqot jarayoniga urg'u berilgan. Ulug' bobokalonimiz qurdirgan madrasa orqa fonga o'tkazilishi asarning ta'sirchanligini yanayam oshirgan. Markazda yer shari – globus, yonida Ali Qushchiga nisbat berilgan. O'ng tomonda yana bir shogirdi ustoz aytganlarini kitobdan o'qib go'yo mag'zini chaqayotganday. Chap tomonda Mirzo Ulug'bek jarayonni kuzatib, shogirdlari ishlaridan o'ziga hos xulosa chiqarishga urinayotganday tasavvur uyg'otadi.

Ijodkor ulug' bobokalonimiz, buyuk shoir va sarkarda Muhammad Zahiriddin Bobur merosiga katta qiziqish bilan qaraydi. 2015-yilda

akrilda ishlangan "Boburga bag'ishlov" asari eskizi g'oyasi mohiyati Hindistondagi yetti mo'jizaning biri sifatida tan olingan yodgorlik – Toj mahal, Samarqand minoralari, baxt, omad timsoli – Humo qushi, hukmdorning qo'lidagi kitobi orqali uning eng avvalo shoirliigi, yonidagi jang libosidagi sarkardalari, yoshi ulug' donishmand pirlari - hamma hammasi asarning ishonarli chiqishini ta'minlagan. Kompozitsiyaga rassom o'ziga yuklatilgan katta masuliyatni his qilgan holda yondoshgan.

Shuningdek, ijodkorning uch o'lchovli kompozitsiya asosiga qurilgan "Allomalar" (2017) asariga alohida to'xtalsak. Buyuk siymolar M.Ulug'bek, Ibn-Sino, Farobiy, Farg'oni, Xorazmiylar uchrashuvi ramziy ma'noda ularning buyuk kashfiyotlari, birinchi va ikkinchi renessans davrida erishilgan olamshumul yutuqlar, qurilgan osmono'par binolar, hashamatli saroylardagi daholar bahs-munozaralari akademik maktab talablariga mos badiiy talqin qilingan. Ayniqsa, 2017-yil Olmaliq shahar metallurglar madaniyat saroyining kirish fayasiga ishlangan "So'nmas yulduzlar" nomli mahobatli devoriy pannosi alohida ajralib turadi. Tasvirning markazida Mirzo Ulug'bek abservatoriyasi atrofida buyuk siymolar qiyofasi ko'z oldimizga keladi. Buyuk sarkarda va sohibqiron Amir Temur, go'zallikda va aql-zakovatda tengsiz malika – Bibixonim, shahzoda – Mirzo Ulug'bekning yoshligi haqqoniy

ifodalangan. Kompozitsiyaning chap tomonida hassos shoir Navoiy “Xamsa”sining bosh qahramonlari, o’ng tomonda islom olamining yirik olimlari va ulamolar, pastda tolibi ilm ahllarini birlashtirgan ajoyib voqe’lik yaratilgan.

Rassom garchi akademik rangtasvir prinsiplariga qat’iy rioya qilsada, ayrim hollarda imressionistik, surrealistik va simbolizmga xos san’at uslublarida ham o’zini sinab ko’radi. Insoniyatning tushida zohir bo’ladigan lahzalik voqea-hodisalar, mavhum ramziy qiyofalar ikki qavatli kompozitsiya ko’rinishida ifodalalanadi. Bu boradagi tajribalari ma’lum yutuqlarni qo’lga kiritishiga omil bo’ldi. Jahon san’atida katta voqe’likka aylangan mifologik yirtqich jonzot – qora panteraning o’tkir nigohi, ko’zidan kuchli yorug’, nur chiqib turishi rassomning tabiatga qarashi o’tkirligiga ishora qilinadi. Rassom go’yo o’z qalbidan ziyo, nur chiqayotganligini ko’rib, zavqlanayotganday. Kompozitsiyaning ikkinchi qismida farishtasifat inson holatidan borliqda ikkinchi ko’rinishga o’tishi aniq ifodalangan.

Mirali Mahmudovning zamonaviy san’at yo’nalishlaridagi tajribalari asosida yaratilgan kompozitsiyalari orasida kubizmga hos grafik tasvirlari alohida qiziqish uyg’otadi. Garchi Yevropa modern san’atiga oid yo’nalish tanlangan bo’lsada, mohiyat jihatdan sharqona shakllar va ranglarga murojaat qiladi. Uch o’lchamli tasvirda go’yo likobchaga solingan anor shakllarini qizil rangda ifodalaydi. Undagi rang va tuslar asosan och va to’q, iliq va sovuq qizil, har xil zamonaviy efektlardan birday foydalangan.

Ijodkor zamondoshlar portretlarini ham o’ziga xos uslubda talqin qilib keladi. 2015-yilda yaratilgan “Laylo portreti”ga ijodiy yondoshilgan. Yosh, go’zal, qalbi pok qizaloqning ichki dunyosiga oid qarashlar obrazli tarzda ifodalab berishda turli badiiy vositalardan foydalangan. Chag’anoq, ilohiy qushning qarab turishi, bitta nigohi bilan har qanday odamni seskantirib yuborish darajasidagi shaklli obrazlar tanlangan ranglarga mos talqin qilingan. Egniga oq ro’mol tashlab ustiga qora kostyum kiygan, uzun va qop qora sochlari o’ziga yarashgan, nigohi o’tkir, bir tomonga qarab termulib turgan qizning ruhiy holatida ham xuddi shunday o’zgarishlar uyg’unlashtirilgan. Rassom ular o’rtasidagi bog’liqlikni topa olgan.

Natyurmort janri ham unga begona emas. Bu boradagi tajribalari asosan realistik san’at talablariga bo’ysundirilgan. Aksariyat natyurmortlarida o’ziga hos sharqona joziba, ranginlik, ijodiy mahorat hamma-hammasi mayinlik bilan uyg’unlashtirilgan. 2019-yilda yaratilgan natyurmorti alohida ajralib turadi.

Klassik san’at uslubida realistik akademik maktab talabidan chekinmagan holda borliqni haqqoniy tasvirlash yo’lidan borganligi uning o’ziga hosligini belgilaydi. Oppoq tuvakdagi gullarning to’q fonda yorug’likdan foydalangan holda kompozitsiyada issiq koloritda ishlashi uning naturani qanchalik nozik va anqlik bilan his qila olishi, rang va tuslarning nozik sirlarini ham chuqur anglashidan dalolatdir.

Barcha ijodkorlarda bo’lgani kabi Mirali ham zamonaviy modern san’ati yo’nalishlariga ko’p bora murojaat qiladi, natijada o’zining yangi qirralarini ochishga muvaffaq bo’ldi. Garchi, zamonaviy san’at uslubiga qiziqishi yuqori bo’lsada, yaratilayotgan obrazlar va qiyofalarda eng avvalo milliy karakter, kechinmalarni kashf etib, qahramonlarining turli holatlarining ta’sirchan nuqtalarini ilg’ay olgan. 2022-yilda yaratilgan “Sharqona joziba” nomli uchlik asari oldingilardan butunlay boshqacha badiiy talqin qilinadi. Dekorativ bezakdorlikka boy bo’lgan mazkur asarda eng avvalo milliy kolorit, yosh, sochlari uzun qizlarning sharqona jozibasi, hayobosi, ichki tuyg’ulari aniq aks ettirilgan.

Yosh ijodkor bugungi kunda eng global masalalardan biri – ekologik muammolarga ham alohida e’tibor qaratmoqda. Butun dunyoda yechim izlanayotgan va hozirga qadar o’z yechimini topmayotgan suv tanqisligi kelajakda qanday fojealarga olib kelishini tasavvur ham qilib bo’lmaydi. “Orolga bag’ishlov” (2022) asarida shunday o’ta dolzarb masalarga munosabat bildiradi. Uch o’lchamli va ikki qavatli kompozitsiyada suvlari qurigan dengizda qum barhanlari quyosh tig’ida go’yo olovga aynanayotganday. Bir paytlar dengiz ko’rkiga aylangan mahobatli kema suv yo’qligidan allaqachon harobaga aylangan. Kema tagidagi yirik baliq ham suvsizlikdan horg’in qiyofada og’zini ochib so’nggi nafasini olayotganday. Hammasi birlashib odamzotning tabiatga bo’lgan noto’g’ri munosabati qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirayotganday taasurot uyg’otadi. Tabiat fojeasi insoniyat kelajagiga ham o’z ta’sirini ko’rsatishi allaqachon o’z tasdig’ini topgan.

Mirali tabiatan xushchaqchaq, hazil-mutoyibani xush ko’radigan, ochiq ko’ngil yigit. Boshqalar bilan tezda til topisha olish qobiliyatiga ega. Shu hislati tufayli bo’lsa kerak, ijodini mavzu jihatdan ham uslub jihatdan ham chegaralamaydi. U vatanimizning eng chekka qishloqlaridagi ulug’ avliyolar maskanlariga bot-bot tashrif buyurib, ulardan ijodiy ilhom oladi. Ko’hna Boysunning viqorli tog’lari bag’rida joylashgan “Xo’ja mayxona” muqaddas qadamjosi uni o’ziga rom etgani rost.

“Surxon jozibasi” (2022) asarining yaratilishiga sabab bo'lgan mazkur maskan tasviri kutilmagan yechim topishilishi, tog' manzarasining jonli, dinamikaga boy his qilinishi obrazli tafakkur tarzining teranlashayotganligidan dalolat beradi. Ijodkorning Yevropa san'atiga xos impressionistik yo'nalishga murojaat qilinishini uning turli tajribalardan qo'rqmasligini dalillaydi.

Rassomning ijodiy tajribalari orasida zamonaviy fotomontaj texnikasida ham o'zini sinab ko'rganligini alohida ta'kidlamochiman. “Hayot zarvarlari” (2013) asarida turli xarakterdagi, har xil yoshdagi zamondoshlarimiz qiyofalarini birga tasvirlashga urinishi ijobiy samara bergan. Bu holat uning naqadar nozik tuyg'uli iqtidoridan darak beradi. Shakl va rang tanlashda o'ta ziyrakligi bois, turfa kayfiyatlardagi bir zamonda yashayotgan insonlarning tashqi qiyofasi orqali ularning hissiyoti, qarashlari, hayotga munosabatlari ochib berilgan.

Qahramonimiz hali yosh bo'lishiga qaramasdan, zamonaviy san'atning keng doiradagi, turli oqim va yo'nalishlarni o'zlashtirgan, asarlari mavzusini aniq qolipga solishni unchalik yoqtirmaydigan ijodkor. U rangtasvirning ham mahobatli ham dastgohli turida birdek asarlar yaratib keladi. Rassomning yaratgan kartinalar tomoshabinni har tomonlama jiddiy falsafiy mushohadaga chorlaydi. Undagi har bir kichik qiyofa, obraz oldindan o'ylangan, hayolda pishitilgan aniq eskiz asosida ishlangani seziladi. Uning mahobatli asarlari uzoq va yaqin moziydan so'zlaydi. Ularda milliy rangtasvirimizdagi mutloqo yangicha nigoh kuzatiladi.

Har bir qahramonning qiyofasi betakror va o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Obrazlarning

jonliligi, tasvirdagi qiyofalarning dinamik harakati faqat ungagina xos ifoda uslubida o'z akini topadi. U yaratgan qiyofalar bir-biri biriga mutlaqo o'xshamaydi. Birida yoshlik shijoati ufurib tursa, boshqasida hayot tegirmonida pishib yetilgan taqdir, yana boshqasida umrining ko'p qismini boy berib qo'ygan qariyalarning chuqur ruhiy kechinmalar og'ushida hayol surayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Ijodkorning erishgan yutuqlari talaygina. O'tgan yillar davomida bir qator tanlovlar, ko'rgazmalar va festivallardagi ishtiroki uchun munosib taqdirlangan. “Yoshlar vatanni qo'riqlaydi”, “Buyuk ipak yo'li-tinchlik yo'li”, “Tabiat va rassom”, “Eng ulug' va eng aziz” va boshqa ko'plab nufuzli tadbirlarda o'z asarlari bilan qatnashib sovrindorlar qatoridan o'rin olgan. M.Mahmudov ayni paytda ijod bilan birga badiiy ta'limni ham birday davom ettirmoqda. Hozirda Chirchiq davlat Pedagogika universiteti “Tasviriy san'at va dizayn” kafedrasida talabalarga saboq berib kelmoqda. Shogirdlari orasida iqtidorlari talaygina. Talabalar bilan ishlash judayam qiziqarli va mas'uliyatli. Shogirdlari ko'zidagi ishonch, kelajakka intilish unga qo'shimcha kuch bag'ishlaydi.

Mirali Mahmudov bugungi yangi O'zbekiston rangtasvirida o'z qarashlariga ega rassom sifatida tanilishga ulgurdi. Tengdosh ijodkorlar orasida badiiy tafakkuri keng, fikr-mulohazalari teran, turli mavzularda ham zamonaviy ham milliy uslubda birdek ijod qila oladigan, o'ziga xos rassom sifatida bir necha bor e'tirof etildi. Ijodkorning ochilmagan qirralari judayam ko'p. Ishonchimiz komilki, u hali yangidan yangi kashfiyotlari, turfa xil asarlari bilan siz-u bizni hayrat ko'chasiga yetaklashda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarova D. Mustaqillik davrida O'zbekiston rangtasviridagi asosiy tamoyillar // “San'at” jurnali. 2022. – №3. – B. 24-27.
2. Xakimov A. O'zbekiston san'ati ikki asr oraliq'ida: tanlash strategiyasi va davr uslubi xususiyatlari // “San'at” jurnali. 2016. – №2. –B. 12-17.
3. Хакимов А. Новая Узбекская живопись. – Ташкент: Издательство журнала “Санъат”, 2014. –184 с.
4. Xakimov A. O'zbekiston san'ati tarixi: qadimgi davr, o'rta asrlar, hozirgi zamon. – Toshkent: “Zilol buloq”, 2022. –528 b.
5. Ijodimiz haqida gapirsak. To'plam. 5 jild. – Toshkent, O'zBA., 2006-2009.

Елена КАРИ-ЯКУБОВА,
Преподаватель кафедры «Теория и история искусств»
Государственной академии хореографии Узбекистана

СЦЕНИЧЕСКИЙ КОСТЮМ В ТВОРЧЕСТВЕ МУКАРРАМ ТУРГУНБАЕВОЙ

Аннотация. В статье рассматривается творчество народной артистки СССР Мукаррам Тургунбаевой в контексте работы с художником-сценографом заслуженным работником искусств Узбекистана Зинаидой Курыш над созданием хореографических образов Государственного ансамбля народного танца «Бахор». Гармоничное сочетание музыки, танца и костюма создают цельный художественный образ хореографической композиции, позволяя зрителю в полной мере ощутить идею и замысел балетмейстера.

Ключевые слова: танцевальная драматургия, художественный образ, сценография, сюжетные танцы, творческие поиски, содружество балетмейстера, художник.

Annotatsiya. Ushbu maqolada SSSR xalq artisti Mukkarram Turg'unboyeva ijodiy faoliyati, O'zbekiston san'ati sohasining mehnat faxriysi rassom-ssenograf Zinaida Kurish bilan hamkorlikda "Bahor" Davlat xalq raqs ansambli uchun xoreografik obrazlarni yaratilishi o'rganiladi. Musiqa, raqs va liboslarning uyg'un kombinatsiyasi xoreografik kompozitsiyaning to'liq badiiy obrazini yaratadi, bu esa tomoshabinga baletmeysterning fikr-g'oyasini to'liq his qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: raqs dramaturgiyasi, badiiy obraz, ssenografiya, syujetli raqslar, ijodiy izlanishlar, baletmeyster hamkorligi, rassom.

Abstract. The article examines the artistic work of Mukarram Turgunbaeva, People's Artist of the USSR, in the context of her collaboration with stage designer Zinaida Kurysh, an Honored Art Worker of Uzbekistan, in developing choreographic imagery for the State Folk Dance Ensemble "Bahor". The harmonious combination of music, dance, and costume creates a cohesive artistic whole, enabling the audience to fully grasp the choreographer's vision.

Keywords: dance dramaturgy, artistic imagery, scenography, narrative dance, creative exploration, collaboration between choreographer and designer.

Творчество народной артистки СССР Мукаррам Тургунбаевой в Узбекистане любимо и знакомо всем, кто любит танцевать и смотреть выступления профессиональных артистов. Танец Мукаррам Тургунбаевой, перешагнув рампу сцены ушёл в народ, прочно войдя в его пластику и манеру исполнения как старшего, так и молодого поколения, став неотъемлемой частью узбекской культуры.

Творчество великой танцовщицы и хореографа формировалось благодаря выдающимся артистам и наставникам Мукаррам Тургунбаевой – Тамары Ханум, Уста Алима Камилова, Юсупа Кызыка Шакарджанова, открывших юной артистке дорогу в профессиональный мир танца. Постигая основы танцевального искусства, Мукаррам Тургунбаева училась не только исполнительскому мастерству – она училась создавать сценический

образ. «В художественном творчестве образ – явление собирательное, типическое, вымышленное, но вместе с тем взятое из самой гущи жизни. Он складывается из множества органически слагаемых свойств и особенностей» [1]. Танец Мукаррам стал средством выражения чувств, эмоций и переживаний девушки, женщины, о судьбе которой она хотела рассказать зрителю со сцены. Создавая танцевальную композицию, М. Тургунбаева вслушивалась в музыку, которая направляла, давала тематическую основу и представляла облик своей героини. Осваивая принципы танцевальной драматургии, Мукаррам Тургунбаева понимала, что публика воспринимает её героиню в комплексе и сценический костюм является необходимой составной частью зрительского восприятия. Создавая новый танец, Мукаррам Тургунбаева искала в народном ко-

стюме, женской бытовой одежде характерные чёточки, говорящие о занятиях женщины, её стиле и привычках.

Государственный ансамбль народного танца «Бахор», созданный в 1957 году покорила зрителя богатством узбекской хореографии и яркими красками национального костюма. Создавая танцевальные композиции для ансамбля «Бахор», Мукаррам Тургунбаева привлекает к работе талантливого художника-сценографа заслуженного работника искусств Узбекистана Зинаиду Тимофеевну Курыш. Союз двух мастеров-балетмейстера и художника по костюмам стал залогом успешного воплощения сценического образа ансамбля «Бахор». «Народный костюм всегда традиционен. Его форма, цвет и орнамент иногда складываются веками. Разнообразие форм и цветовых сочетаний костюмов бесконечно. Часто у жителей одной области, но разных районов совершенно разные костюмы. Поэтому от художника, создающего костюмы для сцены, требуется большие знания этнографии» [2]. Преобразовывая традиционный народный костюм, Зинаида Тимофеевна искала те детали, которые помогали раскрыть идею и характер танца.

«Золотые руки у тебя подружка, говорила Зинаиде Мукаррам Тургунбаева и утверждала, что в костюмах Курыш особенно легко танцуется» [3]. Работа над каждой новой танцевальной композицией сопровождалась обсуждением традиций региона, в стиле которого задумывался танец, его характер и стилевые особенности. «Прежде чем приступить к созданию эскизов, художник оговаривает с балетмейстером свое художественное решение. Оно может быть самым разным, но право на существование обретет только в том случае, если станет понятным не только художнику и балетмейстеру, но и зрителю, если поможет ему лучше уяснить идею, заложенную в произведении» [4].

Танцы исполненные и поставленные Мукаррам Тургунбаевой стали жемчужинами в богатом ожерелье танцевальной культуры Узбекистана. Этому в немалой степени способствовали совместные поиски и решения Мукаррам-опы и Зинаиды Тимофеевны в создании оригинальных костюмов.

Танцевальная поэма «Тановар» – обобщенный символ души узбекской женщины, отраженный в танце строгими, сдержанными дви-



жениями, выражающими целую гамму чувств – от тревоги, ожидания и разочарования до надежды и мечты. Завершенность образу придает простой, неброских тонов костюм – бекасамовый халат, строгое белое крепдешинное платье с отложным воротником, небольшой зебигардон, на голове – дурра с платком из альпака сосредотачивают внимание на исполнительнице. Танцовщица закрывает платком лицо, а затем слегка приоткрывает, оставляя только глаза – в которых отражается тревога и любовь.

Танец змеи «Мунаджат», вплетенный в сюжетную линию оперы «Улугбек», полюбился зрителям и вскоре стал самостоятельным концертным номером. Сохранив змеиную пластику рук, Мукаррам Тургунбаева наделяет свою героиню поэтическим образом мятущейся женской души. Черный гипюровый халат, рисунком кружева напоминающий панжару, сквозь который просвечивает голубое платье с плиссированной юбкой, узкие рукава, закрывающие кисть до кончиков пальцев, длинные жемчужные нити и утонченная диадема с легким, развевающимся платком подчеркивают грацию танцовщицы и ее переживания.

Одним из первых танцев созданного ансамбля стал «Вальс Бахор» – своеобразная эмблема ансамбля, олицетворение юности и

девичьей чистоты. Легко парящие над сценой девушки, в розово-персиковых платьях из воздушного капрона, в камзоле, цвета зацветающей зелени, с цветочками, украшающими головку и цветущей веточкой вишни в руках – создают образ весны и красоты.

«Рохат» – наслаждение и грация. Нежность и воздушность танцу придают костюмы пяти пастельных тонов с многослойными прозрачными юбками, подчеркивая сочетание лирики и полётности. Движениям танца вторит колебание платья, как дыхание ветерка. Небольшая коронка-дурра венчает голову, завершая образ. Радужное сочетание игры цветов, музыки и целомудренных движений, олицетворяющих ферганский стиль, очаровывают зрителя с первого появления танцовщиц.

«Вышивальщицы» – бухарский танец, в котором цветовая гамма и переплетение рисунков танца по колориту напоминает россыпи калейдоскопа. Девушки в Бухарских костюмах четырёх цветов демонстрируют сложную хореографию. Они то создают единый узор, группируясь по цвету, то расходятся поодиночке, подобно разноцветному ковру. Затем девушки вновь собираются в гармоничную композицию, напоминая зрителям вышивку золотыми нитями, характерную для бухарских мастериц.

Классический танец «Катта уйин» – гордость и достоинство, заложенные вековыми традициями передаются подтянутым корпусом осанкой, строгим лаконичным рисунком и движениями, наполненными благородством и восточной скромностью. Образ танца ярко выражен в костюме: алое расклешенное платье со строгим закрытым воротником-стойкой, черный велюровый халат, украшенный зебигардоном, черные изящные сапожки на каблук и тиллякош, обрамляющий лицо. Во время вращения алое платье словно пламя вылетает из-под полы черного халата, для того чтобы вновь вернуться в первоначальный академически строгий вид.

Веселый танец «Наманганские яблочки» – олицетворяет девичье кокетство в сочетании с песней, выражающей летнее настроение в ожидании возлюбленного. Яркие зеленые юбки и крепдешиновый платок на голове девушек, орнаментированный вышивкой малиновых цветов, гармонично сочетается с бекасовым камзолом. Танец получает свое очарование от движений пышной юбки и ко-

кетливой игры платком – открывая и закрывая лицо девушки поют о своей любви к парню, сохраняя при этом скромность и целомудрие.

«Андижанская полька» – девичий задорный танец, в шуточной форме искрометным юмором демонстрирующий соревнование девушек в технике и озорстве. Костюмы в танце поделены на два цвета – черно-белые и малиново-белые хан-атласные платья, камзолы и тюбетейки в тон, показывают интересную палитру хан-атласа, которая раскрывается в рисунке и лексике танца. Чередясь, словно мозаика, девушки меняются местами, сливаясь и разделяясь на группы по цветам – большая фантазия хореографа и четкое построение композиции, обогащенной сюжетом, делает танец озорным и незабываемым.

Танец «Пилля» («Шелкопряд») – один из первых тематических танцев, поставленный Тамарой Ханум и доведенный её любимой ученицей Мукаррам Тургунбаевой до совершенства. Сольный вариант Мукаррам Тургунбаева исполняла, наполняя его сюжетную линию драматургическим развитием, а затем создала танцевальную композицию, которую можно назвать мини-спектаклем. На сцене разворачивается процесс создания тончайшего шелка от процесса кормления шелкопряда, созревания коконов и выработки нитей, до изящной вышивки. Эта композиция имела огромный успех благодаря прекрасно разработанному и исполненному Зинаидой Курьш костюмам. Яркое расклешенное желтое платье, с широкими рукавами, зеленый камзол, украшенный вышивкой, на голове ободок с небольшими белыми коконами с первой минуты создает солнечное настроение. Маленький секрет раскрывается в середине танца, когда в процессе вышивания девушки ловко достают из-под камзола прозрачный платок небесного цвета с изображением голубя мира Пабло Пикассо. В руках стремительно движущихся по кругу девушек, платок с голубем развевается, создавая иллюзию полета.

Танцевальная сюита «Пахта», претерпевшая множество редакций и вариаций, получила признание зрителей не только в Узбекистане, но и во всем мире. Удивительно умение хореографа выразить языком танца процесс пробуждения от солнечных лучей белоснежных коробочек хлопка, журчание ручейка, радость цветения и праздник сбора

урожая. Примечательно, что в разных вариациях композиция отражала тематику, созвучную концепции всего представления. В представленной постановке демонстрируются три варианта, каждый из которых отражает определённый аспект сбора хлопка.

Первый вариант фокусируется на образе ферганских девушек в традиционной одежде: ханатласных платьях с бордовыми камзолами, украшенными золотой вышивкой, в тюбетейках ираки.

Второй вариант представляет собой региональное многообразие Узбекистана. Сборщицы, одетые в национальные костюмы своих областей, исполняют сольные танцы, характерные для Ферганы, Бухары, Хорезма и Каракалпакии.

Третий вариант, интернациональный по своей сути, символизирует дружественное единство народов Средней Азии и Казахстана. В нём сборщицы из братских республик, имеющих хлопковую культуру и схожий процесс сбора урожая, выступают вместе. Сборщицы – казашка, киргизка, таджичка, туркменка, и узбечка, одетые в аутентичные костюмы, раскрывали в танце всю красоту культуры и традиций своего народа, его особенности и самобытность. Объединённые общей танцевальной композицией, девушки

раскрывают характер народа, стремящийся к миру, дружбе и созиданию.

Сами девушки, изображающие хлопок – «Пахтинки», были одеты в белоснежные сильно расклешённые белые платья с пышной оборкой, широкими рукавами и белый парчовый камзол. Легкие и пушистые юбки во время вращения создавали эффект белоснежного хлопкового поля, на фоне которого ярко выделялись сборщицы урожая.

Тщательная разработка каждого костюма, отвечающего идее хореографа, позволила создать уникальную программу ансамбля «Бахор» в его неповторимом стиле, узнаваемом с первой нотки, с первого движения и визуального ряда. Сценография Государственного ансамбля народного танца «Бахор» имени Мукаррам Тургунбаевой является эталонным сочетанием художественного образа каждой композиции с сохранением региональной самобытности и неповторимым колоритом народного творчества.

Сохранение самобытности народного костюма в гармоничном сочетании с новаторскими идеями художника Зинаиды Курыш и балетмейстера Мукаррам Тургунбаевой стали примером творческого союза, сформировавшим образцы национальной узбекской сценографии.

Использованная литература:

1. Захаров Р.В. Сочинение танца. Страницы педагогического опыта. – Москва: Издательство «Искусство», 1989. – 32-238 с.
2. Захаров Р.В. «Работа балетмейстера с исполнителями» издательство –Москва: Издательство «Искусство», 1967. – 64-29 с.
3. Михаил Горнешейн. Правда Востока 26.11.1994 г. «Костюмы от мадам Зины».
4. Смирнов И.В. «Искусство балетмейстера». – Москва: Издательство «Просвещение», 1986. – 192-180 с.

Muqaddas KARIMOVA,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHDA folklor san'atining o'rni

Annotatsiya. Urf-odat va an'analar eng qadimgi davrdan boshlab, hozirgi kungacha xalqning madaniy-etnik boyligi sifatida folklor san'tida namoyon bo'lib kelmoqda. Mazkur maqolada yoshlarimizning ma'naviy immunitetini ko'tarishda folklor san'atining o'rni, Respublika musiqa va san'at kolleji Folklor san'ati kafedrasida ta'lim jarayonida olib borilayotgan samarali ishlar xususida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: folklor, etnografiya, san'at, bayram, marosim, tomosha, urf-odat, tadbir, an'ana, ijod.

Аннотация. Обычаи и традиции проявляются в народном искусстве с древнейших времен и до наших дней как культурное и этническое богатство народа. В данной статье говорится о роли народного творчества в повышении духовного иммунитета нашей молодежи и об эффективной работе, проводимой на кафедре народного творчества Республиканского колледжа музыки и искусства.

Ключевые слова: фольклор, этнография, искусство, праздник, церемония, зрелище, обычай, традиция, творчество.

Abstract. Customs and traditions have been manifested in folk art from ancient times to the present day as the cultural and ethnic wealth of the people. This article discusses the role of folk art in enhancing the spiritual immunity of our youth and the effective work carried out at the Department of Folk Art of the Republican College of Music and Art.

Keywords: folklore, ethnography, art, festival, ceremony, spectacle, event, tradition, creativity.



So'nggi yillarda yurtimizda ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy jabhalarda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. O'zligimizni anglashga, qadim tariximizni o'rganishga, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni asrab-avaylashga katta e'tibor berilmoqda. Yurtimiz azaldan o'zigaxos madaniyati, adabiyoti va betakror san'at turlari bilan mashhur bo'lib kelgan. Shuning uchun, ajdodlarimiz yaratgan ma'naviyat durdonalaridan xalqimizni har qachongidan ham ko'proq bahramand etishga barcha imkoniyatlarni yaratayotgan yangi davr boshlandi. Yangilanayotgan O'zbekistonda muvaffaqiyatlarga erishishning asosiy tamoyillaridan biri ma'naviy-ma'rifiy masalalarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib: urf-odat, an'analarni, ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishni, yoshlar o'rtasida targ'ib qilishni, unga sidqidildan xizmat qilishni, xalqni rozi qilish uchun yetakchi masalalalar ekanligi ta'kidlanmoqda. Yangilanayotgan O'zbekistonning 30 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy, madaniyat va san'at sohasiga tegishli Qaror, Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi jamiyatda ma'naviy muhitni yaxshilashga qaratilgan. Sababi, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim", degan fikri mavzuning dolzarbligiga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti, Respublika musiqa va san'at kolleji "Folklor san'ati" kafedresi, Xalq ijodi uylari, shuningdek, folklor materiallarini to'plash va tadqiq qilish ilmiy markazlari folklor-etnografik ansambllari uchun kerakli asarlarni saralashda, xalq ijodiyoti bo'yicha dasturlar tuzishda qimmatli maslahatlar berib kelmoqda. Bu markazlar arxivda saqlanayotgan matnlar va chop etilgan xalq qo'shiqlari to'plamlaridan foydalanish, folklor ansambllarini keng qamrovli repertuarini ta'minlash imkonini yaratmoqda. Chunki xalqning an'anaviy qo'shiqlari qadimiy tarixga ega bo'lib, u jonli og'zaki ijroda ko'proq qishloq joylarida yaxshi saqlangan. Biroq bunday qo'shiqlarni shijoatli ijrochilarini izlab topish, ular kuylagan qo'shiqlarning matnini yozib olib, jamoa a'zolariga o'rgatish, sahnalashtirish

hamisha ham oson kechavermaydi, bu yo'lda tinmay izlanish lozim bo'ladi.

Shu o'rinda, folklor san'atini ta'lim tizimida yoshlarga tadqiq etilishini Respublika musiqa va san'at kolleji "Folklor san'ati" kafedresi misolida aytib o'tadigan bo'lsak, mutaxassislik fanlarining nazariy, amaliy yakka mashg'ulotlarida o'quvchilarga o'zbek xalqi tarixan to'qsondan ortiq urug' va qabilalar birlashmasidan tashkil topganligi, ana shu urug'larning respublikamiz hududida joylashish tarzi ham ma'lum darajada alohida-alohida hududlarga to'g'ri kelishi, endilikda o'zbek xalq ijodining janrlari, ularning marosim va an'analari haqida to'laroq tasavvurga erishish uchun har bir hudud lokal xususiyatiga ko'ra alohida-alohida o'rgatilmoqda. Hozirgi o'zbek folklorshunosligining muhim vazifasi bo'lgan – xalqimizning ijodini muayyan hududlar doirasida o'rganish, mahalliy-musiqiy uslublarni bir-biridan farqini ajrata bilish ko'nikmalari o'quvchilarga singdirilmoqda.

XX asr boshida an'anaviy shakllardagi o'zbek san'ati bir necha lokal guruhga bo'lindi. Masalan, musiqashunos olim F.Karomatov o'zbek xalq musiqasini Buxoro – Samarqand, Farg'ona – Toshkent, Xorazm va Qashqadaryo – Surxondaryo lokal guruhlari bo'lib o'rganishni zarur deb bildi. Teatrshunos M.Rahmonov ham shu fikrni qayd qiladi: "XVIII–XIX asrlar mobaynida o'zbek teatri, musiqasi va raqs san'ati hamma xonliklarda bir xilda va bir uslubda rivoj topmadi. Har bir xonlikda teatr, musiqa va raqs san'atining o'ziga xos uslub va formalari shakllandi".

Folklorshunoslar ham har bir hudud ijrosida o'ziga xos jihatlar borligini tan olib, uni "jamoaviy ijrodagi variantlilik", deb atagan. Demak, xalq og'zaki ijodining jamoaviy ijro jarayoni bilan bog'liq farqlari yoki shaklan o'zgarishlari folklorning variantlilikidir. Faqat hududlarga xos folklor jamoalari ijrosida "variantlilik" mavjudligini mutaxassislar tan olishi ulkan hodisa. Chunki folklor asarlari biron hududda ijro etilar ekan, undan ta'sirlangan o'zga jamoada bu ijro aynan takrorlanmaydi. Sababi, hududiy vaziyat, ijrochilarning mahorati, jamoaning iqtisodiy imkoniyati, ayniqsa, sheva va lahjalarning turlichaligi folklor namunasini ma'lum o'zgarishlarga, yangilanishlarga uchratadi. Shuning uchun folklor asarlarining davr-dan-davrga, ijrodan-ijroga o'tishida yuzaga kelgan o'zgarishlar keyingi talqinlarda aks etadi. Bu borada tadqiqotchi M.Murodova: "Folklor asarlarining hududiy variantlarda, turli nusxalarda tarqalishi variantlilik masalasini alohida tadqiq etishni talab qiladi" deydi. Chindan ham, folklorning hududiy o'ziga xos jihatlarini alohida o'rganishga ehtiyoj mavjudligini qayd etish zarur.

Folklor jamoasi ijrosida muayyan bir asarning varianti bir-birini inkor etmaydigan, an'anaviy ijroga asoslanib, mustaqil yashay oladigan, turli hududlarning o'ziga xosligini namoyon qiladigan

jihatlar bor. Masalan, "Alpomish" dostonining 30 ga yaqin variantlari turli hududlardan yozib olingan, lekin xalq orasidagi ijrolarda bundan ham ko'p variantlari tarqalgan. Demak, ijrodagi yangi variantlar, asosan, hududiy shart-sharoitlar natijasida yuzaga keladi. Doston kuylovchi baxshi-shoir yoki ertakchi asar ijro etilayotgan davr, sharoit va tinglovchilar davrasiga qarab, ijroga o'zgartirishlar kiritadi. Deylik, kattalarga aytilgan ijtimoiy mavzudagi ertak bolalarga soddaroq qilib yetkaziladi. Shu tarzda bir ertakning turli variantlari paydo bo'ladi. Har bir folklor asarining yaratilgan vaqti, tarqalishi va yashash sharoitlari o'ziga xos bo'lib, u ijtimoiy hamda iqtisodiy muhit, tinglovchilar auditoriyasi, ijodkor va ijrochi mahorati bilan bog'liq hodisadir. Ijrodagi hududiy variantlilik doim xalq ijodining tarqalish doirasini, ommaviyligini va xalqchilligini belgilaydigan unsurlardan bo'lib kelgan.

Turli ijrolar negizida folklor-etnografik ansambllar u yoki bu viloyatning qo'shiqchilik an'anasiga xos boy merosidan foydalanib, yangi repertuar yaratish jarayoniga ijodiy yondashgan holda faoliyat yuritadi. Mashg'ulotlarni maxsus tashkil qilib, ma'lum bir lokal hududga xos marosim va udumlarni sahnalashtirish, folklor cholg'ularini o'rganish, folklor yakkaxon qo'shiq ijrochiligi, milliy raqs san'ati, xalq milliy o'yinlari, xalq tadbirlarida senariy va aktyorlik mahorati kabi ixtisoslikni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar ishtirokchilarning mahoratini oshiradi. Hududiy ansambllar repertuarida muayyan muhitda shakllangan milliy an'analarning xususiyatlari, badiiy ifoda vositalari, folklori ijro etishning lokal-hududiy farqlariga amal qilingani namoyon bo'ladi.

Masalan, Xorazm xalq qo'shiqlari sho'x-shodon va o'ynoqi bo'lsa, farg'onaliklarniki zalvorliroq hamda vazminroq bo'ladi. Samarqand-Buxoro yo'nalishidagi xalq qo'shiqlarida shiddatli isyonkor ruhiyat sezilib tursa, Surxondaryo-Qashqadaryo yo'nalishidagi xalq qo'shiqlarida tog'lik xalqlarga xos mavsum-marosim qo'shiqlari o'rin olgan. Shuningdek, xalq qo'shiqlarining ijro usuli va matn tuzilishiga ko'ra, har bir hudud o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Ammo ularning maqsadi bitta – o'z ulusining tarixini, xalqning orzu-umidlarini, armon-istaklarini badiiy talqinda yetkazish. Ansambl o'z repertuarini shakllantirishda, hududiy o'ziga xos talqinlarni badiiy jihatdan mukammallashtirish jarayonida folklor san'atining asosiy talablari bo'lgan badihago'ylikni, ijrodagi samimiylilikni, variantlilik xususiyatlarini ham inobatga olishi lozim.

"Folklor san'ati" kafedrası qoshida tashkil etilgan "Gulshod" folklor-etnografik ansambli darsdan tashqari vaqtda o'quvchilarga folklor kuy-qo'shiqlarini hududlarga ajratib o'rganishning amaliy ko'nikmalarini berib kelmoqda. Ansambl repertuari Toshkent-Farg'ona uslubiga xos alla, yalla va askiyalar, Buxoro-Samarqand

uslubiga xos mavrigi-yu yor-yorlar, Surxondaryo-Qashqadaryo o'lanlari-yu aytishuvlari va Xorazmning o'ziga xos lazgisi-yu sho'xchan qo'shiqlarini o'z ichiga olgan. Binobarin, repertuar folklor ansamblining g'oyaviy-badiiy va uning professional ijodiy mahoratini aniqlab beradigan ko'zgu hisoblanadi. Shuning uchun, repertuarga kiritiladigan folklor asarining badiiy jihatiga va g'oyaviy mazmuniga, qo'shiqlarni tanlashga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Sababi, repertuarining g'oyaviy-badiiy nufuzi, uning ijodiy jamoadagi tarbiyaviy salohiyati; ijrochilarning mahorati va ular san'atidan bahramand bo'luvchi auditoriya repertuar shakllanishining asosiy tamoyillari hisoblanadi. Shuning uchun, repertuarga o'zbek folklorining xilma-xil janrlaridan: dilga yaqin, raqs bop asarlarni, ayniqsa, marosim folklori namunalari kiritish maqsadga muvofiqligini o'quvchilarimiz yaxshi anglab olishgan.

Folklor ansabl repertuarida ayniqsa, ijro usulining muayyan tomonlari shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ansambl repertuariga an'anaviy xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga, mualliflar asarlarning kiritilishi, zamonaviy ohanglarni kuchaytirish, shuningdek, milliy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday yangi qo'shiqlar va mualliflar asarlari vatanparvarlik, vatan istiqboli tuyg'usi bilan to'lib-toshgan, hozirgi kunimiz qahramonlarining qalb istaklarini aks ettiruvchi asarlar bo'lib, yoshlar tarbiyasiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Ansambl repertuarini badiiy jihatdan mukammallashtirishda folklor san'atining badihago'ylik, hozirjavoblik, variantlilik xususiyatlarini ham hisobga olish lozim. Improvizatsiya – hozirjavoblik va badihago'ylik san'ati xalq og'zaki ijodi badiiy xazinasini shakllantiruvchi asosiy omillardandir. Badihago'ylikni rivojlantirishda folklor ansambllarining o'rni katta. Bu muammo bo'yicha maxsus uslubiy ish olib borish, turli tavsiyanomalar yaratish, keng qamrovli, ilmiy ijodiy izlanishlar asosida ish ko'rish talab qilinadi.

Ma'lumki, xalq qo'shiqlari ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri qo'shiqning, xususan, laparlarning raqs o'yin san'ati bilan bevosita bog'liqligi va uyg'unlashib ketganligidir. Folklor ansamblining rahbari to'y marosim qo'shig'i hisoblangan lapar janrining o'ziga xos tomonlarini hamisha e'tiborga olishi uning matnlariga zamonaviy ruhni singdirib borishi zarur. Biroq bu uyg'unlikda ham har bir viloyatning hududiy o'ziga xosligi, badiiy xususiyatlari, jo'shqinligi, raqs harakatining zalvorliligi keskin farqlanib turadi. Hatto sahnada kiyib chiqiladigan liboslarning o'sha ansabl faoliyat ko'rsatayotgan joyga xos bichimga ega bo'lishi ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, buxorocho raqsda zardo'zi kamzul, yengi va etaklariga manzarali kashtalar tikilgan kiyim kiyilsa, farg'onacha raqsda oldi

ochiq, beli xipcha beqasam chopon, Namanganda beli ixcham nimcha-yu, harir ko'ylak kiyiladi.

Folklor-enografik ansabllarining muhim, o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri folklor asarlarining sahnaviy talqinlarini yaratishdir. Bu ish anchagina qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, ansambl rahbarlari va ishtirokchilar an'anaviy ijrochilik xususiyatlari va sahna san'ati qonuniyatlaridan boxabar bo'lishlari lozim. Shu maqsadda, o'quv rejaga "Rejissura asoslari va aktyorlik mahorati", "Sahna nutqi" fanidan maqsadga muvofiq o'quv soatlari kiritilsa, o'quvchilarimiz rejissyorlik san'ati elementlari va aktyorlik mahorati, sahna san'atini egallash bosqichlari haqidagi bilimga ega bo'lar edilar.

Shuning uchun, ansamblning sahnaviy chiqishlarini puxta tayyorlash, konsert dasturi qismlarining o'zaro mintaqaviy va mazmuniy mutanosibligiga erishish folklor san'ati mutaxassislariga bir oz qiyinchilik tug'dirmoqda. Ikki yil bilim olib, o'z viloyatlariga borgan o'quvchilarimiz mustaqil ravishda folklor-etnografik ansambl tuzib, rahbarlik qilish malakasiga ega bo'ladilar lekin, bir tomondan, rejissura asoslaridan kerakli bilim va ko'nikmalari yo'qligi tufayli, sahnalashtirish masalalariga qiyinalishsa, ikkinchi tomondan, ikki yillik o'quv shakli bir oz kamlik qilmoqda.

Shunga qaramasdan, izlagan imkon topadi, deganlaridek, kafedramiz o'qituvchilarining fidoiyligi va mehnatsevarligi tufayli, har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladigan ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari, maktab-internatlari, kollej va akademik litseylarning "Yosh ijrochilar" Respublika tanlovida o'quvchilarimiz uzoq yillardan beri muntazam qatnashib, bir yilda bir nechta faxrli o'rinlarni egallab, davlat granti asosida o'qishga qabul qilinmoqda. Qolaversa, maqsadimiz: kafedrada tashkil etilgan "Gulshod" folklor-etnografik ansambli bilan nafaqat respublikada, balki, xalqaro ko'rik tanlovlarda ham qatnashib, g'olib bo'lish.

O'quv jarayonida nafaqat kuy-qo'shiqlar, balki xalqimizning urf-odat, ma'rosim va sayillarini sahnalashtirib hisobot va sinf konsertlari tashkil qilinmoqda. Kollejdani tashqari targ'ibot konsertlari o'tkazilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, mutaxassislik fanlarida, marosimlarning ichki yaxlitlikka, kompozitsiyaviy birlikka, shak-

lan bejirimlikka ega ekanligini o'quvchilar ongiga singdirish usullari samarali yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, hozirgi unutilish arafasida turgan laparlarni raqsi bilan ijro etish sirlarini o'quvchilarga o'rgatishda ansambl badiiy rahbari Gulshod Atabayeva jonbozlik ko'rsatmoqda. Kafedra mudiri Anvar Xoliqov boshchiligidagi o'qituvchilar Botir Rajabov, Abdumalik Jo'rayev, Zohidjon Eraliyev, Shukrullo Qambarov va boshqalar ansambl repertuarini boyitishga o'z xissasini qo'shib kelmoqdalar. Masalan: Gul sayillari, bahor bayramlari, tushov kesdi marosimi, beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'ylari ma'rosimlarining bir biridan farqini o'quvchilarga o'rgatmoqdalar. O'quvchilarimiz esa o'z navbatida marosim va an'analar insonlarga asosan g'oyaviy-tarbiyaviy, axloqiy-ruhiy tomondan ijobiy ta'sir ko'rsatib, ko'tarinkilikni oshirishi to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga nazariy va amaliy jihatdan ega bo'lishmoqda.

Xalq urf-odat va an'analari, marosimlari, folklor qo'shiqlari, aytimlari, o'lan, yalla, laparlarni bilish nafaqat madaniyat sohasidagi mutaxassislarning ish faoliyati uchun zarur bo'lib qolmay balki boshqa soha kadrlarini tayyorlashda, ularga nomoddiy-madaniy merosimizga bo'lgan faxr tuyg'usini shakllantirish, asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazib berish mas'uliyatini his qilish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Shu maqsadda, bog'cha va maktablarda bolalar folklor-etnografik ansambllar, oliy o'quv yurtlarida talabalar uchun to'garaklar tashkil qilinib, yosh avlodni milliy an'analарimiz, urf-odatlarimiz, folklor qo'shiqlarimiz bilan tanishtirib, milliy g'urur tuyg'usini uyg'otish maqsadida ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, nomoddiy-madaniy merosimiz bo'lib hisoblangan milliy urf-odat va umuminsoniy qadriyatlar yoshlarning ma'naviy salohiyatini shakllantirishda, ularni har tomonlama komil inson, mukammal shaxs bo'lib yetishishida asosiy o'rin tutadi hamda kelajagimizni belgilashda mustahkam poydevor bo'lguvchi omildir. Milliy urf-odat va umuminsoniy qadriyatlar yoshlarga hayot mazmunini chuqurroq tushinish, jamiyat qonun-qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zlarining xatti-harakatlarini ana shu ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi – O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-son farmoni.
2. Yuldosheva S., Sattorova G. Folklor-etnografik ansambllari. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 272 b.
3. Yuldosheva S. Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etish. – Toshkent: O'zDSMI, 2016. – B.100.
4. Ahmedov F. Teatrlashtirilgan tomosha rejissurasi // San'at, 1990. 8-son. – B. 21.
5. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2013. – 109 b.
6. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968. – B. 23.

SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING MILLIY IDENTIKLIK BORASIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglashning eng muhim elementi hisoblangan milliy identiklik borasida sharq va g'arb olimlarining qarashlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy identiklik, madaniyat, globallashuv, milliy birlik, urf-odat, an'analar, din, tarixiy xotira, siyosiy suverenitet, madaniy meros.

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ взглядов восточных и западных ученых на национальную идентичность, которая считается важнейшим элементом понимания национального самосознания в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: национальная идентичность, культура, глобализация, национальное единство, обычаи, традиции, религия, историческая память, политический суверенитет, культурное наследие.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the views of eastern and western scholars on national identity, which is considered the most important element of understanding national identity in today's globalization environment.

Keywords: national identity, culture, globalization, national unity, customs, traditions, religion, historical memory, political sovereignty, cultural heritage.

Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarida har bir millat o'z milliyligini saqlab qolishga urinishi tabiiy holatdir. Bu jarayonda esa milliy identiklik madaniyatshunoslikda dolzarb bo'lib qolayotgan murakkab va ko'p qirrali tushunchalardan biri hisoblanadi. U millatni tashkil etuvchi a'zolarning o'ziga xosligiga, umumiy tarixiy xotira, madaniyat, til va an'analarga asoslangan o'zlikni anglash tuyg'usidir. Shaxsiy va jamoaviy identiklik shakllanishida milliy o'zlik muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv, madaniy universallashuv va kommunikatsiya vositalarining kuchayishi bilan milliy identiklik masalasi yangi shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, "identiklik" atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, uning o'zagi "idem", ya'ni "xuddi o'zi" degan ma'noni anglatadi va biror-bir obyektning turli o'zgarishlarga qaramay, o'zligini saqlab qolishiga aytiladi [1, c.223]. Ushbu atamaning paydo bo'lishi va ilmiy muomalaga kiritilishi XX asrning 40–50 yillarida amerikalik psixoanalitik E.Erikson nomi bilan bog'liq. U identiklikni o'ziga xos ijtimoiy madaniy hodisa sifatida tushuntirish jarayonida avvalo, shaxs o'zligining eng tubida joylashgan individual identiklikni tadqiq etadi.

Aynan Erikson milliy identiklikni shaxsning o'z jamoasiga bo'lgan sadoqati, qadriyatlar tizimi va

o'zini shu guruhga mansub deb his qilishi orqali tushuntiradi. U identiklikni o'ziga xos ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushuntirish jarayonida avvalo, shaxs o'zligining eng tubida joylashgan individual identiklikni tadqiq etadi. E.Erikson uning tuzilishini o'zaro to'ldiruvchi va bir-biri bilan birga ishlovchi qoidalarga asoslangan hamda tashqi o'zgarishlarga qaramay o'zligini saqlab qoladigan "ego-identiklik" deb nomlaydi [2, c.344].

Identiklikning sotsiologiya fani doirasida tadqiq etilishi uning tadqiqot obyektini shaxsdan jamiyatga o'zgartirib yubordi. Sotsiologik qarashlarga ko'ra, "identiklik ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadigan artefakt"dir [1, c.100].

"Identiklik" tushunchasi XX asrda G.Mead, A.Tajfel, S.Hall kabi olimlar tomonidan ham atroflicha o'rganilgan. A.Tajfel ijtimoiy identiklik nazariyasini ishlab chiqib, shaxslar jamiyatdagi ijtimoiy toifalar orqali o'z o'rnini aniqlashga harakat qilishini ta'kidlaydi [3, p.276]. Bu yondashuvlar milliy identiklikning shakllanishi va davomiyligini tushunishda muhim ilmiy asos bo'ladi.

Milliy identiklik ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida, bir millat vakillarining umumiylik his-tuyg'ularini shakllantiradi. Ushbu hissiyotlar jamiyatda birdamlikni ta'minlash, mustaqillik g'oyasini chuqurlashtirish va milliy

suverenitetni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jihatdan olib qaralganda, milliy identiklik nafaqat tarixiy-madaniy hodisa, balki bugungi siyosiy, ijtimoiy va madaniy siyosatning ajralmas komponentidir.

Shu bilan birga milliy identiklik tushunchasi mazmunan tarixiy kontekstda rivojlanadi va doimiy ravishda yangilanib boradi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda milliy identiklik masalasi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Sovet davrida yo'qolgan yoki so'ndirilgan ko'plab tarixiy xotiralar, madaniy qadriyatlar va urf-odatlar qayta tiklanishi bilan birga, milliy o'zlik anglanishi yangi bosqichga ko'tarildi. Shu ma'noda, milliy identiklik nafaqat mavjud holat, balki ijtimoiy-madaniy va siyosiy konstruksiya, ya'ni ongli ravishda barpo qilinadigan ijtimoiy tuzilma hisoblanadi.

Biroq bugungi kunda global madaniyatning universalistik tendensiyalari, ayniqsa raqamli makon, transmilliy migratsiyalar, aralash identiklik shakllarining vujudga kelishi milliy identiklikka nisbatan muayyan xavflarni yuzaga keltirmoqda. Milliy o'zlikni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalasi davlat siyosatining hamda fuqarolik jamiyati institutlarining dolzarb vazifasiga aylangan. Shu boisdan, milliy identiklikning zamonaviy davrdagi mohiyati, uning asosiy belgilarini aniqlash, saqlash va rivojlantirish yo'llarini ilmiy asosda tadqiq etish nihoyatda muhimdir.

Mazkur tushunchaning tarixiy-falsafiy asoslariga e'tibor qaratilsa, Markaziy Osiyo mintaqasi identikligiga oid eng qimmatli manba bo'lgan Avesto kitobida ilk kurtaklari namoyon bo'ladi. Avestoda tabiiy muhit, yashash joyi, ma'lum bir antropogen landshaft insonlar tomonidan identiklikning asosiy omili sifatida qaralgan. Avesto manbasida identiklik antropogen landshaft omiliga bog'liq hisoblanib, unga ko'ra o'troq xo'jalik yurutuvchi sog'diylar mintaqa markazi tog' oldi hududlari, baqtriyaliklar tog' oldi va tekisliklarda, xorazmliklar Amudaryo quyi oqimi va tutash cho'l hududlar hamda ko'chmanchi xo'jalik turmush tarziga ega sak va masagatlarning cho'l va dashtlarda yashash joylari, ularning tili va madaniyati, o'ziga xosligi bilan namoyon bo'ladi [4, 202-b].

Milliy identiklikni saqlashda sharq allomalarining qarashlari muhim ahamiyatga ega. Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib insonlarning ma'lum bir tartib qoidalarga asoslangan holda identiklashuvi nazariyasini ilgari surgan va jamiyatning kelib chiqishi, maqsad hamda vazifalari haqida izchil ta'limot yaratgan. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari - davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalarni qamrab olgan. Bu borada uning "Fozil odamlar shahri" [5, 160-b] asari alohida ahamiyatga ega. Unda har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi

bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bular jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi.

Abu Rayxon Beruniyning milliy identiklikka oid falsafiy qarashlari uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarida batafsilroq o'z aksini topgan. Bu asarlarida Beruniy hind, arab, eron, yunon, turkiy xalqlarning milliy o'ziga xos jihatlari, dunyoni anglashi, ilmiy bilimlari, urf-odat va an'analari, diniy e'tiqodi orqali farqlanishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi.

Ayni paytda xalqlarning milliy identikligi – muayyan yaxlit tizimga mansublik hissini tuyishini va uning tarkibida muayyan aniq ijtimoiy guruhning bir qismi ekanligini anglashini ta'kidlaydi. Identiklik vositasida inson o'zi mansub bo'lgan makondagi ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondiradi va u orqali jamiyatda o'z o'rnini topishini ta'kidlaydi. U jamiyat ravnaqini fan, ma'rifat rivojida deb bilgan. Chunki, insonlarni bitta makonda birlikda jipslashuviga ilm-fan, madaniyat va ma'rifat asosiy vosita deb qaraydi [6, 310-b].

Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyidi, rivoj topadi. Ibn Sino fikricha bilimlarni chuqur o'rganish orqali xudoni bilish mumkin degan fikr yotadi. U mavjud bilimlarni egallagan insongina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Bu orqali Ibn Sino jamiyatda insonlar birlashishi, jipslashishida ilmiy bilimlarga asoslangan diniy identiklik g'oyasini muhim ekanligiga alohida urg'u beradi [6, 341-b]. Yusuf Xos Hojib insonning tashqi qiyofasi uning ichki ma'naviy dunyosiga mos bo'lishiga katta ahamiyat beradi.

Chunki, mutafakkir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi. Bu omil jamiyatda shaxsning ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligini anglashida salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi jihat sifatida qaraydi. Shunday qilib, milliy identiklikning yuzaga kelishida ma'rifatparvarlik va yuksak axloqiylik muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi g'oyalar XI asrda yashab ijod qilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilgari suriladi [7, 88-b].

Mustaqillik yillarida o'zbek olimlari ham milliy identiklik masalasiga alohida e'tibor qaratdilar. K.Shoniyozovning fikrlariga ko'ra, milliy identifikatsiya, faqat bir tilda muloqot qilish yoki bir hududda yashash bilan chegaralanmaydi. U o'zlikni anglash orqali, ya'ni millatning tili, madaniyati, diniy e'tiqodi va urf-odatlari orqali shakllanadi [8, 318-b].

Bu borada A.Asqarov etnik omillar va ularning jamiyatdagi ahamiyati haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, milliy identiklikning shakllanishida hududiy birlik, iqtisodiy xo'jalik birligi, etnomadaniy va antropologik tip birliklari, hamda siyosiy uyushmalar

birligining o'zaro ta'siri va ahamiyati katta deb hisoblaydi [9,14-b].

Milliy identiklikning shakllanishi va rivojlanishi asosan quyidagi asosiy elementlarga tayanadi:

✓ tarixiy xotira – xalqning tarixiy bosib o'tgan yo'li va bu yo'l davomida yuzaga kelgan umumiy tajriba;

✓ madaniy meros – millatga xos bo'lgan til, adabiyot, san'at, urf-odat va rasm-rusumlar majmuasi;

✓ milliy birlik – umumiy qadriyatlar atrofida shakllangan ijtimoiy ong va birdamlik;

✓ siyosiy suverenitet – millatning o'zini o'zi boshqarish huquqi va siyosiy erk.

Ushbu elementlar asosida milliy identiklik jamiyatda ijtimoiy integratsiyani ta'minlash, o'zlikni anglash va avlodlararo madaniy uzviylikni saqlash funksiyalarini bajaradi. Taniqli sotsiolog Benedikt Anderson milliy identiklikni "tasavvur qilingan hamjamiyat" deb ataydi va millatlarning real emas, balki tasavvuriy birlik asosida shakllanishini ta'kidlaydi [10, c.21].

Identiklik tushunchasi zamonaviy ijtimoiy fanlarda o'ta ko'p qirrali hodisa sifatida talqin qilinadi. Psixologik nuqtayi nazardan, E.Eriksonning "shaxsiy identiklik" nazariyasiga ko'ra, inson o'z hayoti davomida o'zini anglash va aniqlash jarayonini kechiradi. Bu jarayonda milliy, diniy, ijtimoiy guruhga mansublik hissi markaziy o'rin egallaydi. Erikson shaxsiy identiklikni quyidagicha ta'riflaydi: *"Bu – insonning o'zini muayyan ijtimoiy tizimda qanday ko'rishi va shu tizimdagi roli haqida tasavvuri"*.

Sotsiologik nuqtayi nazardan esa A.Tajfel va J.Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identiklik nazariyasi asosida milliy identiklik tushunchasi izohlanadi. Bu nazariyaga ko'ra, inson o'zini ijtimoiy guruhga mansub deb bilganida, shu guruh qadriyatlari va xatti-harakatlarini ichki ongida qabul qiladi. Millat bu yerda ijtimoiy guruh bo'lib xizmat qiladi

va inson o'zini shu millat vakili deb anglaganidan so'ng o'zining "biz" obrazini shakllantiradi.

Postmodernist yondashuvlarda, xususan, S.Hall, Z.Bauman, M.Fuko kabi olimlar identiklikni doimiy harakatda bo'lgan, kontekstga bog'liq, dinamik va konstruktivistik ijtimoiy hodisa sifatida ko'radilar. Ularga ko'ra, identiklik tayyor holatda berilmaydi, balki har doim qayta-qayta quriladi. Shu bois, milliy identiklik ham tarixiy sharoit, siyosiy iqlim va madaniy ta'sirlar ostida o'zgarib turadi [11, p.52].

Falsafiy nuqtayi nazardan esa identiklik tushunchasi "o'zlik", "birlik", "farqlilik" kabi kategoriyalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Klassik falsafada (Dekart, Gegel, Kant) o'zlik tushunchasi bilish va ong asosida shakllansa, zamonaviy falsafada u ijtimoiy-madaniy konstruksiya sifatida tushuniladi.

Milliy identiklik – bu insonning o'z millatiga mansubligi, o'zini shu millatning ajralmas bir qismi sifatida anglash hissi va shu asosda shakllanadigan o'ziga xos o'zlik tushunchasidir. Ushbu tushuncha insonning ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda tutgan o'rni, tarixiy-madaniy xotirasi, urf-odatlari, tili, dini, madaniy qadriyatlari va umumiy ramzlari asosida rivojlanadi.

Milliy identiklikni saqlab qolish – bu shunchaki madaniy merosni asrash emas, balki milliy suverenitet, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning asosi sifatida ko'rilishi zarur. Bu esa har bir fuqaroning o'zligiga sodiq bo'lishi, davlat siyosatining esa shu yo'nalishda izchil va tizimli bo'lishini talab qiladi.

Milliy identiklikni mustahkamlash, saqlash va uni zamon talablariga mos holda rivojlantirish har bir davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb muammodir. Bunda milliy identiklikni mustahkamlash bo'yicha "Milliy strategiya" konsepsiyasi ishlab chiqilishi va barcha davlat dasturlarida bu konsepsiya ustuvor yondashuv sifatida aks ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Косенчук Л. Сущность идентичности и основные подходы в её исследованию // Теория и практика общественного развития. – 2014. – №16. – 223-225 с.
2. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – Москва: Прогресс, 1996. – 344 с.
3. Henri Tajfel . John C. Turner. The Social Identity Theory of Intergroup Behavior // Political Psychology. 1983. № 16. – 276-293 p.
4. Daniyarov Sh. Markaziy Osiyo allomalarining milliy identiklik to'g'risidagi qarashlarining tarixiy-falsafiy asoslari // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent: 2024, 35-son. – 200-207 b.
5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
6. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 341 b.
7. Niyozov G., Ahmedov Q., Tojiboyev Q. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. – Toshkent: NMIU, 2010. – 88 b.
8. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001. – 318 b.
9. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 662 b.
10. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма / Пер. с англ. В. Николаева; вступ. ст. С. П. Баньковской. – Москва: Кучково поле, 2016. – 416 с.
11. Stuart Hall. Critical Dialogues in Cultural Studies. – New York: Francis e-Library, 2005. – 541 p.

Muqaddas AXMETJANOVA,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrasi professori v.b, falsafa fanlari doktori (DSc)

SAN'AT TA'LIMI: TALABALARDA REJISSYORLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'limda talabalarda rejissyorlik mahoratini shakllantirish hamda rejissyor tarbiyalash muammolari ochib beriladi. Shuningdek, rejissyorlik texnologiyasi masalalarining o'ziga xosligi hamda uni hayotga tatbiq etishda rejissyor individual xususiyatlarining o'zni kabi ilmiy-metodologik va konseptual masalalar tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: teatr, rejissyor, spektakl, sahnaviy ifoda vositalari, san'at ta'limi, mahorat, texnologiya, qobiliyat.

Аннотация. В данной статье раскрываются проблемы формирования режиссерского мастерства и режиссерского воспитания студентов высших учебных заведений. Исследуются также такие научно-методологические и концептуальные аспекты, как специфика вопросов режиссерской технологии и роль индивидуальных особенностей режиссера в ее реализации.

Ключевые слова: театр, режиссер, спектакль, средства сценической выразительности, художественное образование, мастерство, технология, способность.

Abstract. This article reveals the problems of the formation of directing skills and director's education of students of higher educational institutions. Scientific, methodological, and conceptual issues such as the specifics of directing technology and the role of individual characteristics of the director in its implementation are also investigated.

Keywords: theater, director, performance, means of scenic expression, art education, mastery, technology, ability.

Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti urushdan keyingi iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchilik davrida tashkil etilgan. Institut ilk faoliyatini boshlagan davrida o'z shaxsiy binosiga ega bo'lmaganligi sababli, Toshkent davlat konservatoriyasining 3 ta xonasiga joylashtirilganligini ko'pchilik bilmasligi mumkin. Oliygoch nafaqat binoga, na o'quv jihozlari, na kutubxonasi, na talabalar uchun yotoqxonaga ega edi...

Albatta, yangi o'quv yurtini tashkil etish oson emas. Mazkur oliy o'quv muassasasi qancha qiyinchiliklarni o'z boshidan o'tkazmadi, deysiz? Nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan institut aytish mumkinki, o'z bag'ridan juda ko'p iqtidorli aktyor, rejissyor,

rassom, qo'shiqchi va boshqa iqtidorlarni tayyorlab, o'z bag'ridan uchirma qildi. Ularning ko'pchiligi hozirda ham dunyoning turli burchaklarida, turli ijod maskanlarida faoliyat olib bormoqdalar.

Institut o'zining deyarli 80 yillik faoliyati davomida yosh iqtidorlarni professional san'at muassasalariga tayyorlash jarayonida turli o'quv dasturlari, san'at sohasining pedagogik usul va uslublari, dunyoning yetakchi amaliyotchi va nazariyotchilarining san'atkorni tarbiyalash borasidagi ilmiy va nazariy qarashlari, yaratilgan adabiyotlari, shuningdek an'anaviy va zamonaviy o'zbek milliy san'ati maktablarining amaliy tajribalari asosida o'qitish va kadrlar tayyorlash

jarayonini amalga oshirib kelmoqda. Bu dargohda o'zining butun ongli hayotini butunlay san'at ta'limi va pedagogikasiga bag'ishlagan professor o'qituvchilardan tortib, o'z amaliy faoliyati bilan birgalikda yoshlarga ta'lim bergan hamda berib kelayotgan pedagog va ijodkorlar shunday zahmatli mehnatga o'z umrlarini bag'ishlaganlar va hozirgacha sarflamoqdalar.

Aytish joizki, san'at ta'limi, pedagogikasi, san'atkor tayyorlash jarayoni ta'lim sohasining eng murakkab jabhasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, professional sahna uchun eng muhim va marakkab kasblardan sanalgan rejissyor va aktyor tarbiyalash masalasi doimo o'z dolzarbligini yo'qotmagan va shubhasiz bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Bugungi kunda ayniqsa teatr rejissyorini tarbiyalash masalasidek dolzarb mavzu topilmasa kerak. Yangi davrning zamonaviy rejissyorini tarbiyalash masalasi o'ta murakkab jarayondir. Shunchalar murakkabki, o'ylanganidan, rejalashtirilganidan yuz, balki ming chandon og'ir... Bir so'z bilan aytganda, bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar borki, ulardan asosiylari rejissura kasbining o'ta noyob tabiatiga borib taqaladi. Rejissura shunday kasbki, u avvalo, aktyor bilan ishlashi, yagona g'oyaviy va badiiy maqsadlar bilan birlashgan ijodiy jamoani shakllantirishi, ijodkorlarni yangi zamonaviy sahnalashtirish shakllariga jalb etishida milliy an'analarni zamonaviy jarayonlar bilan boyitishi lozim bo'ladi.

Ko'p bora ta'kidlanganidek, hech qanday ta'lim muassasasi, hech bir maskan tayyor rejissyorni dunyoga keltira olmaydi. U har qanday ijodkor – rassom, kompozitor yoki shoir kabi o'zi, o'z vaqtiga etib tug'ilishi kerak. Rejissurada hamma narsani tabiat tomondan berilgan iqtidor, mehnatsevarlik, kasbni egallashga bo'lgan beqiyos ishtiyoq va albatta qobiliyat hal qiladi.

Qobiliyat o'zi nima? Bu – o'z ichiga poetik, tashkiliy va ma'naviy kabi o'ta murakkab komponentlarni qamrab olgan butun bir yaxlitlikdagi majmua bo'lib, uning markazida o'ta faol va iqtidorli shaxs turadi. Ma'lumki, rejissyor tabiatan o'zini o'rab turgan olamni obrazli, turfa ranglarda ko'ra oladigan chin ijodkor, tom ma'nodagi musavvir bo'lishi, dunyoni nozik did bilan ko'radigan va eshita oladigan inson bo'lishi lozim.

Albatta, rejissyorlik kursiga kirish istagada bo'lgan yoshlar o'z fikrlari va g'oyalarini qoramalarda, tasviriy yechimda yoki musiqiy

badihalarda ifoda eta olishi tahsinga loyiq. Lekin, rejissyorlik qobiliyatini aniqlay olishda bularning o'zi kamlik qiladi. Yillar davomida rejissyorlik yo'nalishlariga qabul qilingan yoshlar orasida badiiy ijod va musiqaga moyillari kam emas. Afsuski, ularning hammasidan ham yaxshi rejissyor, ba'zi hollarda, birorta rejissyorning o'zi ham chiqmaganini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Ularning ko'pchiligi diletantizm darajasida qolib ketganligi – bu borada ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish lozimligidan dalolat beradi.

Rejissura ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, ya'ni, boshqalardan o'z ijodkorligi bilan ajralib turuvchi xislatlaridan tashqari yana bir qator ijodiy fazilatlarini talab qiladi. Iqtidorli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda – bu dinamik (doimiy ravishda o'sib, rivojlanib boruvchi) xotira va tasavvurdir. Bu – dunyoni doimiy harakatda, rivojlanishda, doimiy o'zgarishda va shu bilan birga bu jarayonlarni o'ziga xos ijodkor ko'zi bilan ko'ra olishdir.

Qobiliyatli rejissyor o'z taassurotlarini shunday boshqara olishi kerakki, uning ta'sirlanishidan boshqalar ham ta'sirlansinlar, o'zlari uchun sahnadagi kutilmagan voqealarni rejissyor nigohi orqali ko'ra olsinlar. Rejissura yo'nalishida tahsil olishni boshlagan talabani har qanday sodda, eng oddiy va ilk izlanishlarida ham maishiylik va kundalik hayotdan ajratib turuvchi poetik hamda falsafiy his-hayajon sezilib turishi lozim. Rejissurani mizansahnaga tenglashtirish mumkin emas. Mizansahna – rejissyor tayanishi mumkin bo'lgan o'ta kuchli ifoda vositalaridan biri xolos. Rejissura teatr san'atini tashkil etuvchi barcha makoniy va zamoniy san'at turlarini o'z qobig'ida mujassamlashtirgan.

XX va XXI asrning eng murakkab va noyob kasbi hisoblangan rejissura haqida juda ko'p maqtov va balandparvoz ta'riflar aytilgan. Uning atrofida xatto bir qadar sirli aura mavjud, desak xato bo'lmaydi. Darhaqiqat, iqtidorli va mahoratli rejissyorning har bir yangi spektakli yoki ijod mahsuli chin ma'noda o'zining originalligi, hayotni o'zgacha nigoh ila ko'rilganligi, kutilmagan tasavvur va fantaziyalarning namoyon bo'lishi bilan hayratga soladi.

Ilmiy mushohadadan maqsad – rejissura san'atini, osmonga olib chiqib maqtash, rejissyor tarbiyalash borasida yuqori notalarda gapirishdan iborat emas, aksincha, asosiy e'tiborni aynan shu muammoning aniq amaliy aspektlariga e'tibor qaratishdan iboratdir.

Iqtidorli rejissyorlar tajribalariga tayanib

shuni aytish mumkinki, oliygohning rejissyorlik yo'nalishiga juda bo'lmaganda bir-ikkitagina bo'lsa ham beorom, dunyoni obrazli ko'radigan, poetik mushohada yuritadigan, kompozitsiya yaratish qobiliyatiga ega abituriyent kelsa ham, ta'lim jarayoni u yoki bu darajada muvaffaqiyatli kechishi mumkin. Afsuski, haqiqiy iqtidor egasi bo'lgan va shu kasbga chindan layoqatli yoshlar biz istaganimizdek ko'p bo'lavermadi.

Rejissura – sintetik kasb. Soha vakillari orasida uning uch qirrasini ajratib ko'rsatish taomilga kirgan. Lekin, ularga qo'shimcha sifatida kasbning yaxlit qiyofasi – rejissyor-professionallik termini negadir tushirib qoldirilgan. Chunki, o'ta talantli, ijodiy qobiliyatga ega rejissyorlarning ko'pchiligi tashkilotchilik qobiliyatidan mahrum ekanligi, yoki aksincha, o'ta tashkilotchi rejissyorning ijodiy qobiliyati haminqadar ekanligi borasida hayotiy misollar anchagina. Hayotiy, jonli tasavvuri keng yoshlar orasida ushbu murakkab kasbning og'ir-yengilini ko'tara oladigan, aktyorlar bilan ishlash qobiliyati mavjud, irodasi mustahkami kam yoki juda kamyob. Ularga pedagogik malaka begona.

Oliygozni bitirib ketgan ko'pgina sobiq talabalar orasida shundaylari ham anchagina bo'lganligi ayni haqiqat. Ularni tasavvuri keng emaslikda ayblash mumkin emas. Lekin ular negadir o'zlarini teatrdan namoyon qila olmadilar, to'g'rirog'i o'zlarini bu sohada topa olmadilar, teatr ijodiy jamoasini o'zlarining shaxsiy intilishlari va g'oyalariga ergashtira olmadilar. Yuksak axloqiy va kasbiy me'yorlar nafaqat zamonaviy teatrdan, balki, rejissyorlik professionalizmining asosi hisoblanishi bejizga emas.

Agar rejissyor insonlarga, o'z jamoasidagi aktyorlarga nisbatan teng va adolatli munosabatda bo'lish fazilatidan mahrum ekan, bunday holda u nafaqat boshqalarning, balki o'zining ham qadr-qimmatini va kamchiliklarini to'g'ri baholay olmaydi. Agar u insonlar bilan munosabatlarda halol emas va bu sohani adashib tanlagan ekan, u holda tasavvurlari-yu fantaziyalari ham unga yordam bera olmaydi.

Rejissyor tarbiyalash ishini murakkablashtiruvchi yana bir qator muammolar mavjud. Hammasi abituriyentlarni saralash jarayonidan boshlanadi. Qanchalar achchiq bo'lsa ham shuni tan olish kerakki, haligacha O'rta Osiyo mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekistonda ham rejissyorlik kasbining mohiyati keng jamoatchilik tomonidan to'la anglab yetilmagan. Shu sababli ham, rejissyorlik kurslariga estetik jihatdan to'liq

tarbiyalanmagan, gumanitar fanlarni yaxshi o'zlashtirmagan, kerakli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, bir so'z bilan aytganda, kasb tanlash borasida aniq maqsadi va yalt etib turgan qarori bo'lmagan insonlar keladilar. Kurslarga qabul qiluvchi komissiyadagilar ba'zi jihatlari bilan e'tiborni torta olganlarida ta'lim jarayonida yuqorida qo'yilgan malakalarni rivojlantirishga umid qilgan holda talablarni yumshatishga majbur bo'ladilar.

Afsuski, imtihon jarayonida tug'ilgan umidlar ko'p hollarda o'zini oqlamasligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Kirish imtihonlari, malaka talablari mukammallikdan ancha yiroq, shu sababli ham, xato qarorlar, misol uchun, haddan tashqari erkinlikni talant deb qabul qilinishi holatlari kam emas. Vaholangki, haqiqiy iqtidor uyatchan va kamtar bo'ladi va o'zini tezda namoyon qila olmasligi mumkin. Shu tariqa, eng noyob hisoblangan rejissura san'atiga o'rtamiyonlik kirib kelmoqda. Bir qaraganda, bu yoshlar umuman olganda rivojlangan, suhbatlashilganida yaxshi taassurot qoldiradi, lekin yillar o'tishi bilan ma'lum bo'ladiki, ular ijodkorlikdan mahrum, vaqt o'tgani sari o'ziga bino qo'ygan, tanqidlarni mensimaydigan kimsaga aylanganligi ko'rinib qoladi.

Undan ham achinarli tomoni shuki, ko'pgina talabgorlar madaniyatining past darajadali, ijtimoiy tayyorgarlikning deyarli yo'qligidir. B.Yo'ldoshev o'z suhbatlarida ko'p bor ta'kidlaganidek, yoshlarning juda ko'plari Navoiy, Bobur, Qodiriy, Shayxzoda, Boshbekov asarlarini bir bor qo'lga olib ko'rmaganlari istagancha topiladi. Aristotel, Shekspir, Lope de Vega, Goldoni, Pushkin, Tolstoy haqida gapirma ham bo'ladi. Achinarli tomoni shundaki, oliygohga qabul qilingan yoshlarning asosiy vaqti ko'pchilikka tanish klassik asarlarnigina o'qishga sarflanadi. Lekin adabiyot, musiqa, tasviriy va boshqa san'atlar borasida zahira to'plamagan zamonaviy rejissyor aqlga sig'maydigan paradoksdur.

Ma'lumki, bo'lajak rejissyor ko'p badiiy asarlar o'qimagan bo'lsa, unda fikrlash qobiliyati rivojlanmaydi. Dramatik asar ustida ishlash jarayonida aynan ana shu omil – rejissyor sifatida fikrlay olish mahorati va ko'nikmasi muhim bo'lib, jarayon avvalo asosiy voqealarni aniqlab olishdan boshlanadi. Voqea asar qahramonlari qilmishlari va xatti-harakatlari zamirida yotadi. M.O.Knebel o'zining “О том, что мне кажется особенно важным” (“Men

eng muhim deb hisoblaganlarim haqida” tarjima muallifniki) kitobida voqealarni aniqlab olish va bu unsurning rejissyorning pyesa ustida ishlash jarayoniga ahamiyati borasida muhim fikrlarni oʻrtaga tashlaydi: *“Men, voqealarni aniqlab olish masalasi hozirda zamonaviy sanʼat uchun juda muhim, deb hisoblayman. Teatr sanʼatining qay tomonga qarab rivojlanishi yoki ogʻishi – bu masalaga qanday yondoshishimizga bogʻliqdir”* [1, c. 59].

Oʻrtamiyona rejissyorlarning paydo boʻlishi va koʻpayishiga nazariya va amaliyot uzviyligi mavjud boʻlmagan, talabalarning teatrdan, jonli aktyordan uzoqlashtiradigan, yetarli darajada mukammal boʻlmagan taʼlim tizimining taʼsiri ham kam emas. Institutni tamomlayotgan va ayni paytda rejissura muammolari haqida tinmay bong uradigan rejissyorlik kurslari bitiruvchilari ayni paytda aktyor, rassom, kompozitor bilan ishlay olmasliklarini, kasbiy jihatdan ojiz va nochor ekanliklarini koʻrsatib qoʻymoqdalar.

Bahodir Yoʻldoshev, Olimjon Salimovlarning fikricha, rejissuraga oliy maʼlumotga ega maʼlum kasb egalari, yetarlicha hayotiy tajribga ega insonlar kelgani maʼqul. Chunki, institut yoki studiyalarda oʻtadigan bir necha yil rejissyorlikdek murakkab kasb sirlarini oʻrganishga, zamonaviy ijodkorning toʻlaqonli shakllanishiga va shu bilan birga adabiyot, falsafa, musiqa, tasviriy sanʼat kabi fanlar doirasida kerakli bilimlarni olishga yetmaydi.

Nazarimizda, boʻlgʻusi rejissyorlarda kamtarlik, kechagi kun tassurotlari va bugunning yutuqlari bilan yashash emas, balki ertangi kun muvaffaqiyatlarini koʻzlashga tayyorlash muhimdir. Olimjon Salimov shunday yozadi: *“Rejissyorning ruhiy holati qanday boʻlmasin, uning qismatida har doim, har safar oʻz ishi bilan oʻzining shu kasbga daxldor ekanini isbot qilishdan iborat. Ha, har safar, har doim, umrining oxirigacha. Bunday oʻzini oqlash masʼuliyati tobora kuchayib boraveradi. Rejissyor qanchalik oʻz kasbining egasi sifatida tan olinsa, bu egalikni isbotlash shunchalik zaruratga aylanaveradi. Har qanday kasbning ham eng asosiy kushandasi “kasbning egasi” sifatida tan olinib, maʼlum daraja-yu unvonlarga ega boʻlganidan keyin “isbotlaydiganimni isbotlab qoʻydim” deganday chetga chiqib olib, koʻkrak kerib yurishdan iboratdir”* [2,60-61-bb.].

Marhum pedagog, iqtidorli rejissyor Joʻra Mahmudov har safar rejissyorlik kurslariga yangi qabul qilingan yangi qiyofalarni, endigina

kelib qoʻshilgan yoshlarni koʻrganida oʻzini kashfiyotchidek his qilishini aytib oʻtgandi. Chunki, har bir yangi talaba oʻz ichki olamida qanday sirlarni yashirayotganligi maʼlum emas. Ularning barchasini yaxlit holda va har birini shaxs sifatida oʻrganish oson ish emas. Shuni taʼkidlash kerakki, buni amalga oshirish va ularni angʻlay olish aktyorlik kurslaridan koʻra rejissyorlik yoʻnalishlarida birmuncha murakkabdir. *“Rejissyorning ish quroli nimadan iborat? – deya yozadi professor J.Mahmudov oʻz maqolasida, – Aktyor tomoshabinga muallif-dramaturgning oʻy-fikrlarini xatti-harakat, soʻz orqali tomoshabinga yetkazadi. Yaʼni qoʻpolroq aytganda, tilmochlik qiladi. Yozuvchi – dramaturg, ijrochi-aktyor, qabul qiluvchi-tomoshabin oʻrtasida tilmochlik qiluvchi shaxs rejissyor ekan”* [3,123-b].

Sanʼat taʼlimida rejissura bilan shugʻullanuvchi yoshlarni aktyorlik mahoratini egallashlariga alohida eʼtibor qaratilishi bejizga emas. Tajribalar shuni koʻrsatadiki, rejissura boʻyicha olib boriladigan mashgʻulotlarni mahorat mashqlari va etyudlardan boshlash lozim boʻladi. Auditoriyalarda olib borilgan darslar jarayonida har doim ham ijodiy muhit yuzaga kelavermaydi. Ustaxonalarda talabalarning tasavvurlari mudrab, ayniqsa badihagoʻylikka asoslangan etyudlarda ijobiy natijalarga qiyinchilik bilan erishiladi. Shu jarayonda talabalar oʻzlariga yaqin boʻlgan, yoshlar hayoti bilan bogʻliq mavzularga murojaat qila boshladilar.

Bir qaraganda, rejissura fani boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar kabi tasdiqlangan dasturga asoslanib oʻqitilishi kerak, degan tasavvur mavjud. Lekin bu nazariya har doim ham toʻgʻri kelavermaydi va oʻzini oqlayvermaydi. Rejissyorlik kurslarida tayyor, tajribadan, aprobat-siyadan oʻtgan usullar bilan katta natijaga erishib boʻlmaydi. Umumiy metodologik yondashuv bilan birgalikda har bir yangi kurs tarkibi, xarakteriga koʻra oʻziga xos uslubiyaatni talab qiladi.

Murakkablik yana shundaki, rejissura – bir vaqtning oʻzida sanʼatning ilmiy bilimlar sohasi hisoblanadi. Bu sohada nazariya doimiy ravishda amaliyotga tatbiq etiladi. Rejissyor ongli ravishda usullarning nazariy koʻrsatmalarini har kunlik repetitsiya jarayonlarida qoʻllaydi va shu bilan birga, faqatgina tushunchalar orqaligina emas, bir vaqtning oʻzida, agar u haqiqiy rejissyor boʻlsa, koʻtarinki ruhda ijod qiladi, yaratadi, badiiy obrazlar orqali fikrlaydi.

Shubhasiz, rejissyorlik texnologiyalarining murakkab qonuniyatlarini, rejissura asoslarini

o'rgatishda ular tabiatida ijodkorlik hissini uyg'otish muhimdir. Bu juda og'ir va murakkab jarayondir. O'qitish metodikasi nazarimizda shunday bo'lishi kerakki, hatto rejissura san'atining eng murakkab yo'nalishlari (kategoriyalari) ham eng oddiy elementlardan tashkil topishi lozim. Chunki endigina rejissura bilan shug'ullanayotgan boshlovchini kasbning qiyinchiliklari bilan qo'rqitib qo'yish qiyin ish emas. Lekin uning oqibatlari ijobiy bo'lmasligi aniq. Odatda bunday qo'rquvning natijasi uzoq vaqtni oladigan, qiyinchilik bilan bosib o'tiladigan qo'rquv va siqqlikni yuzaga keltiradi.

K.Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda, rejissura bo'yicha dars olib boradigan pedagoglar *"...ta'limning ilk kunlaridan boshlab, o'z shogirdlari shaxsiy hayotiy kuzatuvlari va inson tabiatidagi ijodkorlikning oddiy qonuniyatlarini his qila olish orqali anglashga o'rgatishlari lozim. Bu qonuniyatlar istisnosiz barcha uchun majburiydir"* [3, c. 287-288].

Rejissyor tarbiyalash muammolariga chuqurroq kirib borganimiz sari, uning adog'i yo'qligiga amin bo'la boshlaymiz. Agar rejissyorlik texnologiyasi masalalarining o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, uni hayotga tatbiq etishni rejissyorning individual xislatlaridan ayro ko'rib bo'lmaydi. Yosh rejissyor qanchalik aniq va to'g'ri fikrlasa, intellektual salohiyati qanchalar chuqur bo'lsa, chuqur g'oyaviy-badiiy niyatlarini shunchalar

to'g'ri va mukammal ifoda eta olish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Zamonaviy san'at ta'limi, avvalo o'zbitiruvchilari qalbida kasbiy me'yorlarga asoslangan ma'lum estetik va ma'naviy qadriyatlar va ideallarga bir umrga sodiqlik tuyg'ularini singdira olishi lozim. San'at ta'limini o'zlashtirish – kasbni to'laqonli egallash yo'lidagi doimiy va to'xtamasligi lozim bo'lgan bir umrlik jarayondir. Oliygo'ra insonlarni bir kasb va maqsad yo'lida, ko'p hollarda bir umrga birlashtiruvchi maskandir. Ta'lim muassasasi hamfikrlar jamoalarini yuzaga keltiruvchi, ayni paytda ana shu jamoa ichidagi har bir shaxsning individual imkoniyatlarini yuzaga chiqishini ta'minlovchi dorilfunundir.

Rejissyorlarning yangi avlodi qobiliyatli ijodkorlar, haqiqiy ijod qilishga har tomonlama tayyorlangan, san'atning ichki va tashqi usul va uslublarini o'zlashtirgan, asrning estetik va madaniy rivojlanish bosqichlarining eng yuksak cho'qqisidan joy olgan, buyuk milliy tariximiz va madaniy boyliklarimiz rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shishga qodir san'atkor bo'lishlariga ishongimiz keladi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining kelajak bitiruvchilari badiiylik va hayotiylik mezonlarini aniq belgilay oluvchi, o'z topilmalari bilan haqqoniy, go'zal, ayni paytda betakror asarlar yaratishga qodir rejissyorlar sifatida tarixda qolishlari uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кнебель М.О. О том, что мне кажется особенно важным. – Москва: Искусство, 1974.
2. Salimov O. Kasbim – rejissyor. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2009.
3. Mahmudov J. Rejissyorlik kasbining mohiyati // O'zDSMI "San'at va madaniyat ta'limi-badiiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi" mavzusidagi ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2014, 6-7 yanvar.
4. Станиславский К.С. Собрание сочинений: В 6 т. – Москва: Искусство, 1989.

Oybek DAVLATOV,
O'zDSMI "Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash" bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

AVLODLAR ALMASHINUVI VA ULARGA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilm-fan va ta'lim-tarbiya masalalari, avlodlar almashinuvi va ularning nazariyasi borasida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, zamonaviy avlodga ta'lim berishning yangi metodikalarini ishlab chiqishga oid takliflar va tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, ta'lim-tarbiya, "X", "Y", "Z" avlodlar, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В статье излагаются размышления по вопросам, связанным с наукой и образованием, межпоколенческим обменом и их теориями. Также даются предложения и рекомендации по разработке новых методик обучения современного поколения.

Ключевые слова: наука, образование, поколения «X», «Y», «Z», педагогические технологии.

Abstract. This article presents thoughts on issues related to science and education, intergenerational exchange, and their theories. It also provides suggestions and recommendations for developing new methodologies for educating the modern generation.

Keywords: science, education, "X", "Y", "Z" generations, pedagogical technology.

Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti, avvalo, ilm-fan va oliy ta'lim rivojiga bog'liq. Agar bu sohalarga zamonaviy texnologiyalar va yangicha sifat bilan yondashmasak, yuksak natijalarga erishishda muammolarga duch kelishimiz mumkin. Shu sababli, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, yaxshi tajribalarni asrash va rivojlantirish, kadrlar tayyorlashda sifatni oshirish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda yurtimizda ta'lim sohasini rivojlantirish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan boyitish va kengroq fikrlash yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'lim tizimigacha bo'lgan barcha bosqichlarda sifatli va raqobatbardosh ta'lim berish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Bu esa yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni kelajakda yetuk mutaxassis, vatanparvar inson sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda ba'zi talaba-yoshlar orasida ta'limga bo'lgan qiziqish-

ning pasayishi, ilmga befarqlik, bilim olishga nisbatan sust munosabat kabi salbiy holatlar ham kuzatilmoqda. Bu kabi holatlar chuqur tahlil etilishi, ularning sabab va omillari atroflicha o'rganilishi zarur. Avvalo, o'quv jarayonining mazmunan eskirgan shakllari, o'qitishning faqat nazariy yondashuvga asoslangani, amaliy ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmasligi, shuningdek, talabalarda rivojlanish darajasi yetishmasligi kabi omillar o'rganilishi lozim.

Yana bir muhim jihat axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida yoshlarning e'tibori ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar va boshqa virtual olamga yo'naltirilayotganidir. Bu esa ularning e'tiborini ilmiy izlanish, kitob o'qish, mustaqil fikrlashdan chalg'itmoqda.

Shuningdek, ayrim hollarda ta'lim muassasalarida yetarli darajadagi motivatsion muhitning yo'qligi ham talabaning o'z ustida ishlash istagini pasaytiradi.

Mazkur muammoga yechim sifatida, avvalo, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv va amaliyotga asoslangan uslublar bilan boyitish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni

mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, yoshlarni maqsadli tarzda qo'llab-quvvatlash, ularning har bir yutug'ini rag'batlantirish, ta'lim olgan sohasining jamiyatdagi real qadriyatga aylanishiga erishish zarur.

Shiddat bilan rivojlanayotgan turmush tarzi, ilmiy yutuqlar va axborot oqimi lug'atimiz va nutq madaniyatimizga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi atama va iboralar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shulardan biri – "avlodlar nazariyasi" tushunchasidir.

U turli avlod va yosh guruhlari o'rtasidagi farqlar, qadriyatlar va dunyoqarashlar tahliliga qaratilgan bo'lib, zamonaviy jamiyatda muhim o'rin tutadi. Har bir avlodning o'ziga xos dunyoqarashi va hayotga munosabati bor, bu xususiyatlar esa oila, ijtimoiy hayot va kasb tanlash kabi omillar ta'sirida shakllanadi. Avlodlar nazariyasini o'rganish, avlodlar o'rtasidagi farqlarni anglab, jamiyatda o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Avlodlar nazariyasi tushunchasi bir nechta sohalar – tarix, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, iqtisodiyot va texnologiya tarixi fanlari hamkorligida o'rganiladi. Ushbu jarayonning mohiyatini yanada chuqurroq tushunish uchun adabiyotlarga murojaat qilish foydali bo'ladi. Masalan, rus olimlari Yevgeniy Nikonov va Yevgeniya Shamislardan tomonidan yozilgan «Теория поколений. Необыкновенный Икс. 1964 – 1984» nomli kitobda [1], avlodlar nazariyasi tushunchasi bilan kengroq tanishish imkoniyati mavjud. Ushbu kitobda olimlar 6 ta avlod vakillarini quyidagi toifalarga ajratib, ularning xususiyatlarini batafsil tushuntirib berishgan.

Ushbu jadvalga asoslansak, bugungi kunda 5 avlod vakillari bilan birga bir jamiyatda yashayotganimiz aniqlashmoqda.

Shu o'rinda Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bosh inspektori

Muxsina Xusanovaning "Y" va "Z" avlod, ulardan qanday qilib samarali foydalanish mumkin" nomli maqolasida avlodlar almashinuvi va ularning xususiyatlari borasida qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishish mumkin:

1923–1943-yillar – "Kamgap" avlod. Ikkinchi jahon urushi dahshatlarini boshdan kechirganlar, ortiqcha gapirishdan va jamoada o'zini namoyon qilishdan qo'rqishadi. Mehnatsevar va qonunni hurmat qilishadi.

1944–1963-yillar – "Bebi Bumer". Katta rejalar va global yutuqlarni qadrlashadi. Optimistik kayfiyat va yorqin kelajakka ishonchni muhim deb bilishadi.

1964–1984-yillar – "X" avlodi. Noyob bo'lishni yaxshi ko'rishadi, professionalizm va bilimni qadrlashadi.

1985–2002-yillar – "Y" (Milleniallar). Global tarmoq avlodi, yangilik va o'zini anglashni qadrlashadi. Dunyo va jamiyatni yaxshilashga intilishadi.

2003–2024-yillar – "Z" avlodi (Xoomeylenders). Uy va xavfsizlikni ustun qo'yishadi. Ilmiy asoslarni talab qilishadi va qulaylik uchun pul sarflashga tayyor [2].

Albatta, har bir avlod o'z vaqtining ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sharoitlariga mos ravishda shakllangan va turli qadriyatlarni qadrlashadi. Masalan, birinchi avlodlar asosan mehnatkash va qonun manual ishlar bilan shug'ullangan bo'lsa, zamonaviy avlodlar texnologiyaning rivojlanishi, internet va global aloqalar orqali dunyo bilan yanada bog'langan. Biroq, avlodlar orasidagi farqlarga qaramay, ularning orasida umumiy bog'lanish mavjud – bu o'zgarishlarga moslashish va jamiyatdagi o'z o'rnini topishga bo'lgan ehtiyojdir.

Yangi O'zbekiston gazetasi muhbiri Sohiba Mullayevaning "X", "Y", "Z" avlodlar nazariyasini nega o'rganishimiz kerak?" nomli maqolasida "X", "Y", "Z" avlod vakillarining xususiyatiga qarab quyidagicha ta'rifiydi:

T/r	Asosiy nomi "Avlodlar nazariyasi" (Rossiya uchun)	Alternativ nomlar	Avlodlarning tug'ilish yillari
1.	G'oliblar	Quruvchilar, g'oliblar	1903-1923
2.	Jim avlod	Kitobxon bolalar	1923-1943
3.	Bebi-bumeri	Bebi-bumeri	1944-1963
4.	X	13-chi avlod, Uchayotganlar, "Bo'yniga kalit taqilgan" avlod	1964-1984
5.	Milleniumi	Tarmoq avlodi	1985-2002
6.	Xoumlenderi	Milliy xavfsizlik avlodi	2003-2023

“X” avlod (1963–1986-yillar) siyosatga qiziqadi va jamoaviy qadriyatlarni qadrlaydi. Ularning fikriga ko'ra, dunyo bo'yicha migratsiya jarayonlari faollashdi, siyosiy axborotlarni o'rganishga yuqori e'tibor qaratiladi. X avlod ish va oilaga jiddiy yondashadi, madaniyatni “pop-kultura” sifatida qadrlashadi.

“Y” avlod (1986–2003-yillar) turmush tarzini o'zgartirishga intiladi, iqlim o'zgarishlari va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Ular yangi kasblarni o'zlashtirishga tayyor, xavfga kirishga jur'at etadi. Axborot texnologiyalariga qiziqib, yangi imkoniyatlar yaratishda faol ishtirok etadilar.

Alimovning fikriga ko'ra, Y avlodi o'zgarishlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi, yangiliklarni tez qabul qilishi hamda hayot sifatini yaxshilashni ongli maqsad sifatida belgilashi bilan ajralib turadi. Bu holat mazkur avlod vakillarining innovatsiyalarga ochiqligi, raqamli muhitga tez moslashuvi, mustaqil axborot izlash va uni tahlil qilish ko'nikmalari yuqoriligini anglatadi. Ilmiy nuqtai nazardan olib qaralganda, Y avlodining bu kabi xususiyatlari ularning faoliyatda moslashuvchan, kreativ va ko'p funksiyali bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, an'anaviy avlod vakillari ko'proq barqarorlik, muayyan ijtimoiy me'yorlarga sodiqlik va konservativ qadriyatlarga tayanadigan bo'lsa, Y avlodi buning aksicha, o'zgaruvchan muhitda yangi imkoniyatlarni izlaydi, o'zini har doim qayta kashf qilishga intiladi. Ular uchun ish joyi yoki kasb emas, balki ma'naviy va intellektual qoniqish muhimroq hisoblanadi.

Yana bir diqqatga sazovor jihat shundaki, Y avlodi jamiyatdagi ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik, inson huquqlari kabi masalalarga befarq emas. Ular o'z shaxsiy farovonligi bilan bir qatorda, global muammolarga ham e'tibor qaratadi, o'zini kengroq ijtimoiy makonda his qiladi. Bu esa ularning faolligini nafaqat iqtisodiy yoki texnologik sohalarida, balki fuqarolik jamiyati institutlarida ham namoyon qiladi. Shuningdek, Y avlodi uchun doimiy o'rganish va o'zini rivojlantirish zarurati tabiatiga singib ketgan. An'anaviy ta'lim shakllari ular uchun yetarli emas, ular mustaqil o'rganishga, onlayn resurslar orqali bilim olishga, tajriba asosida shakllangan bilim va ko'nikmalarga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu holat, o'z navbatida, ta'lim tizimini ham yangicha yondashuvlarga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

“Z” avlod (2003–2024-yillar) axborot urushi va siyosiy kurashlar davrida shakllangan. Ular

ijodkor, g'ayrioddiy iqtidorlarga ega va gadjetlar bilan tug'ilgan. Bu avlodning iqtisodiyotga va ijtimoiy o'zgarishlarga katta ta'siri kutilyapti. Z avlodning vakillari o'zining maxsus falsafiy dunyoqarashi va texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi bilan ajralib turadi [3].

Bugungi pedagogik faoliyatim davomida men aynan yuqorida tilga olingan “Z” avlodi vakillari bo'lgan talaba-yoshlar bilan dars mashg'ulotlarini olib bormoqdaman. Dars jarayonida ularning o'zini tutishidagi erkinlik, ba'zan erinish holatlari va ayrim talabalarning topshiriqlarni o'zlashtirishda duch kelayotgan qiyinchiliklari ham avlodlar almashinuvi bilan bog'liq jarondir.

Avlodlar almashinuvi – pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasida ham nomutanosiblikni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Pedagoglar o'z tajriba va metodologiyalarini yangi avlodga uzatishga harakat qilishsa-da, o'zgarayotgan texnologiyalar, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar, shuningdek, yoshlarning o'ziga xos talablari o'qituvchilar va talabalarning o'zaro tushunishini murakkablashtirishi mumkin. Ushbu holatlarni quyidagi tushunchalar bilan izohlasak:

1. Kommunikatsiya usullari – yangi avlod odatda texnologiyalarga o'rgangan va internet, mobil qurilmalar orqali tez va samarali ma'lumot olishga intiladi. Pedagoglar esa an'anaviy o'qitish usullariga ko'proq tayanadi, bu esa o'qish jarayonini samaradorligini pasaytiradi;

2. O'qitish usullari va motivatsiya – yangi avlodni o'qitishda motivatsiyasi va quyiladigan talablarni ham o'zgartirishga ehtiyoj seziladi. Ular ko'proq interaktiv, amaliy va ijodiy usullarni kutishlari mumkin, bu esa pedagoglarning o'qitish metodologiyalarini qayta ko'rib chiqishga undaydi;

3. Dunyoqarashdagi farqlar – pedagoglar va talabalarning hayotiy tajribalari, qadriyatlari, va dunyoqarashlari o'rtasida farqlar bo'lishi tabiiy. Yangi avlod tezda o'zgaruvchan dunyoda o'sganligi sababli, ular ko'proq global va texnologik dunyoqarashga ega bo'lishi mumkin, bu esa pedagoglarning an'anaviy yondashuvlaridan farq qiladi.

Mazkur avlod vakillarining o'ziga xos xususiyatlari hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ularning asosiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- o'z uyini qadrlaydi;

- telefon va kompyuterga juda kuchli bog'liqlikka ega;

- *moddiy qadriyatlarga unchalik katta ahamiyat bermaydi;*
- *tejamkor;*
- *faqat o'ziga yoqadigan ishni izlaydi;*
- *ko'p o'qiydi, xorijiy tillarni o'rganishga intiladi va ko'p sohalarda rivojlanishni muhim deb biladi;*
- *har qanday joyda va har bir sohada tenglik va kamsitish yo'qligiga ishonadi;*
- *nihoyatda optimist;*
- *ular uchun "imkonsiz" tushunchasi mavjud emas; shijoatli bo'lib, yuqori marralarni egallashga intiladilar;*
- *o'z-o'zini anglash ular uchun muhim ahamiyatga ega;*
- *har doim aloqada bo'lishni istaydilar [3].*

Ushbu avlodning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va o'quv dasturi hamda metodlarni ularga moslashtirish zarurati mavjud. Shuning uchun, har bir pedagog "Z" avlodining psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, dars jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir.

Shuni yodda tutish lozimki, bugungi kunda "Z" avlodini tarbiyalash faqat ta'lim muassasalarining emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasiga aylanishi kerak. Ularning fikrlash tarzi, bilim olishga bo'lgan yondashuvi, qadriyat tizimi va kommunikatsiya uslublari avvalgi avlodlardan tubdan farq qiladi. Shu bois, bugungi kunda bu avlodni tarbiyalash jarayoni endilikda faqat ta'lim muassasalari zimmasidagi vazifa emas, balki butun jamiyat – oiladan tortib ommaviy axborot vositalari, mahalla, madaniyat muassasalar va davlat institutlarigacha bo'lgan tizimning kompleks yondashuvini talab etmoqda. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, "Z" avlodi vakillarining kognitiv va sotsial xususiyatlari an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan cheklanishni istamaydi. Ular axborotni tezda qabul qilish, filtrlash, tahlil qilish va tanqidiy baholashga moyil. Bunday yoshlar uchun axborotning shakli va yetkazilish usuli mazmundan kam ahamiyatli emas. Vizual vositalar, interaktiv platformalar, virtual va aralash haqiqat texnologiyalari ularning o'rganish jarayonida samaradorlikni oshiradi.

Shu bilan birga, ular individual yondashuv, shaxsiy fikr bildirish huquqi va tanlov erkinligini qadrlaydi.

"Z" avlodining axborotga bo'lgan kirish imkoniyatining kengligi ularning dunyoqarashi, ijtimoiy masalalarga munosabati va global muammolarga nisbatan ongli pozitsiyasi shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa ularda yoshligidanoq faollik, fuqarolik pozitsiyasi, inklyuzivlik va ijtimoiy adolatga intilish kabi jihatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ammo bu jarayonni ijobiy yo'nalishda boshqarish, ular orasida ruhiy barqarorlik, ma'naviy yetuklik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun tizimli, chuqur va zamonaviy yondashuvlar zarur. Shu o'rinda, jamiyatning barcha qatlamlari o'zaro hamkorlikda harakat qilishi lozim. Oilaviy tarbiyaning ahamiyatini kamaytirmaslik, maktab va oliy ta'lim muassasalarida ilg'or, innovatsion metodikalarni joriy etish, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mazmundagi kontentlar ulushini ko'paytirish, madaniyat va san'at vositalaridan foydalangan holda ijobiy rol modellari yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Zero, yosh avlodni faqat nazorat qilish orqali emas, balki ularga ishonch bildirish, ularning tilida so'zlashish, qadriyatlarini anglash va ularga tanlagan yo'lida maslakdosh bo'lish orqali tarbiyalash mumkin.

Bu borada ota-onalar farzandlarining ilk tarbiyachilari sifatida, ularga sog'lom dunyoqarash, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni singdirishda bosh rolni o'ynaydi. Ta'lim muassasalari esa ularning bilim olish, kasb-hunar egallash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ish beruvchilar yoshlarga ishonch bildirishlari, ularga o'sish imkoniyatlarini yaratishlari lozim.

Eng asosiysi, yoshlarning o'zlari ham faol bo'lishlari, o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarish uchun tinimsiz o'rganishlari, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari lozim. Faqat barcha tomonlarning hamkorligi va o'zaro ishonchiga asoslangan sa'y-harakatlarga ushbu avlod vakillarini barkamol, mas'uliyatli va zamonaviy tafakkurli shaxslar sifatida voyaga yetkazishda muvaffaqiyat keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Никонов Е., Шамис Е. «Теория поколений. Необыкновенный Икс. 1964 – 1984». – Университет «Синергия»: 2020. – 137 с.
2. <https://yuz.uz/news/y-va-z-avlod-ulardan-qanday-qilib-samarali-foydalanish-mumkin>.
3. <https://yuz.uz/news/x-y-z-avlodlar-nazariyasini-nega-organishimiz-kerak>.

Sevara MAHMUDOVA,
O'zDSMI "O'zbek va jahon filologiyasi kafedrası" dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Sarvara TASHALIYEVA,
TDSHU va O'zJOKU katta o'qituvchisi

“USULI JADID” VA “USULI QADIM” O‘RTASIDAGI KURASH VA UNING MILLIY METODIKAGA TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan yangi maktab g'oyasining ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy-didaktik omillari hamda usuli jadid va usuli qadim o'rtasidagi kurash va uning milliy metodikaga ta'siri kabi masalalar yoritilgan. Ma'lumki, "usuli jadid" tarafdorlari haqida ko'p yozilgan, ammo "usuli qadim" haqida faqatgina o'ta salbiy mulohazalar qayd etilgan xolos. Mualliflar bugungi kun nuqtai nazaridan bu masalaga to'xtalib, uni chuqurroq o'rganishga harakat qilganlar.

Kalit so'zlar: "Usuli jadid", "usuli qadim", Turkiston, milliy metodika, ta'lim, islohot.

Аннотация. В статье рассматриваются социально-политические и образовательно-дидактические факторы идеи новой школы в Туркестане в начале XX века, а также борьба между новым и старым методами и ее влияние на национальную методологию. Как известно, о сторонниках «нового метода» написано немало. Однако о «старом методе» были зафиксированы лишь крайне негативные отзывы. Авторы попытались рассмотреть эту проблему с современной точки зрения и изучить ее более глубоко.

Ключевые слова: «Усули жади́д», «усули кади́м», Туркестан, национальная методика, образование, реформа.

Abstract. The article examines the socio-political and educational-didactic factors of the idea of a new school in Turkestan at the beginning of the twentieth century, as well as the struggle between the new and old methods and its influence on the national methodology. As is known, much has been written about the supporters of the "new method". However, only extremely negative reviews have been recorded about the "old method". The authors have tried to consider this problem from a modern point of view and study it more deeply.

Keywords: "Usuli Jadid", "Usuli Kadim", Turkestan, national methodology, education, reform.

“Usuli jadid” va “usuli qadim” o'rtasidagi kurash XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-madaniy hayotning muhim qismi bo'lgan. Bu kurash nafaqat ta'lim sohasida, balki jamiyatning barcha sohalarida o'z aksini topgan.

Yangi usulchilarga qadimchilar – maktabdorlar va o'qituvchilarning bir qismi hamda din ulamolarining bir guruhi qarshi chiqdi. Ular nafaqat ta'lim sohasidagi islohotlarga, balki Turkiston musulmonlarining umuman turmush tarzidagi o'zgarishlarga nisbatan ham murakkab va konservativ qarashlarga ega edilar. Shu o'rinda “qadimchi”lar va “usuli qadim”ga alohida to'xtalsak.

Yaqin o'tmish tarixshunosligida jadidchilik harakatining u yoki bu jihatlari ijobiy tomondan yoritilgan bo'lsa-da, “qadimchilar” faqatgina o'ta salbiy taraflama qayd etilgan xolos. “Qadimchilar” oktyabr inqilobidan oldingi, qolaversa sovet davri tarixshunosligida “reaktsionerlar” va “barcha yangiliklarga qarshi chiquvchilar” sifatida yoritib kelingan. Yoki bo'lmasa, “jadidchilar” ham “qadimchilar” ham bir qatorda “panislomchilar”, “panturkchilar” deb nomlab kelingan. Nima bo'lganda ham “qadimchilar” mavzusini o'rganish foydali, deb qaralishi bir yoqda tursin, havfli ham hisoblangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, “qadimchilar” tarixini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar deyarli yo'q.

Respublikamiz tarixshunosligida, qolaversa, xorijda ham bu hodisani to'laqonli yorituvchi ilmiy ishni uchratish qiyin. "Qadimchilar" o'lka-ning taniqli ulamolari, muftiy, mudarris va qozilari bo'lishgan. Ular musulmon jamoasining asrlar davomidagi rivoji jarayonida shakllangan an'anaviy diniy, ma'naviy va milliy qadriyatlarni, ijtimoiy institutlarni asl holatida saqlashga harakat qilganlar O'tmishdagi allomalarning inkor qilinishi jamiyatning ma'naviy tanazzuliga olib kelishi mumkin bo'lgan boy merosini, an'analarni muhofaza qilish "an'anachilar-qadimchi"ning muhim me'yorlaridan biri hisoblangan.

Ular jadidlar bilan munosabatlaridagi asosiy munozarali masalalarda qo'yilayotgan muammoga Qur'on va hadisdan kelib chiqqan holda yondoshar edilar. Lekin jadidlar ham o'z qarashlarini shar'iy nuqtayi nazardan himoya qilishga harakat qilganlar.

Agar o'sha davr matbuotiga nazar solinsa, bu ikki guruh o'rtasidagi bahslar 1917-yil fevral inqilobigacha asosan axloqiy-ma'naviy, faqat qismangina siyosiy mavzular atrofida aylanganligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, dunyoviy ilm-fan va Yevropa madaniyatining o'lka musulmonlari orasida tarqalishi masalasiga har ikkala toifa tomonidan alohida urg'u berilgan. "Qadimchi"lar shariat me'yorlarini xalq turmush tarzida qat'iy ravishda saqlab qolishni Rossiya imperiyasi ma'muriyatining shovinistik siyosatiga, pravoslav missionerlik harakatiga o'xshash boshqa oqimlarning tarqalishiga qarshi muhim to'siq deb bilardilar.

"Har qanday katta-kichik ishlarda shariatga murojaat qilina-versa, dunyoviy taraqqiyotda rivojlanish bo'lmaydi, deb o'ylash kerak emas. Tarixga nazar solib qaralsa, o'lkada turli sohalarida yuksalish bo'lgan zamonlarda islom qonunlariga murojaat qilganimizda taraqqiyotga mone'lik qilganmidi. O'sha zamonlarda musulmonlar qaysi boshqa millatlardan ortda qolgan edi", – deb yozadi ulamolardan Mulla Alijon "Al-Izoh" jurnalidagi o'zining "Ahli islom taraqqiyotlari borasida" nomli maqolasida [1].

Muallif maqolasiga *"Islom hech bir taraqqiyotga mone' bo'lmaydi, balki o'zimizning har xil bema'no, shari'atga xilof bo'ladigan harakatlrimiz mone' bo'ladi"*, deb xulosa yasaydi. Bizga ma'lumki, maishiy turmushni, milliy urf-odatlarini isloh qilish borasida jadidlar talaygina ishlarni amalga oshirdilar. Marosimlardagi dabdababozlik va isrofgarchiliklarni keskin tanqid qildilar. Hatto "Sho'roi Islomiya" 1917-yili bu xususda maxsus qarornoma ham chiqardi. Shu bilan birga, asriy

milliy qadriyatlar hamda mahalliy aholining mentalitetiga xos bo'lgan axloq-odob me'yorlarining himoyachisi bo'lib chiqdilar.

Bu xususan, ma'rifatparvarlardan Cho'lpon *"...Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'paning mo'dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!"*, deya xitob qiladi [2].

Ma'lumki, deyarli barcha jadidlar madrasalarni tamomlagan edilar. Shuning uchun ularni ham aslida ulamo deb hisoblasa bo'ladi. Ulamolar ichida shunday qatlam bor ediki, ular tom ma'noda taraqqiyparvar ulamolar edilar. O'z dunyoqarashida konservativ unsurlarning bo'lishiga qaramasdan, qadimchilar taraqqiyparvar-jadidlardan kam bo'lmagan vatanparvarlik ruhiga ega edilar... [3]

Ta'limdagi "Usuli qadim" (eski usul) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadid maktablari paydo bo'lgunga qadar Turkistonda hukmron bo'lgan an'anaviy ta'lim tizimidir. "Usuli qadim" da asosiy e'tibor diniy ta'limga, Qur'on, arab tili va islom fanlarini o'rganishga qaratilgan. Dunyoviy fanlar amalda o'qitilmagan. Ta'limda yodlash va takrorlash kabi an'anaviy ta'lim usullaridan foydalanilgan. Matnlarni tushunishdan ko'ra yodlashga urg'u berilgan.

Ta'lim diniy bilimlar bilan cheklangan bo'lib, bu fan va texnikaning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. O'quvchilar zamonaviy dunyoga moslashish uchun zarur bo'lgan bilimlarni olmaganlar.

Ta'lim asosan boy oilalarning o'g'il bolalari uchun mo'ljallangan edi. Qizlar va kambag'al oilalarning bolalari, odatda, ta'lim olmaganlar. Ta'lim tizimi tanqidiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga yordam bermagan. O'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmalariga ko'r-ko'rona amal qilishga odatlanganlar. Maktablarda intizomni saqlash uchun jismoniy jazolar keng qo'llanilgan. "Usuli qadim" diniy bilimlar va madaniy an'analarni saqlashda muhim rol o'ynadi, ammo shu bilan birga fan, texnika va jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Har qanday ta'qib va tazyiqlarga, mutaassib ulamolarning dashnomlariga, bo'htonlariga qaramay, jadid maktablari xalq e'tiborini qozonishi, ayniqsa, musulmon qardoshlarning bu boradagi hamjihatliklari, hamkorliklari general-gubernatorlik siyosatdonlari, mafkurachilari faoliyatini yanada kuchaytirdi.

1909-yilda Nikolay Ostroumov «Туркестанские ведомости» gazetasida «Что делать с новыми методными школами?» nomli maqolasini e’lon qildi. Unda muallif quyidagilarni yozadi: “Rus ma’muriyatining yerliklar eski maktablariga nisbatan qo’llagan mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik siyosati o’lkadagi hukmronligimizning dastlabki o’n yilligida o’zini oqlagan bo’lishi mumkin. Ammo keyingi uch o’n yillikda bu siyosat o’zini oqlamaganini hech narsa bilan yashirib bo’lmaydi.

Mana, chindan ham pushaymon bo’ladigan voqea sodir bo’ldi. Biz o’lkada... katta qiyinchiliklar bilan bir necha rus-tuzem maktabi ochganimizda, boshqalar tashqaridan (Qrimdan) katta g’ayrat bilan o’lka maorifi uchun boshqa bayroq ostida mustaqil faoliyat olib bordi. Bu yangi usul maktablari ma’muriyatning hech qanday ruxsatisiz ochila boshladi va ajablanarli, yo’l qo’yib bo’lmaydigan tomoni shundaki, hozir ham bunday holat oblast, uyezd ma’muriyatlari, hatto hukumat maktablar inspeksiyasi nazoratisiz davom etmoqda” [4].

Chor hukumatining mustamlaka o’lkalarda qo’llagan maktab sohasidagi siyosati shunday ediki, iloji boricha, usuli jadid maktablarini taqiqlash, juda bo’lmaganda, ularning keng tarqalishiga to’sqinlik qilish, shu yo’l bilan bunday maktablar rivojlanishining oldini olish edi. Turkiston o’lkasiga nisbatan Tatariston, Boshqirdiston, Qrim va Kavkaz o’lkalarida ancha ilgari bunday jarayon kechgan va ularga qarshi kurashda ma’muriyat katta tajriba orttirgan edi. Bu o’lkalarda ham usuli jadid maktablariga birinchi bo’lib mutaassib ulamolar, “qadimchi”lar qarshi chiqqan edilar.

General gubernatorlik ma’muriyati usuli jadid maktabdorlariga oppozitsiyada bo’lgan mahalliy mutaassiblar, “qadimchi”larni qarshi qo’ydi, bu kurashda ularni rag’batlantirdi, bu maktablarga, ularning tashkilotchilariga qarshi turli bo’htonlar, siyosiy aybnomalar uyushtirdi. Bu bilan gubernatorlik ma’muriyati, birinchidan, mustamlaka xalqlarini asriy qoloqlikda, mutelikda asrashdek qabih niyatini amalga oshirgan bo’lsa, ikkinchidan, o’zini musulmon dini himoyachisi sifatida ko’rsatdi.

Chor hukumati ma’murlari o’zbek ziyolilarini bir-biriga qarama-qarshi ikki qutbga ajratib tashladilar, an’anaviy mahalliy masjid-madrasalarning, eski maktablarning ko’payishiga katta imkoniyat yaratdilar.

Turkiya, Bog’chasaroy, Ufa, Qozon, Tiflis, Orenburgdan keladigan nashrlarning tarqalishini

qattiq nazorat ostiga oldilar. Bu bilan gubernatorlik ma’murlari mustamlakachilik mafkurasining ustunlaridan bo’lmish missionerlar rahnamosi N.Ilminskiy ko’rsatmalariga amal qildilar. Gubernatorlik ma’murlari ma’rifat fidoyilariga qarshi kurashda, ularni xalq o’rtasida badnom qilishda eng qabih usullardan ham qaytmaganlar.

Keksalarning xabar berishiga qaraganda, 1908-yili N.Ostroumov Samarqandda Ulug’bek madrasasi jomesida bir necha ming nomozxon huzurida usuli jadid maktablarida o’qiyotgan yoshlar musulmon dini ahkomlariga amal qilmay qo’yayotganliklari, bunday maktablarda islom diniga xilof ilmlar o’qitilayotgani haqida “kuyunib”ma’ruza qilgan. Qora xalq, mutaassib ulamolar uning ma’ruzasidan qattiq mutaassir bo’lib, “g’ayridin bo’lsa ham bizga, dinimizga qanchalar mehribon” deb, ko’zlariga yosh olib, duo qilgan ekanlar. Usuli jadid maktablarida dunyoviy fanlar bilan barobar ona tili va milliy ma’naviyatning chuqur o’qitilishi gubernatorlik ma’murlariga yoqmas edi.

Bu davr maktab ta’limida “usuli jadid” va “usuli qadim” o’rtasida keskin kurash va qarama-qarshiliklar bo’lganligini biz Ishoqxon Ibrat bilan Toshkentlik maktabdor Mulla Husanxo’ja o’rtasida kechgan munozaradan ko’rishimiz mumkin. 1907-yilda Is’hoqxon Ibrat Munavvarqori taklifiga binoan Toshkentga keladi va bir necha oy davomida shaharda faoliyat olib borayotgan usuli jadid maktablari bilan bir qatorda usuli qadim maktablarida, shu jumladan, Mulla Husanxo’ja domla maktabida bo’ladi, uning faoliyati bilan yaqindan tanishadi. Mulla Husanxo’ja bilan Ibrat o’rtasida kechgan munozara “Turkiston viloyatining gazetisi” sahifalarida e’lon qilindi. Mulla Xusanxo’ja domla o’z maktabini yengil-yelpi isloh, qilib “jadid maktabi” deb e’lon qiladi va xalq bolalarini o’z maktabiga tashviq qiladi. Mulla Xusanxo’ja o’z maktabini “isloh qilib”, katta ijobiy o’zgarish kiritgani yo’q [5].

Demak, “usuli qadim” tarafdorlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadid maktablari paydo bo’lgunga qadar Turkistonda hukmron bo’lgan an’anaviy ta’lim tizimini qo’llab-quvvatlaganlar. Ko’pchilik an’anaviy diniy bilimlar va ta’lim usullariga sodiq bo’lgan ulamolar va mullalar jadidchilik harakatini an’anaviy islom qadriyatlariga tahdid deb bilganlar.

Shu bilan birga mavjud ijtimoiy tartibni saqlab qolishdan manfaatdor bo’lgan boy yer egalari, savdogarlar va boshqa nufuzli kishilar ham “usuli qadim” tarafdorlari bo’lganlar. Ular jadid ta’limi ijtimoiy o’zgarishlarga olib kelishi va

o'z imtiyozlariga tahdid solishidan xavotirda bo'lganlar.

Kambag'al va savodsiz aholining ko'pchiligi esa yangicha ta'limga ishonmay, o'zlari bilgan an'anaviy ta'lim usullariga sodiq edilar. Ular jadid ta'limining afzalliklarini to'liq tushunmaganlar va yangilikdan xavotirda bo'lganlar.

Rossiya imperiyasi mustamlaka ma'muriyatining ba'zi vakillari "usuli qadim"ni qo'llab-quvvatlaganlar, chunki ular an'anaviy ta'lim milliy o'z-o'zini anglashning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va shu bilan Turkiston ustidan nazoratni saqlashni osonlashtiradi deb hisoblaganlar. Bu guruhlarining "usuli qadim"ni qo'llab-quvvatlash uchun turli xil sabablari bo'lgan, ammo ularni an'anaviy tartibni saqlab qolish va jadidchilik harakatiga qarshi turish istagi birlashtirgan. Imperiya harbiy ma'muriyati arzimagan narsani bahona qilib, milliy ziyolilarni, xususan, siyosiy qarashga ega bo'lgan kishilarni o'lkadan surgun qilish bilan shug'ullandi. Matbuot esa iste'molda yo'q "jadid va qadim" iborasini iste'molga kiritib, Munavvar qori Abdurashidxonov so'zi bilan aytgandek "keksa taraqqiyparvarlar bilan yosh taraqqiyparvarlar o'rtasiga nifoq soldi".

"Usuli jadid"ni qo'llab-quvvatlaganlar esa asosan ziyolilar, ma'rifatparvarlar, savdogarlar va hunarmandlar sinfidan chiqqan. Ular jamiyatni isloh qilish, milliy o'zlikni anglash va zamonaviy bilimlarni egallashga intilganlar.

Jadidchilik harakatining asosiy namoyandalari: Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon va boshqalar yangi uslubdagi maktablar ochish, darsliklar yaratish va milliy matbuotni rivojlantirish orqali jamiyatni ma'rifatlantirishga harakat qilganlar.

Savdogarlar va hunarmandlar esa yangi maktablar ochish, darsliklar nashr etish va jadidlarning boshqa tashabbuslarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlar. Ular zamonaviy bilimlar va ko'nikmalar iqtisodiy rivojlanish

uchun zarur ekanligini anglaganlar. So'zsiz, ma'rifatchilar jadidlarning g'oyalarini targ'ib qilish va keng jamoatchilikni ularning ahamiyatiga ishontrishda muhim rol o'ynaganlar. Jadidchilik harakatini qo'llab-quvvatlaganlarning asosiy maqsadlari:

- *Milliy o'zlikni anglash: Jadidlar milliy til, adabiyot va madaniyatni rivojlantirish orqali milliy o'zlikni anglashga intilganlar.*

- *Zamonaviy bilimlar: Jadidlar zamonaviy fanlar va texnologiyalarni o'rganish orqali jamiyatni rivojlantirishga harakat qilganlar.*

- *Ijtimoiy islohotlar: Jadidlar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikni bartaraf etishga intilganlar.*

Jadidchilik harakati Turkistonda milliy uyg'o-nishning muhim bosqichi bo'lgan va zamonaviy O'zbekistonning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, "usuli jadid"ning asosiy xususiyatlari: uning zamonaviy ta'lim tizimiga asoslangani, dunyoviy fanlarning o'qitilishi, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga e'tibor qilinishi, yangi g'oyalar va bilimlarni qabul qilishga tayyorligi edi.

"Usuli jadid" va "usuli qadim" o'rtasidagi kurash milliy metodikaga quyidagi shaklda ta'sir ko'rsatdi:

Yangi ta'lim usullari joriy etildi, jadidlar zamonaviy o'qitish usullarini qo'llab, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga harakat qildilar. Dunyoviy fanlar o'qitiladi:

jadidlar matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlarni o'qitishga katta e'tibor qaratdilar.

Jadidlar milliy til va adabiyotni o'rganishga katta e'tibor qaratdilar va bu orqali milliy o'zlikni anglashga harakat qildilar.

Jadidlar axloqiy tarbiyaga katta e'tibor qaratdilar va yoshlarda insof, adolat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga harakat qildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –Toshkent: Universitet, 2006.
2. Dolimov U. Jadidchilikning tamal toshi // Jahon adabiyoti. 2010. №1
3. Abashin S. Mustamlaka Turkiston. Iyun 15, 2023, Central Asian Analytical Network.
4. Абаши́н С, Бабаджанов М, Котюкова Т, Махмудов О. Туркестан в имперской политике России: Монография в документах. Отв. ред. Т. В. Котюкова. — Москва: Кучково поле, 2016. — 880 с.
5. Boboqulov O. Teshayev A. Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o'qitilishi (Is'hoqxon Ibrat va Munavvarqori tashkil etgan maktablar misolida), Scientific Progress, VOLUME 2, E 3 // ISSU 2021, p 276-283.

Doniyor TUYG'UNOV,
O'zDSMI "Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot
faoliyatini tashkil etish bo'limi" boshlig'i

AKTYOR BADIY NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish metodikasi she'riy dramalar misolida o'rganishi, o'rgatilish atroflicha tadqiq etilgan. Badiiy nutqni rivojlantirishda she'riy nutqning o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. She'riy drama orqali badiiy nutqning ifoda etilishidagi o'ziga xos jihatlari va she'riy nutqning nasriy nutqdan afzallik tomonlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, teatr san'ati, badiiy nutq, she'riy nutq, she'riy drama, aktyor, talaffuz, spektakl.

Аннотация. В данной статье подробно исследуется методика развития художественной речи будущих актеров на примере поэтических драм. Особое внимание уделяется роли и значению поэтической речи в развитии художественной речи. Показаны особенности выражения художественной речи через поэтическую драму и преимущества поэтической речи перед прозаической речью.

Ключевые слова: педагогика, театральное искусство, художественная речь, поэтическая речь, поэтическая драма, актер, произношение, спектакль.

Abstract. This article provides a detailed study of the methodology for developing the artistic speech of future actors using poetic dramas as an example. Particular attention is paid to the role and significance of poetic speech in the development of artistic speech. The article highlights the features of expressing artistic speech through poetic drama and demonstrates the advantages of poetic speech over prose speech.

Keywords: pedagogy, theatrical art, artistic speech, poetic speech, poetic drama, actor, pronunciation, performance.

Jahon madaniyati va san'ati taraqqiyotida, xususan, teatr san'atida aktyor nutqi alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda aktyorlarning nutqini rivojlantirish, ularning sahnaviy mahoratini oshirish, yangi obrazlar orqali o'zini, qobiliyatini namoyon qilish san'atshunoslik va pedagogika sohalarining dolzarb masalasi sanaladi. Aktyor nutqi ravonligi, faoliyatining ham farovon bo'lishini ta'minlaydi. Bunda aktyor nafaqat nutqini, balki tilni ham to'g'ri ishlatishi zarur. Aktyor o'zining hissiy holatini, emotsiyasini ijro jarayonida ko'rsatib, obraz yaratishda nutqning, badiylikning o'ziga xosligi tomoshaviylikni oshiradi. U sahna ijrochisi sifatida har bir rolida estetik jihatdan qimmatli xarakterga xos qiyofa yaratuvchi ijodkor sanalib, san'at rivojiga ham bevosita hissa qo'shadi. Sahna san'atining ijrochiga qo'ygan talabi ulug', asari manfaatlidir.

Bu borada aktyor nutqini rivojlantiruvchi vosita – she'riy drama hisoblanadi.

Bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish metodikasi she'riy dramalar misolida o'rganishdan maqsad – bo'lajak aktyorlarni badiiy nutq bo'yicha zamonaviy pedagogik metodlar orqali yetuk kadrlar qilib tayyorlash, ularning nutq madaniyatini oshirish, sahnada so'zni mukammal ijro darajasida tomoshabinga tushunarli va ta'sirli qilib yetkazib berishi, ifodani rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashdan iborat. Aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishda she'riy dramalarning o'rni va ularning nutqiy ifodasi chuqur ilmiy tahlil qilinib, ular aktyorning sahna nutqi texnikasini oshirishda eng muhim kasbiy vositalardan biri ekanligi aniqlandi. Dramatik jarayonlarda o'zining hissiy va ijtimoiy o'rnini ko'rsatishda ritm va intonatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

San'at ta'limi, xususan, talaba-aktyorlarni o'qitishda "Sahna nutqi" fani asosiy mutaxassislik fani hisoblanib, bo'lajak aktyorlarning sahnaviy nutqi, aniq va ravon talaffuzi, nutqning badiiyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi [1,13-b].

Mashq qilingan, yetuk ovoz bilan ifodalangan nutq – aktyor ijro etayotgan badiiy obrazining sahnadagi butun qiyofasini namoyon etadi.

Bugungi kunda san'at yo'nalashida tahsil olayotgan talabalarni professional aktyor sifatida tayyorlash, sahnada ishlash uchun zarur barcha bilimlarni berish, ko'nikmalarni rivojlantirish choralarni ko'rishda yangi va zamonaviy texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish, dunyoning ko'plab oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar sabab, barcha sohalar qatorida pedagogika va san'atshunoslik ta'lim sohasi ham yangidan-yangi innovatsion o'zgarishlarga yuz tutdi. Yurtimizning deyarli barcha hududlarida sahna san'ati ixlosmandlari uchun ko'plab teatr binolari qurildi. Mavjudlari esa qayta ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi.

Tadqiqotlar natijasida, oliy o'quv yurtlarida soha mutaxassislarini tayyorlashda, xususan, bo'lajak aktyorlarning kasbiy kompetensiyasi va badiiy nutqini rivojlantirishda she'riy dramalardan keng foydalanish zaruriyati mavjudligi hamda bu bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari talab darajasida tatbiq etilmagani ma'lum bo'ldi. She'riy dramalar bo'yicha nazariy ma'lumotlarning yetarli darajada emasligi, amaliyotda she'riy dramalardan professional darajada foydalanish imkoniyatini bermayotgani o'z isbotini topdi.

Badiiy nutq aktyorning professional ijrosi uchun muhim omillardan biri hisoblanib, aktyorning nutq madaniyati, talaffuzi, ifodali so'zlashuvi – bularning barchasi sahnada obrazni to'g'ri aks ettirishda katta ahamiyatga ega. She'riy dramalar mazmuni va shakli bilan aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqolada, aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishda she'riy dramalarning o'рни, metodikasi va uslublari haqida so'z yuritiladi.

Aktyorning badiiy nutqi, uning san'atini yuzaga chiqarishning asosi bo'lib, sahnada yaratgan obrazining jonlanishi uchun zarurligi bilan muhim hisoblanadi. Badiiy nutq nafaqat so'zlarning talaffuzi va ritmikasi, balki aktyorning his-tuyg'ularini, psixologik holatini, ichki dunyosini ham ifodalaydi. She'riy dramalar badiiy nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri bo'lib, she'riyatda so'zlarning ritmi, melodiya va ohanglari ayniqsa muhim o'rin tutadi.

"Qaysi davrda bo'lmasin, yozilgan she'riy dramalar adabiyot va drama nazariyasiga tayanadi. Muallif o'z nazdida tutgan janr xususiyatlari doirasida yozadi. Rejissyor esa uning sahnada yashashiga sabab bo'ladi. Aktyorlar ijrosida talqin etiladi" [2,14-b]. Izzat Sulton yozganidek, "She'riy nutqda yozilgan asarlar o'quvchi va eshituvchini tez va qattiq hayajonga soladi" [3,201-b].

She'riy drama va uning xususiyatlari haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash joizki, she'riy drama – bu dramatik asar bo'lib, uning asosiy elementi she'rdir. She'riy drama asosan yuqori badiiy darajada yozilgan va tilning estetik imkoniyatlarini kengaytiradigan asarlardir. She'riy drama musiqiy va ritmik jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa aktyorning badiiy nutqini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi.

Artpedagogik jihatdan qaraganda, aktyor she'riy dramatik asarlarni sahnalashtirish jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi zarur:

1. **Talaffuz va ritm:** she'riy dramalarda so'zlarning talaffuzi va ritmikasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, aktyor so'zlarni aniq talaffuz qilishi bilan birga, ularning ritmik tuzilishini ham his qilishi kerak. Bu, ayniqsa, she'riyatning ohanglari va musiqiy ohanglarini aks ettirishda juda zarur;

2. **Melodiya:** she'riy drama matni ko'pincha musiqiy ifoda va melodiya elementlariga boy bo'ladi. Aktyor bu elementlarni o'z ijrosida aks ettirish orqali badiiy nutqning melodik tuzilishi bo'lgan asar mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi;

3. **Ichki holat va his-tuyg'u:** she'riy dramada his-tuyg'ular va ichki holatlar muhim ahamiyat kasb etib, aktyor o'zining ichki holatini she'riy matn orqali ifodalashda yuqori badiiy nutqni namoyon qilishi zarur. Bunday asarlarda so'zlar tashqi voqelikni emas, balki ichki hissiyotlarni ifodalaydi, shuning uchun aktyorning nutqi ham juda nozik va ta'sirchan bo'lishi kerak.

4. Shu bilan bir qatorda, aktyor obraz ustida ishlaydi. Obraz yaratish uchun yuqoridagilarni o'rganish talab etiladi.

5. Badiiy nutqni rivojlantirishda she'riy dramalarni o'qish juda samaralidir.

She'riy dramatik asarlarini o'qish va ifodalashda quyidagi metodik yondashuvlar qo'llaniladi:

• **Badiiy nutqning ritmik tahlili:** she'riy drama matnini o'rganishda ritmikani hisobga olish, unga butun e'tiborni qaratish juda muhim. Aktyor matnning ritmik tuzilishini, mohiyatini to'liq tushunib olishi nutqning ohangini va melodik elementlarini aniqlashga yordam beradi;

• **Emotsional qonuniyatlar:** aktyor matnda berilgan emotsional nuanslarni¹ aniq his etishi kerak. She'riy dramatik asarlar ko'pincha kuchli hissiy o'zgarishlar va dramatik tugunlarga boy bo'ladi. Aktyor o'zining ichki hissiyotlarini to'g'ri ifodalashi uchun intensiv mashqlar va hissiy treninglar talab etiladi;

• **Sahnada nutqni amalga oshirish:** aktyorning badiiy nutqini rivojlantirishda sahnada ijro etishning o'zi alohida metodik yondashuvni talab qiladi. She'riy drama matni, asosan, bir necha qatlamdan iborat bo'lib, har bir qatlamni sahnada to'g'ri aks ettirish kerak. Bu, o'z navbatida, aktyorning til va nutq madaniyatini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi;

• **Intonatsiya va emotsional rang:** she'riy dramatik asarlarda intonatsiya va so'zlarning emotsional rangini oshirish uchun maxsus mashqlar o'tkazilishi mumkin. Bu mashqlar, ayniqsa, she'r va drama elementlari o'zaro qo'shilgan asarlarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

She'riy drama orqali aktyorning badiiy nutqini rivojlantirishda aksariyat hollarda klassik adabiyotdan foydalaniladi. Bu to'g'ri albatta, lekin bugungi yoshlar texnologiya taraqqiy topgan zamonda zamonaviy uslubdagi yangiliklarga qiziqadi. Ularning qiziqishini yanada oshiradigan texnologiyalarni ishlab chiqib, foydalanishi uchun qo'llab-quvvatlash borasida tarixiy, she'riy dramalarni zamonaviy effektlarda amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi.

“Tuyg'uni zo'rlab chiqarib bo'lmaydi” [4], deb yozadi teatr san'atining bilimdoni, amaliyotchi Konstantin Stanislavskiy o'zining “Aktyorning o'z ustida ishlashi” nomli kitobida.

Navoiyning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” dostonlarini, Pushkinning “Boris Godunov” she'riy dramasi zamonaviy shaklda, yoshlar qabul qila oladigan ranglarda sahnalashtirish, bugungi teatr sana'ti mas'ullarining muhim vazifasi bo'lib turibdi. Bu asarlarda nafaqat badiiy ifodalar, balki she'riyatning chuqur falsafiy uyg'unligi, dramaturgiyaning shiddatli harakatliliigi mavjud bo'lgani uchun aktyorlar ushbu asarlar bilan ishlashda o'z nutqini rivojlantirishda katta yutuqlarga erishishlari mumkin.

Sahna nutqi har doim aktyorning ijrochilik uslubini belgilashda alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Chunki aktyor sahnada asarning g'oyaviy mazmunini va voqealar rivojini, personajlar o'rtasidagi o'zaro to'qnashuv va kurashni to'liq holda hayotiy qilib tasvirlar ekan,

bu jarayonda nutq vositalaridan keng foydalanadi [5,13-b].

Badiiy nutqning she'riy drama orqali ifoda etilishidagi o'ziga xoslik shuki, unda buyuk yunon mutafakkiri Aristotel ta'biri bilan aytganda, shoirning qahramonlar nutqini faqat so'z bilan emas, intonatsiyaga boy she'rlar bilan yetkazib beradi.

She'riy san'at haqida gap ketganda “She'riy yozilgan tragediya, drama, satiralar she'rning ma'lum bir navi bo'lib, uning o'qilayotganini eshitgan yoki o'zi ovozi chiqarib o'qigan kishi huzur qilishi kerak [6,61-b], deya baho berish bilan birga, to'g'ri fikr bildirilgan Aristotel “Poetika”sida. Bu – bugungi kunda tomoshabinlar e'tiborini qozongan she'riy dramalarning sahna talqinlarida o'z isbotini topgan.

She'riy dramatik spektaklda – she'riy nutq va shaklning o'ziga xosligi har bir satrda so'zma-so'z, qatorma-qator, jumlama-jumla ortib boradi. Muallifning she'rlari matbuotda chiqishiga qo'yilgan ta'qiqlar, adabiyot va adib ijodini tushunmaganlar, obrazlari bilan bog'liq tashbehlar va majozlar ifodasi ko'ngillarni zabt etadi. Natijada, aktyorlar nutqi, ijrosi, mahorati tomoshabinlar qalbini larzaga soladi, hayratlantiradi [7].

Shuningdek, she'r so'z bilan qofiyani bir-biriga bog'lagan holda badiiy nutqning takomillashuviga sabab bo'ladi. Bu esa, tomoshabinlarning asar qahramonlari yoki personajlarga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Ma'lumki, san'atshunos pedagog kadrlarni tayyorlashda til va nutqning o'rni beqiyos. Ayniqsa, she'riy dramalarni o'qitishda, bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishda artpedagogning oldida jiddiy masalalar o'z yechimini kutib turibdi. She'riy ohang, ichki hissiyotni yurak-yurakdan tuyish hamda badiiy-estetik tafakkur tarzini rivojlantirishga doir sahna asarlarini yaratishda aktyorning mahorati bilan birga, badiiy nutqi ham katta mas'uliyat talab etadi.

Maqolada she'riy uslubda yozilgan asarlar asosida bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish bilan birga pedagogik zamonaviy metodlar, sahnaviy talqin, dramaturgiya, rejissyorlik, aktyorlik mahoratiga doir muammolar va ularning tahliliga bag'ishlangan.

DM bilish texnologiyasi.

Xabardorlik tushunchasi.

Auditoriya darslarida she'riy dramani talabalar galma-gal o'qish orqali bilish, bildirish auditoriyadagi talabalarni xabardor qilish, ohangga solib, badiiy, ifodali, so'z ma'nosini

¹ Nuanslar – bu darhol sezilmaydigan ma'no, ifoda yoki ohangdagi nozik yoki yengil farqlar.

tushunib, mohiyatni tushuntirib, ohangdorlikni oshirib o'qish, ijro qilib ko'rish, holatga kirish, obrazni o'zida his qilish, uyatchanlikni yengish kabi vazifalar talabani tarbiyalaydi, eslab qolish qobiliyatini oshiradi, his qilishini o'stiradi.

She'riy dramada she'riy ohang yetakchilik qilishi bilan birga dramatism ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. She'riy dramadagi ohangdorlik nafaqat aktyorning, balki tinglovchining ham xotirasini mustahkamlashi she'riy dramaning ahamiyatini ko'rsatadi.

She'riy drama bir necha janrlar sintezi hosilasidan iborat bo'lib, unda dramatism va personajning xatti-harakatiga qurilgan voqealar tizimi yetakchilik qilishi bilan oddiy she'rdan farq qiladi. Syujetning dramatismga qurilganligi she'riy dramaning qiymatini yanada oshiradi.

She'riy dramaning lirik she'rlardan farqi katta bo'lib, she'riy dramaning "dramatik jihati kuchli" hisoblanib, unda harakat, voqelik va syujet bo'ladi. Eng muhimi, sahnaviylik, sahnaboplik, sahnada o'ynaladigan xatti-harakat – dramatismning mavjudligi hisoblanadi. Bu – avvalo, rejissyorning tasavvurida kompozitsion yaxlitlikni paydo qiladi. She'riy dramadan she'riy spektakl yaratish, ya'ni sahnadagi holatni ko'rish, uning qurilishi, dekoratsiyasi, aktyorlar ansamblining jonli harakati, rassomning fantaziyasi, musiqiy moslik she'riy spektakl uchun zarur bo'ladigan barcha unsurlar haqida o'ylashga va uni sahnaviy talqinini yaratishga undaydi. She'riy dramaning mana shunday jozibasini anglagan, uning mashaqqatidan qo'rqmagan rejissyor she'riy spektakl qo'yishga jazm etadi. Uning tomoshaviyligi borasidagi o'ylar ham rejissyorning oldida turgan birinchi masala ekanligi ham sir emas.

Barcha she'rlar bir xil bo'lmay, birida lirizm, boshqasida dramatism kuchli bo'ladi. Muallif she'riyati va teatr o'rtasidagi o'zaro aloqa bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Shoir, dramaturg she'rni dramatik jonlilikka, sahnaviylikka qurishi she'riy dramaning qat'iy talabi ekanini chuqur anglashi rejissyorga ham, aktyorga ham yo'riqnoma vazifasini o'taydi.

She'riyatning teatr spektakllariga ta'siri katta

bo'lib, she'riy drama, teatr pyesalari, uning predmeti va chegarasi, pyesalarda she'riy til, sahna tashkiloti, dekor-kostyum oranjirovkasi, tasviriy, eshitish va lingvistik elementlardan xayoliy foydalanish, atmosfera yaratish, vaqt bilan qanday she'riy dramatik tuzilma yaratilganligi muhokama mavzularidan hisoblanadi. Bugungi kunda she'riyatning teatr tili bo'lib qolgani aytilsa ham, she'riyat bilan teatr o'rtasidagi aloqa butunlay uzilgan, she'riyat teatrdagi o'z vazifasini yo'qotgan, deb da'vo qilish mumkin emas.

Zamonaviy teatr asoschilaridan hisoblangan Ibsen, Chexov, Shou kabi ismlar nasrdan teatr tili sifatida foydalana olgan, lekin ular o'z spektakllarida ma'lum bir she'riylik doirasidan chiqib, ancha murakkab va samaraliroq uslubni qo'llay olganlar. She'riy teatr, dramatik she'riyat, she'riy drama, teatr she'riyati, she'riyat teatri kabi tushunchalarning ko'pligidan farqli o'laroq, she'riyat-poetikaning teatr bilan o'zaro ta'sirini muhokama qilish uchun yaratilgan, bu boradagi puxta va batafsil tadqiqotlarning kamligi vaziyatni avvalgidan ham murakkablashtiradi. Shu sababli, teatrdagi she'riyatni g'oya, asar to'qimasi ichida parcha-parcha ko'rgazmaga qo'yiladigan va barcha unsurlar uyg'unligi bilan yuzaga chiqadigan uslub sifatida ta'riflash tushunchaga sodda va to'g'ri ta'rif topish nuqtai nazaridan muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, she'riy dramalar bo'lajak aktyorlarning nutqini rivojlantirishda nihoyatda samarali metodik vositadir. Bu asarlarning talaffuz, ritm, intonatsiya va emotsional ranglarni to'g'ri o'rganish orqali, aktyorlar o'z nutqini yanada boyitadi. Aktyorning sahnada so'zlashuvi faqatgina badiiy ifoda vositasi emas, balki uning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini va psixologik holatini aks ettirishning asosiy vositasidir.

She'riy drama – shaklan she'riy, tarkiban dramatik bo'lib, tur sifatida liro-dramatik turga xosdir. Yozilganda she'riy tuzilishga egaligi bilan dramatik xarakterda namoyon bo'ladi.

She'riy dramalar bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar berishi bilan birga, ularni san'atga yangicha nigoh bilan qarashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel, Poetika. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. 150 b.
2. Kadirov R.T. Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari: Dis. ... ped. fan. fal. dok. – Toshkent: O'zDSMI, 2024. 129 b.
3. Tuyg'unov D.M. O'zbekiston teatrlarida she'riy dramalarning sahna talqinlari (mustaqillik davri). – Toshkent: O'zDSMI, 2023. 100 b.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
5. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
6. Xoliqulova G. Sahna nutqi tarixiy dramalar misolida. – Toshkent. O'zDSI, 2007. 144 b

Aziza ABDUMANNATOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti
“Musiqqa ta’limi” kafedrası o’qituvchisi

MADANIY TADBIRLAR ORQALI TALABALARNING TOLERANTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa turizmi vositasida talabalarda tolerantlikni rivojlantirish, musiqa madaniyatiga salmoqli ulush qo’shgan Hoji Abdulaziz Abdurasulovning uy – muzeyiga qilingan sayohatning mazmuni yoritilgan.

Kalit so’zlar: musiqa, tarbiyaviy, tadbir, talaba, vosita, tolerantlik, rivojlantirish, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, uy-muzey, sayohat.

Аннотация. В данной статье описывается содержание поездки в дом-музей Гаджи Абдулазиза Абдурасулова, внесшего значительный вклад в музыкальную культуру и развитие толерантности среди студентов посредством музыкального туризма.

Ключевые слова: музыка, образовательное мероприятие, студент, музыкальный инструмент, толерантность, развитие, Гаджи Абдулазиз Абдурасулов, дом-музей, путешествие.

Abstract. This article explores a visit to the house-museum of Hadji Abdulaziz Abdurasulov, who made a significant contribution to musical culture and the development of tolerance among students through music tourism.

Keywords: music, educational event, student, tool, tolerance, development, Hadgi Abdulaziz Abdurasulov, house museum, trip.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohatlar natijasida Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning ijtimoiy- siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning turmush darajasini oshirish, iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo’nalishlari belgilab olindi.

“2022 – 2026-yillarga mo’ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da belgilangan, 7 ta yo’nalish qayd etilgan 100 ta maqsadga erishish, inson omiliga, ya’ni yoshlarimiz fuqarolarning zamonaviy kompetentsiyalariga, kuchli ma’naviyatiga bog’liq ekanligi alohida qayd etildi” [1].

Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo’nalishi – “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yoshlarni bevosita ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi ekanligidan kelib chiqib, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” asosida inson umrining homila

davridan boshlab, 30 yoshga bo’lgan davrda olib borilayotgan ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini yangi bosqichga ko’tarish, yoshlarimiz va aholida mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g’oya asosida kurashish kompetentsiyalarini rivojlantirish” [3] kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Bu mas’uliyat zalvorini, yukini biz pedagoglar qanday tushunishimiz kerak? Buni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning fikri bilan aytganda: “Bizni hamisha o’ylantirib kelayotgan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloq, yurish-turish, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgarayapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlar avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

Yoshlar turizmining turlari ko'p, ularning asosiylariga ta'lim turizmi, valontyorlik, ish, sayohat, madaniy almashinuv, sport va sarguzasht turizmi hamda dam olish (hordiq) turizm kiradi. Ulardan biri madaniy almashuv turizmi bo'lib, bu turli mamlakatlar o'rtasida kishilarning, ayniqsa talabalar, san'atkorlar hamda turli kasb egalari o'rtasida keng tarqalgan. Yoshlar madaniy almashinuvida boshqalar bilan ijobiy munosabatni shakllantirishni o'rganadilar, dunyoqarashini kengaytirishadi va ko'p madaniyatli jamiyatda zarur bo'ladigan bilim va tajribalarga ega bo'lishadi. Yoshlar madaniy almashinuvi ikkinchi jahon urushidan so'ng kelajakdagi kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish maqsadida rivojlana boshladi" [4].

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-son Farmonining qabul qilinishi mamlakatimiz ta'lim tizimida tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu Farmonning 4-bandi "Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish"ga bag'ishlangan.

Aniqrog'i, unda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish bo'yicha talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amalga oshirish, ya'ni talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularni kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish konseptual vazifa sifatida belgilab berildi [2].

San'at va uning tarkibiy qismi bo'lgan musiqa vositasida hal qilish muhim bo'lgan pedagogik vazifalar doirasi keng ekanligini yetakchi psixolog olim A.Maslou san'at vositasida o'qitish va tarbiyalash "tuzukroq odamlarning paydo bo'lish uchun" zarurligiga ishonch. Olimning fikriga ko'ra bunday ta'lim, qolgan butun ta'lim sohasi uchun paradigma bo'lishi kerak va aynan shu ta'lim "to'g'ri ta'limdir".

Demak, san'atning yetakchi funksiyasi odamni "insoniylashtirish"dir. Shu bois, san'at odamlarning murakkab tan-ruh tabiatiga jism-taniga har tomonlama ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega va ta'limning samarali vositasi bo'lib, inson uchun umri davomida o'zini-o'zi rivojlantirish,

o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini-o'zi o'qitish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib qoladi.

Pedagogika fanlari doktori Sh.Mustafayevning ta'kidlashicha: *"Aqlga, hissiyotlarga, tajribalarga, insonning xatti-harakatlariga, uni ongli va ongsiz, ratsional va intuitiv jihatlariga har tamonlama ta'sir qilish orqali, san'at ko'plab pedagogik vazifalarni parallel hal qilish imkoniyatini beradi"* [6].

Talaba-yoshlarda shu jumladan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirishda tarbiyaviy tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish talaba yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.

Pedagog olimlar R.Ishmuhamedov, M.Yuldo-shevlarning ta'kidlashicha: *"Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish muammosini qo'yimoqda. Shu munosabat bilan Oliy ta'lim tizimi oldida jamiyat uchun chuqur bilimli, muayyan mutaxassislik malakalarini chuqur egallagan shaxslarnigina emas, balki ayni vaqtda davr talablariga javob bera oladigan yuksak insoniy fazilatlarga hamda chuqur kasb sohibi va uning fidoyisi, xalqiga sodiq, jamiyatda fuqarolik kasb va mas'uliyatini yaxshi anglagan, hayotda va ish faoliyatida o'z o'rnini topa oladigan, o'z Vatani kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qila oladigan raqobatdosh, madaniyatli shaxs – mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini ado etishni talab etadi"* [7].

Keyingi yillarda respublikamizda sohalar bo'yicha taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilib, fuqarolarda, shu jumladan, talaba-yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat-parvarlik tushunchalari yangi mazmun bilan boyitib borilmoqda. Aniqrog'i, barcha fuqarolarda, talaba yoshlarda imon-e'tiqod, mustahkam bilim, fidoyilik, vatanparvarlik, sadoqatlilik, xalqparvarlik kabi insoniy fazilatlar shakllanib, ularda mamlakatning kelajagiga ishonchlari tobora ortib bormoqda. Natijada imon-e'tiqodli, bilimli, ona Vatanga sadoqatli, bag'rikeng, xalqparvar, mehnatsevar bir so'z bilan aytganda, har tomonlama rivojlangan barkamol avlod shakllanmoqda. Talaba-yoshlarda yuqorida nomlari keltirilgan sifatlarni shakllantirishda shubhasiz, Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan tarbiyaviy, tadbirlarning o'zni muhim ahamiyat kasb etadi. O'tkazilayotgan

tadbirlarning natijasi ularning tahliliga bog'liq. Shu bois, har bir tadbirning maqsadi, uning amalga oshirish mexanizmi pishiq, puxta tuzilishi lozim. O'tkazilayotgan tadbirlar talabaga qanday ma'naviy ozuqa berdi, tadbirlarda talabalarning ishtiroki, ularning qiziqishi, tarbiyachi va tashkilotchilarning pedagogik mahoratlari, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishdagi bilim, ko'nikma va malakalari, tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativlik qobiliyatlari, har bir tarbiyaviy tadbirga aksiologik, kreativ, refleksiv, yondoshuvlariga bog'liq.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida Samarqand shahrida tug'ilib voyaga yetgan, xonanda va sozanda, O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, "Shashmaqom"ning mohir ijrochisi o'zbek va tojik mumtoz qo'shiqchiligi san'atining darg'alaridan biri Hoji Abdulaziz Abdurasulovning uy-muzeyiga qilingan musiqiy ziyoratning tahlilini keltiramiz.

Samarqand bulbuli Hoji


Abdulaziz Abdurasulovning uy-muzeyiga qilingan musiqiy ziyorat tahlili

Maqsad: Talabalarga mumtoz qo'shiqchilik san'atida o'zidan boy va o'chmas musiqiy meros qoldirgan Hoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va faoliyati, musiqa tarixidagi o'rni, Samarqand san'atining musiqiy merosi haqida ma'lumotlar berish orqali talaba-yoshlarda tolerantlikni rivojlantirishdan iborat.

Sayohat rejas:

1. Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va faoliyati to'g'risida talabalarga ma'lumot berish.
2. O'zbek musiqa san'atida buyuk hofizning tutgan o'rni.
3. Hoji Abdulaziz Abdurasulov haqida zamondoshlarining fikrlari.
4. Buyuk hofiz ijodida xalqlar do'stligining kuylanishi.
5. Hofizning uy-muzeyi musiqiy ziyoratgoh.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o'z ijodiy faoliyati bilan o'zbek va tojik xalqlari madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur san'atkorlardan biri. U "Shashmaqom"ning yetuk bilimdoni, sozanda va bastakor sifatida, sohir ovoz va takrorlanmas qo'shiqlari orqali san'at olamida o'chmas iz qoldirdi. Mashhur hofiz 1852-yilda yer yuzini sayqali bo'lgan Samarqand shahrining Ko'k Masjid guzarida, hunarmand kosib Abdurasul ota xonadonida dunyoga keldi. Hofizning otasi



do'mbirada o'zbek va tojik xalqlarining qo'shiqlarini xirgoyi qilib yurgan. Yosh Abdulazizda musiqaga qiziqish otasining ijro etgan kuy-qo'shiqlari orqali shakllandi. Otasi uni 6-7 yoshga yetganda eski boshlang'ich maktabga beradi. Zehni o'tkir bo'lganligi sababli, to'rt yil ichida boshlang'ich maktab saboqlarini o'zlashtirib, madrasaga o'qishga kiradi. Abdulaziz 7-8 yoshlaridayoq Umar Xayyom, Hoja Hofiz, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil g'azallarini yoddan bilgan. U musiqiy bilimning sir-asrorlarini o'z davrining taniqli surnaychisi – Mirzo Mehtardan, tanbur chertishni – Hoji Rahmonqul degan sozandadan, ashula aytish yo'llarini Boruxi Kalhakdan o'rgangan. Ushbu ustozlar Abdulazizni "Shashmaqom" olamiga olib kirishgan. U ikki marta haj safarida bo'lgan. Birinchi marta 1881–1892-yillarda, ikkinchi marta 1907–1908-yillarda. Haj safari davomida Gvineya, Gana, Uganda, Nigeriya kabi Afrika davlatlarida, Pokiston, Hindiston, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarda bo'lib, ularni san'ati bilan tanishgan. O'zining kuy-qo'shiqlarini yaratishda qardosh xalqlar san'atidan foydalangan. Haj safaridan keyin, Buxoroga borib, taniqli san'at bilimdoni Ota Jalol Nosirovdan "Shashmaqom"ni to'liq va puxta o'rgangan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1924-yilda Samarqand pedagogika bilim yurtida yoshlardan iborat konsert truppasini tashkil qiladi va o'lkamiz bo'ylab konsertlar namoyish qilgan.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1928-yil 12-aprelda Samarqandda Respublika Maorif Xalq Komissarligi tomonidan Sharq mamlakatlarining

musiqiy ilmiy-tadqiqot instituti (Samarqand xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti)ga ishga taklif qilinadi.

U institutda faqat o'qituvchilik faoliyati bilan cheklanmay, ijrochilik faoliyatini ham davom ettirgan. Hofizning ovoz tembri – lirik tenor bo'lib, alohida nolali va keng diopazonga ega bo'lgan. Shu bois, xalq uni ardoqlab “Samarqand bulbuli” deb atagan.

1933-yilda Toshkentda san'atkorlarning birinchi anjumani bo'lib o'tadi va bu anjumanga Hoji Abdulaziz Abdurasulov ham taklif qilinadi. Anjuman munosabati bilan o'tkazilgan konsertda Hoji Abdulaziz Abdurasulov Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Matyusuf Xarratov va Yunus Rajabiyalar birgalikda “Ushshoq” ashulasini ijro etishadi.

Bu vaqtda Hofiz 80 yoshda edi. Anjumandan keyin Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan gramplastinkaga “Qashqarchai ushshoq”, “Ufori beboqcha” ashulalari yozib olinadi. Anjumandan so'ng Hoji Abdulaziz Abdurasulov va Domla Halim Ibodovlarga “O'zbekiston Xalq Hofizi” yuksak unvoni berildi. Hofiz 1936-yil 9-yanvar kuni vafot etadi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o'z ijodiy faoliyatida o'zbek va tojik xalqlari musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo'shdi. Aniqrog'i, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kuy-qo'shiqlarni to'la-to'kis yetib kelishida, maqomlarga sayqal berishda hofizning xizmati katta. Shuningdek, hofiz juda ko'p shogirdlar tarbiyalab yetishtirdi.

Jumladan, Yunus Rajabiy ustoz hofizning musiqiy merosini notalarga ko'chirib, unga umr bag'ishlagan sadoqatli shogirdlaridan bo'lgan. Yunus Rajabiyning fikricha Hoji Abdulaziz “Shashmaqom”ning “Buzruk”, “Dugoh”, “Iroq”, “Mustahzod” sho'balarini puxta ijro etgan. “Samarqand ushshog'i” ashulasi “Ushshog'i Hofiz” nomi bilan mashhur bo'lib ketganligi ham bejiz emas. Hofiz Buxoro shashmoqomini mukammal o'rganib uni dutorda aytib boyitdi. Shuningdek, Hofiz Eron, Afg'oniston, Arabiston, Iroq, Hindsitonda o'z ijrochilik san'ati bilan tanilgan edi. Samarqandda yaratilgan ushbu ijrochilik maktabi umummilliylikning bebaho mulkiga aylandi. Mashhur Hofizning Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Imomjon Ikromov, Mutal Burxonov, Doni Zokirov, Manas Liviye, Sulaymon Yudakov, Nabijon Hasanov, Qori Siroj Yusupov, Sharifjon Akramov kabi istedodlar musiqa san'atining rivojiga katta

hissa qo'shib, yetuk ustoz-shogird an'alarini davom ettirib kelayotir.

Atoqli yozuvchi Sadridin Ayniy Hofizning 1918-yilda Buxoroga borishi to'g'risida quyidagi fikrlarini bildirgan edi: “Biz Labi Hovuz madrasasidagi kechki suhbatlarning hamma ishtirokchilari musiqani sevar edik... Sanqiqsoz Ashrafjonning sa'yi harakati bilan bazm tashkil etildi. Hoji shu kecha Bedilning, Kamol Xo'jandining lirik she'rlaridan bir necha g'azal aytdi. Hoji Abdulaziz bilan birinchi uchrashuvim va tanishuvim shunday bo'ldi”.

Shuningdek, Hofiz to'g'risida atoqli ma'rifatparvar Ahmad Donish “Antik dunyo” Xalqaro ilmiy akademiyasi profosseri, “Turon akademiyasi”ning faxriy akademigi Asliddin Hoji Sirojov ham iliq fikrlarni bildirgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronovning ta'kidlashicha: *“Yaqin yillarga cha Hoji Abdulaziz Abdurasulov yashagan xonadon xususiy xonadon bo'lib keldi. Buning oqibatida san'at oshiqqlarining bu ziyoratgoh maskani qo'ldan-qo'lga o'tib ancha g'arib holga kelib qolgan edi. Viloyat hokimi E.Turdimovning tashabbusi bilan 2019-yilda Hoji Abdulaziz Abdurasulovning hovlisi madaniyat maskani sifatida davlat himoyasiga olindi. Natijada uy-muzeyining sotilib, madaniy meros sifatida yo'q bo'lib ketishining oldi olindi va to'liq ta'mirlandi. Uy-muzey ilmiy konsepsiya va milliy dizayn asosida jihozlandi.*

Mana bugun Hofiz ijod qilgan xonadon Samarqand san'atining mumtoz dargohi, go'zal ziyoratgohga, turizm obektiga aylandi. Uy-muzey nafaqat mamlakatimiz, Markaziy Osiyo san'atsevarlarining, balki xorijlik sayohlarning qalblarini rom etmoqda. Ayniqsa, bu uy-muzey san'at maktablari, kollejlari, oliy ta'lim muassasalari talabalari – bo'lajak Abdulazizlarning sevimli maskaniga aylandi”.

Talabalar bilan Hofizning uy-muzeyiga qilingan sayohat talabalarda tolerantlikni rivojlantirish xizmat qildi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari bilan Hofizning uy-muzeyiga qilingan sayohat vositasida talabalarda:

- *milliy san'atimiz darg'asining hayoti va faoliyati to'g'risida tushunchalar shakllanadi, yangi mashg'ulotlar bilan boyitiladi;*

- *ulug' san'atkorlarning hofiz to'g'risidagi mulohazalaridan bahramand bo'lishadi;*

- *Hoji Abdulaziz Abdurasulov kuy va qo'shiqlarida xalqlar o'rtasidagi do'stlik,*

birodarlikni kuylab o'tganligiga ishonch hosil qilishadi;

- hofizning uy-muzeyi nafaqat mahalliy sayyohlar uchun balki xorijlik sayyohlar uchun ham ziyoratgoh va turizm maskani ekanligi, bu yerga sayohat qilish talaba – yoshlarda tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida talabalarda musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirishni takomillashtirish uchun quyidagi jihatlariga e'tiborni qaratish lozim:

- milliy musiqa san'atimizga munosib hissa qo'shgan, san'atkor va xalq hofizlarining, uy-muzeylariga sayohatlar aniq maqsad va reja asosida tashkil etilishi;

- o'tkazilgan tadbirlar va sayohatlardan keyin

talaba-yoshlar bilan davra suhbatlarini tashkil etish;

- ushbu ma'rifat maskanlariga uyishtirilgan sayohatlar talaba-yoshlarga nima berdi, ular tarbiyalanganlik darajasiga, dunyoqarashiga qay darajada ta'sir ko'rsatdi? Bu jarayonlar tahlil qilinishi lozim;

- o'tkazilgan sayohatlar to'g'risida albomlar tayyorlash, mahalliy yoki markaziy ommaviy axborot vositalarida maqolalar chop etish;

- o'tkazilgan tadbir va sayohatlarning talaba-yoshlarda tolerantlik rivojlantirishga qay darajada ta'sir ko'rsatganligi tashxis qilinsa, talaba-yoshlarda, jumladan bo'lajak musiqa o'qituvchilarida tolerantlikni rivojlantirishdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2022. – 28 yanvar. PF – № 60.
2. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2019. – 8 oktabr. PQ – № 5847.
3. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. – 2019. – 31 dekabr. – № 1059.
4. Ibragimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sahhof, 2023. – 416 b.
5. Husenova M. Yoshlar turizmi. Risola. – Samarqand: Samisi, 2018. – 48 b.
6. Mustafoyev Sh. Art pedagogika. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
7. Ishmuhammedov R., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiya innovatsion texnologiya. – Toshkent: Nihol, 2017. – 368 b.
8. Murodov A., Raxmatov A. Samarqand bulbuli. – Toshkent: "Fan ziyosi".

Qunduz NISHONBOYEVA,

O‘zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrası
professori v.b, tarix fanlari nomzodi

MADANIYATSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHDA MADANIYAT ETIKASI VA XALQ PEDAGOGIKASINING O‘RNI

Annotatsiya. Maqola madaniyat nazariyasi nuqtayi nazaridan yoshlarni tarbiyalashda, xalq pedagogikasining o‘rni haqida fikr yuritilib, “madaniyat pedagogikasi” fanini o‘qitishning zaruriy ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan holda xulosa va tavsiyalar bilan asoslangan. Shuningdek, maqolada pedagogik madaniyatning mohiyati, tarkibiy qismlari va uning muhim shartlari to‘g‘risidagi fikrlar yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyatshunoslik, madaniyat pedagogikasi, an’anaviy xalq madaniyati, madaniyat konsepsiyasi, tarbiya, zamonaviy pedagogika, axloqiy qadriyat.

Аннотация. В статье рассматривается роль народной педагогики в воспитании молодежи с позиций теории культуры, анализируются необходимое значение и специфические аспекты преподавания дисциплины «культурная педагогика», формулируются выводы и рекомендации. В статье также раскрываются сущность, компоненты и важные условия педагогической культуры.

Ключевые слова: культурология, культурная педагогика, традиционная народная культура, концепция культуры, воспитание, современная педагогика, нравственные ценности.

Abstract. The article examines the role of folk pedagogy in the education of youth from the standpoint of cultural theory, analyzes the necessary significance and specific aspects of teaching the discipline “cultural pedagogy”, formulates conclusions and recommendations. The article also reveals the essence, components, and important conditions of pedagogical culture.

Key words: cultural studies, cultural pedagogy, traditional folk culture, concept of culture, education, modern pedagogy, moral values.

Bugun Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan jiddiy islohotlardan ko‘zlangan maqsad, ushbu sohada tayyorlanayotgan kadrlarning milliy madaniyatimiz tushunchasi, umuman madaniyat tushunchasining mohiyatini chuqur anglashlari, uning nazariy hamda amaliy jihatlari, funksiyalarini, tarmoqlarini va tarbiyaviy ahamiyatini o‘zlashtirib, yurtimiz ravnaqiga hamda o‘sib kelayotgan barkamol avlodga ibrat bo‘lish va tadbiq etishlari nazarda tutilgan.

Har bir davlat o‘z milliy madaniyatini saqlab

qolish va targ‘ib etishda doimiy tarzda intilishining boisi shundaki, madaniyat inson faoliyatini tartibga soluvchi, uni ezgu maqsadlar sari yo‘naltiruvchi, uning hayot yo‘lidagi maqsad va vazifalariga ma‘no va mazmun beruvchi ijtimoiy hodisadir. Ushbu betakror ijtimoiy, ma‘naviy hodisa inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi va har birimizning hayot faoliyatimizda o‘zligimizni namoyon etishimizga yordam beradi. Bu borada, mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun

biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili, afsuski, ular aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotganini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ma'naviy tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlari mamlakatimizdagi yangilanishlar sur'atlari, jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va keng qamrovli islohotlarimiz talablaridan ortda qolmoqda" [1].

Haqiqatan ham, keyingi paytlarda oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarida uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy, tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotganligi, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlariga adashib qo'shilib qolish, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natija bermayotganligi barchani tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham bugun O'zbekistonda madaniyat masalasiga alohida e'tibor berilib, ma'naviyatni rivojlantirish, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni muntazam amalga oshirish, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho moddiy va ma'naviy boyliklarni avaylab-asrash masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. XXI asrda insoniyat to'qnash kelayotgan barcha muammolar va to'siqlar madaniyatga borib taqalmoqda. Aslida madaniyatshunoslik fani ijtimoiy-falsafiy fan sifatida insonda keng mushohada madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Aniqrog'i, madaniyatshunoslik umumnazariy fan bo'lib, inson tarbiyasi bilan bog'liq jihatini olib ko'rish mumkin. Hozirda inson tarbiyasi muammolari bilan shug'ullanuvchi ikki yuzga yaqin fan sohalari va nazariyalari mavjud bo'lib, ular qatoriga madaniyatshunoslik fani ham kiritilgan. Bu bejiz emas, chunki madaniyatning bosh vazifasi o'ziga xos vositalar orqali atrof muhitni insoniylashtirish, ya'ni inson kamolotini oliy maqsad qilib qo'ygan muhitni shakllantirishdir. Madaniyatshunoslik o'z tadqiqot obyektlarini shunchaki o'rganib qolmaydi, u jamiyatni inson va taraqqiyot manfaatlari nuqtayi nazaridan o'zgartirish va insoniylashtirish yo'llarini ham yoritib turadi.

Bilamizki, insondagi birinchi ijtimoiy ehtiyoj tarbiyaga va tarbiyalanishga bo'lgan ehtiyojdir. Bu ehtiyojni hamma ham, ayniqsa go'dakligi va

bolaligida zarur narsa sifatida qabul qilavermaydi, shuningdek madaniyatga ham. Demak, tarbiya, madaniyat ham, insoniyatning mavjudlik, barhayotlik sharti sifatida jamiyatning ongli va madaniyatli qatlamlari tomonidan yaratiladi hamda yoshlarga singdiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tarbiya obyektida ijobiy fazilatlarni va ijodiy hislatlarni shakllantirish pedagogikaning ham, madaniyatshunoslikning ham umumiy vazifasidir.

Madaniyatshunoslikning amaliyot bilan bog'liq yo'nalishi amaliy madaniyatshunoslik pedagogika bilan hamkorlik qilib, uning boy tarbiyaviy usullaridan foydalanadi. Masalan: tadbirkorlik ham bu – madaniyat. Aytishlariga qaraganda, madaniyatli odam tadbirkor bo'lishi shart emas, ammo tadbirkor inson madaniyatli bo'lishi kerak, chunki u doimo muvaffaqiyatga intiladi. Yana bir jihatiga e'tibor qaratsak, axloqiy madaniyatning yaqqol ko'zga tashlanadigan ko'rinishlaridan biri bu – etiketdir. Axloq to'g'risida birinchi bo'lib, Aristotel bu ta'limotning nihoyatda chuqur ekanligini ta'kidlab, uni "Nimani qilishimiz va nimadan o'zimizni tiyishimizni anglashimizga yordam beradi", degan edi. Albatta, bu qoida barcha kasb egalariga tegishli bo'lib, bugungi kunda madaniyat va san'at sohasi da faoliyat olib boruvchi shaxslar nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun, davlat uchun ham foydaliligiga ishonch bilan qarab, mahorat va bilimdon bo'lishlarini talab qiladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, bu sohada faoliyat olib boruvchilarning madaniyat etikasi yuqori bo'lishiga ko'proq e'tibor berish zarurdir. Madaniyat etikasi ya'ni pedagogik madaniyatda madaniy axloqshunoslik insonlarning o'z milliy madaniyatiga sodiqligini asrab qolish uchun ularning xulqini, tarbiyasini, vatanparvarlik, milliy g'urur, ezgu g'oyalarni qalbiga singdirgan holda tarbiyalashdir.

Biroq pedagogik madaniyatning mohiyati va mazmuni hozircha yetarli tadqiq qilinmagan, adabiyotlarda ham bu muammoga aniq yondashuv kuzatilmaydi. Shu bilan birga so'nggi yillarda ta'lim muassasalari amaliyotida pedagogik madaniyatga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim tarbiya jarayonining nafaqat mutaxassislarni yuqori saviyali yetuk darajasiga tayyorlash masalalariga. Balki uning ma'naviy axloqiy, madaniy negizlariga, shu bilan birga pedagoglarning kasbiy salohiyatiga ham e'tiborning ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Pedagogikada madaniyat deganda, shaxsning xatti-harakatlaridagi ma'naviy imkoniyatlari tush-

uniladi. Shunga ko'ra, shaxs madaniyati bu shaxsning madaniyat talablariga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalari hamda ularga kundalik hayotda amal qilishi zarur bo'ladi.

Biroq pedagogik madaniyatning mohiyati va mazmuni hozircha yetarli tadqiq qilinmagan, adabiyotlarda ham bu muammoga aniq yondashuv kuzatilmaydi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ta'lim muassasalari amaliyotida pedagogik madaniyatga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, ta'lim tarbiya jarayonining nafaqat mutaxassislarini yuqori saviyali yetuk darajasiga tayyorlash masalalariga. Balki uning ma'naviy axloqiy, madaniy negizlariga, shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy salohiyatiga ham e'tiborning ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Pedagogikada madaniyat deganda, shaxsning xatti-harakatlaridagi ma'naviy imkoniyatlari tushuniladi. Shunga ko'ra, shaxs madaniyati bu shaxsning madaniyat talablariga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalari hamda ularga kundalik hayotda amal qilishi zarur bo'ladi.

Masalaning yana bir muhim jihati ham borki, zamonaviy madaniyatshunoslik fanida globalashuv sharoitida madaniyatlarning o'zaro aloqadorligi demokratiya, plyuralizm, tolerantlik prinsiplariga asoslanishi kerakligi tatbiq qilinmoqda. Bu esa, bugungi murakkab davr va turli madaniyatlar muloqoti sharoitida har bir milliy-etnik madaniyat o'zligini saqlab qolishi zarurligini keltirib chiqarmoqda. Shu o'rinda, madaniyatshunos olim Georgiy Gachev fikrlariga e'tibor beradigan bo'lsak: *"Jahon tarixi rivojida xalqlarning yaqinlashuvi sodir bo'ldi, maishiy hayotda va tafakkurda bir xillik bo'lsa-da, har bir xalq o'z mohiyatida tabiati, milliy ozuqasi, etnik tili bilan oziqlanib, fikr yuritar ekan o'zligi bilan qolaveradi. Milliy madaniyatlar daraxtlar kabi asrlar, ming yilliklar davomida o'saveradilar"* [2,32-33-bb.]. Olimning fikricha, har bir xalq o'z tarixi davomida vertikal yo'nalishda o'z zamini tabiati bilan muloqotda bo'ladi, shu bilan birga, gorizonta yo'nalishda u turli mamlakat va xalqlar bilan aloqaga kirishadi, bu savdo munosabatlari, urushlar, diplomatik va madaniy aloqalarda namoyon bo'ladi. Agar xalq ayro yashasa, o'zligini anglash imkoniyatiga ega bo'lmaydi" [2,31-b]. Shu bois, Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida milliy madaniyatning nazariy metodologiyasi jihatlarini tadqiq etish zaruriyati kundankun ortib bormoqda. Bu jarayon esa, har bir pedagogdan kasbiy madaniyatni, pedagogik

muloqot madaniyatini, pedagogik ijodkorlik hamda pedagogik optimizmni talab qiladi.

Insoniyat taraqqiyotida muhim omillardan biri bu uning dunyo darajasi, ma'naviy salohiyati, odob-axloqi bilan belgilansa, shularni mujassamlashtirib shakllantiradigan vosita bu madaniyatdir. Milliy madaniyatimizni rivojlantirish, turli yot g'oyalardan asrab, sof holda uning mazmun mohiyatini yoshlarga yetkazish orqali ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridandir.

Shunday ekan, yuqoridagi kabi eng ma'suliyatli vazifalarni bajarishda madaniyat muhim o'rin tutadi. Madaniyat, birinchidan, insonning maqsadli ravishda tabiatga ta'siri, ikinchidan, insonning ma'lum muhitda tarbiyalanishi, ta'lim olishi demakdir. Pedagogik madaniyat pedagogik tushunchalar va mahorat, pedagogik axloq va kasbiy pedagogik xislatlar, pedagogning ish uslubi va o'z faoliyatiga munosabatlari yig'indisidir. Pedagogik madaniyatning namoyon bo'lishi va uning qadriyatga turmush tarziga aylanishi uchun insondan yuqori kasbiy salohiyat, ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy barkamollik talab qilinadi.

Bilamizki, o'zbek xalqi azaldan o'zining betakror badiiy merosi bilan jahon madaniyati rivojiga ulkan xissa qo'shib kelgan. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan madaniy merosimiz hamon dunyo ilm ahli e'tiborini o'ziga jalb etib keladi. Madaniyat ham dastlab Sharqda paydo bo'lib, G'arbda takomiliga yetganligi tarixiy manbalarda allaqachon o'z isbotini topgan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, madaniyatlilik borasida "Bazmi Jamshid" atamasining paydo bo'lganligiga yigirma asrdan oshdi. Bu shoh Jamshid davridayoq ajdodlarimiz turli shakldagi bayramlarni nishonlash, tomosha maydonlarini yuksak did bilan bezash, bayramga mos kiyinish, turli majlis va marosimlarda o'zini tutish, omma oldida jarangdor, hamma uchun tushunarli va yoqimli tarzda fikrini bayon eta olish, nutq so'zlash, o'z mavqei va darajasiga mos xatti-harakat qilish, tamoshabinlar oldida o'zining san'atkorlik qobiliyatini namoyish etishda katta tajribaga ega bo'lganligidan dalolatdir.

Milliy o'zlikni anglash orqali jamiyatning ijtimoiylashuvi va milliy an'ana va qadriyatlarga sodiq bo'lgan yoshlarni tarbiyalash otabobolarimizdan meros bo'lib bizgacha yetib kelgan milliy tarbiya qonun-qoidalarini yoshlarga singdirish bilan belgilanadi. Tarbiya masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekan, amalga oshirilayotgan ishlar ichida xalq

madaniyati an'analarini tiklash masalalari alohida diqqatni talab qilmoqda.

Chunki, an'anaviy xalq madaniyati – ajdodlarimiz merosining tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy, tarixiy taraqqiyot jarayonida muhim o'rin tutib kelgan va hozirgi davrda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirishda katta ahamiyatga egadir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, xalq madaniyati orqali tarixiy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash – millatni tiklash demakdir.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy merosni tadqiq qilishga keng yo'l ochilishi natijasida, tarixiy meros, ma'naviy qadriyatlar, xalq madaniyati an'analari va ulardan foydalanish masalalariga doir keng ilmiy izlanishlar olib borilib, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi kadrlar kelajakda o'z shogirdlarini sohasining chuqur bilimdoni qilib tarbiyalash imkonini yaratish maqsadida – "Madaniyat pedagogikasi" fani o'qitilmoqda.

Albatta, mazkur muammoning dolzarbligini hisobga olib, eng avvalo, adabiy, ilmiy, qomusiy va boshqa manbaalardagi (xalq), "madaniyat" tushunchalariga izoh beradigan bo'lsak, ularni jamlab, umumlashtirib qisqa bayon qilinsa, unda "xalq madaniyati", birinchidan, muayyan joyda (hudud)dagi aholi madaniyati, ikkinchidan, oddiy xalq va keng mehnatkash omma madaniyati, uchinchidan (urug', elat, millat)lar madaniyati kabi ma'nolarda tushuniladi.

An'anaviy xalq madaniyati esa, etnoslarning tarixiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan, ularning aqliy-ijodiy faoliyati natijasida taraqqiy etgan, ming yilliklar mobaynida ajdodlar fikrlari, tajribalari, orzu-istaklari, an'ana va qadriyatlarini o'zida birlashtirgan, avloddan-avlodga o'tib, asrlar osha sayqallanib, murakkablashib borgan bebaho meros hamda jamiyatimizni axloqiy sog'lomlashtiruvchi va insonparvarligini barqaror etuvchi xalqning ma'naviy kamol topishiga xizmat qiluvchi omillardan biridir. Albatta, bugungi tezkor va tahlikali bir davrda xalq pedagogikasi, "an'anaviy xalq madaniyati" haqida gapirish ba'zi yoshlarga ma'qul bo'lishi ham qiyin.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar yoshlarining orasida "ommaviy madaniyat" kabi yangi ilmiy kategoriyalarning yuzaga kelishi yoshlarning falsafiy dunyoqarashi uchun tahdidli muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Hatto, jahon yoshlari psixologiyasida oilaviy, ya'ni ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar kitob mutolaa qilish madaniyati,

milliy-diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlar, begonalashish tendensiyalari kuchayishi kuza-tilmoqda.

Aynan, bugungi kunda mamlakatda mana shunday holatlarning oldini olish, yoshlarni turli yot g'oyalar, tahdidlardan himoya qilish, ularning tarbiyasini to'g'ri amalga oshirish borasida qator vazifalar belgilanib, chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada, xalq pedagogikasi, madaniyat etikasi namunalaridan keng foydalanish ayni maqsadga muvofiqdir.

Chunki, xalq pedagogikasi ming yillar davomida qaror topib, yuzlab avlodlarni tarbiyalash jarayonida vujudga kelgan ilg'or axloqiy g'oyalar, tajribalar va usullarni o'zida umumlashtirgani uchun, u faqat tarixiy, madaniy qadriyatlar sifatida nomoyon bo'libgina qolmay, balki hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi tezkor jarayonda ikki haftada bir millat tarix sahifasidan tushib qolayotgan bir paytda, milliy tarbiya asosida shakllangan millatimizni asrab qolish va millatni millat sifatida, xalqni xalq sifatida saqlab turuvchi omillardan biri bo'lgan xalq pedagogikasining yuksak namunalarini hayotga tatbiq etish madaniyatshunoslar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Chunki xalq pedagogikasi bo'lmasa, xalq o'zining xususiyatlarini yo'qota boradi va oqibatda boshqa xalqlar tarkibiga singib ketadi. Garchan, qo'pol bo'lsa ham shu o'rinda aytib o'tish lozimki, mustabid tuzum davrida o'zbek xalqining tili, tarixi, madaniyati, ma'rifati, qadriyatlarini, milliy urf-odatlarini kamsitildi, tazyiq ostiga olindi.

Aslida, xalq pedagogikasi millatni millat sifatida, xalqni xalq sifatida saqlab turuvchi muhim asos ekanligini va shu xususiyatini yo'qotish maqsadida tilga olinmadi, o'qitilmadi, unutishga mahkum etildi. Buning boisi shunda ediki, o'zida millat ruhi va qadriyatlarini mujassam etgan xalq pedagogikasi sho'rolarning soxta baynalmilalchilik siyosatiga mos kelmas edi. Aslida esa, baynalmilalchilik faqat bir millatni ko'klarga ko'tarib, boshqalarni unutishga emas, barcha millatlarni hurmat qilishga asoslanishi kerak edi. Vaholanki, xalq pedagogikasi faqat milliy tarbiyani amalga oshirmay, balki millatlarga hurmatni ham tarbiyalaydi. Aniqrog'i, xalq pedagogikasida milliy tarbiya boshqa millatlarga hurmat bilan uyg'unlikda olib boriladi.

Hozirgi zamon pedagogikasida xalq peda-

gogikasiga yaqinlashishning kuchli tamoyillari ko'zga tashlanmoqda.

Jumladan: o'zbek milliy xarakterini yangi sifatlilar bilan boyitish va ma'naviy jasoratni shakllantirish muammosi. Albatta, xalq pedagogikasining yagona vazifalaridan biri milliy xarakterni shakllantirish bo'lib, unda tarix va ijtimoiy muhitni ahamiyati kattadir. Bevosita, xalq pedagogikasi xalq xarakterini shakllantirish bilan birga axloqiy, badiiy, diniy, siyosiy, jismoniy tarbiya yo'nalishlarida o'zini namoyon qilish uchun turli vositalardan: xalq o'yinlari, marosimlar, an'analar, ertaklar, dostonlar, topishmoqlar, rivoyatlar va boshqalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

"Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolari-mizdan meros bo'lib kelayotgan axloq-odob qoidalarining butunlay yo'qolishi xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, – deb yozadi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev, – ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir" [3,277-b].

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda madaniyat va san'atni yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarning davomiyligini ta'minlashga yerishish uchun madaniyat va san'at sohasidagi barcha tahsil olayotgan xodimlarni madaniyatshunoslik fanini chuqur o'zlashtirishlari, uning axloqiy tarbiyani pedagogik talablari va maqsadlaridan kelib chiqib bilimlarini mukammal oshirib borishlari amaliy

natija berishi mumkin. Umuman olganda, "Madaniyat pedagogikasi" fani umumijtimoiy fanlar turkumiga kiradi va o'qitishdan asosiy ko'zlangan maqsad:

- talaba insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan madaniyat, uning taraqqiyoti qonuniyatlari va tamoyillari, madaniy jarayonlarning takomil bosqichlari va hozirgi holati haqida chuqur bilim va malakaga ega bo'lishi, bu bilimlar orqali o'zining madaniy tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- talabadan jahon madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston xalqining dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan xissasini bilish, undan faxrlanish ko'nikmasi va tuyg'usini o'z ongida mujassamlashtirishlari, ajdodlar merosini saqlash, o'rganish, uning taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shishlari, eng muhimi bunga munosib voris bo'lish ruhida bilim malakalarga ega bo'lish zarur;

- talaba Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida Milliy Madaniyat Konsepsiyasi asosida belgilab berilgan nazariy-metodologik va amaliy g'oyalarning mazmun-mohiyatini, uning madaniy-falsafiy hamda ilmiy ifodasini chuqur anglab yetishi, xalqimiz tomonidan yaratilgan madaniyat durdonalarini, uning o'ziga xos qadriyatlarini puxta egallash va shu bilimko'nikmalar orqali begona ta'sirlarga murosasiz munosabatda bo'lishlikni talab etadi. Albatta, o'z milliy madaniyatini saqlab qolgan va uning bardavomligini ta'minlagan millat va davlat hech qachon inqirozga yuz tutmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – 267 b.
2. Гачев Г. Ментальность народов мира. – Москва: Алгоритм, 2008. – 32-33-36 с.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 277 b.

Nodira ABDUNAZAROVA,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası dotsenti v.b.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonining bizning madaniy hayotimizga ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xatarli tahdidi hamda yoshlarni global axborot xurujlaridan himoya qilishda, milliy qadriyatlarimizga tayanish va yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, globallashuv, "ommaviy madaniyat", ta'lim- tarbiya, ma'naviy muhit, axborot xuruji, mafkuraviy immunitet, oila, milliy qadriyat, jamiyat, davlat.

Аннотация. В статье рассматривается влияние процесса глобализации на нашу культурную жизнь, опасная угроза, которую он представляет для воспитания молодёжи, а также то, как защитить молодёжь от глобальных информационных атак, опираясь на национальные ценности и формируя идеологический иммунитет у молодёжи.

Ключевые слова: воспитание молодежи, глобализация, "массовая культура", образование, духовная среда, информационная атака, идеологический иммунитет, семья, национальные ценности, общество, государство.

Abstract. The article examines the impact of the globalization process on our cultural life, the dangerous threat it poses to the education of young people, and how to protect young people from global information attacks by relying on national values and forming ideological immunity in young people.

Keywords: youth education, globalization, "mass culture", education and upbringing, spiritual environment, information attack, ideological immunity, family, national values, society, state.

"Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman".

MAXATMA GANDI

Bugungi globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu bir tomondan umumiy, tabiiy jarayon. Chunki, hozirgi axborotlashgan jamiyat muhitidan yoshlar ham turli omillar orqali xabardor bo'lmoqda. Ayrim yoshlar ongida xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlarga mos bo'lmagan xatti-harakat, nosog'lom g'oyalar, qadriyatlarga moyillik paydo bo'lishning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlarning tez-tez o'tkazilib turilishiga ehtiyoj sezilmoqda.

Butun jahonda globallashuv jarayonlarining jadallashib borishi bilan Yer yuzida tinchlik-

osoyishtalikni saqlash, aholi farovonligi, uning munosib turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, umumbashariy muam-molar bilan birgalikda, milliy madaniyat, san'at va urf-odatlarini saqlab qolishdek masalalar ham kun tartibiga chiqmoqda. Globallashuv jarayoni bilan bog'liq ziddiyatlar, ma'naviyat va madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Shu jihatdan globallashuv butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob deb ta'rif berish mumkin" [1].

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston g'oyasining amaliy ifodasi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ro'y berayotgan pozitiv o'zgarishlar yoshlar ongida yangicha dunyoqarashni rivojlantirib, xalq va Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini oshirmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda: "Meni doimo uylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odo-b-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq" [2].

Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari, globalizasiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir.

Yoshlarimizning o'qib-o'rganib, zamonaviy ilmlarni egallab, sog'lom va ma'naviy yetuk avlod bo'lib voyaga yetishi yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, zarur sharoitlar yaratilmoqda. Har yili millatimiz yoshlarining kelajak ravnaqini o'ylab hamda yoshlarimizning ehtiyojidan kelib chiqqan holda zamonaviy maktab va boshqa ta'lim muassasalari qurilmoqda, ular eng so'nggi rusumdagi o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanmoqda. Shunday ekan, davlatimiz farzandlarimiz istiqboli uchun muttasil qayg'urayotgan bir paytda "globallashuv" bahonasi ostida tarbiyani izdan chiqaruvchi, ma'naviyatini kemiruvchi har qanday yot ta'sirlardan yoshlarimizni himoya qilish, dunyoda kechayotgan axborot tahdidiga qarshi yoshlarimizda sog'lom immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa bo'lsin qo'ldan boy bermaslik – bugun suv va havodek eng muhim zaruratga aylangan.

Globallashuv jarayonida dunyoda axborot-kommunikasiya texnologiyalari va ayniqsa, internet yoshlar kundalik hayotining muhim va ajralmas qismiga aylanib bormoqda [6]. Har kuni virtual makonda bir necha milliondan ziyod axborot resurslarining paydo bo'lishi, uning hosili har daqiqa sayin o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning yoshlar madaniyatiga tug'dirayotgan xavf-xatarlari to'g'risida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Bu noxush g'ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqning axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish bo'yicha imkoniyatlardan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to'g'ri yo'ldan burish, o'zlari targ'ib etayotgan nopok g'oya va manfaatlar tomon yo'naltirish uchun ularga axborot yetkazish borasida olib borayotgan harakatlar bilan bog'liqdir. So'zsiz, bunday ta'sirga internet auditoriyasining eng

faol, eng ko'p qismi tafakkuri yetilib, dunyoqarashi puxta shakllanib ulgurmagan yoshlar beriluvchandir.

Demak globallashuv jarayonida sivilizasiyalaro muloqot o'sib borayotgan bir sharoitda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda zamonaviylik bilan tarixiylikning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, ya'ni texnika, texnologiya, axborot kommunikasiyalari yutuqlari asosida yoshlar tafakkurini boyitishning ajdodlar ma'naviy merosi ne'matlaridan o'zaro aloqadorlikda foydalanish ko'nikmalarini ularda hosil qilish zarur. Taassufki, bugun yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorijiy ma'naviy-madaniy oqimlar ta'siriga ko'proq ishtiyoqmand bo'lib, milliy ma'naviyatimizning yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillariga ixlosmandligi sustlashib bormoqda.

Inson qadri, ma'suliyati, axloqiga bepisandlik ularning ba'zi birlarning kiyinishi fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Yurtdoshlarimiz, ayniqsa yoshlar qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va ma'suliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tizimi shakllandi.

O'tmishdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o'zligi, tarixi, ma'naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e'tibor qaratishgan. Zero, ma'naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma'naviy taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish istilochi, bosqinchi mamlakatlarning mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o'tgan an'anaviy usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o'ziga singdirib yuborishni, buning uchun o'z mafkurasi va g'oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga raxna solish orqali ma'naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo'l qo'ymaslikni o'z siyosatining "asosiy maqsadi" sifatida e'tibor qaratgan.

Mazkur "siyosat"ning yaqqol isboti sifatida, bundan 2700 yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiyning o'z imperatoriga bergan "maslahat"ini misol qilib keltirishimiz mumkin: *"Xoqonim agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo'lsangiz, dastavval o'sha yerda yashayotgan xalqni o'z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma'naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o'raladi, sizga qarshilik ko'rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi"* [3].

Binobarin, madaniyat va ma'naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlarini taraqqiy etishiga izn bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo'llaridan biri ekanligini istilochi, ya'ni bosqinchilar doimo juda yaxshi anglagan. Aynan, mazkur omillarni doimo e'tiborda tutgan mustamlakachi va bosqinchilar Xitoy donishmandi aytgan "maslahat"ni oldindan rejalashtirib qo'yishadi. Zero madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga tahdid solish orqali xalqning, mamlakatning ma'naviyati va ma'rifatini barbod etishi oqibatida har qanday xalq, millat e'tiqodsizlik girdobiga mahkum bo'ladi. Shu tariqa, ma'naviyati izdan chiqqan bu o'lkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi oqibatida xalqning mentaliteti milliy g'urur, iftixor, milliy qadriyatlar asta-sekin zaiflasha boshlaydi. Vaholanki, ana shunday o'lkani, mamlakatni, uning xalqini mustamlakachilik kishanlarda ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish ancha oson va "silliq" kechadi. Bugun dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, mafkura poligonlarida g'oyaviy-mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya (zabt etish) etishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi bir qator "ta'limotlar" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada, milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va uning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda.

Globallashuv sharoitida mazkur illatning ijtimoiy namoyon bo'lishi muayyan mintaq va mamlakat aholisi ongi, qalbini zabt etmoqda. Natijada, mazkur illat asl ma'naviy qadriyatlarni tanazzul sari yetaklab, har bir xalq va millatning o'z madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlarini inkor etishi orqali yoshlar ongida bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan dunyoqarashni shakllantirmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, ma'naviyat – xalqimiz or-nomusini uyg'otuvchi beqiyos kuch, ozodlik, vatanni sevishga undovchi da'vatkor tug'yondir. Bugungi zamon shiddati har qaysi millat, xalqni kelajakda o'zligini saqlab qolish uchun eng avvalo, ma'naviyat masalasiga bo'ladigan tahdidlardan muntazam ogoh, sezgir va xushyor bo'lish borasida kechiktirib bo'lmas asosiy masala sifatida dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Yosh avlodning ma'naviy olamini yuksaltirish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, uning qiyofasida yuksak axloqiy tamoyillarni shakllantirish masalasi davlatning yoshlarga doir siyosatidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ayni paytda, bugungi kunda ushbu

siyosat doirasida zamonaviy bilim, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan yoshlarni shakllantirishda ko'plab omillar qatori, ma'naviy ta'sir usullari va axloqiy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish masalalari ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning bilan bir qatorda, barcha ta'lim muassasalari qatori maktablarda ham "O'quvchi-yoshlarni turli ma'naviy tahdidlardan asrash uchun u shakllanayotgan oilaviy muhitning ta'sirini kuchaytirish lozim. Oila muhitida ota-onalarning ma'suliyatini yanada oshirish, o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda barcha ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, sinf rahbarlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlarining rolini oshirish ayni axborotlashgan davrda o'ta muhim hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim muassasasi, oila va mahalla ijtimoiy institutlarining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini kuchaytirish lozim" [4].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyi-dagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kundagi eng asosiy maqsad-muddaolari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo'lib hisoblanadi: "Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada xushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birov-larning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomon-lama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Bugungi kun yoshlarini o'zlariga jalb qilayotgan yangi yo'nalishdagi turli tuman musiqiy shoular, kliplar, axloqsiz filmlar, tele-dasturlar hamda bir qator internet klublarda tashkil etilayotgan ko'ngilochar uyinlar va boshqa shunga o'xshash "Ommaviy mada-niyat" namunalariga tobe bo'lib qolishdan asrashimiz kerak. Shuningdek, yoshlarni global axborot xurujlaridan himoya qilishda, milliy qadriyatlarimizga tayanish, milliy o'zligimizni

tarannum etadigan badiiy asarlarni o'qishni keng targ'ib qilish, ma'naviy merosimizni o'rganish, millatimizga xos bo'lgan axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yish kabi, ortga surib bo'lmaydigan ishlarni izchil amalga oshirishimiz zarur.

Xulosa qilib aytganimizda, yoshlar ongida g'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish ijtimoiy masala sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda, yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirishga innovatsion yondoshuvni madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan pedagogik jihatlar asosida o'rganilib quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- *yoshlarni turli muammolar yuzasidan tezkor va yaxshi fikr yuritishga tayyorlash;*

- *yoshlarda sezgirlik, xushyorlik xususiyatlarini shakllantirish;*

- *yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli va ko'ngilli o'tkazish uchun barcha hududlarda zarur shart-sharoitlar yaratish;*

- *yoshlar tashabbuslarini hurmat qilish, ularni fuqarolik ijtimoiy institutlar va nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan aloqalarini yo'lga qo'yish;*

- *yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;*

- *iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish;*

- *yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish orqali tashabbuskorlik, yangilikka intilishni kuchaytirish;*

- *yoshlar biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 24.01.2017. Internet manba: <http://www.prezident.uz/>

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 252.

3. Baratov R. U. Integration of a science, formation, and manufacture in the course of professional training. Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. – 2019, pp. 51-54.

4. Ramatov J.S, Hasanov M. Mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda axloqiy tarbiyaning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 3 (6). – 2022, pp. 952-956.

5. "Dunyo globallashuv jarayoni va O'zbekiston yoshlari" mavzusidagi onlayn xalqaro yoshlar ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyalar to'plami. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.

6. Mansurov A. Axborot xurujining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. 22-sentabr 2015. www.mt.uz.

7. Туленова Г. Молодёжная политика в Республики Узбекистан: состояние и перспективы развития. – Ташкент: "Алоқачи", 2008. –109с.

8. Turdiboyeva R., "Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish". – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 63 b.

GENDER MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNING IJOBIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender madaniyatini rivojlantirish borasida xalqaro tajribalarning o'zni xususida fikr yuritiladi. Xorijning rivojlangan davlatlarida gender tenglikning barqaror ko'rsatkichlar asosida rivojlanishini ta'minlashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratiladi. Maqolada byudjet mablag'larining gender tenglikni taraqqiy ettirishdagi ahamiyati o'rganilgan va tahlil qilingan. Shu bilan birga, O'zbekistonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, xalqaro, byudjetlashtirish, tashkilot, strategiya, tajriba.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль международного опыта в развитии гендерной культуры. В развитых странах мира обеспечение развития гендерного равенства на основе стабильных показателей рассматривается как приоритетное направление государственной политики. В статье анализируется значение бюджетных средств в обеспечении гендерного равенства. Также рассматриваются меры, предпринимаемые в этом направлении в Узбекистане.

Ключевые слова: гендерное равенство, международный, бюджетирование, организация, стратегия, опыт.

Abstract. This article explores the role of international experience in the development of gender culture. In developed countries, promoting gender equality based on stable indicators is considered a priority area of state policy. The article analyzes the importance of budgetary allocations in advancing gender equality. It also highlights the efforts undertaken in this area in Uzbekistan.

Keywords: gender equality, international, budgeting, organization, strategy, experience.

"Gender Data Compass" xalqaro tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston gender ko'rsatkichlari bo'yicha 183 ta davlat orasida 56-o'rinni egallagan. Gender tengligini ta'minlash BMTning 2030-yilgacha ijrosi ta'minlanishi ko'zda tutilgan 17 ta muhim yo'nalishning biri hisoblanadi. Qayd etilishicha, bunga eng avvalo, xotin-qizlarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash vazifasi kiradi. Zero, har yili dunyo bo'yicha 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 130 milliondan ziyod qiz maktabga bormayapti. Ko'pgina davlatlarda esa, hanuzgacha ayollarning erkaklar bilan jamiyat boshqaruvida teng ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmayaptiki, bu gender tenglik masalasidagi iddaolar bejiz emasligidan dalolatdir.

Qayd etilishicha, BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'ilishlari, bir-birlariga

nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak"ligi yozib qo'yilgan [1]. Ushbu deklaratsiya qabul qilingandan boshlab, gender tengligi huquqi jahon miqyosida tan olina boshlangan.

Markaziy Osiyoda O'zbekiston 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasini qabul qilgan birinchi davlat bo'ldi. Tan olaylik, keyingi yillarda bu masala xalqaro maydondagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ammo shunga qaramay, ko'plab davlatlarda ayollarga nisbatan zo'ravonliklar kamaygani yo'q.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, gender zo'ravonlik oqibatlari keng qamrovli bo'lib, jismoniy, psixologik va ijtimoiy farovonlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, oiladagi zo'ravonliklar sabab aksariyat hollarda ayollar aziyat chekayotir. Afsuski, bizda ham gender zo'ravonliklar sodir etilayotganiga ko'z yumib bo'lmaydi. 2021–2022-yillarda huquqni muhofaza qilish organlariga ayollar va qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari yuzasidan

kelib tushgan 72 mingdan ortiq murojaatning 85 foiziga aynan oiladagi zo'ravonlik sabab bo'lgan. 2023-yilning olti oyida esa, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan 18704 nafar ayolga himoya orderlari berilgan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har uchinchi ayol o'z umri davomida jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lyapti. Uzoqqa bormaylik, yon qo'shnimiz bo'lgan Qozog'istonda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida har yili oiladagi zo'ravonliklar oqibatida 400 ga yaqin ayol nobud bo'layotgani aniqlandi. Qirg'izistonda esa, 2023-yili ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari bilan bog'liq 8340 ta jinoiy ish qo'zg'atilgan. Yana bir ko'rsatkich: qirg'iz ayollarining 14 foizi eridan ruhiy, 15-49 yoshlar orasidagi ayollarning har to'rttasidan biri esa, jismoniy zo'ravonlikka uchrashini aytgan. Tojikistondagi "Nota Bene" inson huquqlari bo'yicha tahlil markazi mamlakatda 2013-yili "Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish" to'g'risidagi qonun qabul qilinganiga qaramay, mamlakat ayollarining 50 foizi o'z uyida doimiy ravishda jismoniy va ruhiy zo'ravonlikdan aziyat chekayotganini yozgan. Afsuski, yon qo'shnilarimizda ham, o'zimizda ham hanuzgacha "er xotinini itoatsizligi sabab urishga majbur bo'ladi", degan salbiy stereotip saqlanib qolmoqda. Xavotirlisi, zo'ravon er bosh bo'lgan oiladagi farzandlar zo'ravonlikka guvoh bo'lib ulg'aymoqdalar. Ular garchi qurbon emas, shunchaki, guvoh bo'lishsada, doimiy tarzda oiladagi zo'ravonlikdan aziyat chekadilar [2,12-b].

Faylasuf va jamoat arbobi, olim Simone de Bovuar 1989-yilda *"Inson ayol bo'lib tug'ilmaydi, aksincha, ayolga aylanadi"*, degan so'zlari bilan boshlagan bahs bugun ham davom etmoqda. Inson biologik jihatdan tug'ilganda "erkak" va "ayol" deb tasniflansada, u madaniy jihatdan ijtimoiy rollarni ham egallaydi. XX asr o'rtalaridan buyon chop etilgan nashrlarda qizlarga "zaif, begunoh va himoyasiz, himoyaga muhtoj" kabi sifatlar bilan ifoda etish odat tusiga kiradi [3,17-b]. Ushbu qarashning ta'siri natijasida ayollarning o'ziga ishongan va mustaqil shaxs bo'lib yetishishi uchun ko'plab to'siqlar paydo bo'ldi. Bu to'siqlardan eng muhimi "gender diskriminatsiyasi"dir. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkaklar va ayollar jinsiy stereotiplar de hisoblanishi mumkin bo'lgan xususiyatlarga ega. Jinsiy stereotiplar ayollarning ish hayotiga jiddiy ta'sir qiladi.

O'zbekistonda gender madaniyatini shakllantirish orqali, gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan teng foydalanish, yaxshi

ish o'rinlari doirasida ishchi kuchida teng ishtirok etish, teng siyosiy imkoniyatlar yaratish bilan bog'liq tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bunda, albatta xorijning ilg'or tajribalarini o'rganish, milliy xususiyatlarimizga moslashtirgan holatda amaliyotga tadbqiq qilish ham bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki gender madaniyatini shakllantirib, gender tengligini rag'batlantirish orqali ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda kengroq ishtirok etish imkonini beradi, shu bilan rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi. Quyida bir nechta xorij tajribasini o'rganishimiz natijasida, O'zbekiston ijtimoiy hayotiga ham mazkur tajribalarni moslashtirsak, gender tengligi sohasida yanada samaradorlikka erishamiz.

Islandiya tajribasi. Islandiyada ijtimoiy ta'minot qonunchiligi 1999-yilda qayta ko'rib chiqildi. Eng muhim o'zgarishlardan biri nogironlikni baholashning yangi standartini joriy etishdir. Tahlilning maqsadi – bu o'zgarish guruhning gender taqsimotiga ta'sirini aniqlash, ya'ni nogiron deb belgilangan ayollar soni sezilarli darajada oshganligi va uning sabablarini aniqlash, olingan natijalar asosida, ijtimoiy ta'minot tizimini shakllantirishdir. Islandiyada barcha vazirliklardan byudjet va qonunchilik gender tahlilini o'tkazishni talab qiladi. Parlamentga taqdim etilgan byudjet loyihasida daromadlar, xarajatlar siyosatidagi o'zgarishlarning gender tengligi maqsadlariga ta'siri ham ko'rsatilishi shart qilib belgilab qo'yilgan. Gender byudjetini amalga oshirish odatda bir qator hukumat idoralari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi [4,31-p].

Islandiya 2008-yilda Gender tengligi to'g'risidagi qonun va 2015-yilda organik byudjet qonuni bilan gender byudjetini qabul qildi. Islandiya gender tengligi sohasida amalga oshirgan islohotlari orqali qishloq xo'jaligi subsidiyalarini hududlar bo'yicha taqsimlash (bunda sharoiti og'ir joylarning ayollariga nisbatan yengilliklar bor), tibbiy ko'rikdan o'tish uchun kutish vaqtlari, haq to'lanadigan va to'lanmaydigan ishlarni taqsimlash, jinslar bo'yicha ish haqi farqi (ayollarga erkaklarga nisbatan ko'proq) va boshqa masalalarni qonunchilik bilan mustahkamlab qo'ydi.

Norvegiya tajribasi. Norvegiya uzoq yillik gender an'analarga ega va gender tengligini qo'llab-quvvatlash siyosati orqali, gender tengligiga erishishga intilgan ijtimoiy davlatlardan biridir. Barcha davlat organlarining gender tengligini targ'ib qilish mas'uliyati 1979-yildagi Gender tengligi to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan. 2002-yilda qonun qayta ko'rib chiqilgandan so'ng gender tengligini faol, rejali va tizimli ravishda targ'ib qilish majburiyati

xususi sektor tashkilotlariga ham berildi. Shuningdek, kadrlar siyosatida Gender tengligi to'g'risida hisobot berish majburiyati ham mavjud [4,32-p].

Norvegiya davlati gender tenglik masalasiga e'tibor berish orqali, byudjet siyosatini ham gender tenglik tamoyillari asosida, qurishga harakat qilganini ko'rishimiz mumkin.

Finlandiya tajribasi. Finlyandiyada gender tamoyillari asosan davlat sektorida, ayniqsa davlat boshqaruvida amalga oshirilib, ma'muriy asosda joriy etilgan. Finlyandiya tartibga solish jarayonida foydalanish uchun gender ta'sirini baholash bo'yicha qo'llanma tayyorladi. Unda qayd etilishicha, qonun loyihasining genderni ta'sirini baholash qonunlar amalga oshirilganda gender kamsituvchi oqibatlar bilvosita yuzaga kelmasligi uchun qonunlar ayollar va erkaklarga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashni o'z ichiga oladi. Maqsad birinchi darajali qonun loyihasini ishlab chiqish.

Gender tengligini tadqiq qilish uchun ham boshlang'ich nuqta bo'lgan tahlillar gender tengligining turli faoliyat turlariga tegishlilikni aniqlash va ushbu faoliyat uchun gender tengligining yanada aniq maqsadlarini shakllantirish jarayoniga yordam beradi [5,34-b].

Germaniya tajribasi. Qayd etilishicha, Germaniya Bundestagining Byudjet qo'mitasi 2015-yil iyul oyida o'zining texnik-iqtisodiy asoslashdan keyingi faoliyatini ko'rib chiqish va potentsial imkoniyatlarni o'rganish maqsadida gender byudjeti bo'yicha tinglov o'tkazgan. Gender tengligini ta'minlash maqsadida genderni hisobga olgan holda byudjetlashtirish joriy etildi. Shuningdek, gender tengligi bo'yicha maqsadlar belgilanishi va bu maqsadlar davlat xarajatlari uchun ajratilgan mablag'larda o'z aksini topishi kerakligi ta'kidlanadi [6,25-b].

Yuqorida Islandiya, Norvegiya, Finlandiya va Germaniyaning gender madaniyatini shakllantirishdagi ayrim tajribalarini ko'rib chiqdik. Bu davlatlar tajribalarini o'rganib, uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari mavjud. Sababi, mazkur mamlakatlar ham ijtimoiy davlatlar tipiga mansub.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 1-moddasida: *"O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"* [7,34-b], ekanligi belgilab qo'yildi. Ya'ni, ijtimoiy davlatlarda keltirilgan misollar orqali gender madaniyati bilan bog'liq hukumat siyosati davlat byudjetini shakllantirishdan boshlanganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, gender byudjeti

degan atamaning paydo bo'lganligi ham e'tiborli. Ya'ni, gender bilan bog'liq tadqiqotlarda bu masala ham alohida o'rganilishi va tadqiq etilishi zaruratga aylanmoqda. Sohada o'rganilishi kerak bo'lgan tadqiqot ishlari talaygina. Shu bilan birga, xorij mamlakatlarida ham gender madaniyatiga oid muammolar batamom hal bo'lganicha yo'q.

Gender tenglikni ta'minlashga nisbatan mamlakatimizda qo'llanilayotgan yangi yondashuvning o'ziga xos jihati institutsionalizatsiya jarayoni jadallashuvi bilan bog'liq. Bu bejiz emas. Chunki gender sohada aniq vazifalar yuklatilgan yangi tuzilmalarni shakllantirish barqaror faoliyat yurituvchi va o'z oldiga qo'yilgan muhim maqsadlarni og'ishmay, izchil amalga oshiruvchi institutlarning yaxlit tizimga birlashishiga olib keladi.

Mamlakatimiz BMTning shartnoma organlari, BMT Xotin-qizlar tuzilmasi, Taraqqiyot dasturi va Aholishunoslik jamg'armasi bilan gender mavzusidagi qator masalalar, jumladan, gender zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha faol hamkorlik qilib kelmoqda. Joriy yilning iyun-iyul oylarida O'zbekiston tomoni "Tenglik avlodi" global Parij forumida ishtirok etdi. Unda biz qabul qilgan majburiyatlardan biri gender zo'ravonlikka barham berishga qaratilgan, majburiyatlarning yana 2 tasi reproduktiv salomatlik va xotin-qizlarning iqtisodiy huquqlarini kengaytirishdan iborat. "Tenglik avlodi" global forumi doirasida o'tkazilgan "Dunyo yog'dusi" grantlar tanlovida O'zbekistondan 4 ta NNT "Nihol", "Qalb nuri" (Jizzax), "Istiqbolli avlod" (Xorazm), Fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash markazi (Farg'ona) grant sohibi bo'ldi. Hozirgi kunda mazkur NNTlar xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha manzilli ishlar olib bormoqda. Albatta, har qanday sohani takomillashtirishda xorijiy tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda samarali tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tenglik ham bundan mustasno emas [8].

Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishga e'tibor qaratilib, Saylov kodeksiga siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol bo'lishi zarurligi qonunchilikda mustahkamlab qo'yildi. O'zbekistonda gender tengligi bilan bog'liq 30ga yaqin hujjat, jumladan, 4 ta qonun, 6 ta Prezident farmoni va qarori, hukumatning esa 17 ta muhim hujjati qabul qilindi.

Shunga qaramay xotin-qizlarning oilaviy turmush muammolarini bartaraf etishga ko'maklashish, hayotiy haq-huquqlarini munosib himoya qilish,

ularning maishiy zo'ravonlik qurboniga aylanib qolishlarini oldini olish maqsadida qisqa raqamli 1146, og'ir ahvolga tushib qolgan ayollar uchun esa Respublika reabilitatsiya va moslashtirish markazining 1169 ishonch telefoni yo'lga qo'yilgan [9].

2022-yildan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovi qoplab berilishi va buning uchun davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm ajratilishi belgilandi. 2022–2023-o'quv yilida magistraturada o'qiyotgan 14 ming 300 dan ziyod talaba qizning 190 milliard so'mdan ortiq kontrakt puli to'lab berildi.

Mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qiz har yili oliy ta'lim muassasalariga umumiy kvotadan tashqari, alohida test sinovlari natijalariga muvofiq o'qishga qabul qilish tizimi joriy etildi. Natijada, 2022–2023-yillarda mingga yaqin xotin-qiz to'lov-kontrakt asosida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi.

Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish tizimi joriy etildi. Ushbu tizim doirasida 181 ming 500 dan ziyod xotin-qizga 2 trillion 135 milliard so'mdan ortiq ta'lim krediti ajratildi [10].

Bugungi kunda gender paradigmasining xalqaro tajribalari dunyo taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Gender to'g'ridan-to'g'ri barcha ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiladi. Shu nuqtayi nazardan, gender madaniyatini shakllantirishda xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Buning uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

- *xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda*

xalqaro sudga murojaat qilish va inson huquqlari bo'yicha xalqaro darajada huquqiy yordam ko'rsata oladigan nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) sonini oshirish;

- *gender madaniyatining targ'ibot va tashviqot ishlarida xalqaro tashkilotlar bilan birga ijodiy tanlovlar o'tkazish;*

- *gender madaniyatini xalqqa oson tushuntirish bo'yicha samarali usullarni qo'llash, mutaxassislar tayyorlashda xalqaro dasturlarni mahalliy sharoitga moslashtirish;*

- *xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish, jabrlangan xotin-qizlar bilan ishlashda, psixologik hamda huquqiy yordam, treninglar o'tkazishda madaniy-ma'rifiy tadbirlar sonini oshirish;*

- *respublikamizda so'nggi yillarda gender tenglikni pesh qilib, milliy an'ana va qadriyatlarga amal qilmay, turmush o'rtog'i, qaynona-qaynotasining nasihatlariga quloq solmaydigan kelinlar ko'paymoqda. Ular gender tenglikni to'g'ri tushunmayaptilar. Shu sabab, gender tenglik madaniyatini bo'yicha bepul onlayn o'rgatish va huquqiy maslahatlar berish tizimini takomillashtirish;*

- *oilaviy zo'ravonlikni sodir etgan shaxslar bilan ishlashni yo'lga qo'yish, bu borada aniq harakatlarni amalga oshirish uchun psixolog hamda yurist faoliyatidan foydalanishni ta'minlash;*

- *jazoni ijro etish muassasalarida intizomiy javobgarlikka tortilgan ayblanuvchilar va mahkumlarni madaniyat va san'at sohasining qaysidir yo'nalishi bo'yicha shug'ullanishi uchun imkoniyatlar yaratib berish;*

- *mazkur yo'nalishda ilmiy ish qilayotgan yosh olimlarni davlat hisobidan xorijiy davlatlarda malakasini oshirish;*

- *sohada sun'iy intellektning imkoniyatlaridan keng foydalanish va IT mutaxassislarini jalb qilish tizimini takomillashtirish.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonboboyeva Sh. Gender tenglik sari. Manba: Gender tenglik sari - Milliy Tiklanish.
2. Mullajanova M. Gender tenglik: milliy qadriyatlar orqali // Milliy tiklanish №27 (1259). – Toshkent: Sharq, 2024. – B.12.
3. Fiona M. Organizational Behaviour and Gender. McGraw – Hill Book Company, England.1995. – 17 p.
4. European Parliament. Gender Responsive Budgeting Innovative Approaches To Budgeting, Member's Research Service. – 31-32 p.
5. Nordic Council of Ministers, 2006. – 34 p.
6. Quinn, S. Europe: A Survey Of Gender Budgeting Efforts, Imf Working Paper Research Department And Strategy, Policy, And Review Department. 2016. 25 p.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. Qodirxonova M. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash harakati farovon hayotimizga zamin yaratmoqda // Yangi O'zbekiston 2021. 18-dekabr. –№ 255.
9. Mullajanova M. Gender tenglik: milliy qadriyatlar orqali. Gaz. Milliy tiklanish №27 (1259). – Toshkent: Sharq, 2024. 12 b.
10. Parpiboyeva O. Yangi O'zbekistonning gender siyosati yorug' istiqbol sari tashlangan dadil qadam /// Yangi O'zbekiston 2024-yil. –№ 91.

Doston XAMIDOV,

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti stajor-tadqiqotchisi,

Ilmiy rahbar: **Abdusalom UMAROV,**

O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası professori,
sotsiologiya fanlari doktori

MILLIY MADANIYAT VA O'ZARO IJTIMOIIY ALOQALAR: madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy dunyoda milliy madaniyatning roli va madaniyatlararo muloqotning o'zaro ijtimoiy aloqalaridagi ahamiyatini o'rganadi. Globalizatsiya, texnologik inqilob va madaniyatlararo integratsiyaning intensivlashishi jarayonida, madaniyatlar o'rtasida samarali muloqot o'rnatishning ahamiyati oshmoqda. Maqolada madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari, madaniyatlarning o'zaro ta'siri va ijtimoiy aloqalar tizimida o'ziga xos o'rin egallash jarayonlari tahlil qilinadi. Madaniyatlararo muloqotning yangi usullari, xususan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan integratsiya jarayonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy madaniyat, madaniyatlararo muloqot, globalizatsiya, madaniyatlararo integratsiya, zamonaviy usullar, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy aloqalar, madaniyatlararo aloqalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль национальной культуры и значение межкультурной коммуникации в социальных взаимодействиях современного мира. В условиях интенсификации глобализации, технологической революции и межкультурной интеграции растет важность установления эффективного диалога культур. В статье анализируются современные методы межкультурной коммуникации, взаимодействие культур и процессы их интеграции в системе социальных отношений. Особое внимание уделяется новым методам межкультурной коммуникации, в частности через цифровые технологии и социальные сети, а также процессам интеграции, осуществляемым с помощью этих каналов.

Ключевые слова: национальная культура, межкультурная коммуникация, глобализация, межкультурная интеграция, современные методы, цифровые технологии, социальные отношения, межкультурные связи.

Abstract. This article examines the role of national culture and the importance of intercultural communication in social interactions in the modern world. In the context of the intensification of globalization, technological revolution, and intercultural integration, the significance of establishing effective communication between cultures is increasing. The article analyzes modern methods of intercultural communication, the interaction of cultures, and the processes of their integration into social relations systems. It specifically addresses the new methods of intercultural communication, particularly through digital technologies and social media platforms, and the integration processes carried out via these channels.

Keywords: national culture, intercultural communication, globalization, intercultural integration, modern methods, digital technologies, social relations, intercultural connections.

Zamonaviy dunyo madaniyatlari o'rtasidagi aloqalar juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, globalizatsiya jarayonlari, texnologik inqiloblar va ijtimoiy o'zgarishlar ularning bir-biriga ta'sirini kuchaytirmoqda. Madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari ijtimoiy aloqalar, iqtisodiy o'zgarishlar va siyosiy hamkorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy madaniyatlar o'zining o'ziga xosligini saqlab qolish, shuningdek, global madaniyatga integratsiyalashish orqali o'z o'rnini topish muhim muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro ta'siri va ularning zamonaviy madaniyatdagi o'rnini haqida ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Milliy madaniyat – bu bir xalq yoki millatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy merosi. U, avvalo, til, adabiyot, san'at, musiqa, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va madaniy belgilardan iborat. Har bir millat o'z madaniyatini qadrlaydi va bu uning identifikatsiyasi va ijtimoiy birligini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Milliy madaniyat, o'z navbatida, xalqning dunyoqarashi, ma'naviyati va taraqqiyotiga ta'sir qiladi [1,56-b].

Globalizatsiya jarayonlari va madaniyatlararo muloqotning kuchayishi milliy madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirayotgan bo'lsa-da, ularning o'ziga xosligini saqlab qolish muhim masala bo'lib qolmoqda. Milliy madaniyatlar, o'zining an'anaviy va tarixiy qadriyatlarini saqlash orqali, global madaniyatning bir qismi sifatida rivojlanishga harakat qilmoqda.

Madaniyatlararo muloqot – bu turli millatlarning o'zaro aloqalari va muloqotining shakli bo'lib, u ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarni o'z ichiga oladi. Madaniyatlararo muloqotning samarali amalga oshirilishi, xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni, tinchlikni va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat global siyosatni shakllantirishda, balki ijtimoiy hamkorlik, iqtisodiy o'zaro manfaatlar va madaniy almashinuvda ham o'rin tutadi [2,112-b].

Madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari, xususan, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va global tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan integratsiya jarayonlari ahamiyatli bo'lib, bu jarayonlar global hamjamiyatda madaniy integratsiyani kuchaytirish va o'zaro tushunishni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, madaniyatlararo muloqotda madaniy muammolar va qarama-qarshiliklar ham yuzaga kelishi mumkin, chunki har bir millatning madaniy qadriyatlari va an'analari o'ziga xos bo'lib, ba'zan boshqa madaniyatlar bilan to'qnashuvi mumkin.

Zamonaviy madaniyatlar o'rtasidagi aloqa-

lar globalizatsiya jarayonlarida ancha kuchaygan. Globalizatsiya, ayniqsa, kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va xalqaro aloqalarning kengayishi bilan o'zgarib, madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirgan. Biroq, bu jarayonning salbiy tomonlari ham mavjud — madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro to'qnashuvlar, ularning bir-biriga moslashishi, ba'zan milliy madaniyatlarning erkin rivojlanishiga xalaqit beradi.

Zamonaviy madaniyat global miqyosda birlashishni davom ettirayotgan bo'lsa-da, uning asosiy muammolaridan biri milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlab qolishdir. Ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, milliy madaniyatni himoya qilish va saqlashga qaratilgan siyosatlarning kuchayishi ehtiyoji mavjud. Shu bilan birga, zamonaviy madaniyatning dinamik rivojlanishi va uning global miqyosda ommalashishi, madaniy erkinlik va xususiyatlarni saqlashga olib kelgan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Zamonaviy madaniyatlararo muloqot usullari raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi bilan o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, global tarmoqlar va raqamli aloqalar turli xalqlar o'rtasidagi muloqotning tezligi va samaradorligini oshirdi. Bugungi kunda, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zaro aloqalar, ta'lim, san'at, siyosat va madaniyat sohalarida samarali muloqotlarni amalga oshirish mumkin [3,65-b].

Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqotning yangi usullari, masalan, virtual madaniyat almashinuvi, xalqaro madaniyat festivallari, madaniyatlararo seminarlar va simpoziumlar global miqyosda o'zaro tushunishni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu usullar milliy madaniyatlar o'rtasidagi chegaralarni kamaytirishga va global madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish jarayonida, global hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, milliylikni va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish kerak. Milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlash, ularni global madaniyat bilan uyg'unlashtirish, o'zaro o'rganish va madaniy almashuvlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Milliy madaniyatlarning barqarorligini ta'minlash, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarining rivojlanishiga hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi [4,54-b].

Zamonaviy madaniyatlarning o'zaro ta'siri, madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari va global madaniyatning rivojlanishi, milliy madaniyatlarning saqlanishi va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro uyg'unlashishini

talab qiladi. Globalizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yordamida, madaniyatlararo aloqalar kuchayib bormoqda, bu esa o'zaro tushunish va barqaror rivojlanishning muhim vositasiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, milliy madaniyatlarni saqlash va global madaniyat bilan uyg'unlashtirish jarayoni davom etmoqda, bu esa jamiyatlar o'rtasidagi ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga olib keladi.

Zamonaviy madaniyat va madaniyatlararo muloqotning global kontekstida, milliylik va umuminsoniylik o'rtasidagi nisbati muhim ijtimoiy va madaniy masalalarni yuzaga keltiradi. Ushbu mavzu asosida statistik va jadval asosidagi ma'lumotlar yordamida, madaniyatlarning o'zaro ta'siri, globalizatsiya jarayonlari va madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari haqidagi tahlillarni keltirish mumkin.

Globalizatsiya va madaniyatlararo muloqot jarayonlari jadal rivojlanib, mamlakatlar o'rtasida yangi aloqalar va integratsiya shakllarini yaratmoqda. So'nggi 10 yil ichida, masalan, madaniyatlararo muloqotga e'tibor qaratilgan xalqaro konferensiyalar, festivallar va madaniyat almashuvlari soni sezilarli darajada o'sdi. Quyidagi jadvalda, 2010–2020-yillar oralig'ida dunyo miqyosida madaniyatlararo aloqalar uchun tashkil etilgan yirik tadbirlar va festivallar soni ko'rsatilgan (1-jadval).

Yil	Madaniyatlararo tadbirlar va festivallar soni	Xalqaro ishtirokchilar (mln.)	Onlayn madaniyat almashuvlari soni (mln.)
2010	245	1.3	4.5
2015	400	2.1	8.9
2020	650	3.4	12.3

1-jadval. 2010–2020-yillar oralig'ida dunyo miqyosida madaniyatlararo aloqalar uchun tashkil etilgan yirik tadbirlar va festivallar soni

Tahlil: Jadvalga ko'ra, madaniyatlararo tadbirlar va festivallar soni 2010-yildan 2020-yilgacha 2,5 baravarga oshgan. Shuningdek, onlayn madaniyat almashuvlari soni ham 7,8 milliondan 12,3 milliongacha o'sdi. Bu ko'rsatkich global miqyosda madaniyatlararo muloqotning yangi usullarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalar yordamida global madaniyatni integratsiya qilishni anglatadi [5,90-b].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashishi jarayoni nafaqat ijtimoiy va siyosiy, balki madaniy sohalarida ham muhim rol o'ynaydi. 2020-yilda dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, madaniyatlararo integratsiya va global madaniyatning rivojlanishi haqida quyidagi statistik ma'lumotlar olingan (2-jadval).

Region	Milliy madaniyatning globalizatsiyaga integratsiya darajasi (%)	Umuminsoniy qadriyatlar asosida aloqalar darajasi (%)
Yevropa	75%	85%
Osiyo	65%	70%
Amerika	80%	90%
Afrika	55%	60%
O'zbekiston	70%	75%

2-jadval. Madaniyatlararo integratsiya va global madaniyatning rivojlanishi.

Tahlil: Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar, har bir mintaqada milliy madaniyatlarning globalizatsiyaga integratsiya darajasi va umuminsoniy qadriyatlar asosida aloqalar darajasini ko'rsatadi. Yevropa va Amerika mintaqalari yuqori integratsiya darajasiga ega bo'lsa, Afrika va Osiyo mintaqalari ba'zi ijtimoiy va madaniy omillar tufayli o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelmoqda. O'zbekiston milliy madaniyatni saqlashda o'zining o'rnini topib, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda o'rtacha integratsiya darajasiga ega.

Madaniyatlararo muloqotning raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilishi global madaniyatga integratsiya qilishda muhim vosita bo'lib qolmoqda. 2020-yilda, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi sharoitida, raqamli platformalarda madaniyat almashuvlari va muloqotlar soni keskin oshdi. Quyidagi grafikda, raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan madaniyat almashuvlari ko'rsatilgan.

Tahlil: Grafikda raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan madaniyat almashuvlari soni 2020-yilda sezilarli darajada o'sgan. Pandemiya davrida onlayn madaniyat almashuvlari, masalan, virtual festivallar, onlayn konferensiyalar, madaniyatlarni raqamli tarzda saqlash va tarqatishning yangi shakllari global madaniyatni birlashtirishda o'zgarishlar keltirdi [6,112-b].

Madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy aloqalar va jamiyat rivojiga ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Madaniyatlararo muloqotning nafaqat madaniy, balki ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishdagi roli ham muhimdir. 2020-yilda olib borilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, madaniyatlararo muloqot ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga qanday ta'sir ko'rsatganligi o'lchandi (3-jadval).

Yil	Madaniyatlararo muloqotning jamiyatdagi ijtimoiy ta'siri (%)
2015	60%
2017	70%
2020	85%

3-jadval. Madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga qanday ta'sir ko'rsatganligi

TAHLIL: So'rov natijalariga ko'ra, madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy ta'siri yildan-yilga ortib bormoqda. 2020-yilda madaniyatlararo muloqot ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam bergan. Bu nafaqat xalqlar o'rtasida, balki milliy va madaniy guruhlar o'rtasidagi murosani ham rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Madaniyatlararo muloqot va milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri zamonaviy jamiyatda juda muhim o'rin tutadi. Globalizatsiya jarayonlari va texnologik inqiloblarning ta'siri, madaniyatlararo muloqotni yangi usullar orqali amalga oshirishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar madaniyat almashuvlari va muloqotining samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib, global madaniyatga integratsiya qilish jarayonlarini tezlashtirmoqda. Milliy madaniyatlarni saqlab qolish, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish va global hamkorlikni mustahkamlash o'rtasidagi muvozanat, zamonaviy madaniyatlararo muloqotning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda [7,28-b].

Zamonaviy madaniyatlararo muloqot va milliy madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, globalizatsiya jarayonlari va texnologik inqiloblarning natijasida sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolish va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning uyg'unlashuvi – zamonaviy madaniyatlararo aloqalarning muhim muammosi bo'lib qolmoqda. Madaniyatlararo muloqotning samaradorligi nafaqat xalqaro siyosatni shakllantirishda, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonlarida ham o'z aksini topmoqda.

Madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari, xususan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan integratsiya jarayonlari madaniyatlar o'rtasidagi masofani kamaytirishda va global hamjamiyatdagi aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlash va uni global

madaniyat bilan uyg'unlashtirish jarayonlari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq, globalizatsiya jarayonlari va raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi bilan birga, bir nechta muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun to'g'ri strategiyalar va yondashuvlar zarur.

MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR:

1. Milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlashdagi qiyinchiliklar:

Globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, bir necha madaniyatlarning o'zaro aralashuvi milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

Yechim: Milliy madaniyatlarni saqlash uchun davlatlar o'z madaniy merosini himoya qilish bo'yicha qonunlar va dasturlar ishlab chiqishlari lozim. Xalqaro miqyosda, madaniy merosni saqlash bo'yicha, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish, madaniyatlararo muloqotga nisbatan strategik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

2. Madaniyatlararo muloqotdagi ijtimoiy va madaniy qarama-qarshiliklar:

Madaniyatlararo aloqalarda, ayniqsa, diniy, etnik va madaniy farqlar sababli, qarama-qarshiliklar va noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin.

Yechim: Madaniyatlararo ijtimoiy murosani ta'minlash uchun, madaniy muvozanat va o'zaro hurmatni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini yaratish lozim. Madaniyatlararo o'zaro tushunishni rivojlantirish va global miqyosda muloqotlarning sifatini oshirish uchun xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan qo'llanma va siyosatlar ishlab chiqilishi kerak.

3. Raqamli texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish:

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yordamida amalga oshirilgan madaniyatlararo muloqotda, noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilishi,

madaniy tajovuz va o'zaro xafagarchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Yechim: Internet va ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatlararo muloqotning samarali va salbiy oqibatlardan holi bo'lishini ta'minlash uchun, axborot xavfsizligini kuchaytirish, media tarbiyasini rivojlantirish, va madaniyatlararo inshootlarni tashkil etish zarur.

4. Milliy madaniyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni topishdagi murakkabliklar:

Milliy madaniyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida uyg'unlashuvni topish ba'zan qiyin bo'lishi mumkin. Milliy an'analar va qadriyatlar o'zining o'ziga xosligini yo'qotishi mumkin, shu bilan birga umuminsoniy qadriyatlar o'ziga xos madaniyatni inkor qilishga olib kelishi mumkin.

Yechim: Madaniyatlararo integratsiyani amalga oshirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash uchun, ko'p madaniyatli yondashuvlarni rivojlantirish, xalqaro aloqalar va diplomatiyada madaniy muvozanatni saqlash zarur. Madaniy almashuvlar, milliy madaniyatlarni boshqalar bilan bog'lash orqali, barcha xalqlar uchun foydali bo'ladi.

TAKLIFLAR:

1. Milliy madaniyatlarni saqlash va rivojlantirishga doir huquqiy va siyosiy mexanizmlar ishlab chiqish:

Davlatlar o'z madaniy meroslarini himoya qilish va saqlash bo'yicha siyosatni yanada kuchaytirishlari, shuningdek, milliy

madaniyatlarni global madaniyat bilan uyg'unlashtirishga doir yangi qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqishlari lozim.

2. Madaniyatlararo ijtimoiy o'zaro tushunishni rivojlantirish uchun ta'lim dasturlarini yaratish:

Ta'lim tizimida madaniyatlararo muloqotni o'rgatish va yosh avlodni turli madaniyatlarni hurmat qilishga undashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, bu global ijtimoiy muhitni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Raqamli texnologiyalarni madaniyatlararo muloqotda samarali va ehtiyotkorlik bilan foydalanish:

Raqamli texnologiyalar yordamida madaniyatlararo muloqotni yanada samarali qilish uchun, internetda madaniyatlarni targ'ib qilish, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan kontentlarni ishlab chiqish va xavfsizlikni ta'minlash zarur.

Zamonaviy madaniyatlararo muloqot, milliy madaniyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida o'zaro uyg'unlikni topish uchun o'zgaruvchan va murakkab jarayondir. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va madaniyatlararo integratsiya jarayonlari, madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirayotgan bo'lsa-da, milliy madaniyatlarni saqlash va global hamkorlikni rivojlantirish zarur. Madaniyatlararo muloqotning zamonaviy usullari, ijtimoiy va madaniy rivojlanishning muhim qismiga aylangan. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun, davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan to'g'ri yondashuvlar va strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Seyidov A. Madaniyatlararo muloqot: Nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: Xalqaro aloqalar nashriyoti, 2017. – 225 b.
2. Shokirov M. Milliy madaniyat va globalizatsiya: O'zbekistondagi madaniy integratsiya jarayonlari. – Buxoro: Buxoro Universiteti nashriyoti, 2018. – 192 b.
3. Xamidov R. Zamonaviy madaniyat va global ijtimoiy aloqalar. – Toshkent: Ijtimoiy fanlar akademiyasi, 2020. – 178 b.
4. Davarov J. Madaniyatlararo muloqot va integratsiya: Yangi globalizatsiya sharoitida. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2016. – 210 b.
5. Mullajonov E. Madaniyatlararo muloqot va milliy identifikatsiya. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro munosabatlar instituti, 2019. – 200 b.
6. Hassanov T. Globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalar: Yangi imkoniyatlar va chaqiriqlar. – Almata: Karg'ali nashriyoti, 2015. – 190 b.
7. Freedom House. Freedom in the World 2021 Report. – Retrieved from <https://freedomhouse.org/report/freedom-world/2021/democracy-in-decline>
8. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). The role of culture in the development of global cooperation. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 150 b.
9. Petrov V. Global madaniyat va milliylik: Madaniy integratsiya jarayonlari. – Moskva: Rossiya fanlar akademiyasi, 2018. – 210 b.
10. Gafurov U. Internet va madaniyatlararo muloqot: Raqamli texnologiyalar yordamida global madaniyatni rivojlantirish. – Toshkent: O'zbekiston matbuot nashriyoti, 2017. – 170 b.

O'ZBEK MUHOJIRLIGINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek muhojirligi tarixining madaniyat tarixi fanidagi yangi va istiqbolli tadqiqot yo'nalishi sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. O'zbek muhojirlarining turli tarixiy bosqichlardagi faoliyati, ularning madaniy merosga qo'shgan hissasi, adabiy va ilmiy anjumanlardagi ishtirokining madaniyat tarixi fanini o'qitishdagi ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, muhojirlik madaniyatining shakllanishi, diasporalarning o'z milliy identitetini saqlab qolish va rivojlantirishdagi sa'y-harakatlari ko'rib chiqiladi. Maqola o'zbek muhojirligi tarixini madaniyatlararo aloqalar va global tarix kontekstida tahlil etish zaruratini asoslaydi.

Kalit so'zlar: O'zbek muhojirligi, madaniyat tarixi, diaspora, milliy identitet, madaniy meros, tarixiy bosqichlar, muhojir adabiyoti, xalqaro aloqalar, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация. В статье анализируется роль истории узбекской миграции как нового и перспективного научного направления в области истории культуры. Изучается деятельность узбекских мигрантов на различных исторических этапах, их вклад в культурное наследие, а также значение их участия в литературных и научных конференциях в преподавании истории культуры. Рассматриваются также формирование культуры миграции, деятельность диаспор по сохранению и развитию своей национальной идентичности. В статье обосновывается необходимость анализа истории узбекской миграции в контексте межкультурных отношений и глобальной истории.

Ключевые слова: узбекская эмиграция, культурная история, diaspora, национальная идентичность, культурное наследие, исторические этапы, эмигрантская литература, международные отношения, межкультурный диалог.

Abstract. This article analyzes the role of the history of Uzbek migration as a new and promising research area in the field of cultural history. The activities of Uzbek migrants at various historical stages, their contribution to cultural heritage, and the importance of their participation in literary and scientific conferences in teaching the history of culture are studied. The formation of migration culture and the efforts of diasporas to preserve and develop their national identity are also considered. The article substantiates the need to analyze the history of Uzbek migration in the context of intercultural relations and global history.

Keywords: Uzbek migration, cultural history, diaspora, national identity, cultural heritage, historical stages, literature of migrant, international relations, intercultural dialogue.

Madaniyat tarixi insoniyat tafakkurining, ijtimoiy hayotining, e'tiqodining, san'ati va qadriyatlar tizimining tarixiy o'zgarishlarini o'rganadigan muhim fanlardan biridir.

Bu fan doirasida milliy va xalqaro madaniy jarayonlar, tarixiy siljishlar va ijtimoiy o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Shu ma'noda, o'zbek muhojirligi tarixi madaniyat tarixi fanida nisbatan kam yoritilgan, ammo dolzarb yo'nalish sanaladi. Bu mavzu diasporalarning madaniy identiteti,

ularning yashash joylarida olib borgan madaniy-ma'rifiy ishlari, matbuot faoliyati, milliy madaniyat va tilni saqlash bo'yicha qilingan sa'y-harakatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Maqolamizda avvalo, "Diaspora", "O'zbek muhojirligi" kabi atamalar mohiyatiga to'xtalishni joiz topdik. O'zbek muhojirligi bo'yicha yirik ilmiy asarlar muallifi sanalgan tarix fanlari doktori, professor Shodmon Xayitov o'z asarlarida "O'zbek muhojirligi" tushunchasini sho'ro jamiyati davrida

1917–1940-yillardagi o'zbek millati vakillarining vatanini tark etishi deya ta'riflaydi [1]. “Diaspora” atamasi qadimiy kelib chiqishga ega bo'lib, dastlab diniy va etnik kontekstdan foydalangan. Ilk marotaba bu so'z miloddan avvalgi VI asrda yahudiylarning Bobil asoratidan so'ng tarqalib yashashini ifodalash uchun ishlatilgan. Yunon tilidagi “diaspeirō” (διασπείρω) – “sochmoq”, “tarqatmoq” degan ma'noni bildiradi [2]. Shundan kelib chiqqan holda “diaspora” – bu tarixiy sabablarga ko'ra vatandan tashqarida, boshqa hududlarda yashayotgan xalq yoki etnik guruhni anglatadi.

O'zbek muhojirligi bir necha bosqichda shakllangan murakkab tarixiy jarayondir. Professor Shodmon Hayitov o'z ilmiy asarlarida “O'zbek muhojirligini” davrlashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratgan. Uning ilk bosqichi o'laroq jadidchilik harakati va Buxoro, Turkiston jadidlarining siyosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, 1917–1930-yillarda boshlangan. Bu davrda siyosiy ta'qib va tazyiqlar sabab ko'plab ziyolilar Afg'oniston, Turkiya va boshqa davlatlarga chiqib ketishdi. Bu ilk muhojirlar orasida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi yirik jadid namoyandalari ham bo'lgan. Keyingi bosqich – 1930–1950-yillar oralig'idagi davrda sovet rejimi ostida boshlangan qatag'onlar sabab yuzlab o'zbek ziyolilari va oddiy fuqarolar chet ellarga chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Ayniqsa, Stalinning buyruqlari bilan amalga oshirilgan ommaviy surgunlar muhojirlik jarayonini kuchaytirdi. Bundan tashqari 1960–1980-yillardagi turli ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, Afg'onistondagi siyosiy vaziyat tufayli ham ko'plab millatdoshlarimiz “Muhojirlik”ka qo'l urganligi tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Biz esa bugungi kundagi yangi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar natijalariga tayangan holda “O'zbek muhojirligi”ni davrlashtirishda XVI-XIX asrlardagi muhojirlik harakatlariga e'tibor qaratish muhim deb hisoblaymiz.

Ushbu davrda Turkistondagi xonliklar va Usmonlilar imperiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar, Turkistonlik musulmonlarning muqaddas haj ziyoratini amalga oshirish maqsadida hozirgi Turkiya va Saudiya Arabistonida yashab qolishi hamda shu asnoda bu mamlakatlarda O'zbeklarning joylashuvi hamda ko'payishi ham “Muhojirlik”ka sabab bo'la olishini ko'rsatishimiz mumkin. Bu borada, Turkiya Prezidenti arxiv boshqarmasi tomonidan tayyorlangan “Belgelerle Osmanlı-Türkistan ilişkileri (XVI-XX yüzyıllar)” arxiv-kitobi qimmatli manba hisoblanib, unda Turkistonliklar uchun haj ziyoratini emin-erkin,

xavfsiz amalga oshirishi uchun ko'riladigan choralar bo'yicha Turkiston xonliklari va Usmonli sultonlari o'rtasidagi yozishmalar o'rin olgan. Yuqoridagilarga tayangan holda, ushbu davrni “O'zbek muhojirligi”ning ilk to'lqinlaridan biri sifatida ko'rsatishga yetarlicha asos mavjud deb hisoblaymiz. Dunyoda mavjud bo'lgan “O'zbek diaspora”larini o'rganishda Afg'oniston o'zbeklari tarixiga ham nazar solish muhim hisoblanadi. Bu borada professor Shodmon Hayitov asarlari, etnograf olim Nasriddin Nazarovning “Afg'oniston o'zbeklari” asariga murojaat qilishimiz mumkin.

Umuman olganda o'zbeklarning hozirgi Afg'oniston hududiga borib joylashishi va o'troqlashuvi ham bir nechta bosqichga bo'linib, ildizlari Movarounnahr va Turkiston tarixiga borib taqaladi. Ular asosan quyidagi davrlarda Afg'oniston hududiga joylashgan: XI-XII asrlar – Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida turkiy qavmlar janubga – Xuroson va Balx tomonga ko'chib o'ta boshlagan. Bu davrda Balx, Hirot, Qunduz kabi shaharlar turkiy aholiga tanish bo'lgan. XIII asr – Chingizxon istilosi davrida mo'g'ul va turkiy qavmlar Afg'oniston hududiga joylashib, mahalliy aholiga qo'shilib ketgan. Bu jarayonda o'zbeklarning ajdodlari – dasht qabilalari (qipchoq, nayman, mang'it, qong'iro't) ham ko'chib kelgan. Shayboniylar davri (XVI asr) O'zbek nomi bilan atalgan qavmning Afg'onistonga keng miqyosda kelishi XVI asrda Shayboniylar davrida ro'y bergan. Ubaydullaxon, Ko'chkunchixon davrlarida Afg'onistonga yurishlar uyushtirilgan, natijada ko'plab o'zbek qabilalari shimoliy Afg'onistonga joylashgan. Shu davrdan boshlab Shimoliy Afg'oniston – Balx, Maymana, Andxo'y, Sherobod, Qunduz, Taloqan kabi hududlar o'zbeklarning asosiy yashash joyiga aylangan. Buxoro amirligi davri XVIII-XIX asrlarda Afg'oniston shimolida yashovchi o'zbeklar ko'p hollarda Buxoro amirligi bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan. Shu davrda o'zbeklar asosan qishloq xo'jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. 1920-yillarda Buxoro amirligi tugatilgach, ko'plab o'zbeklar Afg'onistonga qochib o'tgan. Sovet Ittifoqining kollektivlashtirish siyosati davrida (1930-yillar) yana ko'plab o'zbek oilalari Afg'oniston shimoliga ko'chib kelgan.

XX asrning 20-yillaridagi migratsiya jarayonlari Afg'onistondagi o'zbek diasporasining shakllanish jarayoniga mantiqiy nuqta qo'ygan. Professor Sh. Hayitov o'z asarlarida o'zbeklarning Afg'oniston shimoli bo'ylab keng joylashganligi, ushbu hududdagi eng katta savdo markazlari, eng ko'zga ko'ringan oshxonalar va do'konlar

o'zbeklarga tegishli bo'lganligi tarixiy hujjatlar asosida bayon qilingan. O'zbek muhojirligining ilk kurtaklari sifatida qadimgi Xitoy hududi bo'ylab tarqalgan Turkistonliklarni ham ko'rsatishimiz favqulodda muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonni tarixiy dalillar asosida chuqur, aniq va puxta bayon qilishda tarix fanlari doktori, professor, O'zRFA Sharqshunoslik instituti bo'lim mudiri Ablat Xo'jayevning "Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar" nomli asari muhim manba hisoblanadi. Olim o'z asarida buyuk ipak yo'li orqali Xitoyda o'rtoqlashib qolgan Turkistonliklarning hayoti va taqdirini yuksak ilmiy mahorat hamda Xitoyning mashhur Beijing kutubxonasida saqlanayotgan, arab, fors va turkiy tillarda yozilgan 500 dan ortiq arxiv materiallari asosida yozib qoldirgan. Mutolaachi uchun yanada aniqroq va qiziqarliroq bo'lishi uchun asardan bir nechta muhim ma'lumotlarni keltirishni joiz deb topdik.

"Tan sulolasi davrida Xitoyning poytaxti Chanan xalqaro savdo markaziga aylanganligi sababli, bu yerda Turkistonliklar nihoyatda ko'p to'planishar edi. Ular asosan shaharning g'arbiy darvozasiga yaqin yerdagi "Sishi" bozori atrofiga joylashgan edilar. Ana shu bozorda va unga olib keladigan yo'llarda Turkistonliklar tomonidan juda ko'plab oshxonalar va novvoyxonalar ochilgan edi. E'tiborli jihat oshxonalarni nomlashda Turkistonliklar ko'proq ayollar ismidan foydalanishgan" [3,196-b]. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar Xitoydagi Tan sulolasi davriga oid (608-907-yillar) bo'lib bundan o'n bir asr oldin vatandoshlarimizning Xitoy bo'ylab o'troqlashuvi, savdo-sotiq ishlari va ijtimoiy faoliyati dastlabki diaspora elementlarini o'zida aks ettirganini ta'kidlashimiz mumkin.

Vatandoshlarimizning oshxonalari va taomlari Xitoyda katta hurmatga sazovor bo'lgan. Buni ustoz olim A.Xo'jayev quyidagi ma'lumot asosida

isbotlaydi: *"Ko'zga ko'ringan Xitoy ziyolilari ham ushbu oshxonalarga borib ovqatlanishni va mehmon kutishni ma'qul ko'rishgan"* [3,197-b]. Ko'rib turganingizdek, yurtdoshlarimiz tomonidan tayyorlangan taomlar, oshxonalar va undagi xizmat ko'rsatish (servis) ham yuqori darajada (premium) bo'lgan. Boshqa bir mamlakat hududida bunday natijaga erishish uchun shubhasiz o'troqlashuv, yerli imkoniyatlarni puxta bilish lozim. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda Xitoy hududida taxminan milodiy VI-X asrlarda Turkistondan Xitoyga "muhojirlik" to'liqini yuz berib "O'zbek diasporasi" shakllangan deyishga to'laqonli asosga egamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, bugungi kunda butun dunyoda barcha xalqlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar madaniyatlararo muloqot ustiga qurilmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, milliy madaniyatimizni asrash, targ'ib qilish va mamlakatimizning madaniy imijini mustahkamlashda xorijda yashayotgan "O'zbek diasporalari"ning ahamiyati nihoyatda yuqori hisoblanadi.

Shu bois, yurtimizda madaniyatshunoslik, madaniyat va san'at sohasi boshqaruvi kabi ta'lim yo'nalishlarida o'qitib kelinayotgan madaniyat tarixi fanini yanada takomillashtirish uni xalqaro mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish vaqti keldi deb hisoblaymiz, hamda ushbu fanning nazariy qismi uchun "O'zbek muhojirligi"ni o'qitishni taklif qilamiz. Bundan ko'zlangan maqsad xorijda, jahon arenalarida milliy identitetlik darajasi, madaniyatimiz va tilimizning o'rnini borasida talabalarni dunyoqarashni shakllantirishdir. Ushbu jihat, hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlarni xorijga o'qishga va ishga ketishini rag'batlantirish jarayonida muhim bo'lib, ularning kelgusi taqdirini belgilovchi eng muhim omillardan biriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitov Sh. "O'zbek muhojirligi tarixi". – Toshkent: ABU Matbuot-Konsalt, 2008.
2. Cohen Robin. Global Diasporas: An Introduction. – United Kingdom, London: Routledge, 2008.
3. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O'zME ilmiy nashriyoti, 2007.
4. Nazarov N. Afg'oniston O'zbeklari. – Toshkent, 2011.
5. Ziyouz.com

O'ktam NOSIROV,

O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası professori v.b.,
falsafa fanlari nomzodi

INNOVATION MUHIT – axborot-kutubxona muassasalarida yangiliklarni yaratish asosi sifatida

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun, xodimlar uchun, asosiy ideallar sifatida ijodkorlik va innovatsiyalarni mustahkamlaydigan innovatsion faoliyatning o'sishi uchun "muhit" yaratadigan maxsus innovatsion madaniyatni shakllantirish talab etilishi, tashkiliy madaniyatning innovatsion turi xodimlarning ancha yuqori ta'lim darajasi bilan tavsiflanishi; ijodiy muhit va yangilik, doimiy takomillashtirish, eksperiment o'tkazish va tavakkal qilishga tayyorgarlik, xodimlarning dinamikasi va harakatchanligi uning yangi ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga moyilligi, tashkiliy madaniyatda subkulturalarning paydo bo'lishi, xodimlar tashkilotning mazmuni, qadriyatlar va normalari to'g'risida turli xil, ammo qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'lgan ma'lum guruhlar bo'linishini anglatishi, doimiy ziddiyatda bo'lgan qutbli qarama-qarshi qarashlar mavjudligi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion muhit, innovatsion faoliyat, ijodkorlik, tashkiliy madaniyat, ijodiy muhit, xodimlarning dinamikasi, subkultura.

Аннотация. В статье рассматривается развитие особой инновационной культуры, способствующей продвижению творчества и инноваций как фундаментальных ценностей в совершенствовании инновационной деятельности в информационно-библиотечных учреждениях. Подчеркивается важность создания среды, поддерживающей развитие инновационной активности. Также отмечается, что инновационный тип организационной культуры, как правило, связан с более высоким уровнем образования сотрудников. Кроме того, исследуется значение творческой среды, непрерывного совершенствования, экспериментов и готовности к риску как ключевых факторов, способствующих формированию инноваций.

Ключевые слова: инновационная среда, инновационная деятельность, креативность, организационная культура, творческая среда, динамика персонала, субкультура.

Abstract. This article examines the development of a distinctive innovative culture that promotes creativity and innovation as fundamental values in enhancing innovative practices within information and library institutions. It emphasizes the importance of creating an environment that supports the advancement of innovative activities. The study also highlights that an innovative organizational culture is typically associated with a higher level of employee education. Furthermore, it explores the significance of creative environments, continuous improvement, experimentation, and the willingness to take risks as key factors in fostering innovation.

Keywords: innovative environment, innovative activity, creativity, organizational culture, creative environment, employee dynamics, subculture.

Innovatsion faoliyat – kutubxonachilik ishining yetakchi yo'nalishi bo'lib, ushbu sohadagi yangiliklarni izlash, baholash, ishlab chiqish va qo'llashdan iborat bo'lgan jarayondir. Ayniqsa, axborot asrida boshqa sohalar singari innovatsion taraqqiyot yo'lini tanlagan axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanish istiqboli mavjud ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu esa turli sohalar olimlari bilan birgalikda kutubxonashunos olimlarning ham innovatsiyalarni ilmiy fenomen sifatida har tamonlama o'rganish, konstruktiv o'zgarishlar yo'lidagi ziddiyatlarni bartaraf etish usullarini aniqlash, innovatsion faoliyatning amaliy samaradorligini oshirishda fanlararo ilmiy yo'nalish – innovatika muammolari bilan tugal-lanishni maqsad sifatida belgilashni talab qiladi.

Kutubxonachilik ishi sohasidagi o'zgarishlar turli fanlarning ilmiy yutuqlariga asoslanish bilan birga, ichki omillari bilan bog'liqlikdagi maxsus o'zigaxosliklariga ega bo'lganligi uchun innovatika vositalari va usullarini o'ziga moslashtirishdan tashqari, innovatsiyani kutubxonalarda qo'llashning xususiy yondashuvlarini ham talab qiladi. Shunday sharoitda kutubxona innovatikasini ishlab chiqish dolzarbligidan kelib chiqqan holda alohida ahamiyatga egadir.

Maqolaning asosiy maqsadi-kutubxonalar innovatsion faoliyatining o'ziga xosligini aniqlash, kutubxona ishini innovatsion faoliyatining o'ziga xosligini aniqlash, kutubxona ishini innovatsion boshqarishga yondashuvlarni yoritish, innovatsion o'zgarishlarni o'rganish, amalga oshirish va xujjatlashtirish metodikasini tavsiya etishdan iboratdir. Ushbu asosiy maqsadni amalga oshirish uchun o'quv qo'llanmaning mazmunini tashkil etuvchi quyidagi yo'nalishlar:

- ☑ Kutubxona innovatsiyasining mohiyati, tuzulishi va konseptual asoslari;
- ☑ Kutubxona innovatsiyasining turlari, ularni amalga oshirish jarayonlarining muntazamligi;
- ☑ Kutubxona innovatsiyasining faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish, innovatsion muhitni yaratish;
- ☑ Kutubxona innovatsion faoliyatini ilmiy va tashkiliy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- ☑ Kutubxona-axborot xizmati jarayonida bilim olish, ma'lumot va axborot berishining innovatsion usullari va vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritib beriladi.

Har qanday tashkilotning yoki muassasaning innovatsion rivojlanishidagi eng muhim omil kutubxonalarni o'z ichiga olgan holda innovatsion muhitni yaratishdir. Innovatsion muhit – bu kutubxona xodimlarining ijodiy salohiyatini ochib beradigan va innovatsiyalarni amalga oshirish

yo'lidagi psixologik va tashkiliy xarakterdagi to'siqlarni bartaraf etadigan maxsus sharoitlardir.

Innovatsion menejment sohasidagi mutaxassislarning ta'kidlashicha, yangilikni joriy etish jarayonlari, qoida tariqasida, ma'lum bir xodimlar guruhining qarshiligiga duch keladi. Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati kafolatlanmaydi, bu xatti-harakatlarda noaniqlikni keltirib chiqaradi va menejerlardan qarshilikka to'sqinlik qiladigan mexanizmlarni yaratishga harakat qilishni talab qiladi.

Qarshilik sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Cho'chish yoki yangi bilim, ko'nikmalarni o'rganishni istamaslik;
- Maqom va imtiyozlarni yo'qotishdan qo'rqish;
- Narsalar va muhitning odatiy yo'nalishini o'zgartirishni istamaslik;
- Innovatsiyalarni amalga oshirishning bashorat qilingan afzalliklari to'g'risidagi noaniqlik.

Agar innovatsiyalar xodimlar uchun radikal va kutilmagan bo'lsa, ular o'zgarishlarni rejalashtirish va boshlashda ishtirok etmasa, professional darajada tayyorlanmagan bo'lsa, qarshilik kuchayadi. Bunday sharoitda xodimlar o'zlarini o'zgarishlardan xursand deb bilishmaydi, innovatsion jarayonda o'z o'rinlarini ko'rmaydilar. Agar oldingi o'zgarishlar kuchli natijalarga olib kelmasa, vaziyat yanada murakkablashadi.

O'zgarishlarga nisbatan kutubxona xodimlarini uch toifaga bo'lish mumkin. Birinchi guruh o'zgarishlarning tashabbuskori, ular faol va tashabbuskor, o'zgarishlarga tezda moslashadi, innovatsion loyihalarda ishtirok eta oladi va kerakli natijalarga erishadi. Ikkinchi guruh eng ko'p sonli guruh bo'lib, passiv kuzatuvchilar tomonidan tuzilgan, ular konservativ, kam ma'lumotli, o'zgarishlardan qo'rqishadi, mumkin bo'lgan oqibatlar (barqarorlikni yo'qotish, mavjud maqom va boshqalar) uchun qo'rquvga ko'proq moyil. Uchinchi guruh opponentlardan iborat. Ular o'zgarishlarni rad etadilar yoki ularni tanqid qiladilar. Agar ushbu guruh katta tajribaga ega ijodiy va yuqori, malakali mutaxassislarni o'z ichiga olsa, ular o'zgarishlarning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kutubxonalarda tashkiliy madaniyatda ma'lum subkulturalar va qarshi madaniyatlarning shakllanishiga moyillik bo'lib, ular ikkinchi guruh vakillariga ta'sir qilishi, o'zgarishlarni sabotaj qilishga moyil bo'lishi mumkin.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun xodimlar asosiy ideallar sifatida ijodkorlik va innovatsiyalarni mustahkamlaydigan, innovatsion faoliyatning o'sishi uchun "muhit" yaratadigan maxsus innovatsion madaniyatni

shakllantirish talab etiladi. Tashkiliy madaniyatning innovatsion turi xodimlarning ijodiy muhit va yangilik; doimiy takomillashtirish, eksperiment o'tkazish va tavakkal qilishga tayyorgarlik; xodimlarning dinamikasi va harakatchanligi uning yangi ishlab chiqarish muommolarini hal qilishga moyilligi singari ancha yuqori ta'lim darajasi bilan tavsiflanadi. Tashkiliy madaniyatda subkulturalarning paydo bo'lishi, xodimlar tashkilot yoki muassasaning qadriyatlari va me'yorlari to'g'risida turli xil, ammo qat'iy qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'lgan ma'lum guruhlariga bo'linishini anglatmaydi. Doimiy ziddiyatda bo'lgan qutbli qarama-qarshi qarashlar mavjud.

Ushbu toifalarning mavjudligini va ularning innovatsion muhitga ta'sirini hisobga olgan holda, mojarolar va o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishlarning oldini olishga qaratilgan muayyan boshqaruv harakatlarini rejalashtirish, ularni amalga oshirishga yordam beradigan o'zgarishlar va chora-tadbirlar ketma-ketligi haqida o'ylash imkonini beradi. O'zgarishlarni boshqarish vazifalari quyidagilardan iborat: O'zgarishlarning istalgan (ijobiy) va istalmagan (salbiy) oqibatlarini o'z vaqtida aniqlash, xodimlarni tayyorlash vositalarining mavjudligini hisobga olgan holda ularga xodimlarning munosabatini sinchkovlik bilan o'rganish zarur. O'zgarishlarning muvaffaqiyati uchun zarur shart bu – xodimlarni innovatsiyalarga har tomonlama tayyorlash (funksional, psixologik, axborot ta'minoti), kutubxonachi (ishtirokchining) shaxsining ijodiy o'zini o'zi anglash muhitini yaratishdir. Buning uchun kutubxonachilar tomonidan innovatsion jarayonda turli rollarni bajarishga yordam beradigan pedagogik va tashkiliy usullardan foydalaniladi: (rahbar, "g'oyalar generatori", jamoa a'zosi (loyiha guruhi), ijrochilar).

Kutubxonada innovatsion muhitni yaratish uchun innovatsion faoliyatni amalga oshirish, uning maqsadlariga erishish uchun tashkiliy va xulq avtor omillarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zgarishlarni samarali boshqarishda xodimlarning faol mehnat faoliyati uchun zarur va yetarli shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Agar professional faoliyat jarayonining o'zi xodimni qoniqtirsa, unda ijobiy his tuyg'ular darhol ularni amalga oshirishga qaratilgan yangi innovatsion g'oyalar va harakatlarni keltirib chiqaradi. Ammo ko'pincha kerakli xodimlarning innovatsion faoliyatini kutilgan natijalarga erishish uchun menejer juda ko'p oraliq harakatlarni, innovatsion muhitni shakllantirishga qaratilgan harakatlar dasturini

amalga oshirishi kerak. Ushbu dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) O'zgarishlar konsepsiyasini ishlab chiqish, ularning korporativ qadriyatlar va kutubxona missiyasi bilan aloqasini o'rnatish;

2) Innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qodir xodimlarni topish;

3) Kutubxona (tizim) ichidagi o'zgarishlar to'g'risida keng ma'lumot tarqatish; o'zgarishlarga qarshi bo'lgan ziddiyatli holatlarni bartaraf etish;

4) O'zgarishlar loyihalari tanlovini amalga oshirish, ushbu jarayonning "tezlashtiruvchisi" bo'lib xizmat qiladigan kichik jamoani yoki komandani tashkil etish;

5) "Ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash"ni ta'minlash, ya'ni kutubxonani rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan aniq sharoitlarni yaratish (xodimlarni innovatsion usullarga o'rgatish va qayta tayyorlash, innovatsion g'oyalar mualliflari uchun ijtimoiy imtiyozlar va maqom farqlarini qo'llash, tashabbuslarni rag'batlantirish, to'siqlarni va ularni yengib o'tish usullarini tahlil qilish, vazifalarni moslashuvchan taqsimlash);

6) Xodimlar faoliyatini ularning qo'shgan hissasini hisobga olgan holda baholash;

7) Innovatorlarni ommaviy tan olish va rag'batlantirib borish;

8) Jamiyatni (mahalliy hamjamiyatni) kutubxonaning rivojlanishi va yutuqlari to'g'risida doimiy xabardor qilib borish;

Tashkilot yoki muassasada innovatsion muhitni yaratish shartlari xodimlarga ijodiy va faol munosabat, uning natijalari uchun javobgarlikni "rivojlantirish"dir. Ijodkorlik kutubxonachilik kasbining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ko'plab mutaxassislar tomonidan qat'iy ta'kidlangan kutubxona innovatsiyalarining ajralmas qismidir. Xodimlarni o'zgarishlarni boshqarishda ishtirok etishga jalb qilish qarshilikni minimallashtirishga va innovatsiyalar samaradorligiga erishishga imkon beradi.

Innovatsion muhitni yaratish quyidagilarni ta'minlaydi:

- Kutubxona xodimlarida innovatsion tavakkalchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;

- Kutubxonaning "g'oyalar banki"ni yaratish;

- Loyihalar tanlovlarini o'tkazish, kollegial munozaralar ("aqliy hujum" va boshqalar), ichki rezervlarni aniqlash asosida xodimlarni jipslashtirish;

- Xodimlarning ijodiy faolligini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish usullaridan foydalanish;

Innovatsiya har doim tavakkalchilik bilan bog'liq. Tavakkalchilik deganda, yutuq va

yo'qotish, imkoniyat va tahdidlarning ma'lum nisbatini hisobga olgan holda, kuch va mablag' sarflanishi tushuniladi. O'zgarishlarni boshqarishning vazifasi xodimlarning ongida ularning imkoniyatlarini kuchaytirish va xavf katta va imkoniyat kichik bo'lgan sharoitlarda yo'qotishlarni qoplashga ishonchni shakllantira bilishdir. Agar inson o'ziga va kerakli natijaga erishish qobiliyatiga ishonsa, his-tuyg'ularidan harakatga o'tish sodir bo'ladi. Aks holda, u o'ziga emas, balki kerakli voqealarning boshlanishiga bog'liq bo'lgan tashqi kuchlarga umid qiladi.

Xodimlarni innovatsiyalarni rejalashtirishga jalb qilish, innovatsion resurslarni izlash, imkoniyatlar va tahdidlarni tahlil qilish va muhokama qilish, noto'g'ri hisob-kitoblar va yutuqlar, o'zgarishlar yo'lidagi psixologik va tashkiliy tartibdagi to'siqlarni bartaraf etish, aniq natijalarga erishish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, har kimning shaxsiy hissassi vaziyatni o'zgartirishi va ta'sir qilishi mumkinligiga ishonch uyg'otish kutubxonalarni rivojlantirishning asosiy omili bo'la oladi.

Ijodiy innovatsion fikrlash tavakkalchilik xatti-harakatlarining muayyan ko'nikmalarining mavjudligida namoyon bo'ladi:

- Yetakchilik qilish va javobgarlikni o'z zimmasiga olish;
 - Faoliyatning yangi sohasiga tezda kirishish (masalan, xodim xizmat ko'rsatish jarayonini takomillashtirish bo'yicha taklifni taqdim etadi; xizmatlarni jalb qilish, to'liq to'plam sifatida kutubxonaning moliya bo'limiga takliflar kiritish kutubxona xizmatlari/mahsulotlarini reklama qilish shakllarini jamoatchilik guruhining "chiqishlarini" va boshqalarni taklif qilish imkoniyatiga ega;
 - Subektiv va obektiv shart-sharoitlarni hisobga olish, ularga ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lish, ishdagi yutuqlar va kamchiliklarni tahlil qila olish, ularni ijobiy o'zgarishlar uchun imkoniyat va tahdid sifatida ko'rib chiqish, potensial imkoniyatlardan foydalanish usullarini ishlab chiqa olish;
 - Kerakli sur'atda harakat qilish, ishning tomonlariga e'tibor qaratish va boshqalarini vaqtincha e'tibordan chetda tutish;
 - Muhim jihatlarga tayanish, potensial ravishda moliyaviy, moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga lozim bo'lgan xodimlar ro'yxatini tuzish, fandrayzing strategiyasining asosiy "qadamlarini" belgilab olish;
- Tavakkalchilik, xatti-harakatlar ko'nikmalarini shakllantirish, yangi g'oyalarni baholash va

innovatsion faoliyat (doimiy) xarakterga ega bo'lgan maxsus "ijodiy muhit" yaratilishini ta'minlashga imkon beradi va yangi g'oyalarni yaratish xodimlarning kasbiy faoliyatining "me'yori" hisoblanadi.

Kutubxona xodimlari innovatsion g'oyalarni o'zlari ilgari suradilar yoki turli manbalarga: matbuotdagi nashrlar, boshqa kutubxonalar va tegishli tashkilotlarga tashrif buyurganlarida, hamkasblarining konferensiyalar, seminarlar, yig'ilishlar, prezentatsiyalardagi nutqlaridan, foydalanuvchilar, homiyar bilan suhbatlarga tayangan holda tashabbus ko'rsatadilar. Kutubxonachiga innovatsion g'oyalarni yozib qo'yishni, ularni "g'oyalar bankida" to'plashni va innovatsion loyihani yaratishda foydalanishga o'rgatish kutubxona ishining yanada rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

"G'oyalar banki" innovatsiyalarga bo'lgan talabni tavsiflaydi va ma'lum bir innovatsion vaziyat sharoitida o'zgarish maqsadlariga mos keladigan innovatsion g'oyalarni tanlash uchun ishlatiladi hamda innovatsion jarayonni rejalashtirish vositasi sifatida qaraladi. "G'oyalar banki" muntazam ishlatilishi uchun qulay bo'lishi va yangilari bilan to'ldirilib borilishi kerak.

Kutubxonada "g'oyalar banki"dan foydalanish bir qator innovatsion g'oyalarni taklif qilish, tashabbuslarni rag'batlantirish usullari, buxgalteriya hisobi va takliflarni tizimlashtirishning maxsus shakllarini ishlab chiqish bilan bog'liq ma'lum tashkiliy ishlarni talab qiladi. Fikrlarni tuzatish uchun quyidagi hisob shakllaridan foydalanish qulay.

To'ldirilgan buxgalteriya shakllari obyektlar yoki kutubxona bo'limlari bo'yicha tizimlashtiriladi (bu menejerlar uchun qulay bo'ladi). Vaqt o'tishi bilan kutubxonada qimmatli axborot to'plami hosil bo'ladi, unga kerak bo'lganda murojaat qilinadi, doimiy ravishda e'tiborga loyiq yangi g'oyalar bilan to'ldiriladi.

Yapon kompaniyalarining tajribasi ma'lum bo'lib, unda xodimlarni yangi g'oyalarni taklif qilishga rag'batlantirish va eng yaxshilari uchun mukofot berish odatiy holdir.

Xodimlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning shunga o'xshash usullari kutubxona amaliyotida qo'llanila boshladi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining tajribasi yuqori baholanishga loyiqdir, bu yerda yangi loyihalarni baholash va kutubxona xodimlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish uchun maxsus tizim ishlab chiqilgan. Uning mohiyati shundan iboratki, rahbar vaqti-vaqti bilan jamoani chaqirib, har bir

xodimdan ishni takomillashtirishni talab qiladi. Muvaffaqiyatli g'oyalar muhokama qilinadi, ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, faol va tashabbuskor kutubxonachilar qo'shimcha imtiyozlarga va maqom farqlariga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion muhitni yaratish uchun hamkorlikning noformal muhiti muhim bo'lib, unda har bir xodim o'zini yagona jamoaning a'zosi sifatida his qiladi.

Psixologik komfort xodimlarning ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga imkon beradigan innovatsion muhitning tarkibiy qismi bo'lib, har bir xodimning ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishiga imkon beradi. O'zgarishlarni boshqarish vazifasi xodimlar jipsligi va psixologik muhitni yaxshilashdan iboratdir.

Bunday tadbirlar kutubxonani rivojlantirish bo'yicha turli nuqtayi nazarlarni aniqlashga, barcha muqobil variantlarni birgalikda ko'rib chiqishga, eng maqbullarini tanlashga imkon beradi. Agar kutubxona xodimlari o'zgarishlar muhokamasida ishtirok etgan bo'lsa, ular ularni amalga oshirishda ko'proq mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishadi, Konfliktlar va o'zgarishlarga qarshilik bo'lmaydi.

Har qanday xodim muayyan qarorning qabul qilinishida ishtirok etgan bo'lsa uning ijobiy natijalariga ham ishonchi yuqori bo'ladi. Ushbu o'zgarishlarning ahamiyati yetakchi bo'g'inning boshqa aloqalarini ta'minlashda ham alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, kutubxonaning barcha bo'limlari xodimlari tomonidan innovatsiyalarning ketma-ketligi va kutilgan natijalariga ishonchi xodimlarning qoniqishini va umumiy ishga hissa qo'shish, "kutubxona tarixida o'z izini qoldirish" istagi bilan

qo'zg'atilgan yuqori innovatsion faollikni keltirib chiqaradi, o'zgarishlarga xayrixohlik ko'rsatishga yordam beradi.

Ikkinchidan, kutubxonada amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlardan xabardorlik vaziyatni yetarli darajada baholashga imkon berishini hisobga olib, yangiliklarning maqsadlarini tushuntirish va foydalanuvchilar bilan talab darajasida takomillashtirishga imkon beradi.

Uchinchidan, innovatsion muhitni shakllantirishda kutubxonalarda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham alohida o'rin tutib zamonaviy talablarni hisobga olgan holda innovatsiyalarni amalga oshirishda yordam beradi.

Axborot-kutubxona muassasalarining innovatsion faoliyati va ularning innovatsion infrazuzulmasini rivojlantirish, aholi bilan samarali innovatsion munosabatlar va muloqotni yo'lga qo'yish, yangiliklarni ishlab chiqish va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun innovatsiyalar, shu jumladan, xususiy innovatsiyalarni jalb qilish mamlakatimizda amalga oshirishi zarur bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Axborot-kutubxona sohasini innovatsion rivojlantirish strategik maqsadlariga erishish uchun axborot va raqamli texnologiyalarni e'tiborga olgan holda, zamonaviy umumjahon tendensiyalarni e'tiborga olgan holda axborot-kutubxona sohasini isloh qilishni jadallashtirish, korporativ tizimlarni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikni mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tar-mog'ini rivojlantirish, mutolaa va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va targ'ib qilish masalalariga yangicha yondashuvlar talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 3-nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 440 bet.
2. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi" 1995. – 464 bet.
3. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 396 bet.
4. Ibrohimov A. Ruhiy oziq mahzani. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 428 bet.
5. Ibrohimov A. Yorug'lug'. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 376 bet.

Soyibnazar DAVLATOV,
O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

KUTUBXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ular yordamida kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda foydalanuvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, kutubxonalarda innovatsion loyihalarni tashkil etish, yangi g'oyalar, texnologiyalar, xizmatlar va usullarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tashabbuslar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kutubxona, innovatsiya, axborot texnologiyalar, multimedia, g'oya, raqamlashtirish, elektron katalog, rejalashtirish, innovatsion loyiha.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы внедрения инновационных технологий в библиотеках, автоматизации библиотечной деятельности, эффективного использования ресурсов и развития интерактивного взаимодействия с пользователями. Также анализируется организация инновационных проектов в библиотеках и внедрение новых идей, технологий, услуг и методов в практику библиотечной работы.

Ключевые слова: библиотека, инновации, информационные технологии, мультимедиа, идея, оцифровка, электронный каталог, планирование, инновационный проект.

Abstract. This article discusses the implementation of innovative technologies in libraries, the automation of library processes, the efficient use of resources, and the enhancement of interactive communication with users. It also examines the organization of innovative projects in libraries and the introduction of new ideas, technologies, services, and methods into library practice.

Keywords: library, innovation, information technology, multimedia, idea, digitization, electronic catalog, planning, innovative project.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Jamiyatning barcha sohalarida innovatsiyalar muhim o'rin egallayotgani kabi, kutubxona tizimida ham yangi innovatsion yondashuvlar talab etilmoqda. Kutubxonalar axborot jamiyatining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritishi, foydalanuvchilarga zamonaviy va qulay xizmat ko'rsatishi uchun innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish, ayni paytda, kutubxonalardagi kitoblar va turli manbalar tizimlashtirilmagan, elektron resurs holiga keltirilmagan bo'lsa, bu foydalanuvchilar uchun qiyinchiliklar tug'diradi, masofadan turib kutubxona xizmatidan foydalanish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Ana shu holat endilikda elektron kutubxonalarni tashkil etish masalasini zamonaviy kitob-

xonlarning birinchi darajali ehtiyojiga aylantirdi. Yangi texnologiyalar kishilarning axborotdan foydalanishlarini kengaytirmoqda. Shak-shubhasiz, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatning, shu bilan bir qatorda, siyosat va iqtisodning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Innovatsiya – bu yangi g'oya, mahsulot, xizmat yoki jarayonni yaratish va amaliyotga tatbiq etishdir. Kutubxona sohasidagi innovatsiyalar axborot resurslarini yangilash, elektron xizmatlarni joriy qilish, foydalanuvchi talablarini to'liq qondirish, raqobatbardosh kutubxona muhitini shakllantirish imkonini beradi. Kutubxonalarda innovatsion faoliyati quyidagilardan iborat bo'lib, axborot texnologiyalarini joriy qilish; elektron katalog va ma'lumotlar bazasini



yaratish; onlayn xizmatlar ko'rsatish; tadqiqot va ta'lim sohalari bilan integratsiyalashuvni ta'minlash; multimedia va raqamli kontentdan foydalanish; kasbiy rivojlanishga ko'maklashish kabi vazifalarni qamrab oladi. Kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, Innovatsion texnologiyalar kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va foydalanuvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda quyidagi texnologiyalar keng qo'llanilmoqda:

a) elektron kataloglar va ma'lumotlar bazasi; kitob fondini raqamlashtirish va elektron katalog yaratish foydalanuvchilarga masofadan turib kerakli adabiyotni izlash imkonini beradi. Z39.50, MARC, OPAC kabi xalqaro formatlardan foydalanish tizimli va standartlashgan ishni ta'minlaydi.

b) QR-kod va NFC texnologiyalari; QR-kodlar orqali kitoblar, ma'lumotlar va elektron xizmatlarga tezkor kirish imkoni yaratiladi. Shuningdek, NFC texnologiyasi yordamida kitoblarni avtomatik qayd etish va qaytarish imkoniyati paydo bo'lmoqda.

v) virtual va qo'shilgan reallik (VR/AR); ayrim zamonaviy kutubxonalar ta'limiy vizual materiallar va interaktiv kitoblar orqali foydalanuvchi tajribasini boyitish maqsadida VR

va AR texnologiyalarini qo'llashni boshlagan.

Kutubxonachilik sohasidagi xizmatlarni raqamlashtirish kutubxonalarni yangi bosqichga olib chiqadi: elektron kutubxonalar (e-library) tashkil etish; onlayn ro'yxatdan o'tish va kitob buyurtmasi; webinar, onlayn darslar va seminarlar o'tkazish; elektron to'lov tizimlari orqali xizmat ko'rsatish. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti kutubxonasi kabi muassasalarda bunday xizmatlar keng joriy etilgan.

Kutubxona xodimlarining kasbiy rivojlanishi.

Kutubxona xodimlarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi ularning kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Xodimlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- ✓ axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimga ega bo'lishi;
- ✓ yangiliklarga ochiq va faol bo'lishi;
- ✓ tizimli tadqiqot ishlarida ishtirok etishi;
- ✓ xalqaro tajribani o'rganishi va amaliyotga joriy etishi zarur.

Dunyodagi yirik kutubxonalar – Britan kutubxonasi, Kongress kutubxonasi, Finlyandiya Milliy kutubxonasi innovatsion yondashuvlari bilan tanilgan. Ularda axborotning aniqligi, yuqori xizmat sifati va intellektual muhitni yaratish

ustuvor ahamiyatga ega. O'zbekistonda so'nggi yillarda "Kutubxonachilik to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, kutubxona fondini raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda, yangi formatdagi axborot-resurs markazlari tashkil etilmoqda. Ayniqsa, Prezident asarlari elektron kutubxonasi, Ziyonet portal, Kutubxona.uz platformasi kabi loyihalar innovatsion faoliyatning amaliy namunalaridir.

Kutubxonalarning innovatsion faoliyati — zamon talabi. Kutubxona faoliyatini raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish va foydalanuvchiga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish orqali innovatsion jamiyat barpo etish mumkin. Shu bois, kutubxonalar innovatsion markazlar sifatida rivojlanishi lozim.

Innovatsion loyiha nima? Innovatsion loyiha — bu kutubxona faoliyatida yangi g'oyalar, texnologiyalar, xizmatlar va usullarni joriy etishga qaratilgan tashabbuslardir. Ularning maqsadi — kutubxona faoliyatini zamon talablariga mos ravishda yangilash va jamiyatga xizmat qilish darajasini oshirish. Loyihani ishlab chiqish — bu innovatsiyani amalga oshirish uchun eng maqbul texnologiyaga erishish uchun yechimlarni topish jarayoni. Innovatsion dizayn turli xil variantlarni qiyosiy tahlilini o'z ichiga oladi.

Kutubxonada joriy etish uchun eng muhim yangilik, tanlov amaliyot va resurslarning mavjudligi nuqtayi nazaridan optimal variant dizayn obyektiga aylanadi va loyiha mualliflari maqsadlarni aniqlaydilar, yangilikni amalga oshirish rejasini ishlab chiqadilar, uni amalga oshirishdan kerakli natijani tasvirlaydilar hamda innovatsion jarayonni tashkil etish xususiyatlari haqida o'ylaydilar.

Bu o'rinda loyiha ijrochilarini tanlash ham jiddiy masaladir. Innovatsion loyiha kutubxona amaliyotining ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Innovatsion loyihalar muammolari ro'yxati kutubxonaning tashqi va ichki muhiti sharoitiga bog'liq bo'lib, sotsiologik tadqiqotlar, monitoring, so'rov, kuzatuvlar, kutubxona hujjatlarini tahlil qilish va boshqalarni hisobga olgan holda tuziladi.

Hozirgi kunda kutubxonalarning innovatsion faoliyati har xil va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqishni, axborot mahsulotlari va xizmatlari, kutubxona va bibliografik faoliyatning barcha sohalarini modernizatsiya qilish (sotib olish, kutubxona bibliografik xiz-

matlari, kutubxona maydonini tashkil etish, o'qishni qo'llab-quvvatlash)ni o'z ichiga oladi. Innovatsion loyihaning mazmuni — bu tizim resurslar, kutubxonaning ustuvor yo'nalishlari jihatidan aniq maqsadlarga erishishda vaqt va faoliyatni bajaruvchilar o'zaro bog'liqdir. Innovatsion loyihaning maqsadi — rejalashtirilgan innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilarini birlashtirish, innovatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatdagi barcha ishlar majmuasidir. Innovatsion loyihada ilmiy asoslangan texnik, iqtisodiy va texnologik yechimlar ko'rsatilgan. Jarayon sifatida innovatsion dizayn natijasini rejalashtirish — bu biz innovatsion deb ataydigan hujjat ya'ni loyihadir.

Loyihalarni amalga oshirish vaqtiga ko'ra ular quyidagilarga ajratiladi:

a) uzoq muddatli (uch yildan ortiq muddatga hisoblab chiqilgan);

b) o'rta muddatli (bir yildan uch yilgacha bo'lgan muddatga hisoblangan);

v) qisqa muddatli loyihalar (bir yildan kam muddat davomida amalga oshiriladi).

Loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish darajasiga ko'ra, davlatlararo, xalqaro, milliy, mintaqalararo va mintaqaviy, tarmoqlararo, korporativ va mahalliy loyihalarga bo'linadi. Har bir innovatsion loyiha o'z turiga qarab, uni ishlab chiqish jarayoni muvofiqlik va maqsadga yo'naltirilganlik, to'liqlik va izchillik, ko'p o'zgaruvchanlik va muvozanatlilik tamoyillariga asoslangan bo'lishi lozim.

Muvofiqlik va selektivlik (ixtisoslashgan) prinsipi loyihalarni ma'lum bir vazirlik, masalan: madaniyat, ta'lim va boshqa vazirliklar kutubxonalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini anglatadi. Bu izchillik ijtimoiy-madaniy sohadagi innovatsion dizayn va federal, mintaqaviy innovatsion dasturlarning uzluksizligini, kutubxona missiyasi va strategiyasiga muvofiqligini ta'minlashga imkon beradi.

Loyihalarning maqsadli yo'nalishi prinsipi innovatsion jarayonning zarurligini keltirib chiqargan muammoli vaziyatni hal qilish bilan ma'lum bir innovatsiyaning maqsadlari o'rtasida bog'liqlik o'rnatishni o'z ichiga oladi. Kutubxona faoliyatining mavjud va normal holati o'rtasidagi tafovutni qisman yoki to'liq qoplashga qaratilgan loyiha hisoblanadi.

Loyihaning to'liqligi va izchilligi prinsipi rejalashtirilgan tadbirlarning butun spektrini va innovatsiyaning aspektlarini tavsiflashni o'z

ichiga oladi. Innovatsion loyiha boshqaruv qarorlarini tavsiflovchi loyiha elementlari yangilikka bo'lgan ehtiyojni oqlashdan joriy qilingan yangilikning samaradorligini tahlil qilishdan oldin buyurtma qilingan to'plamni ya'ni butun innovatsion jarayonni o'z ichiga olishi kerak. Keyingi innovatsion jarayonning har bir bosqichining ya'ni innovatsion faoliyat obyektining yangi holatga o'tishining ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligi kabi jarayonni o'z ichiga oladi.

Innovatsion loyihalarning mazmunini tadqiqot va ishlanmalar, ilmiy-texnik va madaniy siyosat, madaniyat muassasalarining yetakchi faoliyati va ta'lim, xalqaro hamkorlik dasturlarining mavzusi, hukumat va jamoat tuzilmalari dasturlari bilan tuzilgan ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklarni, davlat organlarining ichki siyosatining prognozlari va maqsadlarini, xalqaro majburiyatlarni hisobga olgan holda mintaqaviy ustuvorliklar bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi 2011-yil, 13-aprel. №-280 qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Innovasion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son Qonuni, Xalq so'zi, 2020-yil, 25-iyul.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – 440 b.
4. O'zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent, 1998.
5. Jumaboyev Y. O'zbekistonda falsafiy va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.

Туйчи БАЙТУРАЕВ,

Доцент кафедры «Информационная деятельность библиотек» ГИИКУз,
кандидат педагогических наук

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ БИБЛИОГРАФИРОВАНИЯ ИЗДАНИЙ ПО РАЗВИТИЮ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье изучается деятельность учёного историка доктора исторических наук, профессора Г.Н. Чаброва, составившего текущую библиографию статей по истории искусства и культуры Узбекистана. Также в статье анализируются методы поиска, отбора и размещения литературы в библиографическом указателе. Раскрывается научная и воспитательная значимость текущей библиографии по развитию культуры и искусства Узбекистана.

Ключевые слова: публикации, виды искусства, цель, библиография, статья, систематизация.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistoning san'ati, madaniyati tarixiga oid maqolalarining kundalik bibliografiyasini tuzgan tarixchi olim tarix fanlari doktori, professor G.N. Chabrovning faoliyatiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada bibliografik qo'llanmani tuzishdagi adabiyotlarni qidirish, tanlash va qo'llanmada joylashtirish bo'yicha olib borilgan uslubiyatlari tahlil qilinadi. Kundalik bibliografiyaning ilmiy, tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: nashrlar, san'at turlari, maqsad, bibliografiya, maqola, tizimlashtirish.

Abstract. The article studies the activities of the historian, Doctor of Historical Sciences, Professor G.N. Chabrova, who compiled the current bibliography of articles on the history of art and culture of Uzbekistan. The article also analyzes the methods of searching, selecting, and organizing literature in the bibliographic index. The scientific and educational significance of the current bibliography on the development of culture and art of Uzbekistan is revealed.

Keywords: publications, types of art, purpose, bibliography, article, systematization.

Одним из современных ученых Узбекистана, внесших большой вклад в создание и развитие текущей библиографии в Узбекистане по изданиям в которых изучались развитие искусства, культуры, образования, науки является доктор исторических наук, профессор Г.Н. Чабров (1904-1984). Г.Н. Чабров – историк-архивист, книговед, искусствовед, ученый и педагог, самоотверженный человек, на протяжении всей своей жизни занимающийся изучением многих аспектов истории развития среднеазиатской культуры, искусства, книгоиздания, библиотечного дела, библиографической деятельности.

В 1940 году, работая преподавателем в одном из высших учебных заведений Ташкента, он начал собирать газетные статьи по изобра-

зительному искусству, созданному в Средней Азии или по содержанию, связанному с этим регионом. В 1942 году его забрали на ВОВ, и после возвращения с фронта он продолжал составлять библиографию литературы по истории всех видов искусства Узбекистана, опубликованную в местных периодических изданиях в 1940-1951 годах. Старался собирать все статьи по развитию нашей культуры и искусства. К какому читателю он адресовал свой текущий указатель определить очень сложно: вероятно он смотрел дальше нас, и научные исследователи смогут изучать эти издания. Эта текущая библиография предназначена для предоставления полной библиографии научных и научно-популярных статей о деятельности научных и образова-

тельных учреждений, а также учреждений культуры Узбекистана. В этот период вышло много научных и популярных статей, были изданы публикации о деятельности представителей науки, культуры и искусства Узбекистана. Вместо того чтобы дать библиографическое описание на издании, как это делал

В.И. Межов, он также собирал статьи в альбомы. Определяя читательскую аудиторию библиографического указателя, можно предположить, что он предназначен как для широкого круга читателей так и для научных исследователей, специалистов, а также студентов, магистрантов и докторантов соответствующих специальностей высших учебных заведений Узбекистана. Постоянный отбор статей по содержанию, опубликованных в четырех республиканских газетах: «Правда Востока», «Ташкентская правда», «Комсомолец Узбекистана», «Вечерний Ташкент», является основанием для включения их в текущую научно-вспомогательную библиографию. Если бы вести такую библиографию по статьям областных и районных газет то можно было бы получить много материала о развитии и современном состоянии искусства и культуры определённой местности. И можно было бы определить их влияние на мировоззрение и сознание подрастающего поколения а также на изменение сознания в направлении современного развития.

Со временем отбор литературы, их систематизация по содержанию усложнялись, а затем постепенно дополнялись и обогащались. Тематика ежедневного библиографического указателя постепенно стала расширяться, публикации по теме стали полностью отбираться для библиографии. Основными темами для этой библиографии являются:

- *Академия наук Узбекистана и ее научно исследовательские институты, такие как Институт востоковедения, а также становление и развитие институтов географии, археологии и истории;*

- *полностью собраны публикации по видам искусств Узбекистана – театральному, музыкальному, исполнительскому, народному устному и прикладному творчеству, а также по искусству страны, архитектуре и художественным увлечениям;*

- *поиск литературы, включенной в библиографический справочник, в основном проводился самим автором в издательствах*

того времени;

- *литература, включенная в пособие, представлена на русском и узбекском языках;*

- *в пособии материалы расположены в хронологическом порядке, то есть по дате публикации статьи;*

Можно определить, что читателями пособия будут в основном специалисты. Также его читательская аудитория может быть расширена за счет различных интересов.

Профессор Г.Н.Чабров всю жизнь занимался библиографией изданий по культуре и искусству Узбекистана. В зрелые годы жизни Г.Н.Чабров отбирал литературу из местной прессы по этим направлениям. Название данного указателя – «Летопись культурной жизни Узбекистана». В настоящее время 77 томов этого указателя содержат сборник газетных статей на эту тему. Каждый том содержит два субиндекса, авторов статей и докладов, а также систематическую библиографию.

Уникальные краеведческие материалы под названием «Летопись культурной жизни Узбекистана». Это имеет большое значение в различных текущих исследовательских работах, составляющих краеведческие и тематические показатели. Потому что эту методологию библиографии могут использовать научные и универсальные библиотеки Узбекистана.

Этот указатель является уникальным путеводителем по истории культуры Узбекистана. Также библиографический список позволяет каждому пользователю найти материалы, связанные с деятельностью отдельных актеров, статьи об их творчестве и критические материалы, связанные с их выступлениями. В этот период в Узбекистане появились такие актеры, как Абдор Хидоят, Сара Ишантораева, Шукур Бурханов, Розик Хамроев, Олим Ходжаев, Шукур Бурханов, Наби Рахимов. Также выросли многие актеры, такие как Рахим Пирмухамедов, Лутуфханым Саримсокова, Саиб Ходжае, Бахтиёр Ихтиёров известные благодаря искусству кино. О них было написано очень много интересных статей которые библиографировал Г.Н. Чабров. В этом указателе мы можем найти много интересных статей об их деятельности. В то время также было опубликовано много интересных статей об исполнителях песен и музыкантов, завоевавших внимание нашего на-

рода, таких как Батыр Закиров, Комилжон Отаниёзов, Саодот Габулова, Мухабат Шамаева, прославившихся на эстраде своими эстрадными песнями, а также других представителей национального и поп-жанров.

Также в этой библиографии специалисты могут найти множество материалов о художниках и скульпторах, живших и творивших в Узбекистане в разные периоды своей жизни. Также в этом библиографическом указателе читатели могут найти материалы, связанные с историей театров и музейных организаций Узбекистана.

Также читатели и специалисты смогут получить из этого указателя много материалов для своего исследования, связанных с историей и деятельностью учебных заведений региона, подготовкой кадров, научными направлениями этих вузов и научных организаций. Эти газетные материалы являются уникальным архивным материалом по истории культурного развития Узбекистана в середине XX века. Г.Н. Чабров уделяет особое внимание полноте информации по теме в этой библиографии.

Доктор исторических наук профессор Г.Н. Чабров в течение многих лет читал интересные, научно-обоснованные лекции по истории, искусствоведению, книговедению в высших учебных заведениях, таких как ТашГУ, ТГПИ, ТашГИК. Большую роль в изучении среднеазиатской и узбекской печатной книги того времени, должно быть, сыграл Ташкентский государственный педагогический институт имени Низами. В его работах изучалось художественное оформление среднеазиатской книги, подчеркивалась близость литографических книг к рукописной книжной традиции.

Он также изучал историю среднеазиатских библиотек 14 века. В этот период легендарные библиотеки, собранные Темуrom и его потомками, хранились во дворцах правителей, и в фондах этих библиотек были книги на сирийском, халдейском, греческом, латинском, грузинском и армянском языках. Знаменитую библиотеку украшало наличие огромной книги Корана, написанной рукой халифа Усмана. То, что книгу привез Амир Темур, изучали специалисты.

В своей библиографии Г. Н. Чабров дал интересные материалы о городских библиотеках, с его стороны хорошо проявилось то, что

эти библиотеки постоянно пополнялись рукописями. Потому что в этот период каллиграфы работали в библиотеках и копировали с книг, а автор занимался поиском литературы, что свидетельствует о том, что их количество и имена увеличивались.

Г.Н. Чабров глубоко проанализировал хорезмские, коканские и ташкентские литографии в своих очерках по истории дореволюционных рукописных книг. По его мнению, этим литографским предприятиям нужны высококвалифицированные корректоры и типографы, которых в странах Востока было чрезвычайно трудно обучить. Литографический способ печати давал значительные преимущества перед типографским: не нужно было приобретать сложные и дорогие шрифты, не нужны пишущие машинки и корректоры, не тратятся на них деньги. Ученый проанализировал в своих публикациях, что литографические печатные машины гораздо проще, и работа на них легко осваивалась восточными мастерами как исследователем литографической печати в нашей стране. Он считал, что мастера литографии, основанные на традиции рукописной книги, находились под влиянием печатного станка. Произведения классической восточной поэзии доступны публике благодаря своей дешевизне, дорогие кожаные переплеты заменяют картонные, а затем и бумажные.

Профессор Г.Н. Чабров с открытием в 1974 году Ташкентского государственного института культуры возглавил кафедру «История Узбекистана» и читал спецкурс «Книжная история дореволюционной Средней Азии» на кафедре «Библиография», смог выработать интерес студентов выпускного курса к профильным предметам. То что он очень интересно и понятно вел этот курс можно определить по тому, насколько успешно студенты защитили свои научные работы по этим темам.

Его исследования, основанные на архивных данных, сведениях туркестанской печати и научной литературе, выражены в серии статей, опубликованных в ташкентских журналах, ставших библиографическими редкими изданиями. В период с 1948 по 1984 г. Г.Н. Чабров посвятил истории книгоиздания 20 работ в виде статей, кратких сообщений, тезисов и выступлений на научных конференциях. Очень близка к этой теме его ста-

тя «Влияние передовой русской интеллигенции дореволюционного Туркестана и передовой русской культуры на коренное население Средней Азии».

Профессор Г. Н. Чабров составил 77 томов сборника до последних лет своей жизни. По его словам, в справочник вошли статьи из 4 местных газет: «Правда Востока», «Ташкентская правда», «Комсомолец Узбекистана», «Вечерний Ташкент». Каждый том имеет два субиндекса, в которых перечислены имена авторов статей и сообщений, а также перечень тем, что облегчает использование библиографического списка. Г.Н.Чабров отличался неповторимым интересом к коллекциям, выставок или изданий, раскрывающих эпоху. Ему удалось включить издания по раз-

витию искусства Средней Азии в круг актуальных научных интересов, призвать ученых к активному вниманию к художественным сокровищам края, сохранить деятельность ярких представителей нашего искусства. Изучение огромного пласта практически неизвестного, редкого материала породило многолетние научные споры, имеющие общественный резонанс, что в свою очередь может стимулировать дальнейшие научные исследования по теме. Кроме того, объявления в библиографических справочниках для наших начинающих художников будут стимулировать их любопытство, прививать им возможность успеха в приготовлении коктейлей, подобных им, и воспитывать в них верность своему искусству.

Использованная литература:

1. Байтураев Т.Д. Библиографическая деятельность доктора исторических наук Г.Н. Чаброва // Рмянцовские чтения 2022. – Материалы Международной научно-практической конференции (19–21 апреля 2022) Часть 1. – Москва: Пешков дом, 2022. – с. 56-61.
2. Байтураев Т.Д. Основатель текущей библиографии по истории Средней Азии и Узбекистана // Культура: теория и практика.2020. – №6. – с. 62-66.
3. Аракелов, С. Р. Историография становления библиографического дела в Узбекистане (конец XIX — середина XX в.) // Молодой ученый. — 2016. — № 29 (133). – с. 298-301.
4. Кормилицын А. И. Библиотековеды и библиографы Узбекистана: очерки и воспоминания – Ташкент: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана, 2005. – с. 291.

Muborak XAKIMOVA,
O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Raqobat va hamkorlik: INTERNET VA KUTUBXONALAR

Annotatsiya. Ilmiy maqolada, elektron kutubxona an'anaviy kutubxonaga raqobatchi emas, balki bu kutubxona-bibliografik va axborot xizmatlarida yangi hodisa ekanligi, eng ilg'or elektron kutubxonalarning asosiy afzalligi axborotning joylashuvi va uning iste'molchilaridan qat'iy nazar, elektron axborot tizimlari butun dunyo ma'lumotlari iste'molchilarining dunyo aholisi uchun universal mavjudligini taklif qilib, elektron kutubxona axborotlashgan jamiyatda kutubxona mavjudligining nisbatan mustaqil, istiqbolli shakli bo'lib, u an'anaviy va noan'anaviy kutubxona funksiyalarini prinsipial yangi texnik va texnologik asosda, shu jumladan, yangi ma'lumotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan yaxlit ijtimoiy-texnik majmua ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlari: elektron kutubxona, axborotlashgan jamiyat, an'anaviy kutubxona, noan'anaviy kutubxona, raqamli kutubxona, telekommunikatsiya, axborot resurslari, "axborot hamma uchun", integratsiyalashuv.

Аннотация. В научной статье подчеркивается, что электронная библиотека не является конкурентом традиционной библиотеки, а представляет собой новое явление в библиотечно-библиографическом и информационном обслуживании, что главное преимущество наиболее современных электронных библиотек состоит в том, что электронные информационные системы обеспечивают всеобщую доступность для населения мира, независимо от местонахождения информации и ее потребителей, что электронная библиотека является относительно самостоятельной, перспективной формой существования библиотеки в информационном обществе, что она представляет собой целостный социально-технический комплекс, объединяющий традиционные и нетрадиционные библиотечные функции на принципиально новой технической и технологической основе, в том числе с использованием новой информации.

Ключевые слова: электронная библиотека, информационное общество, традиционная библиотека, нетрадиционная библиотека, цифровая библиотека, телекоммуникации, информационные ресурсы, «информация для всех», интеграция.

Abstract. This scientific article emphasizes that the electronic library is not a competitor to the traditional library but represents a new phenomenon in library, bibliographic, and information services. The main advantage of the most advanced electronic libraries is that, regardless of the location of information and its users, electronic information systems provide universal access to information consumers worldwide. The electronic library is a relatively independent and promising form of library existence in the information society. It represents an integrated socio-technical complex that combines traditional and non-traditional library functions based on fundamentally new technical and technological foundations, including the use of innovative information resources.

Keywords: Electronic library, information society, traditional library, non-traditional library, digital library, telecommunications, information resources, "information for all", integration.

Elektron kutubxona an'anaviy kutubxonaga raqobatchi emas, balki bu kutubxona-bibliografik va axborot xizmatlarida yangi hodsadir. Mutaxassislar ko'p hollarda raqamli kutubxonalarni zamonaviy sharoitlarda an'anaviy kutubxona funksiyalarini amalga oshirishning ko'proq (ba'zi hollarda muvaffaqiyatliroq, boshqalarida kamroq muvaffaqiyatli) shakli sifatida ko'rib chiqishga moyildirlar. Ya'ni, funksional jihatdan yangi texnik va texnologik asosda, jumladan: kompyuterlar va boshqa texnik vositalar, turli xil dasturiy ta'minot, matematik, lingvistik ta'minot, telekommunikatsiya, tarmoq hisoblashlari, axborot resurslari va boshqalar sifatida o'rganish zarur deb hisoblaydilar.

«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi va boshqa hukumat hujjatlaridan kelib chiqadigan Yangi O'zbekistonni axborotlashgan jamiyatga aylantirish vazifasi uni amalga oshirishga hissa qo'shadigan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning barcha yutuqlaridan maksimal darajada foydalanishni talab qiladi.

Har qanday, ayniqsa, axborot jamiyatining asosi turli xil axborot resurslarining mavjudligi va jamiyatning keng qatlamlarining ulardan erkin foydalanish qobiliyatidir. Kutubxonalar ming yillar davomida axborotdan foydalanuvchilarning turli toifalariga axborot xizmatlari ko'rsatuvchi muassasa bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Insoniyat jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridan biri bu elektron kutubxonalar bo'lib, ular dunyoda, shu jumladan O'zbekistonda tobora keng tarqalmoqda. Chunki, "Hozirgi davrimiz dunyoning yetakchi mamlakatlari "To'rtinchi sanoat inqilobi", "Aqlli iqtisodiyot", "Innovatsion iqtisodiyot" ga o'tayotganligi bilan xarakterlanadi" [1, 183-b].

Eng ilg'or elektron kutubxonalar an'anaviy kutubxonalardan sezilarli afzalliklarga ega.

Birinchidan, asosiy afzallik, axborotning joylashuvi va uning iste'molchilaridan qat'iy nazar, barcha manfaatdor foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarga ommaviy kirish tamoyilini to'liq amalga oshirishning potensial qobiliyatidadir. Bu borada "Axborot hamma uchun" degan iborani asosiy omil deb hisoblash muhim.

Ikkinchidan, elektron axborot tizimlari butun dunyo ma'lumotlari iste'molchilarining butun dunyo aholisi uchun universal mavjudligini taklif qilib, jamoatchilikka ochiqlik tamoyilini tushunishni tubdan kengaytirish imkonini beradi. Boshqa afzalliklarga quyidagilar kiradi: Kutubxona xizmatlari sifatining sezilarli darajada oshishi, kutubxona binolariga bo'lgan

ehtiyojning kamayishi, tun-u kun ishlashi, xizmat ko'rsatishning yuqori samaradorligi, shu jumladan, elektron hujjat yetkazib berish orqali, kutubxonaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, xarakter, mazmun, kutubxona xodimlarining mehnat sharoitlari va boshqalar singari afzalliklari ham mavjuddir. Albatta, bu xususiyatlarning barchasi butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham zamonaviy va texnik shart-sharoitlari mavjud.

Ishonch bilan aytish mumkinki, elektron kutubxonalar axborot jamiyatida kutubxona mavjudligining funksional yangi, istiqbolli shakli bo'lib, uning asosiy maqsadi kutubxona xizmatini yaxshilashdir. XXI asrda ular jahon kutubxonachiligi va barcha axborot faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishiga aylanadi, kutubxonalarni barcha axborot faoliyatini amalga oshirishga yaqinlashtiradi.

Shu bilan birga, elektron kutubxonaning mutlaqo aniq afzalliklariga qaramay, kutubxonachilik nazariyasi va amaliyoti uning yutuqlarini o'zlashtirishda orqada qolmoqda. Bu hodisa barcha mamlakatlar uchun xosdir. O'zbekiston ham kutubxona-axborot faoliyatini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan chetda emas, shuning uchun xam kutubxona-axborot faoliyatiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilmoqda.

Lekin ushbu sohada fundamental nazariy ishlanmalar mavjud emas. Elektron kutubxonaning muhim xususiyatlari, uning an'anaviy kutubxona bilan aloqasi, axborot resurslari, kutubxona xizmatini yaxshilashdagi o'rni, axborot salohiyatidan foydalanish metodologiyasi, gumanitar, huquqiy va boshqa muhim jihatlari yetarlicha o'rganilmagan. Atamalar borasida emas ayrim mutaxassislar uchun bu elektron kutubxona, boshqalar uchun raqamli, ba'zilar uchun virtual, kimlardir uchun gibrid bo'lsa, boshqa tushunchalar ham mavjud.

Elektron kutubxona kitoblarining mohiyatini o'rganishdagi nazariy kechikish kutubxona amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, elektron axborot tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lamiga na mavjud ehtiyojlarga, na mavjud imkoniyatlarga mos kelmasligida ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va boshqa ba'zi mamlakatlar tomonidan erishilgan darajadan hali ham uzoqdir.

Qayd etilgan kechikish kutubxona-axborot faoliyati doirasidan ancha oshib ketadi. Hech

shubha yo'qki, XXI asrda insoniyat jamiyati nihoyat axborot makoniga aylanadi. Axborot omilidan eng to'liq va samarali foydalanadigan davlatlar bunda muvaffaqiyat qozonadi. Elektron kutubxonalar bunday jamiyat imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning prinsipial muhim vositasidir.

Chunki "innovatsiyalar moddiy, raqamli, hamda biologik dunyodagi texnologiyalar birlashuvida bir-birini kuchaytirishi va jadallashtirilishi natijasida rivojlanishning burilishi nuqtasiga shiddat bilan yaqinlashib bormoqda" [2, 10-b].

Elektron kutubxonani axborotlashga jamiyatda kutubxona mavjudligining shakli sifatida tadqiq etishning nazariy-amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. *Elektron kutubxonalar bilan bog'liq eng muhim zamonaviy mahalliy va xorijiy nazariy axborot manbalarining asosiy mazmunini umumlashtirishga imkoniyat yaratadi.*

2. *An'anaviy mahalliy kutubxonalarni elektron kutubxonaga aylantirish uchun nazariy shart-sharoitlar yaratadi.*

3. *Ular kutubxonalarning kengroq sinfi, jumladan kutubxona kitoblari bilan keyingi kutubxona tadqiqotlarida ishlash imkonini beradi.*

4. *Kutubxona qurilishining maqsadlarini belgilashga yangi yo'riqnomalarni kiritish, natijalarini aprobat siya qilishga yordam beradi.*

XXI asr kutubxonalariga borgan sari murakkab vazifalar qo'yilmoqda, ularni hal qilish nafaqat ish usullarini, balki ularning mavjudligini ham tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Axborot texnologiyalarining tez o'zgaruvchanligi kutubxona ishining deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatib, kutubxonachilarni ilmiy ma'lumotlar, dasturiy ta'minot va texnik vositalarni joriy etishga, o'zlari yaratishga va deyarli har qanday axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan kutubxona-bibliografik va axborot muammolarini hal qilish uchun kutubxonalarga turli elektron nashr resurslarini kiritishga undaydi.

"Bu holat bugungi kunda hududiy va boshqa subyektlarda o'zaro hamkorlik qilayotgan, pirovardida – Yagona elektron axborot muhitini yaratishga xizmat qiluvchi axborot makonini tashkil etuvchi elektron axborot tizimlarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi [4,122-b]. Raqamli kutubxonalar faoliyati kutubxona-axborot xizmatlarini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ular oldinga siljish va istiqbollar bilan bog'liqdir.

Elektron tizim ichki va tashqi bog'lanishlarga ega bo'lgan quyi tizimlar, tarkibiy qismlar va elementlardan tashkil topgan murakkab, kam

o'rganilgan tizim. Uning mohiyati elektron tizimning maqsadi, yaratilishi va faoliyatining vazifalari, funksiyalari, mazmuni va tuzilishini nazarda tutadi. Elektron kutubxonani yaratishdan asosiy maqsad zamonaviy dasturiy-texnik vositalar va ilmiy axborotlardan samarali foydalanish orqali foydalanuvchilar uchun axborot xizmatlari sifatini oshirish, sayyoramiz foydalanuvchilarining keng doirasi foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslari va xizmatlar sonini kengaytirishdan iborat.

Elektron kutubxona yangi texnik va texnologik asosga asoslangan, ilmiy va texnologik ma'lumotlar, kompyuterlar, dasturiy ta'minot, matematik, lingvistik, apparat, telekommunikatsiya, tarmoq resurslari va boshqalarni o'z ichiga olgan an'anaviy va noan'anaviy narsalarni amalga oshiradigan integral, ko'p funksiyali kompleks ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga, aksariyat hollarda elektron xavfsizlik an'anaviylikni yangi xizmatlar turlari bilan to'ldiradi (elektron buyurtma berish va hujjatlarni yetkazib berish, kechiktirilgan (oflayn) va darhol (onlayn) ish rejimlari va boshqalar) tarmoq axborot resurslaridan foydalanish hisobiga uning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, vaqt va geografik omillarga bog'liqlikni to'liq bartaraf etish, foydalanuvchilarga kutubxona-bibliografik va axborot xizmatlari ko'rsatishning boshqa sifat parametrlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli elektronika tarkibida ikkita asosiy komponent aniqlangan:

a) *ularning dasturiy va apparat vositalari va tizimlarining tarkibi;*

b) *raqamli kutubxonani foydalanuvchilarga turli axborot xizmatlari va mahsulotlarini taqdim etuvchi axborot resurslari bilan to'ldirishdan iboratdir.*

Raqamli kutubxona tuzilmasining asoslari dasturiy-texnik va kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish bosqichlariga qo'yiladi va an'anaviy kutubxonalarga raqamli kutubxona texnologiyalarini joriy etish bilan yanada rivojlantiriladi.

Dasturiy-texnik vositalar va elektron axborot tizimlarining tarkibi ushbu tadqiqotda mashinada o'qiladigan asl nusxalar va hujjatlarning nusxalari to'plami sifatida ko'rib chiqiladi: sayt va uning yaratuvchilari haqidagi ma'lumotlar; ma'lumotnoma materiallari; elektron ma'lumotlar bazalari va kataloglari; hujjatlar, grafik, audio va boshqa multimedia materiallarining to'liq matnli mashina o'qishi mumkin bo'lgan to'plamlari.

Raqamli elektron tizimlarning o'zaro aloqasi

sxemalari Internet, Intranet texnologiyalarini hisobga olgan holda individual, mahalliy, korporativ va global elektron raqamli tizimlarning prototiplarini aks ettiruvchi sxemalar ishlab chiqildi, bu raqamli elektronlarning o'zaro ta'sirini tashkil etish muammolarini hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Elektron kutubxonalardagi axborot resurslarining turlari an'anaviy kutubxonalarda qo'llanilayotganidan farq qilmaydi va informatika fanida umumiy qabul qilingan axborot turlariga taalluqliligi aniqlandi. Shu bilan birga, elektron ma'lumotlar uchun eng muhimi: to'liqligi, ishonchliligi va aniqligi, xavfsizligi va saqlanishi, shuningdek, elektron ma'lumotlarning istalgan vaqtda foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlashdir.

Elektron kutubxonada elektron nashr resurslari mazmuni ko'p qirrali ekanligidan tashqari, ular o'zlarida va global Internetdagi boshqa serverlarda joylashgan elektron hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Nashr resurslari raqamli kutubxonalar mazmunining o'ziga xos xususiyati foydalanuvchilar tomonidan ularning ehtiyojlariga javob beradigan tegishli ma'lumotlarni olishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish zaruratidir. Aksariyat mutaxassislar ushbu maqsadda to'g'ridan-to'g'ri tegishli elektron nashr resursiga kiritilgan metama'lumotlardan foydaladilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki:

- birinchidan, elektron kutubxona axborotlashgan jamiyatda kutubxona mavjudligining nisbatan mustaqil, istiqbolli shakli bo'lib, u

an'anaviy va noan'anaviy kutubxona funksiyalarini prinsipial yangi texnik va texnologik asosda, shu jumladan, yangi ma'lumotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan yaxlit ijtimoiy-texnik majmuadir. O'z tarkibiga texnologiyalar, kompyuterlar va periferik qurilmalar; dasturiy ta'minot, matematik, lingvistik yordam, telekommunikatsiya, tarmoq axborot resurslarini birlashtirgan;

- ikkinchidan, elektron kutubxona foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning prinsipial yangi shakli bo'lib, an'anaviy kutubxona kabi, u yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, kitobxonlar, kutubxona va boshqa xodimlar, ma'lumotlar majmuasi, moddiy-texnika bazasi va boshqa atributlarni o'z ichiga oladi. Binobarin, kutubxonachilikning yanada rivojlanishi an'anaviy va elektron kutubxonalarning birgalikdagi evolyusiyasi, yonma-yon yashashi, o'zaro ta'siri, bir-birini to'ldiruvchiligi, uzviy qo'shilishi, ularni muvofiqlashtirishi, hamkorligi, mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'lidan boradi;

- uchinchidan, elektron kutubxonaning ulkan axborot salohiyatidan unumli foydalanish nafaqat texnik va texnologik, balki ijtimoiy, psixologik va pedagogik muammolarni ham hal etishga bog'liq. Shu ma'noda tijoratlashtirish, axborotning ommaga ochiqligini ta'minlash, kutubxona xodimlarini yangi texnik sharoitlarda ishlashga tayyorlash, kitobxonlarning axborot madaniyatini oshirish, ularga xizmat ko'rsatishni tashkil etishning maqbul shakllarini ijtimoiy jihatdan oqilona hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiya to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 440 b.
3. Shvot Klaus. To'rtinchi sanoat inqilobi. – Toshkent: Nihol, 2022. – 248 b.
4. Нохрин Юрий Владимирович. «Электронная библиотека как форма битования библиотек в информационном обществе». – Россия, 2022. – 200 с.
5. Оленев С. М. Информационная культура на рубеже тысячелетий: преемственность и новатсии // Информационная культура личности: прошлое, настоящее, будущее. Международная научная конференция. Краснодар — Новороссийск – 11-16 сентября, 2016. – С. 52-53.
6. <https://iscience.in.ua/arkhyv/26-27-aprelya-2017/politicheskije-nayku-3/4332-information-culture-as-a-component-of-professional-competence-of-graduates-in-university-learning-environmen>
7. <https://elibrary.ru>

RAQAMLI TA'LIM MUHITINING O'QUV- USLUBIY TA'MINOTINI TASHKIL ETISHDA OBUNA BO'LISH UCHUN MA'LUMOTLAR BAZALARINI TANLASH MEZONLARI

Annotatsiya. Bugungi kunda raqamli ta'lim muhitida akademik kutubxonalarni elektron resurslar fondini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Elektron resurslar fondi nafaqat keng qamrovli ilmiy ma'lumotlarni taqdim etadi, balki interaktiv va masofaviy ta'lim jarayonini ham qo'llab-quvvatlaydi. Akademik kutubxonalarda elektron resurslar fondlarini shakllantirishda ma'lumotlar bazasini tanlash uchun bir qator muhim mezonlar mavjud. Ushbu mezonlar orasida bazaning mazmuni va qamrovini hisobga olish, ya'ni dasturlar va tadqiqotlar ehtiyojlariga mos kelishi, shuningdek, uning umumiy va maxsus fanlar bo'yicha qamrovini ko'rib chiqish kiradi. Tadqiqotni amalga oshirish uchun bir qancha metodlar o'rganildi va tahlil qilindi. Respondentlar uchun keng qamrov va qulaylikni ta'minlash maqsadida asosiy tadqiqot usuli sifatida onlayn so'rovnoma metodi tanlab olindi.

Kalit so'zlar: akademik kutubxona, elektron resurs, foydalanuvchi, obuna, kutubxona fondi, ma'lumotlar bazasi, nashryot.

Аннотация. В настоящее время формирование фонда электронных ресурсов в академических библиотеках в условиях цифровой образовательной среды приобретает особую значимость. Фонд электронных ресурсов не только предоставляет обширную научную информацию, но и поддерживает процессы интерактивного и дистанционного обучения. При формировании фонда электронных ресурсов в академических библиотеках существует ряд важных критериев для выбора баз данных. Среди этих критериев — учет содержания и охвата базы данных, соответствие потребностям учебных программ и научных исследований, а также охват общих и специализированных дисциплин. Для проведения исследования были изучены и проанализированы различные методы. В качестве основного метода исследования был выбран онлайн-опрос, обеспечивающий широкую охватность и удобство для респондентов. На основе результатов исследования были разработаны рекомендации.

Ключевые слова: академическая библиотека, электронный ресурс, пользователь, подписка, фонд библиотеки, база данных, издательство.

Abstract. Today, in the digital educational environment, forming electronic resource collections in academic libraries is of great importance. These collections not only provide comprehensive scientific information but also support interactive and distance learning processes. There are several key criteria for selecting databases when developing electronic resource collections in academic libraries. These criteria include evaluating the content and coverage of the database to ensure alignment with academic programs and research needs, as well as assessing its coverage of general and specialized disciplines. Several research methods were studied and analyzed to conduct this study. To ensure broad accessibility and convenience for respondents, the online survey method was chosen as the primary research tool. Based on the findings, recommendations were developed.

Keywords: academic library, electronic resource, user, subscription, library collection, database, publisher.

Kutubxona fondi azal azaldan resurslarni qabul qilish, tashkil etish, saqlash va foydalanuvchilar uchun ochiq holda taqdim etishning umumiy yig'indisidir. Kutubxonaning fondi ta'lim, tadqiqot, dam olish va ma'lumot berish uchun resurslarni taqdim etish orqali foydalanuvchilarning ehtiyojlariga xizmat qiladi. Kutubxona fondining qamrovi kutubxonaning turi va maqsadiga (masalan, jamoat, akademik, maxsus yoki maktab kutubxonalari) qarab keng farq qilishi mumkin, lekin u odatda turli materiallarni o'z ichiga oladi, masalan: kitoblar, davriy nashrlar, elektron manbalar, qo'lyozmalar va arxivlar, maxsus kolleksiyalar (noyob kitoblar, noyob qo'lyozmalar, artefaktlar yoki maxsus ishlov berishni talab qiladigan maxsus materiallar), hukumat hujjatlari, multimedia, xaritalar va atlaslar, tadqiqot ma'lumotlari, tezislari va dissertatsiyalar, efemer materiallar (risolalar, flayerlar, plakatlari va broshyuralar kabi qisqa muddatli yoki vaqtinchalik materiallar) [9].

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kutubxonalar axborot resurslarini qanday sotib olishi va ma'lumotlarni qanday shakllantirish usullarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Kutubxonalar zarur bo'lgan elektron resurslarni sotib olish uchun turli usullardan foydalanadilar. Biroq, L.Bennyelektron resurslarni sotib olish, obuna bo'lish yoki konsortsium orqali olish mumkinligini ta'kidlaydi [1]. U yana elektron resurslarni fondini shakllantirishda ko'pchilik kutubxonalar tomonidan eng keng tarqalgan usul – bu elektron resurslarga obuna bo'lish ekanligini qayd etadi. Xuddi shunday, F.Ifeoma va Achebe fikriga ko'ra, universitet kutubxonalarida elektron kitoblar, jurnallarga kirishni ta'minlashning eng samarali usuli internet orqali masofadan turib kirish mumkin bo'lgan onlayn ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lishini aytib o'tgan [6]. Ba'zi kutubxonalar elektron resurslarni sotib olishda ko'plab elektron resurslarni chegirmalar tufayli konsortsium orqali sotib olishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Konsortsiumlar kutubxonalar uchun mavjud elektron resurslar haqida bilishning yana bir usuli hisoblanadi.

L.Creibaum va S.Hollwayning ma'lumotlariga ko'ra, akademik kutubxonalarda elektron resurslarni shakllantirishning to'rtta usuli mavjud [3].

- **Obuna:** bu axborot resurslariga kelishilgan vaqt davomida kirish uchun litsenziya olish usulidir.

- **Sotib olish:** axborot resurslarini to'g'ridan-to'g'ri sotib olish orqali olish.

- **Konsortsium:** bu kutubxonalar resurslarni muvofiqlashtiruvchi kooperativ uyushmasi bo'lib,

ko'plab mahsulotlar konsortsium orqali sotib olinganda chegirmalarga ega bo'lishi mumkin va qayta mijozlar uchun chegirmalar mavjud bo'lishi mumkin. Taklif qilingan mahsulotning ayrim qismlariga ega bo'lgan kutubxonalar uchun narxlarni kamaytirish mumkin.

- **Ochiq kirish:** elektron resurslarga bepul va ochiq onlayn kirish. Bir qator nufuzli nashriyotlar mavjud bo'lib, ular haqiqiy va qimmatli kontentga bepul kirish imkoniyatini taqdim etadi.

Har qanday kutubxona – akademik, jamoat va maktab kutubxonalari (davlat, xususiy, charter, mustaqil va xalqaro) – kutubxona resurslarini tanlash, rad etish yoki bekor qilish va qayta ko'rib chiqishni boshqaradigan batafsil siyosatga ega bo'lishi kerak. Eng dolzarb siyosat tanlash siyosati bo'lib, muntazam ravishda ko'rib chiqiladi va yangilanadi, hamda kutubxona xodimlarining barcha a'zolariga tanish bo'ladi [4].

Axborot resurslarini tanlash, fondni ishlab chiqishning asosiy funksiyasidir va har qanday format uchun tanlov qarorining asosiy maqsadi bir xil: foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish. D.A.Cabonero va L.B.Mayrenalar o'zlarining maqolalarida tanlovni fondni shakllantirishning yuragi deb takidlashgan [2]. Tanlash – sotib olish jarayonida birinchi zarur qadamdir. Axborot materiallari bir guruh o'quvchilar uchun foydaliligini hisobga olgan holda tanlanadi. Buning sababi, kutubxonada kitobxon topadigan qoniqish miqdori bevosita kutubxonada mavjud bo'lgan resurslarga bog'liq [10]. Elektron resurslarning paydo bo'lishi natijasida fond bilan ishlovchi kutubxona mutaxassislarining ish vazifalari keskin o'zgardi.

Jurnallar sohasi tez sur'atlarda nashrlar tomonidan kontent litsenziyalash va materialni internet orqali raqamli shaklda olish tomon harakat qilayotgan bir paytda, "Nega ma'lumotlar bazalaridan foydalanish kerak?" degan savolga bir necha yil avvalgi holatlardan farqli javob talab qilinishi kerakdek tuyuladi. Kutubxonalar turli ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lish orqali o'z fondlarini shakllantirib kelmoqda, chunki bu ularga mustaqil ravishda sotib olish va saqlash o'rniga nisbatan tejamliroq hisoblanadi. Nashriyotchilar ma'lumotlar bazalariga yordam ko'rsatish orqali kutubxonalar hamjamiyatiga boshqaruv xarajatlarini kamaytirishga yordam berayotganini unutmaslik kerak, bu esa umumiy byudjetning obunalarga sarflanishi mumkin bo'lgan qismini oshirishga imkon yaratadi.

Birinchi navbatda ta'kidlash kerakki, turli axborot bazalarining kutubxonaga taqdim etadigan xizmat turi va tajribasi juda katta

farqlanishi mumkin. Ko'p ilmiy-ommabop axborot bazalari raqobatda faqat narx bilan emas, balki xizmat va qulay narxdagi xizmat ko'rsatish bilan ham o'zlarini ajratib turishni maqsad qiladi. Bu muhim jihat, chunki hayotning har qanday sohasida arzon ko'rinadigan variant uzoq muddatda eng qimmatga tushishi hech gap emas. Shuning uchun, kutubxonalarga obuna uchun turli ma'lumotlar bazalari bilan ularning jurnal va xizmatlari bo'yicha barcha talablarini batafsil muhokama qilish tavsiya etiladi, shunda ko'proq xizmatni qamrab oluvchi eng tejimli variant to'liq baholanishi mumkin bo'ladi. Quyidagi ro'yxat ma'lumotlar bazalarini tanlashda eng muhim mezonlarni ko'rsatadi. Bu to'liq ro'yxat bo'lmasa-da, faqat qo'llanma sifatida mo'ljallangan. Kutubxonalar uni tekshiruv ro'yxati sifatida qo'llab, o'zlariga xos bo'lgan va faqat kam sonli ma'lumot bazalari taqdim etishi mumkin bo'lgan mezonlarni qo'shishlari mumkin [8].

Hajm. Hajmning o'zi ma'lumotlar bazalarini tanlash uchun asosiy mezonni emas. Ammo yirik ma'lumot bazalari ko'pincha kengroq xizmatlarni taklif qiladi, misol uchun, o'lcham ya'ni keng qamrovli ma'lumotlar. Kichik saytlar esa ko'pincha yuqori darajadagi shaxsiy xizmat va ma'lum sohalarda ixtisoslashgan bilimlarni taklif qiladi. Ikkala turdagi ma'lumotlar bazalariga ham ehtiyoj bor, qaysi birini tanlash kutubxonaning talablariga bog'liq bo'ladi.

Resurslar bo'yicha tajriba. Tajriba juda muhim. Bu ma'lumot bazalari uzoq vaqtdan beri faoliyat yuritayotgan bo'lishi kerakligini anglatmaydi, lekin tajribali xodimlarga ega bo'lishi kerak. Yangi tashkil etilgan ma'lumotlar bazalari ham yaxshi bo'lishi mumkin, ammo ular reurslar sohasida tajribali xodimlarga ega ekanligiga ishonch hosil qilinishi va muammo yuzaga kelganda, muammoni hal qilishda kimga murojaat qilishni bilib olish muhim.

Kutubxonangiz turi bo'yicha tajriba. Tanlagan ma'lumot bazasi kutubxona ixtisosligidagi mijozlar bilan ishlash tajribasiga ega ekanligiga ishonch hosil qilinishi talab etiladi. Ba'zi ma'lumot bazalari, masalan, akademik kutubxonalar yoki korporativ kutubxonalar kabi muayyan turdagi kutubxonalarga ixtisoslashgan bo'ladi. Agar kutubxona katta qamrovga ega bo'lsa, faqat akademik ixtisosga ega ma'lumot bazasini tanlash kerakli xizmatni yetkazib berish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik. Tanlagan ma'lumot bazasi moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi juda muhim. Buni baholash qiyin bo'lishi mumkin va bu har doim ham ilmiy ma'lumotlar bazasi

hajmiga bog'liq emas, lekin bu ahamiyatli bo'lishi mumkin. Agar ilmiy ma'lumot bazasi bir necha yildan beri faoliyat yuritayotgan bo'lsa va doimiy biznes o'sishini ko'rsata olsa, bu moliyaviy barqarorlikning belgisi bo'lishi mumkin.

Xizmat. Ilmiy ma'lumot bazasi tanlashdan oldin, kutubxona qanday xizmat turiga ehtiyoji borligini aniqlash juda muhim. Axborot bazasi talablarni yaxshi bilishi va ularga muvofiq xizmat ko'rsatish uchun zarur tizimlarga ega bo'lishi kerak. Har doim tavsiyalar so'rash mumkin.

Tavsiyalar. Tavsiyalarni olishda kutubxona uchun muhim xizmat elementlarini aniqlab olish va aynan shu masalalarda so'rovlar qilish lozim. Umuman olganda, bu shunchaki umumiy savollar berishdan ko'ra foydaliroq bo'lishi mumkin. Ba'zan, tavsiyalar orasida ilmiy axborot bazasidan norozi ekanligini bildirganlar uchrab qolishi mumkin. Bunday holatda, ilmiy bazani nomzodlar ro'yxatidan o'chirib tashlashdan oldin, baza bilan suhbatlashish har doim foydali bo'ladi, chunki ular mijoz bilan bog'liq muammodan xabardor bo'lishi va muammolarni to'g'rilashga ijobiy munosabat bildirishlari mumkin.

Hisobotlar va hujjatlar. Eng muhim mezonlardan biri ma'lumot bazasi tomonidan taqdim etiladigan hisobot bo'lishi mumkin. Bu hisobot tushunarli, sodda va kutubxona ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak. Kutubxona o'z ishlarini ma'lumotlar bazasining hisobotlariga asoslanib to'g'ri boshqara olishini ta'minlash uchun har doim namuna hisobotlarni ko'rib chiqishi lozim.

Shaxsiy yondashuv. Ilmiy axborot bazalari va kutubxona o'rtasidagi munosabatlar, odatda, juda yaqin bo'ladi. Oxir-oqibat, bu ishonch va tushunishga asoslanadi, shuning uchun ma'lumotlar bazasini tanlashda eng muhim mezonlardan biri – kutubxona va bazaning professional asosda birgalikda ishlashdan qulaylik his qilishidir. Bu insonlar bilan bog'liq biznes bo'lib, yaxshi shaxsiy ko'nikmalarni talab qiladi.

Avtomatlashtirish. Ba'zi ma'lumot bazalari, ayniqsa yiriklari, yuqori darajada avtomatlashtirilgan yangilanishlar, da'volar va buyurtma berish jarayonlarini taklif qila oladi. Bu xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Avtomatlashtirish muntazam aloqa o'rnatishni osonlashtiradi, kutubxona va nashriyot o'rtasida ma'lumotlar xatolarni kamaytiradi. Kutubxona qanchalik yirik bo'lsa, bunday to'liq avtomatlashtirilgan xizmatlar shunchalik muhim bo'lishi mumkin. Shuning uchun, tanlayotgan ilmiy ma'lumotlar bazasida yaxshi, mustahkam tizimlar mavjud ekanligi, kerakli

1-jadval. Elektron resurslar ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lishda ilmiy bazalarni tanlash mezonlari

Siz elektron resurslar taqdim etuvchi ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lishda quyidagi mezonlarning qay biriga ko'proq e'tibor qaratasiz?		
№	Mezonlar	O'rtacha qiymat
1	Yangilanishlar chastotasi (davri)	2.4
2	Litsenziyalash shartnomalarining mavjudligi	2.5
3	Elektron resurslarni taqdim etuvchining obro'si	2.3
4	Foydalanuvchilar tomonidan erkin foydalana olish imkoniyati	2.5
5	Qulay qidiruv va interfeysning mavjudligi funksionalligi	2.5
6	Texnik yordam mavjudligi va sifati	2.4
7	Manbalarning qamrov sanalari	2.5
8	Obuna bo'lishning joriy qiymati (narxi)	2.6

avtomatlashtirish darajasini taqdim etishi lozim.

Respondentlardan elektron resurslar ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lishda foydalanadigan turli xil mezonlarni tanlash so'ralgan. O'zbekistondagi universitet kutubxonalarida elektron manbalarni to'g'ri tanlashda va obuna bo'lishda foydalaniladigan mezonlar bo'yicha ularga sakkizta variant berildi hamda natijalar 3 ballik reyting shkalasi bo'yicha aniqlandi. Aniqlanishicha, barcha respondentlar elektron resurslar ma'lumotlar bazalarini obuna uchun tanlashda bir nechta mezonlardan foydalanishgan. Quyidagi jadval (1-jadval) ularning javobini o'rtacha qiymatda ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, elektron resurslar ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lishda O'zbekistondagi universitet kutubxonalari tomonidan tanlov mezonlarining turlicha e'tiborga olinayotganini ko'rish mumkin. Respondentlarga

taqdim etilgan sakkizta mezon bo'yicha o'rtacha reyting baholari 2.3 dan 2.6 gacha bo'lgan bo'lib, bu mezonlarning barchasi muhim deb topilganini ko'rsatadi. 3 ballik reyting shkalasiga asoslanib olib borilgan baholashda, obuna bo'lish narxi (joriy qiymati) eng yuqori o'rtacha baho – 2.6 ball bilan birinchi o'rinda qayd etildi. Bu esa narx mezonining tanlovda asosiy omillardan biri ekanini anglatadi.

Shuningdek, elektron resurslarni taqdim etuvchi tashkilotning obro'si esa o'rtacha 2.3 ball bilan eng past bahoga ega bo'lgan. Bu holat, tanlov jarayonida yetkazib beruvchining obro'si ikkinchi darajali mezon sifatida qaralayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, kutubxonalar elektron ma'lumotlar bazalarini tanlashda bir nechta mezonlarga asoslanayotganlari kuzatildi va bu holat mazkur jarayonda kompleks yondashuv mavjudligini anglatadi. O'tkazilgan so'rov natijalari va tahlillardan kelib



1-rasm. Ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lishda tanlov mezonlari.

chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarida elektron axborot resurslarini tanlash va ularga obuna bo'lish jarayonini tizimli va samarali tarzda yo'lga qo'yish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Ushbu tavsiyalar kutubxona faoliyatining ilmiy, axborot va texnologik jihatdan yanada rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini to'liq va sifatli qondirishga xizmat qiladi.

- O'zbekiston universitet kutubxonalarining elektron fondni rivojlantirish bilan shug'ullanadigan xodimlarni o'qitish uchun tashkilot byudjetidan universitet kutubxonalari uchun moliyaviy mablag'lar ajratilishi;

- O'zbekiston kutubxonalari o'rtasida konsortium tashkil qilinishi va bu konsortium tomonidan taqdim etiladigan chegirmalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- Kutubxonalar o'z xodimlarini texnik ko'nikmalar va dasturiy ta'minot bo'yicha o'qitishi va qayta tayyorlashi. Bu elektron resurslar bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday texnik muammolarni hal qilish uchun zarur.

Raqamli ta'lim sharoitida akademik kutubxonalarning elektron resurslar fondini shakllantirishi ta'lim sifatini va ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, resurslarni tanlashda obuna narxi (2.6) eng ustuvor mezon bo'lsa, taqdim etuvchining obro'si (2.3) eng kam e'tiborga olingan, shu bilan birga texnik qo'llab-quvvatlash, qulay interfeys va litsenziya shartlari ham hal qiluvchi omillardir. Konsortium orqali xarid qilish va obuna usullari byudjetni optimallashtirish, resurslarning diversifikatsiyasini ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekiston universitet kutubxonalari uchun elektron fondni rivojlantirishda maxsus byudjet ajratish, xodimlarni zamonaviy texnologiyalar bo'yicha qayta tayyorlash, jarayonlarni avtomatlashtirish hamda tanlovda narx, sifat va texnik jihatlarni muvozanatlash tavsiya etiladi. Strategik jihatdan resurslarni boshqarish kutubxonalarning raqamli transformatsiyasini, ta'lim va tadqiqotlarning global talablarga moslashuvchanligini ta'minlashning asosiy yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Benny L. Selection and acquisition of e-resources in academic libraries: Challenges. *International Journal of Digital Library Services*, 5(2), 2015. – pp. 124-137.
2. Cabonero D.A., Mayrena, L.B. The development of a collection development policy. *Library Philosophy and Practice (e-journal)*, 2012. – p. 804.
3. Creibaum L., Hollway S. Introduction to electronic resources acquisition. *Proceedings of the Charleston Library Conference*, 2017. <https://dx.doi.org/10.5703/1288284316672>
4. Davis T.L. The evolution of selection activities for electronic resources. *Library Trends*, 45(3), 1997. – pp. 391-403.
5. Ganiyeva B., & Ziyodullayeva G. Kolleksiylarni yaratish [Matn]: O'quv qo'llanma. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU. – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2024. – 282 b.
6. Ifeoma F. Selection and Acquisition of electronic Resources in University Libraries in South East Nigeria: Challenges. *Library Philosophy and Practice (e-journal)*, 2018. <https://digitalcommons.unl.edu/libphilprac/183>
7. Jahon axborot resurslari. Darslik. – Toshkent: Nihol print, 2021. – 199 b.
8. Nwosu C.C., Udo-Anyanwu A.J. Collection development in academic libraries in Imo State Nigeria: Status analysis and way forward. *International Journal of Advanced Library and Information Science*, 3(1), 2015. – pp.126-135. <http://scientific.cloudjournals.com/index.php/IJALIS/article/view/Sci-301>
9. Satapathy S.K. Collection Management in Digital Environment. In K.C. Das (Ed.), *Application of Information Technology in Libraries*. – SSDN Publishers & Distributors, 2012. – pp. 57-62.
10. Turner Rollo. Criteria for selecting a subscription agent. *Serials*, Vol. 14, No. 1, March 2001. – pp. 63-67.

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi



Nashrga tayyorlovchi:

Laziza Axmataliyeva

Sahifalovchi-dizayner:

Abdug'ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 10.10.2025-yil

Ofset bosma usulda bosildi.

“Arial” garniturası. Bichimi 60×841/8.

Shartli bosma tabog'i 12,25.

Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13